

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
**FARG’ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**AXMADIYEV NURIDDIN MUXUTDINOVICH**

# **TARBIYA**

**(oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik)**

**Farg‘ona – 2023**

*UDK:*

*Mas‘ul muharrir:*

*M.Mamatov – falsafa fanlari doktori, professor*

*Taqrizchilar:*

*A.Qambarov – falsafa fanlari doktori, professor*

*N.Hakimov – falsafa fanlari doktori, professor*

## **Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich**

**Tarbiya.** Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Farg’ona.: 2023 y. 320 bet.

Mazkur darslik bakalavriatning ta’lim sohasi talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda tarbiyaviy ishlar metodikasining maqsad va vazifalari, o‘quvchining o‘z-o‘zini boshqarish va shaxsni rivojlantirish jarayonida tarbiya berish, tarbiyaviy ishlarni boshqarish va rejalashtirish, tahlil etish, tarbiyaning mazmuni, metodi va vositalari, oila va mакtabning o‘zaro hamkorligi, oilaning bola tarbiyasidagi o‘rni, tarbiya jarayonining pedagoglar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, ta’lim muasassasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish kabi masalalar va yoshlarda tashabbuskorlik, faoliik fazilatlarini shakllantirish usullari ochib berilgan. Shuningdek, tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarining vazifalari, murabbiylar va ota-onalar bilan ishlash, oila, mahalla va jamoatchilik hamkorligidagi tarbiyaviy ishlar mazmuni yoritilgan. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi, ularning bo‘sh vaqtlarini sermazmun tashkil etish – davlatning ustuvor masalalaridan biri hisoblanib, ushbu o‘quv darslik tarbiya fani doirasiga qamrab olinadigan zarur mavzularni yoritishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 4-martdagi “55”-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat berilgan.

**№ 399 100**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	4
<b>1-MAVZU. TARBIYA INSONNI KOMILLIKKHA ELTUVCHI ILM SIFATIDA .....</b>	6
<b>2-MAVZU. O‘Z-O‘ZINI ANGLAMOQ SIRI .....</b>	29
<b>3-MAVZU. VATAN SAJDAGOH KABI MUQADDAS. OLTIN BESHIK.....</b>	47
<b>4-MAVZU. OILA TARBIYASI .....</b>	69
<b>5-MAVZU. OILAQRISH ODOBI .....</b>	118
<b>6-MAVZU. NAFS TARBIYASI .....</b>	144
<b>7-MAVZU. ODAMIYLIK SABOQLARI .....</b>	162
<b>8-MAVZU. INSON MOHIYATI .....</b>	202
<b>9-MAVZU. OLAM ICHRA OLAM .....</b>	233
<b>10-MAVZU. ASLIYATGA QAYTISH. UMR – ULUG’ SINOV, IMKONIYAT .....</b>	268
<b>TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOL.....</b>	304
<b>GLOSSARIY .....</b>	311
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	316

## KIRISH

Ma'lumki, barcha davlatlarda jamiyat taraqqiyoti, rivojlanishning mohiyati, uning sur'ati insonlarning odobi, tarbiyasi, xulqi va ma'naviy kamolot darajasiga bog'liq, deb hisoblanadi. Qayerda ma'naviy-ma'rifiy, tarbiya fazilati yuksak bo'lib, ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlar oqilona yo'lga qo'yilgan bo'lsa, u yerda jamiyatning ijtimoiy adolat me'zonlari tez rivojlanganligi tarixdan ma'lum. Biz barpo etayotgan Yangi O'zbekistonda demokratik-huquqiy jamiyatning uch muhim – iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy omillari ustuvorlik kasb etadi. Ushbu omillar qancha mustahkam va baquvvat bo'lsa, kelajagimiz ravnaqi shuncha baquvvat bo'lib, jamiyat tez rivojlanadi.

Tarbiyaviy ishlar, yuksak odob-axloq me'yordi kecha va bugun o'ylab topilgan narsa emas. Ular insoniyatning ming yillik tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lib, otabobolarimizning tajribasiga suyangan holda kelajagimiz bo'lgan yoshlarga ma'naviy-axloqiy meros sifatida o'rgatilib kelinadi. "Tarbiya shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi – odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rindi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak, deb o'ylaydilar: lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilishadi". "Tarbiyachi tashkil qila bilishi, quvnoq, jahldor bo'la olishi lozim. Tarbiyachi o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin. U ayni vaqtda meni nima istashimni va nimani istamasligimni har doim bilishi kerak. Agar tarbiyachi buni bilmasa, u kimni tarbiyalashi mumkin?" (A.S.Makarenko). "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo halokat; yo saodat, yo falokat masalasidir" (A.Avloniy).

Yuqoridaagi buyuk pedagoglarning fikri shuni anglatadiki, tarbiyani yo'lga qo'yish eng zaruriy ehtiyojdir. Shunday ekan, yurtimiz taraqqiyotini rivojlantirish yo'lida chuqur islohatlar olib borilayotgan bir paytda, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, zamonaviy

texnologiyani mukammal o'zlashtirgan, xalq manfaati yo'lida bor kuch va salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli va iqtidorli yoshlarni va kasb egalarni tarbiyalash, ularning har sohada intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, huquqiy poydevor yaratish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda. Ushbu «Tarbiya» nomli darslik ta'lim-tarbiya maskanlarida olib boriladigan tarbiyaviy ish usullari va insoniy munosabatlar haqida so'z yuritadi va insoniyatning nazariy qonun-qoidalalariga asoslanadi. Shu sababdan yuqoridagi nazariy qoidalarga suyanib, mazkur materiallarni o'rganish va kelajak avlodga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur darslikda talabalarni amaliy-tarbiyaviy ishlarga jalg etish, ta'lim maskanlarida ishlaydigan mutaxassislarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yaxshilash kabi bugungi kunning zarur masalalari yoritilgan. Darslikda tarbiyaviy ishlarga doir muhim bilim, ko'nikma va malakalar kiritilgan, chunki xilma-xil va takrorlanmas ijtimoiy sharoitlarda, tarbiyaviy voqelikda bo'ladigan barcha aniq usullar va vositalarni hamma vaqt qamrab olib bo'lmaydi va bunday qilish maqsadga muvofiq ham emas. Tarbiya fanini o'rganish orqali yoshlarni tarbiyalashning umumiyligi masalalarini o'zlari mustaqil, ijodiy hal qilishga o'rgatilsa va talabalarning ish faoliyati darajasidagi amaliyoti bilan chambarchas bog'langan bo'lsa, ularni kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashga undasa, ijobiy natija beradi. Natijada mazkur darslikni o'rganish orqali talabalarni tarbiyalashga: pedagogik muomala, nutq madaniyati, pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatish, tarbiyachining psixik holatini mustaqil tartibga solib turish, pedagogik ta'sir ko'rsatish, oila muhitining faoliyatini rivojlantirish, yoshlarning mustaqil tarbiyaviy faoliyatini faollashtirish, o'quvchilarni mehnatda tarbiyalash, kasbga yo'naltirish, sinfdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy-tadbirlarda, oila va mahallaning tarbiyaviy kuch-g'ayratini birlashtirishga, umumta'lim maktablari, kasb-hunar, akademik litseylar sharoitida esa talabalarga kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashda yordam berish kabi maqsadlarga erishiladi. Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda ta'lim-tarbiya muassasalarida o'ziga xos kasb sohasidagi tarbiyachi-o'qituvchilar, milliy istiqlol g'oyasi bilan qurollangan bo'lib, uni har bir fuqaro ongiga yetkazish malakalariga ega bo'lishlari lozim. Shundagina tarbiyachi tarbiya bera oladi. Bu borada darslikning barchaga ijodiy madadkor bo'la oladi, degan umiddamiz.

# **1-MAVZU: TARBIYA INSONNI KOMILLIKKA ELTUVCHI ILM SIFATIDA**

**(2 soat)**

## **Reja:**

1. Tarbiya tushunchasi. Tarbiyaning shakllari.
2. Muqaddas diniy kitoblar – “Avesto”, “Injil” va “Qur’on”da odob-axloq va tarbiya masalalari.
3. Qadimgi afsona va asotirlarning tarbiyaviy ahamiyati.
4. Qadimgi Sharqda tarbiyaga oid yozilgan kitoblar. Ushbu sohada faoliyat yuritgan olimlar faoliyati haqida.

1. **Tarbiya** – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minalash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig’indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minalaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minalaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodaga o‘tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "tarbiya" atamasi keng va tor ma’nolarda ishlataladi. Keng ma’noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minalashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig’indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g’oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, televide niye va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi. Tor ma’noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviy axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta’lim va ma’lumot olish tor ma’nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas

bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki axloqiy-ma’naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzlucksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan. Sho‘ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo‘ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi, degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o‘zbek xalq pedagogik tajribasi tarbiyaning sinfiy ko‘rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiqi tufayli tarbiyada ijtimoiy muassasalarining o‘rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli hisobga olinmadi.

Sho‘rolar pedagogikasida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin, degan qarash hukmron bo‘lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo‘lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo‘lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo‘nalishga solinishi mumkin bo‘lgan qiyofasiz to‘da, olomon tarzida qarash qaror topdi. Bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy ob’yekti

bo‘lmish shaxs va uning o‘ziga xos jihatlari unutilgan edi. Sho‘ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog‘liq jarayonlarga yangi hamda sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g‘ayriilmiy, sinfiy, partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e’tibor qaratildi. Buning uchun xalq pedagogigasi boyliklari, o‘zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o‘rganilayotir. Natijada, O‘zbekiston pedagogika fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o‘ziga xos o‘rni borligi tan olina boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo‘ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o‘rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to‘g‘ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to‘g‘ri tayin etish imkonini berdi.

Tarbiyaning shakllari. Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma’naviy ta’sir ko‘rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma’qullah yoki qoralash) bilan belgilanadi. Axloqni etika fani o‘rganadi.

Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o‘rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman, ma’naviy va ma’rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o‘tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o‘zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o‘zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqslsizlik o‘rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o‘zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so‘nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o‘ziga xos axloqi bilan

bir qatorda, umumbashariy axloq me'yorlari ham bor. Bunday axloq me'yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

2. Axloq va din. Axloqning shakllanishida va uning ijtimoiy o'rnida dinning ahamiyati katta. Dinning asosiy maqsadlaridan biri, insonga yomonlikning zararlarini bayon qilish hamda yomon yo'lga kirib ketganlarni to'g'ri yo'lga da'vat etishdir. Dinlarda to'g'ri yo'lga chorlash, umuman yaxshilik va yomonlik tushunchasi turlicha bo'lishi, hatto bir-biriga zid kelishi mumkin.

Qadimdan axloq va din masalasi o'zaro uyg'un bo'lib kelgan. Buni «Avesto» kitobi ham to'la bayon etadi. Zero, qadimgi Turonzamin va Eronzamindagi axloqiy tafakkur taraqqiyoti zardushtiylik dinining vujudga kelishi bilan bog'liq. Taxminan bundan 40-30 asr muqaddam yoyila boshlagan bu dinning Qadimgi Xorazmda yaratilgan «Avesto» deb atalgan muqaddas kitobida asosiy axloqiy fazilatlar va illatlar sanab o'tiladi, talqin etiladi. Unda zardushtiylik ilohi Ahura-Mazda — ezgulik, Ahriman esa yovuzlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi; ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat, hayot va mamot o'rtasidagi abadiy kurashning ibtidosi aks etadi. «Abadiy ezgulik», «Ezgu niyat», «Ezgu tartib», «Illohiy tobelik» kabi ezgu tushunchalar real ma'no kasb qilib, insoniylashgan qiyofadagi ma'budlar siymosida namoyon bo'ladi, ular Ahura-Mazda atrofida yaxshilik urug'ini sepib yuradi. Bunday tushunchalarning aksi esa Ahriman atrofidagi yovuz kuchlarda reallashadi. Yovuz fikr tajassumi Apa Mana, so'lish va o'lim timsoli Tuarvi hamda Zarik ismli devlar shular jumlasidandir. Zardushtiylik dinini ma'lum ma'noda axloqiy e'tiqod, uning muqaddas kitobi «Avesto»ni qadimgi ajdodlarimiz amal qilgan axloqiy tamoyillar va ko'rsatmalar majmui, deyish mumkin. Buni ushbu din payg'omchisi Zardushtning «Avesto» dan joy olgan quyidagi so'zlarida yaqqol ko'rish mumkin:

“Quvonsin Ahura-Mazda – eng loyiq Haqning irodasi ro'yobga chiqib, Ahriman daf bo'lsin. Ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu ishlarni alqayman. O'zimni butkul ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu amallarga baxshida etaman, barcha qabih o'y, yomon so'z va yomon ishlardan tiyaman”. “Yaqin-uzoqdan kelgan musofirlarga boshpana berganingda, mehnat qildirganingda, xayr-sadaqa ulashganingda, ularni kamsitgansan, yaxshi odamlarni haqorat qilgansan, ularning yuziga eshicingni yopib qo'ygansan. Men – sen

o‘ylagan yomon o‘y, sen aytgan yomon so‘z, sen qilgan yomon a‘mollaringman. Nomussiz edim, sen tufayli battar orimni yo‘qotdim, jirkanch edim, yanada jirkanchli bo‘ldim, sharmanda edim, battarroq sharmisor bo‘dim...». Bu yerda ruh va vujud muammosi ifoda topganini ilg‘ab olish qiyin emas. Zero, «Avesto»da jon-ruh tushunchasi o‘ta ilohiy lashtirilmaydi, ma’lum ma’noda «dunyoviy» lashtiriladi va o‘z egasi bilan muloqot qiluvchi vijdon sifatida namoyon bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, «Avesto»da inson oliv jonzot tarzida talqin etiladi.

Ayni paytda yer-u ko‘kdagi barcha ne’matlarni sevish, ardoqlash insonning muqaddas burchi hisoblanadi. Ozodalik, tozalik gigiyenik tushunchadan axloqiy va ilohiy tushuncha darajasiga ko‘tariladi: suvni, atrof-muhitni toza tutish, jonivorlarga, xususan, itga uchi o‘tkir suyak yoki qaynoq ovqat bermaslik – ularga nisbatan shafqatni anglatadi; inson shafqatli bo‘lishi kerak. Bularning hammasi «Avesto»da ekologik axloqshunoslikning dastlabki kurtaklari ham mavjudligini ko‘rsatadi. «Avesto»dagi turli-tuman ma‘budlar bizning tushunchamizdagi pir darajasidadir (masalan, temirchilikning piri — hazrati Dovud va h.k.). Iloh esa bitta — Ahura-Mazda, faqat ungagina sajda qilinadi. Demak, yakkaxudolikni, tavhidni targ‘ib etishda ham birinchilik «Avesto»ga mansub. «Avesto»dagi ba’zi bir urf-odatlar va irimlarning hozirgi kunda ham saqlanib qolganini ko‘rishimiz mumkin. Isiriq tutatish, qurbanlik uchun so‘yilgan jon kallasini davradagi o‘tog‘asilar oldiga qo‘yish odatlari hamda sevimli Navro‘z bayramimiz fikrlarimizga dalildir. Xullas, «Avesto» yuqorida aytganimizdek, ajdodlarimizning axloqiy estetik qomusi, qadimiylar urf-odatlarimizning o‘ziga xos, abadiyatga daxldor majmui sifatida qimmatlidir.

Xristianlik, yahudiylilik va boshqa dinlarda ham axloqqa birlamchi e’tibor qaratilgan. Ularda ham yaxshilik va yomonlikning o‘z ifodasi bor. Bilamizki, xristianlik, ya’ni nasroniylik yahudiylilik dinidan mustaqil din sifatida ajralib chiqqan va jahon dinlaridan biriga aylangan. Xristianlik nomi, uning asoschisi Iysu Masih, yunoncha Iisus Xristos nomidan olingan. Uning aqidalari, diniy ta’limotlari Bibliya tarkibiga kiruvchi Injil – Yevangeliya (Xushhabar)da, ya’ni «Yangi ahd» qismida bayon etilgan. Masih, ya’ni Xristos so‘zining ma’nosi «Xudo tanlagan», «Xudo siylagan», «Xaloskor» ma’nolarini anglatadi. Xristian so‘zi yunoncha bo‘lib mazmuni “Iysu Masih

yo‘lidan yuruvchi kishi” demakdir. Mazkur dinining nomi ham ana shu – xristian, masihchi so‘zidan olingan.

Iso alayhissalom yahudiy millatiga mansub bo‘lib, taxminan milodiy 1-33 yillarda Falastinda, hozirgi Isroilda yashab o‘tgan. Milodiy yil hisobini ham Iso Masih tug‘ilgan sanadan boshlab hisoblash qabul qilingan. Diniy adabiyotlarda Iso onasi Bibi Maryamdan otasiz ilohiy xomiladorlik asosida tug‘ilgan, deb rivoyat qilinadi. Unga o‘ttiz yoshida Tavrot va Zaburdan keyingi uchinchi ilohiy kitob – Injil nozil qilingan. «Injid» yunoncha «Evangeleon» so‘zidan iborat bo‘lib, nasroniylikda «Evangelie» deb yuritiladi. Ma’nosi «ilohiy xabar», «xushxabar», «ezgu xabar» demakdir. Bu dinni Islomda nasroniylik deyilishi Iso Masihning tug‘ilgan yeri Nosira nomi bilan bog‘liq. Bu shahar ahli Iso Masihni Nosiriy deb atar edilar. Unga ergashgan kishini esa, nasroniy deb yuritganlar. Iso Masih 30 yoshidan boshlab 3 yil davomida payg‘ambarlik faoliyatini olib borgan. Isoning yangi dinni targ‘ib qilishdagi muvaffaqiyatlaridan darg‘azab bo‘lgan Quddus kohinlari va ruhoniylari uni sudga berishga qaror qiladilar. Ushlab olingan Iso o‘lim jazosiga hukm etiladi. Quddus ahli Isoni xudoning o‘g‘li va odamzotning xaloskori deb e’tirof etmay, uni toshbo‘ron qiladilar. Iso Galgofa tog‘ida qiy nab o‘ldiriladi. Uni juda katta yog‘och xoch (sanam)ga tiriklayin mixlab tashlaydilar. Rivoyat qilinishicha, o‘limining uchinchi kuni Iso tirilib, birmuncha vaqt davomida o‘z shogirdlari bilan birga bo‘ladi. Shundan so‘ng u ularning ko‘z o‘ngida osmonga chiqib ketadi. U kelajakda ya’ni oxirat kuni tiriklar va o‘liklar ustidan hukm chiqarish uchun yerga qaytib kelishiga xristian diniga e’tiqod qiluvchilar ishonadilar.

Umuman olganda, xristianlik dini o‘z payg‘ambari mezon qilib belgilab ketgan ezgu tamoyillar, xususan, axloqiylik tamoyilini eng qat’iy masala sifatida qabul qilgan. Mazkur din ham axloqni targ‘ib qilishda yetakchi sanaladi.

Axloq va din masalasida eng go‘zal uyg‘unlikni muqaddas Islom dini orqali ko‘ramiz. Avvalo, aytish kerakki, Islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi ulkan ijobiy hodisa bo‘ldi. Chunki musulmonchilikning muqaddas e’tiqodiy kitobi «Qur’on» avvalgi muqaddas kitoblarga nisbatan – mukammal va nisbatan «zaminiy» edi. Islom yahudiychilik va nasroniylikdan o‘zining, ta’bir joiz bo‘lsa, demokratik jihatlari bilan ajralib turadi: har bir musulmon «Qur’on»ni tan olishi barobarida Alloh nozil qilgan

yana uch kitobni (Tavrot, Zabur va Injilni) inkor etishi mumkin emas. Shunday qilib, «Qur'on» insoniy muammolarni hal etishda miqyosiylik tabiatiga ega edi. Qur'oni karim – Qur'on uch ildizdan bahra olgan abadiy yashil daraxtga o'xshaydi. Uning birinchi ildizi – tavhid, ikkinchi ildizi – tarbiya, uchinchisi – ilm. Har bir muslim va muslima Allohning yakka-yagonaligiga, sherigi yo'qligiga shak keltirmasligi, yuksak tarbiya egasi bo'lishi va doimo, umr bo'yi ilm olishga intilishi kerak. Demak, har bir musulmon uchun e'tiqod, axloqiy-tafakkur hamma narsadan ustuvor ma'naviy hodisalardir. Shu sababli Qur'oni karimda tavhidga da'vat qatorida «tarbiya» va «ilm» so'zлari eng ko'p qayd etilgan ilohiy kalomlardir. Qur'oni karimdagи bosh g'oya Alloh o'z bandalarining komillikka erishuvi bilan bog'liq. Zotan, Alloh insonni komil bo'la olish imkoniyatlari bilan birga yaratgan. Bu imkoniyatlardan biri tavhiddir. Zero, Xudodan boshqa hech kimni Xudo darajasiga ko'tarmaslik, undan boshqa hech kimga sajda qilmaslik kabi tavhidiy tamoyillar, Alloh ato etgan erkinlikni yo'qotmasligi uchun insonga berilgan eng ulug' imkoniyatdir. Insonning o'z qavmdoshidan «dohiy» – ulug' rahbar yasashi, unga cheksiz e'tiqod qo'yishi, Xudodan emas, undan qo'rqliishi, Xudoning emas, uning nomini tinimsiz zikr etishi, unga sig'inishi, hammasi erkinlikdan qochishdir. Jamiyat a'zolarining erkinlikdan qochishi, o'z taqdiri uchun mas'ullikni rahbarga – «dohiy»ga yuklab qo'yishi doimo jamiyat uchun qimmatga tushadi: jamiyat a'zolari mavhum «xalq» tushunchasiga aylanadi, ular shaxs bo'lish huquqidан mahrum bo'lib qoladilar. Faqat birgina shaxs – rahbar shaxsi, «dohiy» shaxsi tan olinadi va u shaxsga sig'inish ro'y beradi. Yakka shaxs hokimligi hukm surgan jamiyatda inson o'z huquqlari bilan birgalikda insoniyligini ham yo'qotadi. Lenin, Stalin, Gitler, Pol Pot va boshqalar shaxsiga sig'inish davridagi xalqlarning ahvoli buning misolidir. Tavhiddan chekinish ana shunday fojialarga olib keladi. Shu sababli qayta-qayta Qur'oni karimda, barcha maqtovlar, hamdu sanolar yolg'iz Allohgadir, deyiladi. Demak, tawhid mustahkam joyda shaxsga sig'inishga o'rin yo'q. Shunday qilib, tawhid – yuksak axloqiy va ta'lim-tarbiyaviy mazmunga ega: inson erkinining, jamiyatdagi teng huquqlilikning va odamga ato etilgan ixtiyor erkinligining muhofazasi aynan tarbiya bilan bog'liq.

Insoniy komillikning yana bir belgisi uning ilm egasi bo‘lish imkonidan foydalanishidir. Qur’oni karimning «Mujodala» surasi, 11-oyati karimasida shunday marhamat qilinadi: «Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja-martabalarga ko‘tarur». Bunga odam Atoning xalifa qilib tayinlanishidagi holat yaqqol misol bo‘ladi. Odam – farishtalar bilmagan narsalarni bilguvchi, Allohnинг ta’limini olgan zot sifatida ulardan yuksak maqomga noil etildi; Allah bilguvchidir, demak, bandasi bilishga intilmog‘i lozim. Bilish har ikki dunyoni obod qiluvchi xosiyatli amaldir. Bilish uchun esa inson tafakkur qilmog‘i, mustaqil fikr yuritmog‘i lozim. Chunki tafakkur qilmasdan turib, Qur’oni karim oyatlari mag‘zini ham, haqiqiy insoniy hayot nima ekanini ham bilish qiyin. Zero, Qur’on suralarini faqat, ko‘r-ko‘rona yod olish musulmonchilik belgisi emas. Shu bois birgina «Baqara» surasining o‘zidayoq ikki o‘rinda tafakkur haqida oyatlar marhamat qilinadi: «... Shunday qilib, dunyo va oxirat haqidagi tafakkur qilishingiz uchun Olloh sizlarga o‘z oyatlarini bayon etadi... (219 - 220)». Undan keyin 242-oyatda: «Shunday qilib, aql yurgazishingiz uchun Olloh sizlarga o‘z oyatlarini bayon qiladi», - deyiladi. Eng muhimi, ilm, tafakkur qilish xosiyati insonning tarbiyaviy jonzot sifatidagi maqomini belgilaydi. Inson ilm orqali o‘zi va o‘zgalar uchun nima yaxshi-yu, nima yomon, nima foydali-yu, nima zararli ekanini aniqlay oladi. Buni bilmasdan turib, odam bolasining hech qachon komillikka erishishi mumkin emas. Shunday qilib, ilm, tafakkur, bevosita bo‘lmasa-da, bilvosita axloqiylikni taqozo qiladi. Umuman olganda, komillik imkoniyatlarining barchasi insonda go‘zal tarbiya vositasida namoyon bo‘ladi. Zero, islam dinining asosiy mazmun mohiyati go‘zal tarbiyadan iboratdir. «Niso» surasining 149-oyati karimasida shunday marhamat qilinadi: «(Ey mo‘minlar), xoh oshkora, xoh yashirinchcha biron yaxshilik qilsangiz yoki biron yomonlikni avf qilib yuborsangiz (Allah suygan bandalardan bo‘lursiz)». Shu o‘rinda Imom G‘azzoliy keltirgan bir hadisni eslatib o‘tish joiz: «Bir payg‘ambarimizga old tarafdan bir odam keldi. «Ey Allohnning Rasuli, din nima?» deb so‘radi. Rasululloh: «GO‘ZAL AXLOQ!» deb javob berdilar. So‘ngra o‘ng tarafiga o‘tib so‘radi: «Ey Ollohnning Rasuli, din nima?» Rasululloh: «GO‘ZAL AXLOQ!» deb javob berdilar. U odam Rasulullohning so‘l tarafiga o‘tib, yana: «Ey Allohnning Rasuli, din nima?» dedi. Rasululloh: «G‘azablanmaslik! Tushundingmi?» deb buyurdilar».

Shunday qilib, ta’bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki, islom dini - yuksak tarbiyaviy axloq egalarining dini, Qur’oni karim - eng ulug‘ Tarbiya kitobi sifatida inson zotiga Yorug’ yo‘lni ko‘rsatib turuvchi muqaddas ma’naviy mayoqdir. Islomda, uning muqaddas kitobi Qur’oni Karimda axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Qur’oni Karim bajarishga buyurgan yaxshi xulqlarga insonlar amal qilishsa, o‘zлari uchun katta baxtga sazovor bo‘ladilar. Qur’oni Karimda to‘g‘ri yo‘lga yurishlik istiqomat (o‘zini o‘zi isloh qilish) tushunchasida ifodalangan. Qur’onda istiqomatda bo‘lganlarga, ya’ni o‘z-o‘zini isloh qilganlarga katta va’dalar berilgan: „Kim bunday jabru zulmidan keyin tavba qilib, o‘zini tuzatsa, albatta, Alloh uning tavbasini qabul qilar“ („Moida“ surasi, 39-oyat). Istiqomat gunoh ishlarni qilib qo‘yanlar uchun qalbini poklash sari umid tug‘diradi va ularni noumidlikdan qutqarib yangi saodatli hayotga chorlaydi. Islomda olivjanob axloqning eng muhim tushunchalari ta’riflanib, insoniyatni ularga amal qilish sari undaladi. Bular – ehson (yaxshilik qilish), kechirimli bo‘lish, sabr-qanoat, rostgo‘ylik, shirinso‘zlik, ota-onani, o‘zidan katta yoshlilarni hurmat qilish, or-nomus, sadoqat va boshqalardir. Ayni vaqtida yomon xulq-atvor tushunchalarining mohiyati ham ko‘rsatilib, ulardan saqlanishga undaladi. Bular – baxillik, hasad, tama, yolgonchilik, takabburlik (kibru havo), g‘iybat, zinodir. Shu tarzda insoniyatning butun amaliy faoliyati yaxshilik va yomonlikka ajratiladi. Musulmonlar bir-birlarini yaxshilik va olivjanob axloqqa chaqirishlari, nojo‘ya ishlardan qaytarishlari Alloh tarafidan farz qilingan. Islom axloqining asosida halollik va taqvo yotadi. Kimki jismoniy va ma’naviy pok, taqvodor bo‘lsa, unday kimsa axloqsizlik yo‘liga kirmaydi. Islomga amal qiladigan xalqlar axloqi, ba’zi bir jihatlari bilan farqlansada, shu din tufayli umumiylilik bor. Bu umumiylilik Sharq axloqi degan nom bilan birlashgan. Sharq axloqi Qur’on va hadisdan tashqari juda ko‘plab mutafakkirlar, faylasuf, shoirlar asarlarida ta’rifu-tashviq etilgan. “Qobusnama”, “Axloqi Jaloliy” kabi maxsus kitoblar yozilgan.

3. Afsonalar dunyodagi deyarli hamma xalqlar og’zaki ijodining eng qadimgi, aziz va ommaviy janrlaridandir. Ularda tarixiy hayotda ro‘y bermagan bolsa-da, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqealar hikoya qilinadi. Badiiy to‘qima bu jahr asarlarining asosiy xususijati hisoblanadi. Shuning uchun olimlar afsonalarning ayrimlarni ertaklarga tenglashtirganlar. Ayrim afsonalar esa miflarga o‘xshab ketadi. Bunday namunalarda

biror narsa-predmetning paydo bo‘lishi, rasm-rusum yoki odatlarning boshlanishi haqida ma’lumot beriladi. Ammo miflar mazmunan afsonalardan farq qiladi. Jumladan, avval qayd qilganimzdek, miflarda asosan dunyoning, odamning, butun koinot va borliqning yaratilishi haqida soda tarzda hikoya qilinadi. Shuning uchun ham afsonalar miflardan keyin, ertaklardan oldin paydo bo‘lqan degan taxminni bildirish mumkin.

Afsona forcha (afsona) so‘zidan olingan bo‘lib yo‘q narsani borday qilib ko‘rsatish, ya’ni jodulash, to‘qish, uydirma qilish ma’nosini anglatadi. Ba’zan tomoshalarda ko‘z boyllagichlarni afsungar deb atashadi. Yoki haqiqatga to‘g’ri kelmaydigan gap eshitib qolsak ham afsona bo‘lsa kerak, deb o‘ylaymiz.

Afsonalar ijro etilishi jihatidan ertak, doston, qo‘sish, askiya kabi alohida tayyorgarlik ko‘rishni talab qilmaydi. Shuning uchun bu namunalarda matnga xos maxsus an’ana ko‘zga tashlanmaydi. Ularda sehrli voqeа-hodisalar shunaqa tasvirlanadiki, odam tinglayotganini o‘zi ham bilmay qoladi. Ma’lumki, qadim zamonlardan ajdodlarimiz diniy e’tiqodlarga berilib kelganlar. Shuning uchun afsonalarning ko‘pchiligi payg’ambarlar, avliyolar hayotidan olingan voqealarni eslatadi: “Kunlardan bir kun Muso payg’ambar Xudo oldiga ketayotgan ekan, erta bahor bo‘lishiga qaramay, don ekayotgan dehqonni ko‘rib qolibdi. Muso unga hali don ekishga erta ekanini aytibdi. Dehqon tajribasiga ishonib, uning gapini rad qilibdi. Xudo bilan suhbatda Muso bu munozara yechimini endi so‘raganida, Xudo dehqonning haq ekanini, ammo Muso gapini endi inobatga olish kerakligini bildiribdi. Shunday qilib, Muso Xudo oldidan qaytayotganida, havosovugan, qor shamoli esayotganmish. Dehqon esa hayron bo‘lib, osmonga qararmish. Shunda Muso o‘zining haq ekanini dehqonga eslatibdi. Dehqon istehzo bilan kulib, “don ekish vaqt kelishga-ku kelgan, havoning bu buzilishi mening sen bilan tortishganim oqibatidir” – deb javob beribdi. Shu-shu ekish paytida havo buzilsa, dehqonning payg’ambar gapiga ko‘nmaganini eslasharkan”. Yuqoridagi misoldan mazkur afsonani mazmunan saqlagan holda boshqacharoq aytish ham mumkinligi bilinib turibdi. Afsonalar mazmunan turlicha bo‘lishi mumkin. Ularni shartli ravishda asotiriy tushunchalar, koinot jismlari, o‘rin-joy nomlari, urf-odatlarni sharhlovchi afsonalarga ajratish mumkin. Asotiriy afsonalarda qadimda yashagan ajdodlarimiz o‘zlariga homiy deb hisoblangan shaxslarni

ulug’laganlar. Diniy e’tiqod masalalarini yoritganlar. Masalan, xalqimiz har bir insonning taqdiri Tangri tomonidan belgilangan bo‘ladi, ammo inson xatti-harakati, niyati bilan o‘z qismatini o‘zgaritishi mumkin, degan tushuncha bor. Shu fikrni dalillash uchun shunday afsona keltiriladi:

“Muso kunlardan bir kun tangri oldiga ketayotganida, yo‘lda oyoq-qo‘li yo‘q majruh bir odamni ko‘ribdi. Odam undan o‘zining taqdiriga jannat yoki do‘zax yozilganini bilib berishni so‘rabdi. Tangri payg’ambarga: “U odamning oxirgi joyi do‘zah bo‘ladi. Chunki umr bo‘yi uni yemak-ichm akka muhtoj qilmadim, ammo biron marta “Xudoga shukr” demadi”, - debdi. Muso payg’ambar qaytishida haligi odam undan javob kutibdi. Payg’ambar bor gapni aytibdi. Shunda odam: “Bo‘lmasa Xudoga Ayt, men o‘lganimda tanamni shunaqa katta qilib yuborsinki, boshqa hech kimga do‘zaxdan joy qolmasin”, - debdi. Ana shu gapdan keyin bechora banda jannati bo‘lgan ekan”.

Xalqimiz orasida “shirin qiz”, yulduzlar oy bilan quyoshning bolalari ekanligi haqidagi afsonalar ko‘p. “Qonqus”, “Kulgan yor” “Oshoba”, “Andijon”, “Tuya cho‘kdi” kabi yuzlab afsonalar borki, ulardan yozuvchilarimiz ham o‘z ijodlari davomida foydalandilar. Shu bilan birga ba’zan xalqimiz yashaydigan ayrim hududlardagi odatlarga izoh beruvchi afsonalarga ham duch kelamiz. Masalan, O‘zbekistonning turli viloyatlarida yashaydigan aholining bevosita hududiy xususiyatlari borligi hammaga ma’lum. Xususan, Farg’ona viloyatida istiqomat qiluvchi yurtdoshlarimiz umuman mexmondo‘stliklaridan tashqari sertakalluf ekanliklari bilan nom chiqarganlar. Ular o‘z mehmonlarini ko‘nglini olish uchun “oling-oling”ni juda ko‘p va tez-tez takrorlaydilar. Ammo xorazmliklar mexmondo‘stlikda farg’onaliklardan qolishmasalar-da, ortiqcha “oling-oling” bilan mehmonga murojaat ham qilavermaydilar. Hayot haqiqatiga qanchalar mos kelishi yuzasidan aniq hukm chiqarish mushkul. Afsonalarning qiziqligi, ularning inson diqqatini jalb qilish sabablari ham, ehtimol, shu xususiyat bilan izohlanadi. Bunday asarlarning matnida ertaklarga xos bayon usuli, voqeа tanlash tamoyillari ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Quyidagi afsonada bu fikr yana bir karra o‘z tasdig’ini topadi:

“Xudo dunyodagi hamma xalqlarga yer yuzidagi yerlarni bo‘lib beribdi. O‘zi bilan o‘zi ovora o‘zbek o‘sha taqsimotga ham kechikib boribdi. Bu paytda o‘zbek olishni mumkin bo‘lgan yerning o‘zi qolmagan ekan. Xudo rahmdil emasmi?! Shuning uchun o‘zbekka: - Mayli, men o‘zimga ikki daryo oralig’idan bir parcha yer olib qo‘yan edim, shu joyga sen egalik qilaqol, - degan ekan. Shu-shu o‘zbek hozir O‘zbekiston deb ataluvchi yurtda istiqomat qilarmish... Bu o‘lkaga Xudoning nazari tushgani uchun kuzda dalada qolib ketgan ketmon bahorda novda chiqarib gullarmish”.

Ko‘ryapmizki, xalqimiz afsonalarni yaratishda juda ijodkor. U o‘z hayotiga tegishli har bir voqeal-hodisaga, an’anaga, joy nomlariga, hatto o‘zi yashayotgan vatanga mehr bilan munosabatda bo‘lgan va xalq og’zaki ijodining boshqa janrlari qatori afsonalar vositasida o‘z munosabatini bildirilgan. Afsonalar esa ajdodlarimiz tomonidan hayot tajribasi xulosasi sifatida yaratilgan.

Demak, afsonalar xalq og’zaki ijodining epik turidan biri ekan. Ularda tasvirlangan voqealar asosan ijodiy to‘qimalar zaminida yaratiladi. Bu janr namunalariga aytib beruvchi shaxs asar mazmunini saqlagan holda ma’lum o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Afsonalarda mazmun jihatidan xilma-xil voqealar hikoya qilinadi. Bu jihatdan ular asotiriy voqealarni, kosmogonik jismlarni, o‘rin-joy nomlarni, odatlarni izohlovchi turlarga bo‘linadi. Ular xalqimiz tarixini o‘rganishda turli urf-odatlar, rasm-rusumlar, an’analarni sharhlashda, joy nomlarini izohlashda muhim ahamiyatga ega. Rivoyatlar afsonalardan hayot haqiqatiga anchayin yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalar to‘laligicha ajdodlarimiz tomonidan o‘ylab topilgan to‘qima hikoyatlardan iborat bo‘lsa, rivoyatlar hayotda ro‘y bergen qandaydir tarixiy voqealarga asoslanadi. Ular mazmunan afsonalardan deyarli farq qilmaydi, ammo bu asarlar zaminida aniq tarixiy dalil ildizi mavjud bo‘ladi. Rivoyatlarning o‘ziga xosligini ana shu xususiyat bilan izohlash mumkin. Bu asarlar ko‘pincha sodir bolgan tarixiy voqealari ishtirokchisi tomonidan yozib qoldiriladi yoki aytib beriladi. Ajdoddan avlodga meros sifatida o‘tib, bizgacha yetib keladi. Shuning uchun rivoyatlar o‘tmish voqealari haqida bizga ma’lumot berishi bilan qiziqarlidir. Ularda tariximiz sahifalari, mashhur allomalar hayotidan lavhalar, mardlarning jasurligi, ayrim joy nomlarning paydo bo‘lishi o‘z askini topadi.

Rivoyatlar ham afsonalar kabi mazmunan ayrim turlarga bo‘linadi. Rivoyatlar mazmunini tarixiy shaxslar hayoti va o‘rin-joy nomlari bilan bog’liq asarlar tashkil etadi. Tarixiy rivoyatlarda xalqimiz ozodligi uchun jonini fido qilib kurashgan mardu maydon farzandlar jasorati yoki o‘zining manfaati yo‘lida butun yurtdoshlarni dushman qo‘liga tutib bergan xoinlarning xiyonati hikoya qilinadi. Bu bilan xalq mard jasorati ham, xoinning xiyonati ham unutilmasligini ta’kidlangandek bo‘ladi. Xususan, ularda To‘maris, Shiroq, Jaloliddin, Temur Malik, Amir Temur kabi haqiqiy insonlar hayoti aks ettirilgan. Bu shaxslar o‘z vatanlarini ichki va tashki dushmanlardan himoya qilishda biz uchun haqiqiy ibrat bo‘la oladilar. Agar bugungi kunda har bir yurtdoshimiz Vatanimizni ana shunday go‘zal insonlar kabi sevs, yurtimiz zavol ko‘rmaydi. Darvoqe, rivoyatlarni yaratishdan, avlodlarga meros qilib qoldirishdan nasarda tutilgan maqsad ham shunday niyat bilan belgilanadi. Ayni paytda, Dalvarzin, Guldursin haqidagi rivoyatlarda o‘tkinchi havas deb dushmanga o‘z shahrining darvozani ochib bergen razil shaxslar qilmishi fosh etadi. Maskur shaharlar, qal’alar vayronlari esa munofiq kimsalar qilmishlari asrlar o‘tsa-da, el yodidan o‘chmasligidan dalolat sifatida saqlanib qolgan. O‘zbek xalqi orasida Imom Buxoriy, Beruniy, Burhoniddin Marg’iloniy, Ibn Sino, Ulug’bek, Navoiy kabi buyuk allomalar haqida yaratilgan o‘nlab rivoyatlar hamon saqlanib kelmoqda. Mana ulardan bir misol:

“Ibn Sino har kuni betoblarni qabul qilar ekan. Ammo navbat bir yigitga yetib kelganida, uni chetlab o‘tar ekan. Kunlardan bir kun yigitning onasi u yotgan to‘shak yoniga bir kosa qatiq qo‘yib, o‘z yumushlari bilan band bo‘libdi. Yigit kosadigi qatiqqa tikilib yotsa, shipdan bir ilon tushib qatiqqa zaharini solibdi, jonidan to‘ygan yigit alam bilan kosadagi zaharlangan qatiqni jon jahdi bilan ichib yuboribdi. Soat o‘tgani sayin u sog’ayibdi. Bu safar ham tabib uni chetlab o‘tibdi. Ajablangan yigit unga e’tiroz bildiribdi. Shunda alloma: - Siz kecha va avvallari kelganingizda dardingizda davo yo‘q edi. Shuning uchun sizni ko‘rmagandim. Chunki men sizga qatiqni to‘shak yoniga qo‘yish, unga ilon zahar solishi, bu qatiqni siz ichishingiz kerakligini ayta olmas edimda. Ammo taqdir sizga bu imkoniyatni yetkazdi. Endi sizga tabibning keragi yo‘q. Siz mutlaqo sog’siz. Shuning uchun sizni chetlab o‘tdim, - debdi”. Mazkur rivoyatda Abu Ali ibn Sinoning naqadar mohir, zakiy va dono tabib ekanligi o‘z aksini topgan.

4. Muhammad al-Xorazmiy ilmiy bilimlarni o‘rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e’tiborni qaratdi. Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to‘plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushuntira olish malakalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobala» asarida olimlarni uch guruhga bo‘lib, shunday yozadi: «Ulardan biri o‘zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi va uni o‘zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi. Boshqasi o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo‘lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to‘playdigan odam bo‘lib, u o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi». Muhammad al-Xorazmiyning bu fikrlari bir tomondan, olimlar faoliyatining ezgulikka xizmat qilishini yoritsa; ikkinchi tomondan, o‘scha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o‘qitishning metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko‘rsatadi.

Farobiy taxminan 941-yillardan boshlab Damashqda yashaydi. Shahar chekkasidagi bog‘da qorovul bo‘lib ishlaydi va faqirona hayot kechirib, ilmiy ish bilan shug‘ullanadi. 943-967-yillari esa Halabda yashaydi. 949- 950-yillarda Misrda ham bo‘lgan. So‘ng yana Damashqga qaytib, shu yerda 950-yili vafot etgan. Damashqdagi «Bob as-sag‘ir» qabristoniga dafn qilingan.

Abu Nasr Forobiy ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan buyuk olim. U tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o‘zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Forobiy inson baxt- saodatga erishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo‘lishi kerak, deydi. Forobiy odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo‘ladi. Bunda u kishilarning diniy mashabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy hususiyatlari, qobiliyatları, iqtidori, bilim-ko‘nikmalariga e’tibor berish zarur, deydi. U o‘zining «Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola» asarida «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, - deb yozadi. - Bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritiladi».

Forobiy davlatni yetuk shaxs boshqarishi lozim, deydi; ya’ni jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo‘lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko‘ra olishi, boshqalarga g’amxo‘r bo‘lishi lozim, deydi. Forobiy ta’lim-tarbiyaga bag’ishlangan asarlarida ta’lim-tarbiyada nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to‘g’risida», «Ixso al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma’nolari to‘g’risida» kabi asarlarida allomaning ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari ifoda topgan.

Forobiy ta’lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda ilmning o‘z o‘rni borligini alohida ta’kidlaydi. Forobiy «Baxt-saodatga erishuv to‘g’risida» asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr yuritadi. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu - olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat, o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi. Forobiyning fikricha, inson kamolotga yolg’iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muxtoj boladi. Zero, tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhim. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarini o‘zicha bila olmaydi. Unga o‘qituvchi lozim. Forobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat, deb biladi. Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi ta’rif bergan olim sanaladi. Ta’lim - insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya - muayyan hunarni egallash uchun zarur bolgan axloq normalari va amaliy malakalar ni o‘rgatishdir, deydi olim. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lish muhimdir. Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay darajada pok bo‘lishi kerakligini «Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g’risida» risolasida shunday ta’riflaydi: «Falsafani o‘rganishdan avval o‘zingizni hirs-havaslardan shunday

tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto‘g‘ri tuyg‘ularga emas, balki kamolotga bo‘lgan hirs-havas qolsin. Bunga xulq-axloqni faqat so‘zdagina emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shunday so‘ng xato va adashishdan saqllovchi, haqiqat yo‘lini tushunib olishga boshlovchi (notiq- so‘zlovchi, fikrlash ma’nosida) nafsi, jonini, ruhini tozalash zarur». Forobiy axloqiy fazilatlar deganda, bilimdonllik, donolik va mulohazali bo‘lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko‘pchilik manfaatini yuqori qo‘yish, haqiqat, ma’naviy yuksaklikka intilish,adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muhim har bir insonning bilimli, ma’rifatli bo‘lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog‘liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi.

Forobiy «Muzika haqida katta kitob» asari bilan O‘rta asrning yirik musiqashunosи sifatida mashhur bo‘ldi. U muzika ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, muzikaga inson axloqini tarbiyalovchi, sihat-salomatligni mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning bu sohada qoldirgan merosi muzika madaniyati tarixida muhim ahamiyatga molikdir. Forobiy ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy-axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta’lim - tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odat ikki yo‘l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi - qanoatbaxsh, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malaka vujudga keltiriladi, odamdagи g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinci yo‘l (yoki usul) - majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki ular o‘z istaklaricha so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallahsga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad - ularni fazilat egasi qilib, san’at ahllariga aylantirishdir Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har

tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko‘zlaydi. Xulosa qilib aytganda, Forobiy pedagogik ta’limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o‘z mohiyati bilan ijtimoiy, ya’ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komilllikka erishadi, degan falsafiy qarashi turadi.

Beruniy – yirik olim. Beruniy fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklami qunt bilan o‘rganishga da’vat etadi. Olim ilm toliblariga qalbni yomon illatlardan, inson o‘zi sezishi mumkin bo‘lmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, behuda raqobatdan, ochko‘zlikdan, shon-shuhratdan saqlanish zarurligini uqtirgan. Beruniy til va adabiyot, tarix, geografiya, geodeziya, biologiya, mineralogiya fanlari, tibbiyat va dorishunoslik, fizika, falakiyat ilmiga oid tadqiqotlarini o‘zi targ‘ib etgan nazariya hamda kuzatishlar natijasida amaliyotda sinab ko‘rib, fanda haqiqat ustuvor turishini ta’kidlaydi. U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda, deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsdagi intilish va qiziqish, muhitning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Bilim olishda tushunib o‘rganish, ilmiy tadqiqotchining poklikka rioya etishiga alohida e’tibor beradi. Jamiyatning ravnaqi, ma’rifatning rivojiga bog’liq degan g’oyani ilgari so‘radi. Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog’laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqlilikdir. Beruniyning inson kamolotida axloqiy tarbiyaning muhim o‘rnini ta’kidlashini uning yuqorida qayd etilgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Kitob as-Saydana», «alQonuni al-Mas’udiy», «Geodeziya» va boshqa asarlarida ko‘ramiz. Beruniy fikricha, axloqlilik insonning eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishining o‘zaro muloqoti, ijtimoiy muhit - jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi. Beruniy axloqiy tarbiyaga muslimmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta’rif beradi. Axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi va tarkib topadi, deydi u. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezondir. Insonning axloqiy kamolga yetishi muammosi ta’lim-tarbiyada markaziy masala bo‘lib kelgan. Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka yetishga to‘sqinlik qiluvchi ziqlalik, yolg’onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju quyish va ta’magirlilik, g’azab va johillik inson uchun eng ashaddiy dushman, deb qaraydi.

Mutafakkir jamiyatda adolat o‘rnatish, uni yovuzliklardan xalos etish uchun dono, adolatli hukmdor bo‘lishi kerak, deydi. Beruniy kundalik turmush masalalariga ham katta e’tibor bergen. Har bir axloqan barkamol inson o‘zining turmush tarzini uyg'un, go‘zal eta oladi. Uyg'unlik go‘zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan muhimi - ozodalik, tarbiyalilik bo‘lsa, insonga eng yaqin narsa uning tabiat, ruhi, deydi. Shuning uchun inson o‘z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi zarur, deb ko‘rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilan tashqi go‘zalligi, turmush tarzidagi go‘zallikning uyg'un bo‘lishi talab etiladi. Bunga inson kiyadigan kiyimidan kundalik turmushdagi yurish-turushi, so‘zi, qalbi, qilgan ishi - hammasining go‘zal bo‘lishi ta’kidlangan. Har bir shaxsda sharm-hayo, ozodalik, nafis did, iffat, latofat, shirinsuxanlikning tarkib topishi turmushning go‘zal bo‘lishiga olib keladi. Olimning inson turmushiga xos xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go‘zal bo‘lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin. U ozodlikni oljanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur, deb ta’kidlaydi. Bunda inson o‘zini boshqara olishga qodir bo‘lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo‘lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo‘lishi zarur, deydi. «Minerologiya» asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: «Inson o‘z ehtiroslariga hukmron, ularni o‘zgartirishga qodir, o‘z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda astasekin, axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir».

Beruniy insonni kamolotga yetaklovchi xislatlardan yana biri oljanoblik deb ko‘rsatadi. Olijanoblikning mazmunini yaxshilik tashkil etadi. Bunda olim insonga inson sifatida muomala qilishni nazarda tutadi. Eng muhimi, mutafakkir inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli - olimlar mehnatiga alohida e’tibor berish, hayrixoh bo‘lishga chaqiradi, ularni ma’rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shuvchilar deb biladi: shu bilan birga, og‘ir mehnat qiluvchi konchilar, yer ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib,

ulaming mehnatini rag'batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshohlar bunday mehnat ahliga g'amxo'r bo'lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi, deb ta'kidlaydi. Olim bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o'rgatish kerak, deydi. Mehnat tarbiyasida o'sha davr tarbiya an'anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi. Buni E.To'raqulov va S.Rahimov «Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida» nomli risolalarida juda yaxshi bayon etganlar. Beruniyning «Mineralogiya» asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda hozirgi pedagogika fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna metodidan foydalangani, ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o'zida bajarilgani shogirdlarning malakali usta bo'lib yetishishida katta ahamiyatga ega bo'lган. Shuning uchun ham Beruniy inson har tomonlama kamolga yetishi uchun u ilmli bo'lishi bilan birga, mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak, deydi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e'tirof qiluvchi irsiyat, muhit, tarbiyadir. Muayyan bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari - buyuk mutafakkirlar Forobiy, ibn Sino kabilar inson kamolotida har uchallasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni, u insonning kamolotga yetishida ilm-u ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy o'rin tutadi, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega bo'ladi, deydi. Abu Rayhon Beruniy nazarida, inson kamolga yetishining eng muhim omillari ilm-ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Beruniy ilmiy bilishga oid, ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos mifik yaratdi. Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigiyenasi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalari katta ahamiyatga egadir. Olim axloqlilikning belgilari sifatida yaxshilik, to'g'rilik,adolat, kamtarlik, saxovat, oljanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklik, go'zallikka intilish

kabilarni ilgari surgan. Bularning barchasini u yaratgan asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarga bog'lab tushuntirgan.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lif-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Zero, uning o'zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma'naviy me'ros qoldirdi. Beruniy Sharq Renessansi davri qomusiy olimlaridan biri sifatida nom qozondi. Mashhur sharqshunos olim J.Sarton jahon fani tarixida XI asrning birinchi yarmini Beruniy davri deb atadi. Uni o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi, deb baholadi.

Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar singari matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyat, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, adabiyot, ta'lif-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim. U, ayniqsa, tib ilmini chuqur egallab oladi, bu sohada unga ta'lif bergen kishi buxorolik Abu Mansur Qamariy bo'ldi. So'ngra Ibn Sino falsafani o'rganishga kirishadi. Ayniqsa, Aristotel falsafasini, uning «Metafizika» asari mohiyatini buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning yozgan sharhi tufayli to'liq o'zlashtirib oladi.

Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar. Bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, olim ta'lilda quyidagi tomonlarga rioxha etish zarurligini ta'kidlaydi: - bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik; - ta'lilda yengildan og'irga borish orqali bilim berish; - olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi; - o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish; - bilim berishda bolalarning mayl, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; - o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lif prinsiplariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Ibn Sino yuqoridagi masalalarga o'zining «Tadbiri manzil» asarida maxsus bo'lim bag'ishlaydi. «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» bo'limida ham va tarbiya

jarayonini ohib beradi. Yuqoridagi prinsiplar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

Talabaga bilim berish o‘qituvchining ma’suliyatli burchidir. Shunga ko‘ra, Ibn Sino o‘qituvchining qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabalarningxotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqtira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo‘lishiga erishishi zarur.

Ibn Sino ta’limotida qaysi metodlardan foydalanimas - u og'zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishm i, turli ko‘rinishdagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir, talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo‘lgan. Shu jihatdan olimning «Hayy ibn Yaqzon» asari kishilarning did-farosatini o‘stirishi, fikr doirasini kengaytirishi bilan ta’lim-tarbiyada katta ahamiyatga ega. Uning nomi ham shunga ishora qiladi: «Hayy ibn Yaqzon» (Uyg'oq o‘gli Tirik). Bu asar farosat ilmi haqida ekanligini Ibn Sinonining o‘zi ham ta’kidlaydi. Mazkur asarni Ibn Sino 1023-yili Hamadonga yaqin bolgan Faradjon qal’asi qamoqxonasida yozgan, deyishadi. Ibn Sino bu asarida ilm-ma’rifatni o‘rganishga kirishgani tufayli ko‘zi ochilgani, natijada Aql (Hayy ibn Yaqzon) ko‘ziga ko‘ringani va ilm unga o‘z jamolini namoyon etganini hikoya qilar ekan, ilm - aqlni olim bilmaydigan Uyg'oq, qarimaydigan yosh, beli bukilmaydigan - barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur bo‘lgan va bilishi mumkin bo‘lgan narsalarni o‘qishga kirishgani, bu yo‘lda aqlni ishga solib, o‘zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarini bilib olganligini qayd etadi. Demak, «Hayy ibn Yaqzon» mantiq ilmiga bag'ishlangani

bilan ham aqliy tarbiyada katta ahamiyatga ega. Risola insondagi yomon illatlarni bartaraf etishda ilm-u fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql-tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutilish, o‘zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asargina bo‘lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir.

### **NAZORAT SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

1. Tarbiya tushunchasiga qanday ta’rif bera olasiz?
2. Tarbiya tushunchasi ilk qaysi manbalarda yoritib berilgan?
3. Afsona va asotirlar inson tarbiyasiga qanday ta’sir etadi?
4. «Avesto»ning axloqiy ahamiyati nimalarda ko‘rinadi?
5. Islom dinida oila tarbiyasi nima bilan izohlab beriladi?
6. Xristianlik diniy ta’limotining bosh g‘oyasiga nimalar kiradi?
7. Abu Nasr Farobiy asarlaridagi tarbiya mohiyatini tushuntirib bering?
8. Axloq tushunchasiga ta’rif bering?
9. Abu Ali ibn Sino tarbiya tushunchasiga qanday ta’rif bergen?
10. Abu Nasr Farobiyning tarbiyaga oid asarlarini bilasizmi va u asarlardagi tarbiyaning muhim tamoyillarini gapirib bering.

### **TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

1. Kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbat va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha – bu .....
- A. Fidoiylik
- B. Vatanparvarlik
- C. Jonkuyarlik
- D. Mehribonlik
2. Vatanparvarlik qanday tuyg’u?
- A. Milliy tuyg’u
- B. Jamoaviy tuyg’u
- C. Umuminsoniy tuyg’u
- D. Faqat o‘zbek xalqiga xos tuyg’u
3. Vatan tarkin bir nafas aylama,  
Yana ranji g’urbat havas aylama. Misralar muallifi kim?

- A. Alisher Navoiy
  - B. Zahiriddin Muhammad Bobur
  - C. Cho‘lpon
  - D. Maxtumquli
4. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasining ikkinchi bosqichi qaysi davrni o‘z ichiga oladi?
- A) oila davrini
  - B) maktabgacha ta’lim 3-6(7) yoshgacha bo`lgan davrni
  - C) umumiy o`rta ta’lim davri
  - D) ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan yoki band bo`lмаган yoshlar davri
5. “Agarki biz xatarlarga qarshi o‘z vaqtida qat’iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi muqarrar...” Ushbu jumla kimga tegishli?
- A) Shavkat Mirziyoyev B) Abdulla Avloniy C) Abdurauf Fitrat D) Islom Karimov
6. “...- kishining jamiyatda o`rnatilgan axloqiy, huquqiy, madaniy, diniy, g`oyaviy va mafkuraviy me’yor va qoidalarga zid keladigan xatti-harakatlarga aytildi.” Nuqtalar o`rniga mos javobni belgilang!
- A) ma’naviy illat
  - B) ma’naviy tarbiya
  - C) ma’naviy-axloqiy illat
  - D) ma’naviy-axloqiy tarbiya
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risidagi qarori qachon qabul qilingan?
- A) 2019-yil 3-mayda B) 2018-yil 27-iyunda C) 2018-yil 3-may D) 2019-yil 27-iyunda
8. “Konsepsiya” so`zi qanday ma’noni anglatadi?
- A) lot. Conception – jaholatga qarshi ma’rifat
  - B) lot. Conception – umumiy shar
  - C) lot. Conception – anglab yetilgan aloqador tushunchalarni o`zaro bog`lovchi
  - D) lot. Conception – insonning va jamiyatning g`alabaga erishuvি

9. Insonparvarlikka berilgan to`g`ri ta'rifni aniqlang!

- A) jahondagi mamlakatlarning aynan bitta sohada o`zaro birlashuvi
- B) Tarixan barqaror shakllangan, dastlabki davlatlarning paydo bo`lishi va barcha keyingi institutsional tuzilmalarning rivojlanishini belgilab bergen, o`z navbatida, mohiyati hamon saqlanib qolgan birlamchi modelni takror yaratishga xizmat qiluvchi asosiy ijtimoiy institutlar tizimi
- C) jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada o`zaro birlashuvi
- D) insonni qadrlash, uning sha'ni, g`ururi va huquqlarini ro`yobga chiqarish, insonga munosib yashash turmush sharoiti yaratib berish va davlat hamda jamiyatning faoliyatini inson omili asosiga qurish

10. O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Ma’naviyat” tushunchasiga bergen ta'rif berilgan javobni aniqlang!

- A) insonni ruhan poklanishi, qalban ulg`ayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e`tiqodini butun qiladigan, vujdonini uyg`otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me'zonidir
- B) insonlar o`rtasida o`zaro ishonch, hurmat va e'tibor xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo`lidagi ezgu intilishlar
- C) shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon
- D) barcha javoblar to`g`ri

## **2-MAVZU: O‘Z-O‘ZINI ANGLAMOQ SIRI (2 soat)**

### **Reja:**

1. Olam va odamning yaratilishi. Odamning biologik mavjudotdan ijtimoiy shaxsga aylanishi.
2. Umr mazmuni. Shaxs kamolotida e'tiqodning o'rni. Iyomon, vijdon, insof va diyonat tushunchalari.
3. O'zlikni anglashda tarix ilmining tutgan o'rni. O'tmishni unutganning kelajagi bo'lmaydi.
4. Avlod va ajdod. Urug'. El. Elat. Xalq. Fuqaro. Millat.

1. Odamning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi to‘g‘risida turli fikrlar va nazariyalar mavjud. Odam bilan bog‘liq qadimgi rivoyatlar va qadimgi diniy kitoblarga ko‘ra, Odam Ato va Momo Havo Yer yuzidagi dastlabki odamlar bo‘lgan. Zardushtiylik dinida Odam tabiatning bir bo‘lagi, unda vujudga kelgan va yana unga qaytadi, deyiladi. Islom diniga ko‘ra, Xudo "o‘zining eng erka va erkin bandasini tiriklik olamiga sardor qilib yuborgan", ya’ni Odamni loydan o‘zining yerdagi o‘rinbosari (xalifasi) sifatida yaratib, unga o‘z ruhidan jon ato etgan, unga aql-idrok bergen. Tabiiyat fanlarining rivojlanishi bilan Odamning paydo bo‘lishi to‘g‘risida ilmiy fikrlar paydo bo‘la boshladi. Fransuz olimi J.Lamark birinchi bo‘lib Odamning paydo bo‘lishini umumiylar tushuntirib berdi. Uning fikricha, Odam daraxtda yashashdan yerda yurishga o‘tgan maymunsimon ajdodlardan kelib chiqqan. Ingliz olimi Ch.Darvin odamning paydo bo‘lishi muammosini evolyutsion nuqtayi nazardan talqin qilib, Odam bilan odamsimon maymunlar uzoq umumiylar ajdodga ega ekanligini ko‘rsatib berdi. Uning fikricha, antropogenezda ham biologik omillar, ya’ni yashash uchun kurash, irlar o‘zgaruvchanlik va tabiiy tanlanish amal qiladi. Lekin, ko‘pchilik olimlarning fikricha, antropogenezda biologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy omillar (ijtimoiy hayot, ijtimoiy mehnat), ayniqsa, uning so‘nggi bosqichlarida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Tik yurishga o‘tish Odam evolyutsiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, chunki tik yurish tufayli qo‘llar tayanch vazifasidan ozod bo‘lib, mehnat qurorollari yasab, uni ishlata digan organga aylangan. Mehnat quroollarining paydo bo‘lishi esa Odam tafakkurini kengaytirgan, uning tabiatga qaramligini kamaytirgan. Mehnat faoliyatining rivojlanishi bilan antropogenezda biologik omillar ta’siri kamayib ijtimoiy omillar ahamiyati orta borgan.

Shaxs - alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o‘zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘z yo‘nalishi, tadqiqot ob‘yekti va maqsadi nuqtayi nazaridan turlicha talqin etiladi. U o‘ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o‘zini o‘zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql-idrok, tafakkur ob‘yekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig‘i jihatidan tadqiqot manbayiga aylanishi mumkin.

Shaxsnинг шакланиш омилари ко‘п ва xilmа xildir. Masalan, genetik (nasliy), biologic tabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o‘z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalar shahrining genetik jihatи uning nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe'l-atvor bilan, biofiziologik jihatи esa yashash uchun quvvat olish, ovqatlanish, jinsiy aloqaga kirishish va nasl qoldirish singari individual ehtiyoj bilan belgilanadi.

Shaxs, mohiyatiga ko‘ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan, ijtimoiy tarixiy an’ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o‘zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o‘rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiyma’naviy me’yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, beba ho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go‘zal va farovon bo‘lishiga ehtiyoj sezadi.

Shaxsnинг hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne’matlaridan to‘la foydalanishga haqli. Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko‘rinishi, oliy maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash huquqi va hayot qadriyatiga ega bo‘lgan jonzotdir. Biroq u hamma vaqt ham to‘laqonli shaxs bo‘lib yetilmasligi mumkin.

Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar\_jarayonida shakllanadi. Chunki ta’lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog’liq bo‘lgan holat va hodisalar o‘rgatiladi. Bu jarayonda o‘quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Ular ma’lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko‘rsatma) orttiradilar, ya’ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me’yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o‘rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a’zosi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta’sir etadi. Bu

ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi. Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar.

Ijtimoiylashuv jaravoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud. Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin. Zero, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzlusiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni.

Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologic yo'naliш deb nomlangan nuqtayi nazar yetakchi o'rnlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergen, deydilar. XV asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim - bixevoirizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Progratizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologic nuqtayi nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'lilotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi. Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtaida ham uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtaсидаги murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'лади.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini hamyo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya keljakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

2. Insonning chin ma'nodagi insonligi – uning iymoni, diyonati, mehr-oqibati, pokligi va halolligi, kamtarligi va boshqalar bilan o'lchanadi. Bu umumiylar tarzda insoniylik tushunchasi bilan ifodalanadi. Insoniylik esa faqat iymonli insonlardagina bo'лади. Bu o'rinda hamma kishilar uchun umumiylar tarzda tegishli bo'lgan masalalar ustida baholi qudrat fikr yuritamiz. Mazkur masala ko'p qirrali bo'lib, qo'yilgan masalani har kim o'z ma'naviy dunyosi o'lchami bilan o'lchaydi va shunga yarasha hatti-harakatlarni amalga oshiradi.

Insoniylikning muhim shartlari – mehr-shafqatlilik, poklik va halollikni iymon tushunchasi o'z ichiga oladi. Insonparvarlik bo'g'inlaridan biri insof bo'lib, uning ma'lum bir jamiyatda istiqomat qiluvchi kishilar o'rtasidagi muamalalarda hamda umumiyligini va shaxsiyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr-shafqat, insof-u diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda Vijdon pokligi va bedorligining o'rni va ta'siri beqiyosdir. Aynan mana shu omil insonda insof va diyonatni shakllantiradi.

"Vijdoni uyg'oq odam yon-atrofida bo'layotgan voqealarga, yordam va ko'makka muhtoj insonlarning muammolariga, adolatning toptalishiga befarq qaray olmaydi. Ayniqsa, el-yurt manfaatiga zarar yetkazadigan yovuz xatti-harakatlarga hech qachon chetdan jim qarab turolmaydi, o'z yurti va xalqiga nisbatan xiyonat va sotqinlikni aslo qabul qilolmaydi. Bunday holatlarni ko'rganda vijdoni qiynaladi, doimo yonib-kuyib yashaydi, qanday qilib bo'lmasin, ularni bartaraf etishga intiladi, kerak bo'lsa, bu yo'lda hatto jonini ham fido qiladi."

Milliy odatlarimizda ham insofga targ‘ib qilinib: “Insof sari baraka”, “Insofi borning barakasi bor” deyiladi. Payg‘ambarimiz s.a.v.ning sahabalaridan bo‘lgan Ammor insof haqida shunday deydilar: “Uch xislatni o‘zida mujassam qilgan kishining imoni mukammal bo‘lgaydir:

- Insofli va adolatli bo‘lmoq;
- Barchaga salom bermoq;
- Kambag‘alligida ham sadaqa berib turmoq.

Insof – adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg‘usi, ishda kishilarga munosabatda halollik, to‘g‘rilik, tenglik, sofdillik va haqiqatgo‘ylikdir.

Sharq falsafasida insof shunday talqin etiladi: “Insof – kishining o‘z xulqi, odobini tartibga solish va axloqiy baholashidir. Agar kishi biror ishni to‘g‘ri bajarsa, unda ichki qoniqish paydo bo‘ladi, vijdoni pok bo‘ladi, atayin noto‘g‘ri bajarsa, insofdan chiqqan bo‘ladi.”

Insof – insonparvarlikni targ‘ib etuvchi g‘oyalardan hisoblanib, hozirgi murakkab davrimizning ko‘plab axloqqiy ma’naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e’tiborga molikdir.

Mazkur ta’riflardan ma’lum bo‘ladiki, insof tushunchasi ham ma’naviyat tushunchasi kabi bir necha xislatlarni o‘z ichiga olib, imonning mukamalligiga dalolat qilar ekan.

Shuni iftixor bilan qayd etishimiz lozimki, tasavvuf ta’limoti va ajdodlarimiz ilgari surgan ma’naviy-axloqqiy g‘oyalarda ham insof va adolatli bo‘lish eng muhim omillardan sanaladi. Chunonchi, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilgari surilgan axloqqiy pand-nasihatlardan molparastlikni fosh etish, kishilarni insofli, diyonatli, iymonli bo‘lishga chaqirishda foydalanish o‘rinli. Yassaviy inson hayotidagi katta kurash - nafsni taslim etishga xizmat qiladigan kurash deb hisoblagan. Nafsga mag‘lub shoh - qul, nafsdan ustunlikka erishgan g‘arib - shohdir, deb aytadi. Nafs inson uchun katta yovdir. Shu yovning boshini yanchgan, uni yenggan, nafsga taslim bo‘lmagan kishining g‘ururi va insoniy qadr-qimmatini hech kim poymol qila olmaydi, deb bilgan.

So‘fi Olloyor qoidali, tartibli, imonga mos yaxshi amallar sohiblarini fazilati va ulardan o‘rnak olib yashashga targ‘ib qilib shunday deydi:

“Yuragim sof erur deb urmag‘il lof,  
Alarcha bo‘lmag‘aysan keltur insof”.

Ya’ni, garchi payg‘ambaru sahobalar maqomiga yetolmasangda, aziz-avliyolar kabi bo‘laolmasangda insofli bo‘lgin, deb insof xislatini o‘ta muhim ekanligini ta’kidlaydi.

Husayn Voiz Koshifiy aytganidek, “Yaxshi qiliq, go‘zal muomala bir yo‘ldirki, u yo‘l bilan yurmasdan turib, izzat va sharaf manziliga yetib bo‘lmaydi. U yo‘lga qadam bosmasdan turib, vujud yukini hayvoniyat biyobonidan insoniyat dorilmulkiga eltib bo‘lmaydi”

“Go‘zal fe‘l-atvorning nishonasi o‘n narsadir: birinchi nishonasi – yaxshilik, ikkinchi – insofli bo‘lish, uchinchi – boshqa odamdan ayb qidirmaslik, to‘rtinchi – biror kishida nojo‘ya harakat ko‘rsa, uni yaxshi yo‘lga boshlash, beshinchi – bir odam o‘z aybiga iqror bo‘lib uzr aytsa, uzrini qabul qilish, oltinchi – boshqalar uchun mashaqqatni o‘z ustiga olish, yettinchi – faqat o‘z manfaatinigina ko‘zlamaslik, sakkizinchi – ochiq yuzli, shirin so‘zli bo‘lish, to‘qqizinchi – muhtojlarning hojatini chiqarish, o‘ninch – muloyim va tavoze’li bo‘lishdir”. (Husayn Voiz Koshifiy)

Inson faoliyatining adolatga yaqinligi yoki uzoqligi uning aqliga, xulqiga, yashagan jamiyatiga bog‘liq. Agar unda yomonlik fikrlari ozroq bo‘lsa, adolatga yaqin bo‘ladi, agar ko‘proq bo‘lsa adolatdan, insofdan uzoqroq bo‘ladi. Xulq albatta insonning yaxshi yoki yomon xislatlarining nisbatiga bog‘liqdir.

Xulosa qilish mumkinki, hayotimizni go‘zal va farovon qilish uchun halol mehnat qilib, turli kasb-korlarni sidqidildan bajargan holda yer yuzida yaratuvchanlik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lmoqligimiz kerak. Gulzor tikansiz bo‘lImaganidek, oramizda turli buzg‘unchilik va qo‘poruvchilik kabi ishlarni kasb qilib olgan ba’zi noinsof kishilarning borligi dilni xira qiladi. Ana shunday noinsof, tavfiqdan begona kishilarni ham tavfiqu insofga sazovor bo‘lishini tilab, barcha xayrli va savob ishlarda barchaga o‘rnak bo‘lish tng hayrlisidir. Va yana birovlar uchun Alloh taolodan insof-adolat so‘rashdan oldin, avvalo o‘zimizga insofu tavfiq so‘rash, do‘st-birodarlarga nisbatan ham hamisha adolatli bo‘lib, uning haq-huquqlarini to‘la ado etish muqaddas dinimizning talablaridan ekanligini unutmasligimiz lozim.

3. O‘zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o‘tmishi, tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma’naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantirishga xizmat qiladi. Vatanimiz tarixi "Har bir fuqaroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko‘z qorachig‘iday avaylab-asrashga, yurak-yurakdan iftixor qilishga o‘rgatadi. O‘zimizning boy o‘tmish merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg‘ularini uyg‘otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi".

Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, Vatanimiz tarixida burilish pallasi, ma’muriy-buyruqbozlik boshqaruviga asoslangan totalitar tuzumdan erkin, demokratik tuzumga o‘tish davri boshlandi. O‘tish davrida eski ideallar, g’oyalar, odatdagi tafakkur va axloq me’yorlari buziladi, milliy qadriyatlar qayta baholanadi, muqobil nuqtayi nazarlar paydo bo‘ladi, allaqachon unutilgan qarashlar qayta uyg‘onadi, ziddiyatlar keskinlashadi. Vujudga kelgan murakkab sharoitda «birovlar tarixning borishini bilish mumkin emas», deb talvasaga tushsa, boshqalar eskirgan, rad etilgan "haqiqat'ga yopishib olib, tarix g‘ildiragini orqaga qaytarishni orzu qiladi, urinadi. Tarixiy tajriba va saboqlar esa dunyoda nimalar o‘zgardi, nima uchun o‘zgardi, qanday qarashlardan tezroq xalos bo‘lish kerak degan savollarga javob topishga, yangi jamiyat qurishning muqobil yo‘llarini mushohada qilib, eng to‘g‘risini topishga, xatoga yo‘l qo‘ymaslikka undaydi. Bunda tarix to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi kompas bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat mustaqilligini o‘z qo‘liga olgan ozod, hur O‘zbekistonda Vatan, istiqlol taqdiri bugungi baxtli avlodlar qo‘lida. Mustaqillikni asrab-avaylash, mustahkamlash, mamlakatimizni keyingi avlodlarga yanada qudratli, obod, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan holda yetkazish zamonamizning dolzarb vazifasiga, talabiga aylandi. Bu mas’uliyatli, ayni paytda sharaflı vazifaning qay darajada ado etilishi bugungi avlodlarga, xususan, yoshlarga, ularning ma’naviy barkamolligiga bog‘liq.

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ma’naviyat va ma’rifatdir. Ma’naviy barkamollikni tarbiyalashda Vatan tarixi muhim omil hisoblanadi. Tug‘ilib o‘sigan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak... Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson.

Insonda tarixiy xotira o‘z Vatani tarixini, o‘z xalqi, ajdodlari tarixini bilisb orqali shakllanadi. Yaqin o‘tmishda mustamlakachilar, totalitar tuzum mutasaddilari ko‘pgina xalqlarni, jumladan, o‘zbek xalqini o‘z tarixidan judo qilish, ularni o‘z o‘tmishiga loqaydlik bilan qaraydigan, nasl-nasabini eslolmaydigan manqurtlarga aylantirish siyosatini yuritdi, amaliyotda esa xalqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib qo‘yildi, uning bir necha ming yillik boy tarixi soxtalashtirildi, uni yoshlarga o‘qitish va o‘rgatishga izn berilmadi.

Mustaqillik sharofati bilan Vatanimiz tarixi o‘z o‘rnini topdi, barcha o‘quv maskanlarida talaba-o‘quvchilarga Vatan tarixini o‘qitish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi, Vatan tarixini o‘qitish yolga qo‘yildi. Vatanimiz tarixi millatning, yoshlarning haqiqiy tarbiyachisiga aylanmoqda.

Tarix fani olam - yagona va yaxlit, O‘zbekiston uning ajralmas bir qismi, ularda sodir bo‘ladigan voqeа, hodisalar umumiу va o‘zaro bog’lanishda, uzuksiz harakatda ekanligi xususida to‘g’ri tasavvur, tushunchalarni shakllantiradi. O‘z o‘tmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo‘ladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. O‘tmishni bilgan, tarix saboqlarini anglab yetgan inson hozirgi zamонни yaxshi tushunadi, kelajakni to‘g’ri tasavvur etadi. Muxtasar aytganda, Vatan tarixi talaba-o‘quvchilarda xalqning o‘tmishi, hozirgi zamoni va kelajagi yagona tarixiy jarayon degan tushunchani shakilaniradi. Bu o‘z navbatida yoshlarni tarixiyjarayonlarning oddiy kuzatuvchisi bo‘lib qolishdan saqlaydi, ularni olg‘a intilishga, taraqqiyotga ko‘maklashishga undaydi.

4. Elat - kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan millatining oldingi birligi. Elat qabila bilan millat orasidagi etnik birlikning ko‘rinishidir. Uning shakllanishiga bir-biriga yaqin bir necha qabilalarning uyushuvi asos bo‘lgan. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida qabilalar orasidagi etnik, xo‘jalik, moddiy va madaniy aloqalarning tobora rivojlanib borishi natijasida bir qancha qabilalar birlashadilar. Natijada etnik birlikning yangi turi vujudga keladi. Bu elat deyilib, ma’lum tarixiy sharoitda hududiy, iqtisodiy, til va madaniy umumiylik asosida shakllanadi.

Elat (asosi "el") atamasi o‘tmishda keng ma’noda qo‘llanilgan; xalq, davlat, qabila, qabila ittifoqi, ma’lum bir qabila yoki hudud fuqarolarini anglatgan. Turli elatlarning hudud jihatidan o‘zaro yaqinlashuvi urug‘ va qabila guruhlaridagi kishilarining qonqarindoshlik aloqalarini kuchaytirgan. E.ning shakllanishi turli tarixiy davrlarda o‘ziga xos holda kechgan. Mas, elat Qadimgi Misr, Mesopotamiyada davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi bilan shakllana boshlagan bo‘lsa, YYevropada elatlar (qad. rus, polyak, fransuz va boshqalar) shakllanish jarayoni ilk o‘rta asrlardan boshlangan. Yer sharining qolgan qit’alarida bu jarayon keyinchalik ham davom etgan. Elat til jihatidan o‘zaro yaqin qabilalarning uyushuvi (polyak elat.i, slavyan qabilalari - polyak, visdyan, mazovshan va boshqalardan) yoki bir qabilaning boshqasi tomonidan istilo qilinishi natijasida shakllangan etnik komponentlar (fransuz elati, - gall qabilalari; rim kolonistlari va german qabilalari - franklar, vestgotlar, burgundlar va boshqalar). birining tili umumiylar tilga, qolgan qabilalar tillari esa dialekt (sheva) holida saqlangan yoki butunlay yo‘qolib ketgan. Natijada yagona nom, hudud, madaniy va xo‘jalik jihatidan umumiylik yuzaga kelgan. Davlatning paydo bo‘lishi bilan E.ning mustahkamlanishiga imkoniyat paydo bo‘lgan. Rivojlangan o‘rta asrlarda YYevropa va Osiyoning ko‘pgina mamlakatlarida elat to‘la shakllandi. Elat munosabatlarining taraqqiy etishi, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bilan elatlar millatga aylandi. Ko‘pincha bir millatning shakllanish jarayonida bir necha elat qatnashgan. qadimiy rus millati asosida ukrain va belorus elatlari vujudga kelgan va keyinchalik millat bo‘lib tarkib topgan.

Turli ob’yektiv sabablarga ko‘ra, o‘z rivojlanishidan orqada qolgan ko‘pgina elatlar (asosan, kichik elatlar) millatga aylanmasligi ham mumkin. Ular davr o‘tishi bilan iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan boshqa elat va millatlar bilan yaqindan hamkorlik qilishga o‘tishi natijasida ilg‘or xalqning ma’naviyatini, tilini o‘zlashtiradi va o‘sha millatning tarkibiga qo‘shilib ketadi.

Qadimda hozirgi O‘zbekiston hududlarida va unga tutash mintaqalarda bir necha elatlar vujudga kelgan: baqtriyaliklar, xorazmliklar, sug‘diylar, qangarlar, farg‘onaliklar. Ammo bu elatlar kishilik jamiyatining ma’lum bir tarixiy taraqqiyoti davomida inqirozga uchrab, ilk o‘rta asrlarda yangi E.lar - turk, uyg‘ur, o‘g‘uz, tojik va

o‘zbek elatlari tashkil topgan. Ushbu elatlarning barchasi ham to‘liq elat bo‘lib shakllanmadi. Turli ijtimoiy-siyosiy va tarixiy omillar sababli bu E.larning ayrimlari parchalanib ketdi va shakllanishi davom etayotgan elatlarning etnogenetik jarayonlariga sezilarli ta’sir o‘tkazdi. Masalan, turk, o‘g‘uz, uyg‘urlarning parchalanib ketishidan keyingi etnik jihatdan birmuncha o‘zgargan avlodlari o‘zbek elatinning etnogenetik jarayonida qatnashgan.

Xullas, iqtisodiy xo‘jalik, madaniy va etnik jarayonlarning tobora rivojlanishi natijasida bir necha qabilalarning birlashuvi jarayonida vujudga kelgan elat etnik hududiy, iqtisodiy til va etnomadaniy umumiylig asosida shakllangan.

Millat - uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, aniq hududiy doirada, til va o‘zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho‘qqisi, o‘ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib toptan ijtimoiy birlik shakli. Millat kishilarning jips tarixiy birligi, umumiqtisodiy turmush, til, hudud birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uygunligi va mushtarakligi demakdir. Ungacha ijtimoiy taraqqiyotning etnos (xalq) shakli ham mavjud bo‘lib, xalq atamasi juda keng va tor ma’noda ishlatiladi. Mas, keng ma’noda: o‘zbek xalqi, nemis xalqi va boshqa. Shuning uchun ijtimoiy fanda xalqlarning kelib chiqish tarixini o‘rganishda etnos bilan bir qatorda etnik birlik atamasi ham ishlatiladi. Chunki u ma’lum bir ijtimoiy tuzumda vujudga kelgan etnik uyushma: aniq, bir xalqqa nisbatan ishlatiladigan atama. Fanda xalqning shakllanish jarayoniga nisbatan etnogenez atamasi ishlatiladi. Etnogenetik jarayon esa xalqning uzil-kesil shakllanishi bilan yakunlanadi. Shakllangan xalq o‘z etnik nomiga, hududiy til birligiga, iqtisodiy-xo‘jalik va etnomadaniy birligiga, o‘zlikni anglash birligi va nihoyat siyosiy uyushmasi (davlat)ga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Shuning uchun xalqning shakllanishi M.ning shakllanishi degan so‘z emas. Chunki etnos shakllanish jarayonida asosan, 3 bosqichni bosib o‘tadi. Uning 1-bosqichi - qabila; 2-bosqichi - elat, 3- bosqichi- Millatdir. Etnik birlikning bu 3 turi, o‘z navbatida, har xil tarixiy davrlarning ijtimoiy mahsuli hisoblanadi. Ulardan kabila kishilik tarixining ibridoiy bosqichiga xos etnik birlik, patriarchat urug‘ jamoalarining uyushmasi, qabila a’zolarining bir-birlari bilan qonqarindoshlik munosabatlarini saqlashi va urug‘larga bo‘linishi xususiyatlari bilan o‘zidan keyingi

tarixiy bosqichdagi etnik birlikdan (elat, ya’ni xalqdan) mazmun va zamon jihatidan farq qiladi. Demak, qabila ilk inson jamiyatining taraqqiy etgan etnik jamoasi bo‘lib, uning boshqaruv tizimi qabilaviy demokratiyaning eng yuksak tamoyillari asosida, ya’ni o‘z-o‘zini idora qilish urug‘qabila sardorlaridan tashkil topgan maslahat majlisi - oqsoqollar kengashi tomonidan olib boriladi.

Jamiyatdagi iqtisodiy-xo‘jalik, madaniy va etnik alokalarning tobora rivojlanib borishi natijasida bir necha qabilalarning birlashishi yuz beradi. Qabilalarning birlashishi jarayonida etnik birlikning yangi turi vujudga keladi. Bu etnik birlik ma’lum tarixiy sharoitda hududiy, iqtisodiy til va etnomadaniy umumiylilik asosida shakllanadi. Shakllangan yangi etnik birlikni ifodalash uchun fanda elat, ya’ni xalq atamasi kabul qilingan. Etnik birlikning elatdan keyingi shakli Millat bo‘lib, uning shakllanishi elatning shakllanish jarayoni kabi uzok, davom etadigan ijtimoiy voqelik, millat-etnik tarixining , elatning eng yuqori.cho‘qqisi, kamolot bosqichiki, bu bosqichga ko‘tarilgan xalqning tarixan tarkib topgan davlati, birinchidan Millat nomi bilan yuritiladi; ikkinchidan uning aniq hududiy chegarasida muomalada bo‘lgan umummillat tili davlat tili maqomi darajasiga ko‘tariladi; uchinchidan davlat hududining butunligi va chegarasining daxleizligi tan olinadi; to‘rtinchidan Millat va unga xos mentalitet shakllangan bo‘lib, fuqarolarning o‘zlikni anglash darajasi ularning hayot mazmuniga, kundalik turmush tarziga aylanadi va nihoyat beshinchidan davlat jamiyat tomonidan boshqariladi.

Millatni til, hudud va etnomadaniy jihatdan birlashtiruvchi omillardan biri iqtisodiy negizdir. Millatning iqtisodiy- xo‘jalik birligi asosida til va hudud hamda etnomadaniy birlik paydo bo‘ladi. Millatning iqtisodiy va siyosiy birlashishi elatlarning yozma adabiy tili va xalq og‘zaki tilining sheva va lahjalarining yaqinlashishi asosida yagona milliy adabiy tilning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shevalar o‘rnini milliy til egallaydi. Uning davlat tili maqomi darajasiga ko‘tarilishi millat nomi bilan atalgan davlatning mustaqillik belgilaridan nishonadir. Millat - mustaqil davlat belgisi. Uning mustahkam zamini - davlat iqtisodiy siyosatining barqarorligi millatning shakllanish darajasiga va fuqarolarining o‘zligini anglash darajasiga bog‘liq. Bundan o‘zbek millati istisno emas

Fuqarolikning ijtimoiy asosi yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, unda fuqarolarning shaxsiy manfaati jamiyat manfaati bilan qo‘silib, uyg‘unlashib ketadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmunida aks etgan g‘oyalar, demokratik talablar hamda axloqiy-huquqiy me’yorlarga muvofiq faoliyat yuritish ijtimoiy fuqarolik munosabatlarining muhim qoidasiga aylanadi. Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo‘lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy obyekti fuqaro sanaladi. Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxsdir.

Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

- yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo‘lgan axloqiy va huquqiy me’yorlarga rioya etishga o‘rgatib borish;

o‘quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to‘g‘risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko‘nikma va malakalar hosil qilish;

- o‘quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish;

-o‘quvchilarda xalq o‘tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, ulardan g‘ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish;

- Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o‘z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish;

- Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalg etish;

- O'quvchilarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat Konstitutsiyasida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Fuqaro. Fuqarolik va uning mohiyati.

Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish jamiyat va shaxs (fuqaro) manfaatlariga to'la mos keladi. Shu sababli respublika mustaqilligi sharoitida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish mazmunini tubdan yangilash zaruriyati yuzaga keldi. Fuqarolik tarbiyasini keng ko'lamli (kompleks) tarzda tashkil etish – bugungi kun da'vati va talabi bo'lib qolmoqda. Ushbu talabni ijobiy ravishda hal etish oila - ta'lim muassasalari - jamoatchilik - davlat - jamiyat o'rtasidagi mustahkam hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs. O'z fuqarolariga ega bo'lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo'lmay, muayyan mexanizmga ega subyekt sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy o'rni qonun yo'li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'iy nazar, ma'lum bir davlatga qarashliligi holati fuqarolik deyiladi. O'zbekiston fuqarosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan tegishli qoidalar, belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunlarda ko'rsatilib o'tilgan burchlarni bajaradi.

Fuqarolik huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublikdir. Demak, «fuqarolik o'z davlatiga nisbatan huquq va burchlar bilan bog'langan, huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni nazarda tutadi».

Fuqarolikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir:

- muayyan davlat (jamiyat) a'zosi ekanligini his etish, shaxs taqdiri davlat va jamiyat hayoti bilan uzviy, chambarchas bog'lik ekanligini tushunib yetish;
- xalq, davlat oldidagi fuqarolik huquq va burchlarini qonunchilik asosida bilish, ularga so'zsiz, qat'iy amal qilish;
- o'z xalqi, davlati o'tmishiga hurmat tuyg'usini qaror toptirish, shaxsiy manfattlaridan Respublika (Vatan) manfaatlarini ustun qo'ya bilish, xalq va Vatan ravnaqi, istiqboli uchun kurashishga tayyorlik, yurt tinchligini himoya qilish, asrab-avaylash;
- davlat ramzlariga nisbatan cheksiz muhabbatni qaror toptirish, ularning muhofazasi uchun tayyorlik, davlat ramzlarining millat, xalq or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmati ekanligini anglash;
- ijtimoiy-siyosiy onglilik, ijtimoiy faollik, davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilish;
- milliy va umuminsoniy axloq hamda huquq me'yorlarini buzilishiga nisbatan murosasiz kurashish.

### **NAZORAT SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

1. Ilk odam tushunchasi qaysi manbalarda qo'llanilgan?
2. Odam va inson tushunchalarini farqlab bering?
3. Odam qachondan shaxsga aylanadi?
4. Umr mazmunidan hayot tajribasiga o'tadigan jarayonni aytib bering?
5. Halollik, diyonat, vijdon tushunchalarga ta'rif bering?
6. Husayn Voiz Koshifiy go'zal fe'l-atvorning o'n nishonasi deb, nimalarni nazarda tutgan?
7. Xalqimizning boy madaniy, ma'naviy merosi deganda nimalarni tushunasiz?
8. Inson o'zini anglashda tarixga nazar tashlashi zarurmi?
9. Millat va elat tushunchalarini farqlab bering?

### **TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

1. Insonlar o'rtasidagi do'stlik va birdamlik poydevori – bu ..... hisoblanadi. Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying.

A. Rostgo‘ylik

B. Mehnatsevarlik

C. Qobiliyat

D. Quvnoqlik

2.“Hattoki yolg’iz o‘zing bo‘lsang ham, yomon gapirma va yomon ish qilma. Boshqalarga nisbatan ko‘proq o‘zingdan uyalishni o‘rgan”. Ushbu fikr qaysi mashhur faylasufga tegishli?

A. Demokrit

B. Platon

C. Suqrot

D. Aristotel

3.“Rostgo‘ylik” tushunchasi qaysi tushuncha bilan yonma-yon yuradi?

A. Mehribonlik

B. Intiluvchanlik

C. Vijdon

D. Mehnatsevarlik

4.Inson qalbining qalqoni bo‘lib, noto‘g’ri harakat qilmoqchi bo‘lganida uni axloqiy tartib-qoidaga chaqiruvchi ichki ovozga nima deyiladi?

A. Muhabbat

B. E’tiborlilik

C. Vijdon

D. Jasorat

5.Boshqa insonlarni tushunish, ularning kayfiyatini sezish, hissiyotlarini hurmat qilish qaysi xislatga xos belgilar hisoblanadi?

A. Mehribonlik

B. Sezgirlik

C. Mardlik

D. Qat’iyatlilik

6.Qanday inson o‘z xato va kamchiliklarini tan oladi?

A. Mehnatsevar inson

- B. Quvnoq inson
- C. Haqiqatgo‘y inson
- D. Bolajon inson

7. Axloq me’yorlari noto‘g’ri berilgan qatorni toping?

- A. Rostgo‘ylik, to‘g’riso‘zlik
- B. Samimiylit, e’tibor
- C. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat
- D. Manmanlik, yolg’onchilik.

8. Inson tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan axloqiy , huquqiy vazifalarga nima deyiladi?

- A. Huquq
- B. Burch
- C. Topshiriq
- D. Uyga vazifa

9. Vatanparvarlik tashabbuslari berilgan qatorni toping?

- A. Sportchilarimizning olimpiadalardagi g’alabalari
- B. O‘quvchilarning o‘qishdagi yutuqlari
- C. Shifokorlarning xalqqa astoydil xizmat qilishi
- D. Barcha javoblar to‘g’ri

10. Insonning aytayotgan har bir so‘zi, xatti-harakatlari va ishlari uchun javob berishga qodirligi va tayyorligiga nima deyiladi?

- A. Vatanparvarlik
- B. Rostgo‘ylik
- C. Mas’uliyat
- D. Mehribonlik

### **3-MAVZU: VATAN SAJDAGOH KABI MUQADDAS. OLTIN BESHIK (4 soat)**

#### **Reja:**

1. Vatan nima? Tuproq. Madaniy qatlam. Tarixiy vatan.
2. Vatan tuyg’usi. Vatan sog’inchi. Vatanparvarlikni tarbiyalash.

3. Vatanni sevmoq iymondandir. Vatan qanday himoya qilinadi.
4. Vatanning ma'naviy ustunlari. Vatan ostonadan boshlanadi.
5. Vatanning qiyofasi. Vatan o'zining ulug' farzandlarini unutmadi.
6. Vatan taqdirimiz. Vatan g'urur va iftixorimiz manbai. Vatanparvarlik va kosmopolitizm.

**“Vatan”** so‘zining ma'nosi bugungi kunda juda kengayib ketgan. Hozirgi vaqtida vatan deganda faqat tug'ilgan makonni emas, avvalo o‘zimiz yashayotgan mamlakatni tushunamiz. Inson tug'ilgan, voyaga yetgan xonadon, mahalla, qishloq va shahar esa Vatanichidagi kichik vatandir.

*Buni bilib oling.* “Mahalla” arabcha so‘z bo‘lib, joy degan ma'noni anglatadi. Mahalla odamlarning birikib, jamoa bo‘lib yashash zaruratidankelib chiqqan. Ajdodlarimiz mahallaga uyushib, yaxshi-yomon kunlarda hayotiy muammolarni birgalikda hal qilganlar. Birgalikda, ko‘plashib bajariladigan ishlar esa hashar deyilgan. Bu an'analar bugungi kunda yanada rivojlanib borayotganidan xabardorsiz, albatta. Mahalla ana shunday an'analarni asrab kelayotgani uchun Prezidentimiz uni “milliy qadriyatlar maskani” deb ataydi va quyidagilarni ta'kidlaydi: «O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar awalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan».

Sobiq mustabid tuzum davrida barcha milliy qadriyatlarimiz qatori mahalla ham ta'qibga uchrab, uning faoliyati cheklab qo‘yilgan edi. Mustaqillik tufayli mahallaga e'tibor kuchaydi. Unga fuqarolarning ozini o‘zi boshqarish idorasi maqomi berilib, huquq va vakolatlari qonun yo‘li bilan mustahkamlab qo‘yildi. Mahallalar odamlarni birlashtirib, hamjihat qiladigan, ularning o‘rtasida mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlaydigan, hayotiy masalalarni hal etishda ularga amaliy yordam va maslahat beradigan, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylaydigan boshqaruv idorasiga aylandi.

*Buni bilib oling.* “Qishloq” o‘zbekcha so‘z bo‘lib, *qishlaydigan* joy degan ma'noni bildiradi. Qadimda ota-bobolarimiz bahor kelishi bilan ekin-tikin, bog'-rog'larga qarash uchun dalalarga chiqib ketgan. Tog'li joylarda esa mollarni boqish uchun qir-adir va yaylov larga

yo‘l olganlar. Kuz kelib, hosil yig‘ib olingach yoki tog‘larga qor tushgach, ular yana qishloqqa qaytib kelganlar. Qishni jamoa bo‘lib, uylarda o‘tkazganlar. Bunday odatlar hozirgi vaqtida ham bor. Dehqonlar, cho‘pon-cho‘liqlar yoz mavsumi boshlanishi bilan ish boshiga, ya’ni dalalarga, qir-adirlarga chiqib ketadi. Haqiqatan ham, agarda tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dunyodagi eng yirik shaharlar ham dastlab kichkina qishloq bo‘lgani, zamonlar o‘tishi bilan rivojlanib, katta shaharga, ba’zan hatto qudratli davlatga aylanib ketganini ko‘ramiz. YYevropa qit’asidagi ulkan imperiyaga asos bo‘lgan Rim shahrining taqdiri bunga misol bo‘la oladi. Bugungi kunda xalqimiz iste’mol qiladigan nozne’matlaming asosiy qismi qishloqlarimizda yetishtiriladi. O‘zbekiston tabiatining eng go‘zal manzaralari - serviqor tog‘lar, yam-yashil qiradirlar, bepoyon dalalar, zilol suvli buлоqlar, soylar, rang-barang hayvonot dunyosini qishloqlarimizda ko‘rish mumkin. Ayniqsa, sodda va beg’ubor, qadoqko‘lli mehnatkash insonlar, ular asrlar davomida asrab kelayotgan milliy urf-odat hamda an'analar qishloqlarimizga alohida fayz-u tarovat bag’ishlaydi. Shuning uchun ham yurtimizda qishloqlar rivojiga katta ahamiyat berilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda «Qishloq taraqqiy topsa, yurtimiz obod, hayotimiz yanada farovon bo‘ladi» degan shior asosida ulkan ishlar amalga oshirildi.

*Buni bilib oling.* “Shahar” so‘zi dastlab obod joy, mamlakat, o‘lka, aholi tig‘iz yashaydigan makon degan ma’nolami anglatgan. Qadimda yurtimiz hududida dastlab qal‘a shaharlar paydo bo‘lgan. O‘zaro birikish jarayoni natijasida ular bir-biri bilan qo‘silib, yirik davlatlarni hosil qilgan. Birgina shahardan iborat bo‘lgan sha-har-davlatlar bugungi kunda ham uchrab turadi. Masalan, YYevropadagi Vatikan shahar-davlati bunga misol bo‘la oladi. Lekin aksariyat davlatlar ko‘plab hududlar, shahar va qishloqlarni o‘z ichiga oladi. Shahar so‘zi o‘zbekcha kent, arabcha qal‘a, madina so‘zлari bilan ma‘nodosh bo‘lib keladi. Yurtimizda qadimiy va zamonaviy shaharlar ko‘p. Ularning har biri bizning g‘ururiftixorimizdir.

Madaniy qatlam (arxeologiyada) - inson faoliyatining izlari (qad. inshootlar, qurilish va xo‘jalik chiqindilari, kul va h.k.) saqlangan yer qatlami. Qalinligi bir necha sm dan bir necha 10 m gacha bo‘lishi mumkin. Madaniy qatlam o‘tmishimizning g‘or va ungurlarda, dara va ko‘l bo‘ylarida qad ko‘targan makon va manzilgohlarda hosil bo‘lgan madaniy qoldiqlarning jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda davrma-davr,

ustma-ust joylashishini ifodalaydi. Odatda, arxeologik yodgorliklar bir yoki bir necha madaniy qatlamlili bo'lib, ularning joylashishi, gorizontlarga bo'linishi, ularda uchraydigan arxeologik topilmalarning xususiyati va davriyligiga qarab, ularning nisbiy va mutlaq yoshi aniqlanadi. Odamlar ma'lum joyda muayyan davrdagina yashasa bir madaniy qatlamlili yodgorlik hosil bo'ladi. Bir joyda davom etgan uzluksiz hayot esa ko'p madaniy qatlamlili yodgorliklarni vujudga keltiradi (masalan, Afrosiyob, Qanqa, Buxoro, Yerqo'rg'on va boshqalar). Madaniy qatlam kishilar faoliyatining qoldiqlarini o'rganish va shu qarorgohning tarixini tiklash maqsadida qaziladi.

2. Vatan – bu biz ko'rgan va his qilgan hamma narsa. Inson qalbsiz yashamaganidek, Vatansiz ham yashay olmaydi. Bu tovushlar va ranglar, taassurotlar va kashfiyotlar bilan ajralib turadigan ulkan dunyo. Inson Vatan haqida o'ylaganda, ko'pincha uyi, tug'ilgan joyi haqida o'laydi. Vatan – mamlakatimizning kichik bir burchagi. Bu yerda men tug'ilib, yashayman. Bu – menin Kichik Vatanim, bu – menin butun hayotim. Agar biror kishi uzoqroq bo'lsa, u ham o'z mamlakatini eslaydi. Bu ham Vatan. Vatan qayerdan boshlanadi? Ehtimol, hamma uchun Vatan boshqacha narsadan boshlanadi.

Har birimizning Kichik Vatanimiz bor – biz tug'ilgan, bolaligimiz o'tgan joy. Ammo yana bir katta Vatan – biz yashayotgan mamlakat. Vatan – bu mamlakatimizning bepoyon kengliklari: o'rmonlar, dalalar, daryolar, dengizlar, foydali qazilmalar. Bu bizning mamlakatimizda yashaydigan odamlar va bolalikdan eshitiladigan til. Bu xalq madaniyati, urf-odatlari, urf-odatlari. Bir paytlar bizning zaminimizda sodir bo'lgan barcha narsalar: qayg'ular, muammolar, g'alabalar, yutuqlar - bularning barchasi bizning Vatanimizdir. Vatan hayotning ulkan qismidir. Vatan - hayotdagi eng muhim narsa. Vatan haqida o'ylash degani uning o'tmishi, hozirgi hayotimiz haqida o'ylash, kelajak haqida orzu qilishdir.

Vatan har bir inson qalbining bir qismidir. Har birining o'z vatani bor. Bu sizning bolaligingiz o'tgan joy bo'lishi mumkin. Bu oila, qarindoshlar va do'stlar. Bu dunyodagi eng aziz odam bo'lgan onam! Va biz bilan nima bo'lishidan qat'iy nazar, ikkita so'z asosiy bo'lib qoladi: onam va Vatan. Men onamni sevganday Vatanimni sevaman.

Vatan tuyg‘usi ichdan to‘lib-toshgan, qalbning bo‘sh bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydigan iliqlik tuyg‘usidir. Vatan tuyg‘usi bolalikdan tarbiyalanadi.

Vatan nima?

Bu so‘z har birimiz uchun nimani anglatadi?

Hozirgi kunda odamlar o‘z vatanini chin dildan sevish nimani anglatishini unuta boshlagan.

Vatan tuyg‘usi qanday?

Vatan tuyg‘usi ... Bu nima ?!

Birinchidan, “Vatan tuyg‘usi” bu, eng avvalo, vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik - vatanga muhabbat, unga sadoqat, o‘z harakatlari bilan uning manfaatlariga xizmat qilishga intilish. Albatta, bizning vatanimiz, to‘g‘rirog‘i, davlatimiz xalqaro maydonda birinchi o‘rinni egallashi bilan bahslasha olmaymiz. Ammo, shunga qaramay, biz buni eng yaxshi deb hisoblaymiz. Masalan, shaxsan men boshqa yurtda, boshqa vatanda tug‘ilishni hech qachon xohlamayman. Aslida barchamizda shunday.

Ikkinchidan, Vatan – bu sevgi. Vatanga muhabbat. Har bir inson o‘z vatanini sevadi. Hamma qandaydir tarzda unga bog‘langan. Bu mehr har bir insonga bolalikdan singdirilishi kerak. Vatanga muhabbat har bir inson qalbining ajralmas qismidir. Har birimiz uni sevishimiz kerak.

Uchinchidan, burch hissi bor. Vatan oldidagi qarz. Har birimiz o‘z ona yurtimiz manfaatlarini himoya qilishga, qonunlarga rioya qilishga, urf-odatlarini asrab-avaylashga majburmiz. Har bir inson bu tuyg‘uga ega bo‘lishi kerak. Vatan uchun fidoyilik, fidoyilik qobiliyati insonning eng oliy fazilatidir. Bunday odamlarni hurmat qilish kerak. Bu fazilatga Ulug‘ Vatan urushi qatnashchilari misol bo‘la oladi. Bu odamlar o‘zlarining jasoratlari uchun hurmat qilinishi kerak.

Ona va vatan. Juda murakkab va juda oddiy. Axir, bu baxtni anglash uchun insonga kerak bo‘lgan narsadir. Biz vatani,iz haqida hamma narsani aytishimiz mumkin: uni boshqa mamlakatlar bilan solishtiring. Ammo bu - so‘zda, yurakni esa aldab bo‘lmaydi. Biz Vatanimizni, buyuk qudratimizni chin dildan sevamiz va bundan faxrlanamiz. Vatan shunchaki biz yashayotgan ulkan davlat emas. Bu biz sevadigan va qadrlaydigan, uzoqqa borganimizda sog‘inadigan narsamiz. Tug‘ilgan uy, o‘rmon

yaqinidagi daryo, vayronalardagi buvilar, qarindoshlar, qo'shni uylarning ezilgan panjaralari. Yuz odamdan vatani nimaligini so'rang. Ular ko'p narsalarni sanab o'tadilar, asl narsalarni nomlashga harakat qilishadi. Ammo hamma birlashadi.

Vatanga muhabbat tuyg'usi, unga bo'lган og'ir sog'inch achchiq va mudhish lahzalarda, undan uzoqda bo'lган paytlarda yanada keskinroq seziladi. Yer yuzida juda ko'p go'zal joylar bor, lekin qaerda bo'lsangiz ham, nima qilsangiz ham, ruhingiz uyda qoladi. Daraxt kabi inson o'z yurtiga ildiz otadi.

Vaholanki, vatan faqat siz tug'ilgan zamin emas. Bu odam bog'langan joy, u o'zini uning bir qismi deb hisoblaydi. Vatan – o'zini xotirjam, baxtli his qiladigan joy. Siz doimo kutilgan va sevilgan joy.

Vatan haqida qo'shiqlar, hikoyalar yozilgan. Qanchadan-qancha go'zal she'rlar o'z ona yurtiga bag'ishlangan!

Vatanni sevish – uni asrash, uning merosini asrab-avaylash demakdir. Sevish degani Vatanimiz uchun, farzandlarimiz gullab-yashnashi uchun, ko'zlarida baxtiyorlik porlashi uchun yashash demakdir. Shunday ekan, keling, o'z uyimizni, viloyatimizni, yurtimizni shu yerda tug'ilganimiz uchun qadrlaylik.

3.Vatanni sevmoq iymondandir. Bu jarangdor so'zning asl ma'nosi ona yurt demakdir.Azal-azaldan insoniyat o'z tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan go'shasini onaga tenglashtirib, uni yuragining tub-tubida ardoqlab asragani bejiz emas.

Ayniqsa, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning Makka yaqinidagi tepalikdan turib, tug'ilib o'sgan zaminiga termulguncha ko'z yoshi to'kishi, Najmuddin Kubroning qo'lida vatan bayrog'i ila jon bergenligi hamda Imom Buxoriy kabi ko'plab ulug'larimiz o'z tabarruk nomlarini vatan bilan bog'laganliklari bizga vatan qadriyu muhabbatini qayta-qayta eslatib turgandek bo'laveradi.

Oltin, kumush kabi qimmatbaho buyumlar ham o'tda toblanib, qizdirilib, qiymatga ega bo'lganidek bugungi yorug' kunlarimizgacha ajdodlarimiz ne-ne sinov va ko'rguliklarni ko'rmadi deysiz. Ana shu mash'um tarixning daxshatini keksa avlod vakillaridan juda ko'p bora eshitganmiz. Bir so'z bilan aytganda bu yorug' kunlarimiz Yaratganning buyuk bir in'omi bo'lish bilan birga yelkamizdagи yuksak omonat hamdir.

Bir narsani yaxshi anglashimiz lozimki, o'sha zamonlarda ham O'zbekistonning zamini, hududi o'z joyida edi. Xalqimiz ham aynan shu zamin, shu tuproqda yashar edi. Ammo o'shanda xalqimizning qo'lida hurriyyat, milliy davlat yo'q edi. Ajdodlarimiz o'z uyiga o'zi ega chiqa olishmas, yurak yutib O'zbekiston xalqi mening xalqim deya olishmas edi. Boz ustiga davlat madhiyasi ham boshqa bir xalqqa salom berilib, unga qulluq qilinishdan boshlanardi. XX asrning so'ngiga kelib esa siyosiy jihatdan muhim bir voqeа ro'y berdi. Ya'nikim, ko'p yillik orzu – mustaqillik ne'matiga erishdik.

Mazlum ajdodlarimizning ko'p yillik duolari sharofati ila Mustaqillikning ilk qadamidanoq ulug'ver maqsadlarga boy bo'ldi.

Eng asosiysi, ona yurtimizning har bir go'shasida har kuni musaffo, osoyishta tonglar otmoqda. Hatto eng chekka hududlardagi o'zgarishlarni ko'rib, qalbing suruga to'ladi. Ommaviy axborot vositalari orqali jahon areniyalaridagi g'olib farzandlarimizni ko'rib, beixtiyor qalbimizdan vatan muhabbatи bilan to'lib-toshgan iftixon tuyg'ulari yog'ilib kelaveradi.

Vatan himoyasi – muqaddas burch. Ona Vatan! Nima uchun Vatanni ona so'zi bilan yonma-yon ishlatamiz? Chunki, Vatan ham onamiz singari aziz, mehribon va qadrlidir. Inson dunyoga kelmasidan avval onaning vujudida ulg'aysa, dunyoga kelganidan keyin esa endi Ona Vatanda unib o'sadi. Kishining tug'ilganda kindik qoni to'kilgan yer uning Vatani hisoblanadi. Mana shu Vatanini asrab-ardoqlash, himoya qilish har bir insonning muqaddas burchidir. Axir donolarimiz bekorga aytishmaganku: Tug'ilgan yerdan ko'ngil uzilmas, Yurt qo'riganning yurti buzilmas.

Yurtda vatanni sevadigan, ardoqlaydigan va himoya qiladigan mardlar bor ekan shu yurt doimo yuksalaveradi, gullayveradi. Har bir el, har bir millat uchun o'zining tug'ilib o'sgan vatanidan ardoqliroq maskan bo'lmasa kerak. Rasululloh (s.a.v.) Madinai munavvaraga hijrat qilib ketayotganlarida Makkai mukarrama tomonga yuzlanib: «Agar qavmim meni Makkadan chiqib ketishga majbur qilmaganida, hech ham o'z ixtiyorim bilan uni tashlab ketmagan bo'lar edim», - degan ekanlar. Demak, ona vatanini sevish, undagi bor narsalarni ardoqlash va sog'inib yashashlik insoniyat fitratida mavjud bo'lgan nozik his-tuyg'udir. Qayerga bormasin kishi o'z vatanini baribir qumsayveradi.

Chunki, inson dunyo yuzini ko'rgach birinchi bo'lib vatanidagi havodan nafas ola boshlaydi, vatanidagi tuproqda ilk qadamlarini qo'yib yurishni o'rganadi, dunyonи tanishni shu vatanni anglashdan boshlaydi. Ilk kindik qoni to'kilgan, dastlabki qadamlarini qo'ygan tuproqni himoya qilishlik barchamizning Vatan oldidagi muqaddas insoniylik burchimiz hamdir.

Mustaqillik yillarida yurtimizda davom etayotgan moddiy va ma'naviy taraqqiyot asosida tinchlikni saqlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirish borasida ulkan natijalarga erishildi. Shu maqsadda 1992-yil 14-yanvar kuni mustaqil davlatimiz tarixida yana bir muhim voqeа yuz berdi. Huddi mana shu kun Respublikamiz Qurolli Kuchlari tashkil topdi. 1993-yildan e'tiboran 14-yanvar yurtimizda «Vatan himoyachilari kuni» deb e'lon qilindi.

O'tgan qisqa vaqt davomida milliy armiyamiz hech bir mamlakatdan ortda qolmaydigan darajadagi qurol-aslahalarga, jangovor uskunalarga ega bo'ldi. Respublikamiz Qurolli Kuchlarida xizmat qilayotgan askarlarning saviyasi esa ham ma'nan, ham jismonan yuksak darajaga yetib ulgirdi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini mustahkamlash, zamonaviylashtirish va isloh qilish yo'lida amalga oshirilgan barcha sa'y-harakatlar mustaqilligimizni asrab-avaylash, sarhadlarimiz daxlsizligi, osmonimiz musaffoligi hamda el-yurtimiz osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Yurt tinchligini himoya qilishda har bir soha vakillari o'z sohasi doirasida hissa qo'shishlari lozim. Masalan, o'qituvchi-murabbiylar o'quvchilarga vatan yagonaligi, vatan himoyasi muqaddas burch ekanini tushuntirib borsalar, o'sib kelayotgan yosh avlod vatanga sadoqat hissi bilan o'sib-ulg'ayib kamol topadi. Natijada keljak avlodlarimiz yurt himoyasi naqadar ulkan vazifamiz ekanini qalbdan his qiladilar va bunga qattiq bel bog'lagan vatanparvarlar bo'lib kamol topadilar. Mutafakkirlardan biri shunday degan ekan: «Vatanparvar-o'z vatani kamoloti yo'lida o'z xalqiga muhabbati tufayli moli, kuch-g'ayrati tugul jonini ham ayamaydigan, xalqi va vatanining ozodligi, farovonligi uchun bor budini fido qiluvchi insondir». Bunday vatanparvarlari bor yurt esa doimo tinch, osmoni musaffo, xalqi ahl, rizqi mo'l, hayoti esa farovon bo'ladi.

Bundan tashqari, muqaddas dinimizda vatanni himoyalash muqaddas burch qilib belgilanib, bu hizmati uchun juda katta mukofotlar va'da qilingandir. Jumladan, Imom Taboroniy rivoyat qilgan hadisi sharifda Rasululoh (s.a.v.) shunday marhamat qilganlar: «Alloh taolo roziligi yo‘lida bir kun chegara hududida posbonlik qilish bir oy kechalari ibodat qilib, kunduzlari nafl ro‘za tutishdan afzaldir». Haqiqatdan ham, Vatan himoyachisi bo‘lishlik eng sharaflı va olıy kasb ekanligini yaxshi bilgan yigitlarimiz har tomonlama, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan loyiq bo‘lishlikni yaxshi anglaydilar, ana shu sifat va xislatlarni egallashga doimo harakat qiladilar. Bu vazifalari bilan ular nafaqat o‘z Vatanlarini balki, eng yaqinlari bo‘lmish ota-onalari, qavmu-qarindoshlari, tug‘ilib o‘sigan maskanlari, yurtlaridagi barcha tog‘u-toshlar, gul va rayhonlarni himoya qilgan bo‘ladilar.

Vatanni sevish, uni himoya qilish muqaddas burch va olıy sharafdır. Tinch, osuda, obod va go‘zal vatanda istiqomat qilmoqdamiz. Buning uchun Yaratganga qancha shukrlar aytasak oz. Aslida, Vatanga bo‘lgan muhabbat uning go‘zal va viqorli tog‘lari, sharqiroq soylari, boy vodiylari, so‘lim bog‘lari, shirindan shakar mevalari, shifobaxsh o‘simliklariyu, zilol buloqlari uchun emas, balki, vatan sevgisi insonning tabiatiga singdirilgani, fitratida bor xislatlardan ekanligidandir. Agar vatanga bo‘lgan muhabbat, tashqi go‘zalliklar, qandaydir qulayliklar yoki moddiy omillarga bog‘liq bo‘lganida, bog‘-rog‘, soy va anhorlardan holi cho‘lu biyobonlarda yashayotgan sahro ahli tep-tekis qumliklardan iborat maskanlarini sevmas edilar.

Muqaddas Islom dini ta’limotida vatan muhabbatı ardoqlanadi, targ‘ib qilinadi, maqtaladi. Vatanga xizmat qilish, uni dushmanlardan asrash farz hisoblanadi hamda unga xiyonat qilish eng og‘ir gunohlardan sanaladi va qattiq jazolanadi. Vatan himoyasi va xalq omonligi yo‘lida dushmanqa qarshi kurashda safni tashlab qochish ham katta gunohdir. Mashhur vatandoshimiz imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy rahmatullohi alayhining qalamiga mansub «Al-Adab al-Mufrad» asarida keltirilgan Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning Abu Dardo roziyallohu anhuga qilgan to‘qqiz vasiyatlarining orasida “Dushman bilan to‘qnashilganda orqangga qarab qochma. Agar halok bo‘lsang ham, sheriklaring qochib ketsa ham” – degan o‘gitlari bor edi.

Vatan himoyasi faqat jang maydonlarida emas, balki barcha soha va yo‘nalishlarda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Har jabhada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qayg‘u hissini tuyush, Vatan bilan g‘ururlanish, uning har bir qarich yeriga, binosining har bir g‘ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san’atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash bular hammasi vatanparvarlikdir. Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam vatanni sevishda, unga sadoqat ko‘rsatishda ham butun ummatga go‘zal o‘rnak edilar. U zot boshqa insonlardan farqli ravishda o‘zlariga xos amallari bo‘lishi tabiiydir. Ana o‘sha amallaridan kechani ibodat bilan bedor o‘tkazish va ulab ro‘za tutishdir. Kechasidagi namozni odamlar oldiga chiqmay qo‘yib to‘xtatdilar. Ulab ro‘za tutishni esa sahobalar o‘shanday ro‘za tutishga harakat qilganlaridan keyin man etib qo‘ydilar. Maqsadlari sahobalar sog‘lom va quvvatli yurishlari edi. Chunki Islom namoz va ro‘zani o‘zi emaski, u bilan tugasa. Balki ro‘zg‘or ishi va vatan himoyasi kabi ko‘plab ishlar bor. Yosh avlod kuchli-baquvvat bo‘lib, dushmanlariga xavf soladigan darajada bo‘lishi lozim edi.

Imom Buxoriy va imom Ahmad Salama ibn Akva roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam bozorda kamon otish musobaqasini o‘tkazayotgan aslamlik kishilar huzuridan o‘tib qoldilar va: “Ey Bani Ismoillar! Otinglar! Otangiz mergan edi. Otinglar! Men Bani Fulon bilanman!” dedilar. Shunda taraflardan biri qo‘llarini tiydarlar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Sizlarga nima bo‘ldi? Otmay qo‘ydinglar?” dedilar. Ular: “Siz ular bilan bo‘lsangiz, qanday ham otar edik?!” deyishdi. Shunda u zot: “Otinglar! Men hammangiz bilanman!” dedilar”.

Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam yosh avlodning sog‘lom bo‘lib o‘sishini ta’minlash borasida ota-onalarni farzandlarini badantarbiya bilan shug‘ullantirishga targ‘ib qilganlar.

Hazrat Alisher Navoiy ham o‘zining tirandozlik – kamondan o‘q otish fazilatiga bag‘ishlangan “Risolayi tiyr andoxtan” risolasida kamondan o‘q uzishning qanchalik savobli amal ekanini asoslashga e’tibor qaratilgan. Chunki o‘rta asrlarda yurt himoyasi

askarlarning fidoyi va jasurligi hamda bevosita qurollarni, ayniqsa, kamonni mahorat bilan ishlata bilishi bilan ta'minlangan. Shoir "Saddi Iskandariy" dostonida vatan himoyasi haqida shunday degan edi:

Ayonkim, Vatan uzra to joni bor,  
Kishi harb etar toki imkoni bor...  
Vatan tarkini bir nafas aylama,  
Yana ranji g'urbat havas aylama... .

4. Buyuk xalqimizning qariyb uch mingyillik hayotiy a'moli aks ettirilgan "Avesto" kitobidagi "Ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal" g'oyasi bugungi yangi O'zbekiston mafkurasining ham asosiy tamoyili bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyatimiz hayotida buyuk tariximizdan, ajdodlarimiz qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, bashariyat erishgan umuminsoniy qadriyatlar hamda milliyligimizni bilish va anglashga qaratilgan azm-u shijoatimizdan kuch olgan milliy g'oyamiz yangi O'zbekistonga xos va mos istiqbolni belgilash yo'lida barchamizga mayoq bo'lmoqda.

Buyuk qomusiy olim Mahmud Qoshg'ariyning "Bir qarg'a bilan qish kelmas" naqli e'tiborimizni tortadi. Qadimgi ajdodlarimiz amal qilib kelgan ushbu maqolda birdamlikka intilish mohiyati yotadi. Bu mohiyat bugungi yangi O'zbekiston milliy g'oyasining xalq va millatning bir butun bo'lishi, yagona Vatan tuyg'usi bilan birlashishini ko'zda tutgan asosiy tamoyilida ham aks etmoqda.

Yusuf Xos Hojibning "Budun bayliking'a to'ru tuz qodun", ya'ni "Xalq boy bo'lishi uchun adolatli siyosat kerak" yoki "To'ru suv turur, aqsa ne'mat unar", ya'ni "Adolat suv kabidir, oqsa ne'mat unadi" degan hikmatli iboralari ham bugungi amalgalashishini ko'zda tutgan asosiy tamoyilida ham aks etmoqda.

Shuningdek, "O'rxun-Enasoy" yozma yodgorliklari mazmunini o'rganish chog'ida unda ulug' turk xoqoni Bilga Xoqonni xalqni birlashtirish, bir makon uchun muhabbatli bo'lishga qaratilgan ezgu yo'lidan borganini anglash mumkin.

Zamonlar osha ajdodlarimiz ibratiga yuzlanganimizda chuqur bunyodkorlik, vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan Naqshbandiya tariqati, bu ta'limotning "Dil ba yoru dast ba kor" shiori bugungi hayotimizda ham o'z ifodasini topayotganini ko'ramiz. Umuman olganda, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida "Milliy tiklanishdan

– milliy yuksalish sari" degan bosh g'oyamizning ilk asoslari yuksak bilim va tafakkurga ega ulug' ajdodlarimizning boy merosida aks ettirilgani va munosib davom etib kelayotgani quvonarlidir.

Milliy g'oyamizning yagona Vatan tuyg'usi,adolat – qonun ustuvorligida, xalq roziliqi, innovatsion taraqqiyot, jaholatga qarshi ma'rifat deb nomlangan ramziy ustunlari butun xalqimizga milliy yuksalishni umummilliy harakatga aylantirish yo'lida muhim asos, tayanch tomir bo'lib xizmat qilayotir.

Milliy mafkura har qaysi millatning hayot-mamot masalasi ekanligi ayni haqiqat. U bizning tafakkurimiz, turmush tarzimiz, o'y-maqsadlarimiz, e'tiqodimiz, kerak bo'lsa, har bir vatandoshimizning hayotiy prinsiplari asosida shakllanadi. So'nggi besh yil ichida uddalaganlarimiz, erishgan ulug'vor maqsadlarimiz, xalqimiz qalbida nafaqat buguni, ertangi taqdiri, kelajagi uchun katta umid va shijoat uyg'onganining o'ziyoq bu borada to'g'ri va ishonchli yo'lda ekanligimizni anglatadi.

Shu o'rinda, qariyb bir asrdan ortiq davr silsilalarini yodga oladigan bo'lsak, ma'rifatparvar jadidlarimiz orzu qilgan, kurashib, intilib o'tgan timsol aynan yangi O'zbekiston g'oyasi edi. Aslida "jadid" so'zining ma'nosi ham "yangi" demakdir. Jadidchilik harakatining mohiyati milliy o'zlik va milliy ma'rifat asosida bunyod etilgan yangi Vatan qurish, dunyoga ma'naviy-ma'rifiy porloq nigoh bilan qaraydigan yangi xalqni tarbiyalashdek ulug'vor maqsadga qaratilgan edi. Bugun davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev boshlab bergan yangi O'zbekistonni yaratish, yurt yelkasini ezib kelgan kechagi og'riqlardan qutulib, butunlay yangicha hayot barpo etish maqsadi aynan jadidlarimizning ulug'vor sa'y-harakatlari bilan mushtarak deb aytalimiz. Zotan, jadidlarimiz boshlab bergan ulug' yo'l bardavomdir, uni davom ettirishga har bir yosh, har bir yurtdoshimiz qodir bo'lmog'i kerak.

Bundan anglashiladiki, jadidlar o'lмаган, ularning timsoli mayoq bo'lib porlab turibdi, fidoyi zotlar boshlab qo'ygan milliy mafkura davom etadi. Vatan va xalq birligiga, milliy taraqqiyotga asoslangan tamoyillarga qayta jon kirdi.

Bugun mamlakatda amalga oshirilgan izchil o'zgarish va yangilanishlar, hayotbaxsh islohotlarni, ularning samarasidan bahramand bo'lib yashayotgan yangi

avlod ham, umuman, har bir vatandoshimiz ham jadid bo‘ladi, islohotlarga yelkadosh, suyanch bo‘ladi.

5. Vatanparvarlik tuyg’usi kishining o‘z Vatani va uning tabiatiga, xalqiga, xalqining o‘tmishdagi va hozirgi qahramonligiga, tili va san’atiga bo‘lgan otashin muhabbatini ifodalaydi. Qadim zamonlardan buyon xalqning o‘z Vataniga muhabbat qo‘sishlarda, ertaklarda va sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida tarannum etib kelinadi. Vatanga muhabbat tuyg’usi insonlarni har doim mehnat qahramonligiga, xalqning baxt- saodati uchun kurashga undaydi. Vatanparvarlik – tug’ma tuyg’u emas. SHuning uchun ham boshlang’ich sinflarda bu tuyg’uni tarbiyalashga muhim o‘rin berilgan. Vatan haqidagi boshlang’ich bilimlar bolalarda ularning hayotiy tajribalari zaminida, tevarak- atrofdagi hayot to‘g’risidagi muayyan tasavvurlari asosida hosil bo‘ladi. Vatan - har bir kishida o‘z uyiga, tug’ilib o‘sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota- ona, aka- uka, opa- singillariga bo‘lgan munosabatida aks etadi. Ona – Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o‘zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg’usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg’uni ona allasi parvarish etadi, voyaga yetkazadi. Inson o‘z Vatanida kamol topadi. Qadrlanadi. Hayot mакtabini o‘taydi. Farovonlik va baxt – saodatga erishadi. Ayniqsa, mustaqillik tufayli O‘zbekistonning shon-shuhrati, moddiy va ma’naviy boyligi butun jahonga taraldi. O‘zbekiston 100 dan ortiq G’arb va SHarq mamlakatlari bilan iqtisodiy, ma’naviy jihatdan aloqalar o‘rnatdi. Vatanimiz o‘z bayrog’i, gerbi, madhiyasi, kontitutsiyasiga ega. Jahon bo‘ylab xilpirab turgan O‘zbekiston bayrog’ida xalqimizning ruhi, g’urur-iftixori, qudrati, orzu- intilishlari mujassamlashgan. Davlat bayrog’i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan – milliy bog’liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy- madaniy an’analalarini o‘zaro mujassamlashtiradi. Vatan so‘zi hamisha ona so‘zi bilan yonma- yon keladi. Bu shunchaki sifat, odatiy majoz emas. Ona – Vatan timsolida biz jamiyatimiz tabiatini, mehribonlik va muvofiqlik poydevoriga qurilgan tuzumimiz xislatini ko‘ramiz. O‘zbekistonning mustaqilligi tufayli Vatan tarixi moddiy va ma’naviy merosga aylandi. Okean ortidagi mamlakatni birinchi bo‘lib kashf etgan Abu Rayhon Beruniy, ne-ne sarkardalar tig’ kuchi bilan ololmagan joylarni qalam kuchi bilan zabit etgan Alisher

Navoiy, tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali Ibn Sino, buyuk matematik al - Xorazmiy, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahon ahliga mashhur bo‘lgan ma’rifatli o‘zbek millatining qalbi, aqli, xulqi, bilimi, tili, sarkardorligi bilan hurmat topgan yurtdoshlarimizni butun dunyo biladi, ularga ham Vatan ona o‘rnida ona, ota o‘rnida ota bo‘lgan. SHuning uchun ham ona zamin ona –Vatan, ona yer kabi tushunchalar hayotimizga, ongimizga singib ketgan. Necha yuz yillardan buyon ne –ne ulug’ farzandlarni o‘z quchog’iga olgan ona Yer, ajdodlarmizga onalik qilgan. Ha, u ota- bobolarmizning onasi bo‘lgan. U bizning onamiz va kelajak avlodning onasi bo‘lajak. Vatan sog’inchi, Vatan haqidagi falsafiy fikrlar sharq mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyotida ham ilgari surilgan.U o‘z Vatanini tashlab ketgan va begona yurtlarda yurganida doimo vatanini qo‘msagan.

Tole’ yo‘qi jonimg’ a balolig’ bo‘ldi,  
Har ishnikи ayladim xatolig’ bo‘ldi,  
O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim,  
Yorab, netayin, ne yuz qarolig’ bo‘ldi.

Bu baytda Vatan diydori sog’inchidagi komil qalbning ruh mushtoqligi ko‘rsatilgan. Odam Vatan bilan birlikka erishsa, u nafaqat o‘z elining balki, olamning ehtiromiga sazovor bo‘ladi. Bunday kishini esa xalq tushunadi, dunyo taniydi. Vatan qalbi beg’ubor olam, uni asrab –avaylash har birimizning muqaddas ishimizdir.

Vatan! Ne- ne aziz insonlar voyaga yetgan, uning porloq istiqboli, fazlu – komili uchun jon fido etgan zamin. El borki, Vatan bor – Vatan borki, el bor. Elsiz Vatan – biyobon. Vatansiz el – darbadar. Shuning uchun qadimda elim deb Vatanni e’zozlaganlar.

Ta’kidlaganimizdek, Vatan tushunchasi turli zamonlarda turlicha talqin etilgan. Vatan so‘zi bugungidek mag’rur jaranglamagan. Jonajon yurtimiz mustaqilligi tufayli Vatan deb atalmish - bu ko‘hna zamin yanada chiroy topdi. Butun dunyoga yuz tutdi. Haqiqatan ham, tarix o‘zbek xalqining hozirgi avlodi zimmasiga g’oyat buyuk, muqaddas bir vazifani yukladi. Bu – Vatanni Vatan qilish burchidir.

Vatan – har bir kishida o‘z uyiga, tug’ilib o‘sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota-onas, aka-uka, opa- singillariga bo‘lgan munosabatida aks etadi. Ona Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o‘zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg’usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg’uni ona allasi voyaga yetkazadi:

Tog’lardagi shunqorim-a, alla,  
Bog’imdagi bulbulim-a, alla,  
Beshikdagi qoplonim-a, alla,  
Qo‘limdagagi botirim-a, alla,  
Alla aytib yurayin-a, alla,  
Qo‘zichog’im bolam-a, alla,  
Katta bo‘lib jonim-a, alla,  
Vatanga sodiq bo‘l-a, alla.  
Ko‘zimning nuri-ya, alla,  
Mehr-oqibatli bo‘l-a, alla.

O‘zbekiston istiqloli tufayli yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash masalasiga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Chunki ma’naviy kamol topgan insonlargina barkamol jamiyat qurishlari mumkin. O‘zbekiston istiqlolini mustahkamlashda va uni rivojlantirishda ma’naviy sog’lom avlodni voyaga yetkazish va ularda vatanparvarlik haqidagi milliy urf-odatlarimizni shakllantirish zarur. Zero, xalqimizning qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan vatan va vatanparvarlik tuyg’ulari ma’naviyatimizning asosidir. Hadisi shariflarda “Vatanni sevmoq imondandir”, deb bejiz aytilmagan. Vatanni sevish – vatanparvar bo‘lish demakdir. Vatan ma’naviyat va madaniyat, fan, adabiyot va san’at o‘chog’i hamda bulog’idir. Inson uchun Vatandan yuksakroq boylik yo‘q. Imon-diyonatdan gap ketganda, avvalo ko‘z o‘ngimizda moziy gavdalanadi. Imonni, diyonatni tiklamay turib, istiqloli va istiqboli buyuk Vatanni yarata olmaymiz. Vatan va vatanparvarlik hissini, millat hissini har bir o‘zbek fuqarosi chuqur anglashi, ayniqsa, o‘zbekistonlik bo‘lganidan, shu yurtga daxldorligidan faxrlanishi lozim. Vatanning har bir asl farzandi o‘zini, ota yurtining ajralmas bo‘lagi, deb his etayapti va bundan faxrlanayapti. Istiqlol bergen eng katta boyliklardan birinchisi ana shu desak, aslo yanglishmagan bo‘lamiz. Kelajakda buyuk davlat darajasiga ko‘tarilish maqsadi

yo‘lida intilayotgan O‘zbekiston xalq hayoti, turmush tarzi, urf- odatlari, ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirmoqda. Vatanparvarlik – bu ona zaminga bo‘lgan muhabbat, uni sevish, e’zozlash. Uning ravnaqiga har bir fuqaroning o‘z hissasini qo‘shishga erishish. Vatanparvarlik - bu ona Vatan, mustaqil O‘zbekiston tushunchalarini o‘z ongiga singdirish va unga sodiq bo‘lishga erishish. Vatanparvarlik - bu Vatanimiz xalqiga, uning an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o‘z xissasini qo‘shish, uning haqiqiy jonkuyari bo‘lish demakdir. Vatanparvarlik – bu o‘zbek xalqining qadim-qadimlardan Turon, Turkiston deb atab kelingan ko‘hna zaminning tarixini bilishga erishish. Vatanparvarlik – bu o‘zbek xalqining madaniy meroslari hisoblangan madaniyat, san’at, me’morchilik yodgorliklarini asrab -avaylash va ularning tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyatni bilish. Vatanparvarlik - bu o‘z millatiga, ona yeriga, imoniga sodiqlikdir. Vatanparvarlik – bu sog’lom kuchlar, sog’lom tafakkur egalari, dini, imoni pokizalikdir. Vatanparvarlik – bu Vatan oldidagi mas’uliyat, millat manfaati bilan yashash. Vatan taraqqiyoti, milliy obro‘siga hissa qo‘shish, foyda keltirish, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon –shuxrati va manfaatini o‘ylash, insonparvar bo‘lish demakdir. Vatanparvarlik – bu har bir kishining o‘z xalqiga bo‘lgan fidoyiliklari va xalq dardini o‘z dardlaridek o‘ylab yashash, O‘zbekistonning buyuk davlat bo‘lishiga hissa qo‘shishdir. Vatanparvarlik – shaxsni axloqiy shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham bolalarda vatanparvarlik tuyg’usi go‘daklikdan boshlab shakllantirilsa, u so‘nggi nafasgacha boqiy bo‘ladi. Shuning uchun har bir insonda yoshligidanoq quyidagilarni mujassamlantirish maqsadga muvofiqdi:

1. Mustaqillik his-tuyg’usini shakllantirish va unga amal qilish.
2. O‘zbek milliy g’ururiga sodiqlik.
3. Ko‘p millatli O‘zbekiston xalqiga do‘stlik munosabatlari.
4. Jamiyatni insonparvarlashtirishda o‘z xissasini qo‘shish.
5. Har bir yerda tartib-intizomli bo‘lish.

Demak, ona yurtga munosib farzand bo‘lish uchun namunali axloq – odob bilan o‘rnak ko‘rsatish, Vatan uchun jon olib, jon bergenlarni hamisha yodda tutish, el-yurt manfaati yo‘lida mtnatdan qochmaslik tamoyillariga amal qilishdir. Chunki Vatan

tuyg'usi, vatanparvarlik hissi o'zbek millatining qadriyatlaridan chuqur o'ren egallagandir. Vatanni sevish va uning daxlsizligini saqlash uchun shu muborak Vatanni boshiga og'ir kun tushishi shart emas, albatta. Har bir harakatimiz, amalga oshgan, oshmagan niyatlarimiz, kurtak yozayotgan orzu-umidlarimiz har kuni, har soniya Vatan taqdiri bilan bog'lanadi. Muqaddas vatanparvarlik tuyg'usi qalbimizda jo'sh urar ekan Vatan biznikidir.

Demak, har bir sog'lom avlodda o'z xalqining an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalash kerak. Ana shundagina o'z xalqini, millatlarning butun hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy inson, o'z Vatanining jonkuyari voyaga yetadi. Shunday ekan har bir kishining qalbida o'z vataniga buyuk e'tiqod, oljanob muruvvat his- tuyg'ulari barq urib tursa, bu ajoyib ne'matlarni umrbod ardoqlasa, hayotda, turmush tarzida qo'llasa, shundagina u sofdil, samimiyl va odil fazilatli haqiqiy vatanparvar bo'la oladi.

Vatanparvarlik tuyg'usi uyingning ostonasidan boshlanadi, deydilar, bu – to'g'ri, lekin u boshlangan yerda to'xtab qolsa, milliy mahdudlikka, mahalliy parastlikka aylanib qolishi mumkin. "Bil'aks, Ulug' Vatan sari yo'l boshlasa, u seni xalqlar do'stligining go'zal bo'stoniga olib kiradi. Yashab turgan o'lkangga bo'lgan muhabbating xalqlar do'stligi chashmasining bosh irmog'i bo'lib, bu irmoqlar qo'shilib baynalmilal do'stlikning ulug' ummoniga quyiladi. Ona –Vatanning go'zal tabiatidan zavqlana bilmagan va uni zebo qilish uchun kurashmagan kishidan vatanparvar chiqmaydi. Chunki uning dilida Vatan ishqisi yo'q. Chin insonning sevgisi uning Vatanga bo'lgan muhabbati bilan egizak bo'ladi va bu hissiyotlar bir – biridan quvvat oladi. Yashab turgan o'lkang, oilang, o'qib turgan bilim o'chog'ing bilan faxrlanib yashashga odatlanmog'ing lozim, chunki insondagi vatanparvarlik tuyg'usi ana shulardan boshlanadi. O'zingdag'i barcha fazilatlar uchun avvalo ona –Vatandan va oljanob insonlardan qarzdorsan", deydi mutafakkir bobolarimiz.

Vatan va Vatanparvarlik tuyg'usini o'zbek shoiri Furqat shunday ta'riflaydi:

Vatanim bog'iga bir kun mujdai gulyor muqarrar,

Chamanim xusniga gulgun chehrai diydor muqarrar.

Tasvir suratini til ila izhor etarg'a,

Bu dilim mulkiga ilhom, misrai ash'or muqarrar.

Vatanparvarlik – fuqarolik madaniyatining muhim mezoni sifatidagi umumbashariy fazilatlardan biri bo‘lib, inson va uning ajdodlari, avlodlarining kindik qoni to‘kilgan muqaddas dargohga munosabatini anglatadi. Vatan bu – xalqning o‘tmishi va bugungi kelajagidir. U insonni ma’naviy kamolotga yetkazuvchi baxt – saodatga eltuvchi o‘choqdir. Bu ta’rif vatanparvarlikning, fuqarolikning, fuqarolik jamiyatini barpo qilish, uning kishilarida fuqarolik burchi va mas’uliyati, milliy g’urur va iftixor tuyg’usi kabi fuqarolik madaniyatining tarkibiy qismlarini yoshlardan, avvalo muqaddas ramzlar – Davlat tamg’asi, Davlat bayrog’i, Davlat madhiyasini hurmat qilishni, ularni iftixor bilan tilga olishni va ularga cheksiz sadoqat bilan qarashni talab etadi. Qadim zamonlardan boshlab ota- bobolarimiz, momolarimiz tomonidan Vatan, Vatanparvarlik haqida ertak, doston, afsona, rivoyat, maqol, matal, masal, hikoyalar ijod qilinganki, ular bugungi kunda yosh avlodni vatanparvar qilib tarbiyalashda, ular ongiga Vatan to‘g’risidagi ilk tushunchalarni singdirishda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Yoshlar ongiga Vatan to‘g’risidagi ilk tushunchalar mana shu xalq og’zaki ijodi janrlari vositasida beriladi. E’tibor bering:

Birovning yurtida bek bo‘lguncha, O‘z yurtingda it bo‘l;

Vatan gadosi – kafan gadosi;

Vatani borning baxti bor. Mehnati borning – taxti bor.

Davlatimiz ramzlari – bayroq, gerb, madhiya O‘zbekiston xalqlarining shonsharafi, g’ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e’zozlash, o‘zining qadr-qimmatini, o‘z mamlakatida va shaxsan o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. Bu esa oilaning ham, o‘z Vatanining ham shon-shuhratini oshiradi. Umuman olganda, o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik texnologiyadan foydalanish o‘qituvchilardan juda ko‘p samarali mehnatni talab etadi.

6. Kosmopolitizm (grekcha: *Κόσμος*, *kosmos* - olam va *Πολίτης*, *polites* - fuqaro) - „jahon fuqaroligi“ deb atalgan g‘oyani targ‘ib qiluvchi mafkura. Iskandar (Aleksandr) yurishlari davrida paydo bo‘lgan. Uyg‘onish va ma’rifatchilik davrlarida jahon fuqaroligi ideali olg‘a surilib (Dante, Kampanella), individning zamindor boylar

zulmidan ozod bo‘lish g‘oyasini (Lessing, Gyote, Shiller, Kant, Fixte) ifodalagan. Kosmopolitizm milliy an’ana va madaniyatdan, vatanparvarlikdan voz kechishga - bevatanlikka da’vat etadi. Bu - vatanparvarlikni ortiqcha deb e’lon qilgan burjua mafkurasi, xalqlarning mustaqillikka erishish huquqini rad etgan g‘oyalar to‘plami.

Cosmopolitan - bu o‘z mamlakatining fuqaroligidan va ildizidan voz kechib, o‘zini butun dunyodagi barcha mamlakatlarning fuqarosi, deb tan olgan inson. Falsafada bunday shaxslar bitta davlatning - Cosmopolis, o‘sha Koinotning fuqarolari deb ataldi.

Kosmopolitizmning ramzi jahon fuqaroligining g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaydigan tashkilot - Butunjahon fuqarolik hukumati bayrog‘ining emblemasidir. Ular hozirgi kunda bu yerda turli mamlakatlardan 750 ming kishi ro‘yxatdan o‘tgan. Hozircha Mavritaniya, Tanzaniya, Togo va Ekvador ushbu hujjatlarni qabul qilishgan. Bayroq dunyoda yozilgan shaxsning rasmini aylana kabi tasvirlaydi. Bu har bir insonning vatani sayyoramizning har qanday nuqtasini hisobga olish huquqini ramziy qiladi, chunki ona yurt - bu butun dunyo.

Cosmopolitanizm - ijobiy va salbiy tomonlari. Sovet davridagi "kosmopolitizm" tushunchasi salbiy xususiyatlarga ega edi, garchi ko‘pgina taniqli shaxslar bu g‘oyani o‘zлari tarafdarlari deb jasorat bilan da‘vo qilishgan. Tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra:

Asosiy ijobiy fikrlar:

Vatanga bo‘lgan muhabbatni istisno qilmaydi, lekin faqatgina jamoat farovonligini baholashning eng yuqori toifalarini aniqlaydi.

Bu shovinizmning namoyon bo‘lishiga to‘sinqilik qiladi, bir xalqni boshqalardan ustun qo‘yishga urinadi. Boshqa xalqlarning madaniyatiga qiziqish uyg‘otadi.

Asosiy salbiy fikrlar:

Odamlarning ongida ajdodlar xotirasini, ma’naviy va milliy qadriyatlarni yo‘q qiladi. Mamlakatingiz uchun g‘urur tuyg‘usini pasaytiradi.

Qanday qilib kozmopolit bo‘lish mumkin?

Odatda kozmopolit vatanidan voz kechmaydigan, balki butun vujudni vatan deb hisoblaydigan shaxs. U shu kabi g‘oyalarga tayanadi:

Muayyan mamlakatlar va millatlar yo‘q, bitta yer va bir inson irqi mavjud.

Jamiyatning foydasi shaxsiy emas.

Odamlarni teri rangi, imoni va jismoniy nogironligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas.

Zamonaviy izohlashda kosmopolitlar boshqalar boshqalarning xohish-irodasiga, individuallikka hurmat va muayyan bir millatga mansub bo‘lmaqlarini tushunishadi. Xalqaro huquq irqiy yoki siyosiy imtiyozlarni, natsistlarning namoyon bo‘lishini va muayyan davlatning alohida-alohidaligini e’lon qiladigan shaxslar tomonidan ushbu g’oyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Kozmopolitizmning ta’siri. "Cosmopolitan" yoki "dunyo fuqarosi" - odatiy tamoyillardan ozod bo‘lgan bunday lavozim hokimlarga mos kelmasdi. Mamlakatlarining faxri, uni himoya qilish va himoya qilish istagi har doim vatanparvarlik va har qanday davlatning ichki siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. Sovet rahbarlarining kozmopolitikligiga, ayniqsa, bu mafkurani ochib berishga katta e’tibor beradigan Stalindan boshlab, g’ayrat bilan hujum qildilar.

Kozmopolitizmga qarshi kurash. O‘tgan asrning o‘rtalarida Sovet Ittifoqidagi kosmopolitlarga qarshi kurash G’arb g’oyalariiga ko‘rkam hisoblangan intellektuallarga qarshi repressiyalarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu mafkura tarafdarlariga qarshi kampaniya nafaqat tortishuvlarda, balki "xalq dushmani" deb ataldi va ular ishdan bo‘shatilgan, ta’qib qilinadigan bunday qarama-qarshiliklarda ko‘rilgan lagerlarga murojaat qilishdi.

Ushbu mafkuraga qarshi kurashning ikkinchi bosqichi, Sovuq urush davrida, odamlar partiyaning g’oyalariiga sadoqat bilan birlashishi talab qilingan paytda tushib ketdi. O‘zini bir vaqtning o‘zida barcha davlatlarning fuqarosi deb tan olish, shu jumladan mavjud tizimga dushmanlik deyarli xiyonat bilan tenglashtirilgan edi. Kozmopolitlarga qarshi muntazam ravishda shov-shuvli kompaniyalar uyushtirildi, shuning uchun yahudiylar har doim bu rolni tanladilar. Ular vatanparvarlik tuyg’usi va o‘z xalqini boshqa millatlarga qaraganda ko‘proq tanlaydilar.

Mashhur kosmopolitlar. "Kosmopolitizm" dunyoqarashi ko‘plab taniqli shaxslar tomonidan jozibador bo‘lib ko‘rindi va ularning har biri o‘z tushunchasiga ega edi. O‘zini kosmopolit faylasuf Diogenes deb e’lon qilgan birinchi shaxslar, shaxsiy manfaatlarga nisbatan vatanparvarlikning ustunligini ta’kidladilar.

Mashhur fizik Eynshteyn Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi huzurida tashkil etilgan konstitutsiya - yagona hukumatni birlashtirishi va tan olishi kerakligini e'lon qildi.

Amerika Prezidenti Truman Qo'shma Shtatlar rahbariyati bilan jahon respublikasini yaratish g'oyasini maqtadi.

Aktyor Garri Devis o'zini o'zini dunyo fuqarosi deb e'lon qildi va hatto bunday pasportlarni har kimga topshiradigan tashkilot tuzdi.

Kosmopolitizm haqida kitoblar. Kozmopolitik siyosat turli mamlakatlardan ko'plab tadqiqotchilarni jalb qildi, ularning har biri o'z argumentlarini "mavjud" va "qarshi" nazariyalarni topishga harakat qildi.

Yu Kirshin "Kosmopolitizm insoniyatning kelajagi". Muallif qadimgi Yunoniston, Xitoy va boshqa mamlakatlardagi kosmopolitizm g'oyalarini ochib beradi, keljak uchun muhim bo'lgan maqsadlarni tahlil qiladi.

Tsukerman Ethan. "Yangi ulanishlar. Raqamli kosmopolitlar kommunikativ davrda". Mashhur bloger keljakni o'zgartiradigan ijtimoiy tarmoqlarni va yangi texnologiyalarni ta'riflaydi.

A.Potresov "Xalqaroizm va kosmopolitanizm. Demokratik siyosatning ikki bosqichi". Kitob ushbu mavzudagi muammolarni ko'taradi. Bu ikki tendensianing muxolifati menshunoslar partiyasiga, ularning taqdirdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

D. Najafarov. "Stalin va kosmopolitizm 1945-1953 yillar. KPSS Markaziy qo'mitasining hujjatlari". U bu mafkuraga qarshi kompaniyani sovet rahbariyati siyosatining muhim qismi, deb biladi.

Fugères de Montbron. "Cosmopolitan yoki Dunyo fuqarosi". Muallif mafkuraning vatandan qanday ajralib turishini tasvirlaydi, bu dunyo kitobga o'xshashligini ta'kidlaydi va faqatgina o'z mamlakatiga tanish bo'lgan, faqat bitta sahifani o'qiydi.

## **NAZORAT SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

1. Vatan tuyg'usi ... Bu nima ?!
2. Nima uchun Vatanni ona so'zi bilan yonma-yon ishlatamiz?
3. Milliy g'oya deganda nimani tushunasiz?
4. Milliy mafkuramizni asoslab bering?

5. Muqaddas Islom dinida vatanga muhabbat tuyg'usi qanday ifodalanadi?
6. Millatparvar ota-bobolarimizning mavzuga oid purma'no fikrlaridan keltiring
7. O'zbek milliy g'ururiga sodiqlik deganda nimani tushunasiz?
8. Jamiatni insonparvarlashtirishda o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering?
9. Kosmopolitizm nima?
10. Vatanning ma'naviy ustunlari deganda nimalarni tushunasiz?

### **TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

1. Boshqa insonlarni tushunish, ularning kayfiyatini sezish, hissiyotlarini hurmat qilish qaysi xislatga xos belgilar hisoblanadi?
  - A.Mehribonlik
  - B.Sezgirlik
  - C.Mardlik
  - D.Qat'iyatlilik
2. Qanday inson o'z xato va kamchiliklarini tan oladi?
  - A.Mehnatsevar inson
  - B.Quvnoq inson
  - C.Haqiqatgo'y inson
  - D.Bolajon inson
3. Davlat tomonidan berilgan, biz foydalanishimiz mumkin bo'lgan imkoniyat nima?
  - A. Burch
  - B. Mas'uliyat
  - C. Huquq
  - D. Talab
4. His-tuyg'u guruhlari tog'ri berilgan qatorni toping?
  - A.Ijobiy tuyg'ular va salbiy tuyg'ular
  - B.Betaraf tuyg'ular
  - C.Bir yoqlama va ko'p tomonlama tuyg'ular
  - D.A va B javoblar to'g'ri

5. Ijobiy his-tuyg'ularga qanday tuyg'ular kiradi?

- A.Xursandchilik, shodlik, mammuniyat, ilhomlanish
- B.Qo'rquv, g'azab, qayg'u, umidsizlik, xafagarchilik
- C.Ajablanish, bee'tiborsizlik, loqaydlik
- D.Barcha javoblar to'g'ri

6. Mas'uliyatsizlik qanday oqibatlarga olib keladi?

- A. Insonni muvaffaqiyatga erishish imkonidan mahrum qiladi, insonni ojiz qiladi.
- B. Insonni o'zgalarning qoidalari asosida yashashga majbur etadi, shaxs sifatida shakllanishi yo'qolib boradi.
- C. O'z oldiga qo'ygan maqsadlari tomon dadil harakat qiladi.
- D. A va B javoblar to'g'ri.

7. Mas'uliyatlilik insonga qanday yordam beradi?

- A. Muhim va mustaqil qarorlar qabul qilishda;
- B. Xulosa chiqarib, xatolarni tuzatishda;
- C. O'z oldiga qo'ygan maqsadi tomon harakat qilishda;
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

8. Quyidagi maqollarning qaysi birida mehr insonlar uchun qimmatli boylik ekanligi ta'kidlangan?

- A. Hayot yaxshi ishlar uchun beriladi
- B. Mehr – gul, qahr – tikan
- C. Mehr – insonning xazinasi
- D. Uyat yuzda bo'lar, mehr – ko'zda

9. Kichik uka-singillarimizga o'z mehrimizni qanday namoyon etishimiz mumkin?

- A. Ularga muzqaymoq olib berish orqali
- B. Doimiy multfilm tomosha qilish orqali
- C. Kun bo'yi ular bilan ko'chada o'ynash orqali
- D. Darslarini tayyorlashga yordam berish orqali

10. Mehribon odamlar bilan do'stlashish va bunday odamlar bilan muloqot qilish nimalarga sababchi bo'ladi?

- A. Hayotga bo'lgan qiziqishning oshishiga

- B. Ezgu amallar qilish istagining paydo bo‘lishiga
- C. Insonlarga ishonchszilik paydo bo‘lishiga
- D. A va B javoblar to‘g’ri

#### **4-Mavzu: OILA TARBIYASI (4 soat)**

##### **Reja:**

- 1.O‘zbek oilalari va ularning o‘ziga xosligi. Qarindosh urug’chilik. Oilada kattalarga hurmat va kichiklarga izzat tushunchasi.
- 2.Ota-onalik majburiyatları. Farzandlik majburiyatları. Ota-onaning haqqi. Farzandning haqqi.
3. Oilaviy tantanalarni tashkil etish odobi. An’analar va innovatsiya.
- 4.Oilada mehnat tarbiyasi.Oilaviy kasbga yo‘naltirish.
- 5.Qush uyasida ko‘rganini qiladi. Oilada kitobxonlik. Oilaviy byudjet.
- 6.Aka-ukalik va opa-singillik majburiyatları. Silai rahm.
- 7.Mustahkam oila – jamiyat tayanchi.

1. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, yangi hayot, yangi jamiyat qurishga kirishdi. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin – demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevori barpo etildi. Siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Davlatimiz dunyodagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan mustahkam o‘rin egallay boshladi. XXI asrning dastlabki yilidanoq ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot barpo etish – O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g’oyasiga aylandi. Asosiy maqsad yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qilish, jamiyat a’zolarini, aholining barcha qatlamlarini O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etish, millati, tili va dinidan qat’iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida mustaqillik g’oyalariga sadoqat va o‘zaro hurmat tuyg’usini qaror toptirish bo‘lib qoldi. Albatta, milliy istiqlol mafkurasing bosh g’oyasi va uning maqsadlarini o‘quvchi - yoshlar ongiga singdirishda ta’lim-tarbiya bilan bir qatorda oilaning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, oila mafkuraviy

tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri hisoblanadi. Oila – jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy manbalarga ega.

Zero, insonning taqdiri ham, kelajakdagi yutuqlari ham, kasb tanlashi ham, axloqli – odobli bo‘lishi ham oilaga bog’liqdir. Chunki, farzandlarimizning yaxshi xulqi, axloqi oilada kamol topadi.

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq jamiyat hayotida milliy qadriyatlarni tiklash va ular asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustivor yo‘nalishiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g’inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida turish huquqiga ega” deb ta’kidlanishi bilan birga ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetganlariga qadar boqish va tarbiyalashga, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g’amxo‘rlik qilishga majbur ekanliklari Bosh Qomusimizda ko‘rsatilgan.

Darhaqiqat, oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash kelajagimiz garovidir. Shuning uchun ham bolalarda yoshligidanoq milliy urf-odatlar, udumlar, an'analar va axloqiy madaniyat haqidagi tushunchalarni shakllantirish oilaga bog’liq. Bolaning pok va sof sadoqat, ma’naviy jihatdan yuksak bo‘lib o‘sishi, oilaning mustahkam, tinch va totuvligiga bog’liq. Chunki unda tarbiyalanayotgan yosh avlod ham ma’naviy jihatdan yetuk, sog’lom, mustaqil fikrli komil inson bo‘lib voyaga yetadi. Albatta bolaning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi oila totuvligi, uning davomiyligi oila a’zolarining ruhiyatiga,o‘zligini qanchalik darajada anglaganligida, o‘z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo‘lgandagina to‘laligicha ta’milnadi.

Oilada mehr-muhabbatning ustuvorligi bolada ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning asosini tashkil etadi. Biroq oila, o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra har bir farzand uchun o‘ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega. Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib, oila a’zolarining o‘z burchlari, bir-biriga nisbatan ezgulik, mehr-oqibat, yaxshi va munosib tarzda yashash, oilasining, qarindosh-urug’lari va yaqin odamlarining, qo‘snilarining omon-esonligi to‘g’risida g’amxo‘rlik qilish bolani ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, kattalarning yoshlarga bergen saboqlari, ro'zg'or tutish, bola tarbiyalash bobidagi tajriba o'g'il va qizlarga oila mustahkamligini ta'minlashda keyin ham asqotadi.

Oila – tarbiya maskani. Shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarini, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob, muomala qoidalarini ham o'zlashtirib boradi. Ota-onas o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy maqom qadriyatlar ona suti, oila a'zolarining mehri va namunasi bilan bola xulqi, ongiga singiydi. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, ma'naviy, gigiyenik, jinsiy tarbiyasida oila asosiy omil va vosita hisoblanadi. Bu o'rinda misoli ota-onas – san'atkor, bola – san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir.

O'zbek oilalariga xos yana boshqa xarakterli xususiyatlar ham mavjud. Ular uzoq yillar davomida shakllanib, qadriyat darajasiga ko'tarilgan va bugungi kunda ham o'z qimmatini saqlab qolmoqda. Ya'ni, bolajonlilik, serfarzandlik, mehnat taqsimotining qat'iyligi, oila byudjetining ota-onas tomonidan boshqarilishi, kichiklarning kattalarga izzat-ikromi, oila g'ururi, sha'nini himoya qilish uning har bir a'zosi uchun burchga aylanib qolganligi, tug'ilib o'sgan joyga alohida mehr-muhabbat tuyg'usini rivojlantiradi.

Tarbiya murakkab va uzoq davom etadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, u farzand tug'ilmasdan ancha oldin boshlanadi. Ya'ni, bo'lajak ota-onaning salomatligi, kayfiyati, nasl-nasabi, dunyoqarashi, ichki va tashqi dunyosi, axloq-odobi, moddiy va ma'naviy darajasining mosligi, turmush qurishga ma'naviy va jismoniy tayyorligi farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir.

Oilada amalga oshiriladigan tarbiyaning mazmuni farzandlarda o'z ota-onasidan, oilasi, ajdodlari, tug'ilib o'sgan o'lkasi, Vatani, millati, xalqi, tili, dini, an'analaridan g'ururlanish hissini uyg'otishdan iborat. Xullas, insonning dastlab oila sharoitida shakllanib yetiladigan barkamol ma'naviyati yuksak ma'naviyatlari jamiyat barpo etishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, bola o'z tarbiyasiga ko'ra g'oyat ta'sirlanuvchan bo'ladi. Ota-onalar o'z bolalarini bilishlariga nisbatan bolalar o'z ota-onalarini

yaxshiroq biladilar. Bola ilk yoshligidanoq kattalarning harakatlariga taqlid qiladi, ularning so‘zlarini takrorlaydi. Kishi ulg’aygach, bolaligida ko‘rgan hamma narsani takrorlamaydi, ammo ana shu narsalarning barchasi uning qalbida, ongida o‘zidan qandaydir iz qoldirgan holda saqlanib qoladi. Shuning uchun ham oilada bolalarga beriladigan nasihat va o‘gitlar, ma’rifiy g’oyalar, shaxs tarbiyasi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

Oilada ilm olishning qadri, bilimli va donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo‘stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ’ib etuvchi, o‘z manfaatini ko‘zlagan molparast, baxil, ochko‘z, do‘siti va xalqiga xiyonat kabi xislatlar haqida fikr yuritilishi ta’lim-tarbiyaga katta ta’sir etadi. Chunki oila muhitida bolalarni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat etish to‘g’risidagi fikrlar farzand barkamolligining asosini tashkil etadi.

Oilada bolalarni ilm olishga da’vat etish, bilimli kishilardan yaxshilik kelishiga ishonish, ularning fikrini eshitibgina qolmay, amalda unga rioya etish lozimligi haqidagi o‘gitlar, ilm-ma’rifat ishlari, ezgu maqsadlarni amalga oshirish muhim xususiyatlardan hisoblanadi. Chunki, inson ilm-ma’rifatli bo‘lsa, odamlarga huzur baxsh etadi. Bilimli bo‘lish bilan birga, yomon xatti-harakatlarni sodir etishdan saqlanish zururligi, manmanlik, maqtanchoqlikning zararli oqibatlari xususida nasihatlarni bayon etish oiladagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Ma’lumki, bilimli, ma’rifatli bo‘lish kishining kibr-havodan uzoqroq turishini ta’minlaydi, o‘gitlarda insonning kibr-havodan uzoq bo‘lishi atrofdagi kishilar bilan ijobiy munosabatni o‘rnata olishi uchun zamin hozirlaydi. Ilm sari intilish qutlug’, ezgu ish sanaladi. Demak, har bir kishi ilm o‘rganish sari intilishi, o‘zlashtirilgan bilimlarga amal qilishi, kibr-havodan voz kechishi zarurdir. Ilm o‘rganish yo‘lida aziyat chekkan, mashaqqat tortgan kishigina uni to‘laqonli o‘zlashtira olishi, kasb-hunar sirlarini mukammal egallashi mumkin. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning xususiyatlaridan yana biri bu aqlni rivojlantirishdir. Chunki, aqli odamning zehni o‘tkir bo‘ladi, u har qanday o‘git-nasihatni tezda o‘z ongiga singdirib oladi. Inson zehnining o‘tkirligi, har qanday muammoni hal eta olish layoqatini xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning yerdagи o‘ljani ko‘rib, unga ega bo‘lish ilinjida pastga sho‘ng’ishida

sodir etadigan tezligidir. Oqil odam zehnining tezligi qush parvoziga qiyoslanadi. Aqlli, bilimli kishilar behuda gaplarga ahamiyat, befoyda, o‘zgalarga ziyon yetkazuvchi ishlarni amalga oshirmaydi. Nojoiz berilayotgan hadyalarga uchmaydi. Amalga oshirayotgan har bir harakati evaziga in’om-ehson kutmaydi, baxosi u qadar baland bo‘lmagan sovg’alarni o‘z qadr-qimmatidan yuqori qo‘ymaydi.

Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash xususiyatlaridan yana biri xushxulqlikdir. Bilim va hunar egasi bo‘lish, ezgulik, yaxshilik yo‘lida hamda umum manfaati uchun mehnat qilish xushxulq insonga xos fazilat hisoblanadi.

Kishilar o‘rtasida juda totuvlik, o‘zaro ahillikning yuzaga kelishi yurtning farovon bo‘lishi, odamlarning to‘kin-sochin yashashining asosiy omilidir.

Oilada bolalarni inson shaxsi va uning qadr-qimmatini ulug’lashga o‘rgatish, mehmondo‘stlik, do‘stlik, o‘zaro hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olish va kasbhunar egallashga nisbatan ishtyoq va ehtiyoj, vatanparvarlik va qon-qardoshlik tuyg’usiga ega bo‘lish, tejamkorlikning ahamiyati va isrofgarchilikning oldini olish, adolat vaadolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, axloq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o‘gitlar haqida ma’lumotlar berish insonni yoshlikda aniq bir maqsadga intilishga tinimsiz harakat qilish, voyaga yetganida uning rohatini, mehnati natijasini ko‘rish tushunchalarini shakllantiradi.

Ko‘rinib turibdiki, oilaning ta’lim-tarbiya borasidagi donishmandligi bola kamolotining asosini tashkil etadi.

2. Ota-onalarning huquq va majburiyatları - oila huquqi sohasi. Avvalo, ota-onalar o‘z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar. Bola haqida g‘amxo‘rlik qilish, unga ta’lim-tarbiya berish ota-ona uchun faqat axloqiy qoida bo‘lib qolmay, balki konstitutsiyaviy huquq va burchdan ham iborat.

Ota-onalarning huquq va majburiyatları 2-turga bo‘linadi: shaxsiy huquq va majburiyatlar; mulkiy huquq va majburiyatlar. O‘zR Oila qonuniga ko‘ra, ota-onalarning huquq va majburiyatları ga o‘z farzandlari bilan birga yashash, ularning tarbiyasi bilan shug‘ullanish, ota-onalik huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirish, bolalarning sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, bolalarning qonun hujjalarda belgilangan zarur darajada ta’lim olishini

ta'minlash, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kabilar kiradi. Oilaviy huquqiy munosabatlarda qonunchilik bolalar manfaatining ustuvorligini belgilaydi. Ota-onasi va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda, vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilganidek, ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Ota va ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar. Farzand to'la muomalaga layoqatli bo'lsa, uning majburiyatlari bo'yicha, xususan, u yetkazgan zarar oqibatida kelib chiqqan majburiyatlar bo'yicha ona-onalar javobgar bo'lmaydilar.

Shaxs quyidagi hollarda to'la muomalaga layoqatli deb topiladi:

voyaga etganda (18 yoshga to'lganda);

voyaga etmagan shaxsni to'la muomalaga layoqatli deb topish (emansipatsiya);

voyaga etmagan shaxs qonuniy nikoh munosabatlariga kirishganda.

Ota-onasi o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

Ota-onasi o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart.

Ota-onasi o'z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega.

Ota-onasi bolalarining qonun hujjalardan belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'minlashi shart.

Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik jarimaga sabab bo'ladi. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi.

Ota-onasi o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar.

Vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-onasi va bolalar manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik borligi aniqlanganda, ota-onasi o'z bolalarining manfaatlarini

himoya qilishga haqli emas. Ota-onan va bolalar o‘rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo‘lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlashi shart.

Ota-onan bolani qonunga asoslanmasdan ushlab turgan har qanday shaxsdan uning qaytarilishini talab qilishga haqli. Nizo chiqqan taqdirda, ota-onan o‘z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishga haqli. Bu talablarni ko‘rishda sud bolani ota-onasiga qaytarish uning manfaatlariga zid degan xulosaga kelsa, bolaning fikrini hisobga olgan holda ota-onanining da’vosini rad qilishga haqli.

Agar sud ota-onan ham, bolani o‘z qaramog‘iga olgan shaxs ham bolaga lozim darajada tarbiya berishni hamda uni kamolotga etkazishni ta’minlay olmaydilar, deb topsa, bolani vasiylik va homiylik organi qaramog‘iga olib beradi.

Muqaddas Islom dini insonlarni doimo yaxshilikka chaqiradi va yomonlikdan qaytaradi. Insonlarning huquqiga nisbatan bo‘ladigan har qanday tajovuzni man qiladi. Huquqlar ichida eng muhimi ota-onanining o‘z farzandi zimmasidagi haqlari, farzandning o‘z ota-onasi oldidagi burchidir.

Ota-onan har bir inson uchun juda mo‘tabar va e’zozlik kishilardir. Dinimiz ota-onan qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ularni hurmat-ehtirom qilishga buyuradi. Dunyoda islom dinichalik ota-onanining hurmatini yuqori qo‘ygan ta’limot yo‘qdir.

Ma’lumki, ota-onalar o‘z farzandlarini cheksiz mehr-muhabbat va shafqat bilan tarbiya qilib o‘stiradilar. Binobarin, har bir farzandning zimmasiga ham aqlan, ham shar’an o‘z ota-onalariga nisbatan behisob burch va vazifalar yuklanadi. Jumladan Qur’oni karimning bir qancha oyatlarida ota-onalarimizga yaxshilik qilishga buyuriladi.

Alloh taolo ota-onaga zinhor ozor bermaslik va ularning so‘zлари-yu fe’llарини hech bir malol olmaslikka buyurib, quyidagicha xitob qiladi: “Rabbingiz, Uning O‘zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey inson!) Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga “Uf!” dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so‘z ayt!” (Isro,23).

“Ularga yoqimli so‘z ayt!” deganda ota-onani nomi bilan chaqirmaslik, balki “otajon”, “onajon” kabi so‘zlar bilan yosh go‘daklarga xos muomala qilish, ularni

ranjitadigan gaplarni gapirmaslik, ular oldida o‘zini kichik bir kishidek tutish kabilarni tushunish kerak.

Janobi Rasuli Akram sollallohu alayhi vasallam ham ko‘p hadisi shariflarida ota-onalarga yaxshilik qilish, ularning roziliklarini topish uchun harakat qilishga buyurganlar. Jumladan: “Parvardigorning roziligi ota-onaning roziliklariga bog‘liq. Uning g‘azabi ham ota-onaning norozigiga qarab bo‘ladi”. Demak, har qanday farzand o‘z ota-onasining xizmatini ado qilish bilan jannatni, ularga ozor berish bilan do‘zaxni qo‘lga kiritishi mumkin.

Ota-onasi vafot etgandan so‘ng ham farzandning burchi tamom bo‘lmaydi. Balki ularning do‘sst va qarindoshlari bilan yaxshi aloqada bo‘lishi lozim. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Yaxshiliklarning eng afzali bir kishi otasi vafot etgandan so‘ng uning do‘sstlari bilan aloqa qilishidir”, deb marhamat qilganlar. Farzand har qancha ota-onasini hizmatini qilsa ham baribir ularni oldidagi burchlarini ado eta olmaydi. Har bir farzand ota-onasi oldidagi burchini bilishi zarur.

Ota-onangiz sizdan rozimi?

Imom Nasafiyidan rivoyat qilinishicha, farzand ota-onasi oldida oltmisohada burchli va qarzdor ekan. Quyida shularni ba’zisini muxtasar holda alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.

I.Tan bilan xizmatda bo‘lish.

- Tanu vujudingiz bilan ota-onasi xizmatida hoziru nozir turing.
- Gunoh bo‘lmaydigan ishga buyurishsa, buyruqlarini shu zahoti, so‘zsiz bajo keltiring.
- Hatto hajga yoki ilm izlab ketayotgan bo‘lsangiz ham, ularning roziligesiz safarga chiqmang.
- Biror ishni bajarishdan qaytarishsa (agar bu qaytish gunoh bo‘lmasa), qayting.
- Ularni ko‘rganda o‘rningizdan turing va o‘ltirganlaridan keyingina o‘ltiring.
- Ota-onasi bilan ko‘chada ketayotganda oldinga o‘tib ketmay, bir qadam orqada yuring (faqat loy, muzgarchilikda yoki qo‘riqlash ma’nosida oldinda yoki yonida yurishga ijozat beriladi).
- Ularning nomlarini aytib chaqirmang, hazil-mazah qilmang.
- Ular huzurida qovoq solmang, ho‘mrayib qaramang.

- Chaqirishsa "labbay" □ deb huzurlariga tez yetib boring.
- Ular hizmatida ish buyurishsa, erinchoqlik bilan malol ko'rmang.

## II. Til bilan xizmatda bo'lish.

- Ota-onangiz bilan so'zlashganda yumshoqlik va odob bilan gaplashing.
- So'zlashgan paytda ovozni baland ko'tarmang.
- Ota-onha huzurida zaruriyatdan ortiqcha gaplarni gapirmang.
- Gaplashayotganda so'zlarni bo'lib tashlab yoki so'z qistirib ketmang.
- Ularni so'zlarini also rad qilmang.
- Ular bilan buyruq yoki ta'na ohangida gaplashmang.
- Ota-onaga qahr ohangida gapirib, norozi qilmang.
- Tanbeh bilan gapirmang.
- Biror xizmat buyurishsa yoki maslahat berishsa "uf" □ demang.

## III. Dil bilan hizmatda bo'lish.

- Dil-dildan ota-onangizga rahm-shafqat ko'rsating.
- Ota-onani chin dildan do'st tuting.
- Ularni shodlik paytlarida hursand bo'ling.
- Ota-onani g'amgin holatida hamdard bo'ling.
- Ular tomonidan biror kamchilik o'tsa, ranjimang.
- Qilayotgan ishingiz yoki aytayotgan gapingiz haq bo'lsa ham, ularga ozor yetkazishdan tiyiling.
- Ularga ozor bermaslikni doimo niyat qilib yuring.
- Ulardan jafo ko'rsangiz ham, umrlari uzun bo'lishini tilang.

## IV. Mol bilan xizmatda bo'lish.

- O'zingiz libos kiysangiz, ota-onangizga ham olib bering.
- O'zingiz yegan narsalardan ularni ham bahramand eting.
- Ular bilan ovqatlanganda lazzatli joyini taklif eting.
- Ular o'zlariga to'q bo'lsa ham, sizga izhor qilolmaydigan hojatlari uchun molingizdan berib turing.
- Biror orzu-niyatlari bo'lsa, uni barpo qilishga tirishing.
- Ota-onaning dillari xohlagan narsaga ularni tez-tez taklif qilib turing.

- Ularning do'stlarini do'st deb yo'qlang va bu bilan yuzlarini yorug' qiling.
- Ular bemorligida sog'lig'i uchun sadaqa qiling va Allohdan shifo tilang.
- Alloh sizga ato etgan mol-dunyo ixtiyorini ularga ham berib qo'ying.
- Ota-onaning dunyoviy ehtiyojlarini muhayyo etishga tirishing. (Ahmad Tursun, Abdulhay Tursun. "Ota-onsa rizosi" kitobidan).

Ota - onaga yaxshilik va farzandlik burchi.

Qarindoshlar orasida eng yaqini ota - ona va farzandlar bo'lganligi uchun boshqa qon - qarindoshlarga nisbatan bularning haqlari va burchlariga oid fikrlar ko'proqdir. Rasululoh sallallohu alayhi va sallam buyuradilar:

- Farzand otasining qarzini hech qanaqasiga uzolmaydi. Faqat uni qullikga tushgan holda topsa va sotib olib ozod qilsagina uning haqqini uzgan bo'ladi.

- Ota - onaga ehson bermoq va izzat-ikrom qilmoq, namoz o'qish, zakot berish, ro'za tutish, hajga - umraga boorish va Alloh yo'lida jihod qilishdan fazilatliroqdir.

- Kimki, ota-onasini ma'mnun etgan holda erta bilan o'rmidan tursa, ularga jannatning ikki eshigi ochiladi. Kimki, ota-onasini ma'mnun qilgan holda shomga kirsa ham shunday bo'ladi. Agar birini ma'mnun etsa jannatning bir eshigi ochiladi. Aslo ota - onaga qarshi bormang - zulm o'tkazgan bo'lsalar ham, o'tkazmagan bo'lsalar ham. "Kimki ota - onasini ranjitgan holda tong ottirsa, uning uchun jahannamning ikki eshigi ochiladi. Kimki ota-onasini ranjitgan holda kunni kech qilsa ham shunday bo'ladi. Agar birini ranjitsa, do'zaxning bir eshigi ochiladi. Aslo ularga qarshi bormang - zulm o'tkazgan bo'lsalar ham, o'tkazmagan bo'lsalar ham".

- Jannatning hidi besh yuz yillik masofadan seziladi. Ota - onasini ranjitgan va sira rahm qilmagan (ya'ni bir - birlari bilan qarindoshchilik aloqlarini uzgan) kimsa uning hidini sezmaydi.

- Onangga, otangga, opangga, singlingga, akangga, ukangga, so'ngra boshqa yaqin qarindoshlaringning hammasiga yaxshilik qil.

(Abu Homid G'azzoliy "Mukoshafat - ul qulub" ("Qalblar kashfiyoti") kitobidan)

Anglashimiz mumkinki, ota- onalarimiz oldidagi burjlarimiz, ularning bizdag'i haqlari tunganmasdir.

3. So‘nggi yillarda xalqimizning uzoq yillik qadriyatlari va an’analarini o‘zida aks ettirgan to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazishda shuhratparastlik, o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, boshqalarning ijtimoiy ahvolini inobatga olmaslik, isrofgarchilik, xalqimizning urf-odatlari va an’analarini mensimaslik kabi illatlar ko‘zga tashlanmoqda. Bunday salbiy illatlarga barham berish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qaroriga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, shuningdek, fuqarolar yig‘inlarida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarning o‘tkazilishini tartibga solish masalalari bo‘yicha komissiyalar tuzildi.

Biroq o‘rganishlar tahlili, shuningdek aholi bilan bevosita o‘tkazilgan muloqotlar, jamoatchilik vakillaridan kelib tushgan murojaatlar ushbu sohada bir qator jiddiy muammo va kamchiliklar hamon saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, ayrim fuqarolar dabdabali to‘y marosimlari va ularni o‘tkazishga sarflanadigan katta xarajatlar oqibatida qarzga botmoqda va undan qutulish maqsadida chet elga ishlash uchun chiqib ketmoqda.

Ba’zi fuqarolar to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni dabdaba bilan o‘tkazishni qo‘snilar, qarindoshlarning tanqidlaridan, qoralashidan, umuman olganda, jamoatchilik bosimidan xalos bo‘lish vositasi sifatida tushunmoqda. Vaholanki, bunday tadbirlar yaqin qarindoshlar o‘rtasida qarzdorlikning vujudga kelishiga va oqibatda keskin ziddiyatlarga olib kelmoqda.

Aksariyat aholi, ayniqsa, xotin-qizlarning ongida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda qiz tomonning sarf-xarajatlari qanchalik yuqori bo‘lsa, qaynona-kelin munosabatlari shunchalik yaxshi bo‘ladi, degan noto‘g‘ri tasavvur tobora mustahkamlanib bormoqda.

“Charlar”, “aqiqa marosimi”, “muchal to‘yi”, “qiz majlis”, “kuyov chaqiriq”, hayitda “kelin ko‘rish” kabi marosimlar aholi tomonidan ortiqcha, deb baholanmoqda. Biroq bunday marosimni tashkil etayotgan shaxslarda tadbirlarni obro‘liroq joyda o‘tkazishga, o‘zining yutuqlarini ko‘z-ko‘z qilishga, moddiy mavqeい bilan maqtanishga intilish kuchaymoqda.

Aksariyat to‘yxona egalari ixcham va kamxarj o‘tkazish niyatida bo‘lgan fuqarolardan to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishda belgilangan qoidalarga zid ravishda to‘y xarajatlarini ikki-uch baravar miqdorda asossiz undirib olmoqda. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda san’atkorlar haddan ziyod baland narxlarda xizmat ko‘rsatmoqda, o‘z tomosha xizmatlarini ko‘rsatish davomida milliy mentalitetimiz, qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizga mos kelmaydigan, “ommaviy madaniyat” illatlarini targ‘ib qiladigan hamda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xatti-harakatlar namoyish etilmoqda.

Yuqoridagi salbiy holatlarning tobora avj olishi ming-minglab oilalarning nafaqat ijtimoiy ahvoliga, balki butun hayotiga, qolaversa, jamiyatimizda qaror topgan ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur holatlarga chek qo‘yish, oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirish, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minalash, aholi, ayniqsa, yoshlarda tejamkorlik madaniyatini shakllantirish maqsadida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni qat’iy tartibga solishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

An’ana – o‘tmishdan keljakka meros qoladigan, avloddan avlodga o‘tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy qadriyat. Milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy va boshqa an’analar bor. An’analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Odamlarning turmush tarzi, moddiy sharoitlari turli an’analarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Muayyan ijtimoiy tartib-qoidalar, axloq me’yorlari, urf-odat, marosim va boshqa an’ana sifatida namoyon bo‘ladi. An’analarni: a) ijtimoiy-tarixiy hodisa; b) jamiyat hayotidagi jarayonlarning tarkibiy qismi; v) kishilar hayoti va faoliyatini belgilash mezoni; g) jamiyat va odamlarni boshqarishning ma’naviy omillaridan biri sifatida tavsiflash mumkin. n’analar yoshlarni tar-biyalash, ularni keksa avlod tajribalariga o‘rgatish vositasi hamdir. Har bir davrning o‘z an’analari bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, mazmunan boyib boradi, ba’zilari yo‘qoladi, yangilari vujudga keladi. Shuningdek, bir zamonning an’analari ikkinchi zamonga mos kelmasligi mumkin. Davr talabiga javob bermaydigan an’analar unutiladi. Har bir xalqning an’analarida o‘sha xalqning turmush tarzi, madaniy kamolot darjasи, milliy ong va qiyofasi ham aks etadi. Bular jumlasiga

keksalarga hurmat, qarindosh-urug‘, mahalla-ko‘y bilan oqibatli, yaqin aloqada bo‘lish, el-yurtga sadoqat, hashar, mehmondo‘stlik, nonni e’zozlash va boshqa kiradi. O‘zbekistonda Navro‘z, Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Ro‘za hayiti, Qurbon hayiti va boshqa xalq bayramlari yaxshi an'analar sifatida hayotga singib ketgan.

An'analar va urf-odatlar. O‘zbek oilasining asosiy o‘ziga xos xususiyatlari mehmon do‘stlik va yoshi kattalarga an'anaviy hurmat-ehtiromli muomala qilishdir. O‘zbeklar odatda bir nechta avlodlardan iborat bo‘lgan katta oilalar tarkibida yashaydi, shuning uchun ular ko‘proq hovlisi bo‘lgan katta uylarni yoqtirishadi. Maishiy hayotida mehmondo‘stlikning bir qismi bo‘lgan choyxo‘rlik marosimi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda choy damlash va uni mehmonlarga quyib berish faqat mezbonning mutlaq huquqi bo‘ladi. Tushlik yoki kechki ovqatga takliflarni doimo qabul qilish va o‘z vaqtida kelish qabul qilingan. Mehmonga kelayotganda o‘zi bilan birga mezbonning bolalari uchun suvenirlar yoki shirinliklarni olgan yaxshi. Odatda faqat erkaklar bilan qo‘l berib so‘rashishadi. Ayollar hamda uzoqroq o‘tirgan kishilar bilan o‘ng qo‘lini yuragiga qo‘yib, boshini ohista egib salomlashish lozim. Qo‘l berib so‘rashish paytida an'anaga ko‘ra kishining salomatligi, ishda va uydagи ishlari ahvoli to‘g’risida so‘raydilar. Qishloq joylarda mehmon kelgan paytda ayollar odatda erkaklarning suhabatiga xalal bermaslik uchun ular bilan bir dasturxonga o‘qtirmaydilar. Ayollarning go‘zalligiga qoyil qolish va ularga jiddiy e’tibor berish qabul qilinmagan. Turar joy xonasiga kirishda poyafzal yechiladi. Mezbon ko‘rsatadigan o‘ringa o‘tirish kerak. Bunda ushbu joy kirishdan qanchalik uzoqda bo‘lsa, shunchalik hurmatli bo‘ladi.

O‘zbek xalqining urf-odatlari asrlar bo‘yi o‘zbeklar millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an'analarining uyg‘unlashuvidanagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o‘ta o‘ziga xos, yorqin va turli-tuman bo‘lib, urug‘chilik patriarchal munosabatlaridan kelib chiqadi. Urf-odatlarning ko‘pchiligi oilaviy hayotga oid bo‘lib, bolaning tug‘ilishi va tarbiyasi (beshik to‘yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to‘yi, to‘y) bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pincha ular islom urf-odatlarining sehregarlik amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy kirib ketishini namoyon etadi. Islom qabul qilinganidan beri ko‘pgina oilaviy-maishiy urf-odatlar uning ta’sirida o‘zgargan, o‘zbeklarning

hayotiga musulmon diiy marosimlari kirib kelgan. Juma kuni bayram kuni hisoblanadi va shu kuni barcha yig'iladigan masjidda umumiy namoz (duo) o'qiladi. Patriarxal urfatlar masjid, choyxonalar, bozorda o'tadigan hamda faqat erkaklar ishtirok etadigan ijtimoiy hayotda hozirgacha ham yashamoqda.

Innovatsiya - bu nafaqat turli xil innovatsiyalarni yaratish, balki ularni amalga oshirish, ijtimoiy hayot va amaliyatda jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarishda ham, jamiyatda ham innovatsiyalarga munosabat har xil bo'lishi mumkin, lekin asosan u bipolyardir. Qoidaga ko'ra, innovatsiyalar aholining bir qismining qo'llab-quvvatlashiga va boshqa qismining qattiq rad etilishiga javob beradi. Buning sababi shundaki, innovatsiyaning asosiy xususiyati shundaki, innovatsiya doimo mavjud an'analardan uzilishdir. Innovatsiyani madaniy og'ishning o'ziga xos turi deb hisoblash mumkin, uning ijobiy ma'nosi shundaki, u eskini rad etish, zamonaviyni safarbar qilish va yangini kengaytirishni rag'batlantiradi. Innovatsiyalarning paydo bo'lish va tarqalish jarayonini ko'rib chiqsak, innovatsiya har doim ijodkorlikning namoyon bo'lishi, o'ziga xosligi, demak, mavjud umume'tirof etilgan an'analardan chekinishi bilan boshlanishini ko'ramiz.

O'z navbatida, jamiyatning barcha a'zolari bunday qobiliyatlarga ega emas, bu "ijodiy ozchilik" deb ataladi. Jamiyatning katta, konservativ (va ko'pincha tajovuzkor) qismi, turli bostirish vositalari orqali, qattiq ijtimoiy nazorat, tsenzura, barcha turdag'i taqiqlar, qonunchilikdagi to'siqlar kengroq ijtimoiy hamjamiyat tomonidan yangiliklardan xabardor bo'lishi yoki dastlabki qabul qilinishini oldini olishga intiladi. Madaniy mexanizmlarga qarab, innovatsiyalarni qabul qilish va tarqatishga to'sqinlik qiladigan yoki aksincha, bunga hissa qo'shadigan madaniy selektorlar, yangilik rad etilishi yoki keng jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi mumkin. Masalan, Sharq va Afrikaning bir qator mamlakatlarida islom qabul qilingan, chunki islomda ruxsat etilgan ko'pxotinlilik mahalliy aholi madaniyatining bir qismi bo'lgan.

Umuman, innovatsiyalarning jamiyatga kirib borish jarayoni diffuziya xususiyatiga ega - innovatsion xususiyatlar va xulq-atvor shakllarini ma'lum bir jamiyat ichida ham, turli jamiyatlar bilan aloqa qilish orqali guruhdan guruhga taqsimlash. Bu, masalan, yevropaliklar uchun nisbatan yangi oziq-ovqat mahsulotlarining (kartoshka, qahva,

ba'zi mevalar) kirib kelishi taqdiri. Innovatsiyani nafaqat natija sifatida, balki madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida ham ko'rish mumkin. Bu tarixiy o'zaro ta'sir bo'lishi mumkin, chunki innovatsiya - bu mavjud madaniyat doirasida yangisini tug'ilishi va amalga oshirishi, garchi uni olib keladi. Lekin bu bir vaqtning o'zida turli madaniyatlarning o'zaro ta'sir qilish jarayonidir. Ikkala holatda ham bu murakkab, qarama-qarshi jarayon bo'lib, innovatsiyalar mos kelmasligi, ularni qabul qiluvchi madaniyat bilan mos kelmasligi mumkin. Agar innovatsiyalar haqiqiy madaniyatda mavjud bo'limgan yangi madaniy naqshlarni kirlitsa, unda quyidagi rivojlanish yo'llari mumkin:

1) innovatsiyalar mavjud madaniy naqshlarga qo'shilib, madaniyatni boyitadi. Bu ijtimoiy innovatsiyalarni ziddiyatsiz qabul qilish variantidir. Yangi jamiyatga eski madaniyat namunalaridan voz kechmagan holda kiradi. Jamiyat asta-sekin, evolyutsion tarzda yangi naqshlarni ishlab chiqadi, ularni eski, tanish bo'lganlar bilan taqqoslaydi. Faqat yetarlicha uzoq vaqtadan keyin odamlar eski, eskirgan shakllardan voz kechishadi va tanish bo'lgan yangilarini to'liq qabul qilishadi. Bu madaniy naqshlarning ijtimoiy moslashuvining evolyutsion turi. Misol uchun, bizga G'arbdan kelgan yangi sport turlarini (masalan, deltaplan) yoki musiqiy innovatsiyalarni (Amerika jazz, hard rock va boshqalar) yaxshi qabul qilamiz. Yuqoridagilar bilan bog'liq holda innovatsiyalarning ijtimoiy-madaniy ta'siri muammosi paydo bo'ladi. Sotsiologiyada innovatsiyaning turlicha ijtimoiy ta'siri mavjud (V.Ogber):

1. Bitta ixtiro yoki kashfiyotning ko'p ta'siri (avtomobilni joriy etish sanoatning shakllanishiga olib keldi, odamlarning harakatlanish vaqtini qisqartirdi, u insoniy qadriyatlarga, bozor munosabatlarini tashkil etishga ta'sir qildi, yo'llar qurilishini rag'batlantirdi, bo'sh vaqt ni o'zgartirdi) ;

2. Jamiyatda sivilizatsiyaviy, ijtimoiy, madaniy o'zgarishlarni yuzaga keltiradigan alohida ixtiro yoki kashfiyotning o'zboshimchalik bilan ta'siri. Masalan, avtomobil ixtirosi natijasida paydo bo'lgan ta'sir ijtimoiy hayotning turli sohalarida ko'plab keyingi ta'sirlarga ega: odamlar faoliyatining xarakterini o'zgartiradigan avtomobilsozlik paydo bo'ldi, o'z navbatida bu o'zgarish bandlik muammolarini, dam olish muammolarini keltirib chiqardi va boshqalar.

Shunday qilib, innovatsiyalar, agar ular darhol qabul qilinmasa va mavjud madaniy naqshlar, qadriyatlar va me'yorlarga zid bo'lsa ham, ma'lum bir ta'sir ko'rsatadi va madaniyatga e'tibor bermay qolmaydi. Radikal innovatsiyalar, qoida tariqasida, kuchli ta'sir ko'rsatadi, chunki ular nafaqat mavjud madaniy naqshlarni yo'q qiladi va yangilarini yaratadi, balki ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini ham o'zgartiradi. Jamiyatga, unda mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimiga aynan shunday chuqr ta'sir ko'rsatdiki, avtomobil ixtirosi va keng joriy etilishi kabi yangiliklar, ommaviy axborot vositalari(matbuot, radio, televideniye) va boshqalar.

Qoida tariqasida, deyarli har qanday jamiyatdagi har qanday yangilik ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishiga olib keladi, bu esa, o'z navbatida, innovatsiyalarni joriy etishni sekinlashtiradi. Bu hodisa jamiyatning innovatsion inertsiyasi (qobiliyatsizligi) deb ataladi va u ko'proq yoki kamroq ifodalanishi mumkin. Xuddi shu muammolar korxona yoki tashkilotda innovatsiyalarni joriy etishda paydo bo'ladi. Va birinchi navbatda, yangilikni joriy qilishda uning tarafdorlari va muxoliflari o'rtasida qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi. Innovatorlar innovatsiyalar natijasida tashkiliy va shaxsiy ish faoliyatini yaxshilashni kutishadi. Konservatorlar hayot va ish yomonlashishidan qo'rqlikni kutishadi. Bundan tashqari, chet el adabiyoti Innovatsion faoliyatga to'sqinlik qiluvchi omillarning to'rtta guruhi mavjud:

1. texnik va iqtisodiy
2. qonuniy
3. tashkiliy va boshqaruv
4. ijtimoiy-psixologik.

Innovatsiyalarga qarshilik ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillar qatoriga, masalan, quyidagilarni o'z ichiga oladi: tashkilotda xodimning maqomining mumkin bo'lgan o'zgarishi; innovatsiyalarni joriy etish tufayli ishni yo'qotish ehtimoli; belgilangan faoliyat usullarini qayta qurish; xatti-harakatlarning stereotiplarini buzish; noaniqlik qo'rquvi; tashkilotda o'rnatilgan an'analarni buzish; muvaffaqiyatsizlik uchun jazordan qo'rqligini qayta qurish va boshqalar.

Innovatsiyalar ta'siri ostida innovatsion ziddiyat ehtimoli quyidagi omillar sabab ortadi:

Innovatsiyalar ko‘lami. Innovatsiya qanchalik katta bo‘lsa, innovatsiya jarayoniga qancha odam jalb qilinsa, nizolar shunchalik tez-tez yuzaga keladi. Shu bilan birga, jamiyatning “davr yaratuvchi” innovatsiyalarga munosabatida namoyon bo‘ladigan quyidagi tendensiya qayd etilgan: bunday yangilik qancha vaqt qisqa bo‘lsa, shunchalik ko‘p qarshilikka duch keladi. Innovatsiyalarning radikal tabiatini innovatsion ziddiyatlarning ehtimoli va jiddiyligini oshiradi. Ko‘proq radikal innovatsiyalar ko‘proq qarshilikka duch keladi.

Innovatsion jarayonning tezligi. Innovatsion jarayon qanchalik tez ketsa, u shunchalik ko‘p nizolarga moyil bo‘ladi. Innovatsiyalarni joriy etish jarayonini ijtimoiy-psixologik, axborot va boshqa qo‘llab-quvvatlash. Bu jarayon qanchalik puxta o‘ylangan bo‘lsa, shunchalik kam ziddiyatlar hamroh bo‘ladi.

Innovatsion konfliktlar shaxslararo, guruuhlararo bo‘lishi mumkin. Shaxslararo innovatsion ziddiyat - bu yangilik tarafdarlari va muxoliflari o‘rtasidagi qarama-qarshilik, ularning bir-biriga nisbatan salbiy his-tuyg‘ularini boshdan kechirish bilan birga keladi. Shaxslararo qarama-qarshiliklarning sabablarini besh guruhga birlashtirish mumkin.

Obyektiv sabablar innovatorlar va konservatorlar o‘rtasidagi manfaatlarning tabiiy to‘qnashuvida yotadi. Innovatsiyalarning tarafdarlari va muxoliflari har qanday boshqa omillardan qat’iy nazar har doim bo‘lgan, mavjud va bo‘ladi. Bundan tashqari, jamiyatda, tarmoqlarda, tashkilotlarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar obyektiv ravishda ushbu islohotlar natijasi bo‘lgan ko‘plab shaxslararo innovatsion ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Tashkiliy va boshqaruv sabablari innovatsiyalarni joriy etish va tarqatishni nizosiz baholash uchun siyosiy, ijtimoiy, boshqaruv mexanizmlarining noto‘g’ri tuzatilishidan iborat. Innovatsion sabablar yangilikning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Turli xil innovatsiyalar turli son va jiddiylikdagi nizolarni keltirib chiqaradi.

Shaxsiy sabablar innovatsion jarayon ishtirokchilarining individual psixologik xususiyatlarda yotadi.

Innovatsion ziddiyatlarning muhim xususiyati ularning tashkilot muvaffaqiyatiga sezilarli ta’siridir. Shunisi e’tiborga loyiqliki, innovatsion jarayonlar noaniqlik sharoitida

ishlaydigan, tez rivojlanayotgan, yangi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaradigan tashkilotlarga ta'sir qiladi.

Shaxsning innovatsion salohiyati.

Innovatsiyalar yaratuvchisi har doim alohida shaxsdir. Va keyin biz shaxsning psixologiyasini uning yangilik qobiliyati nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishimiz kerak. Shu sababli, innovatsiya psixologiyasining markaziy muammosi - bu shaxsning ijodiy salohiyatini psixologik ozod qilish mexanizmlari, shakllari va usullarini nazariy va eksperimental asoslash va samarali innovatsion faoliyat uchun psixologik qulaylikni ta'minlash muammosi. Taxmin qilish mumkinki, yangilik qobiliyati yoki ijodkorlik qobiliyati faqat ma'lum odamlarga beriladigan tug'ma xususiyatdir.

Guruhning innovatsion salohiyati

Innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning eng muhim vazifalaridan biri bu yuqori malakali mutaxassislardan iborat ijodiy guruhlar yoki jamoalarni shakllantirish vazifasi, ular bir vaqtning o'zida samarali samarali ishslash uchun zarur va yetarli psixologik fazilatlarga ega.

Eng yaxshi innovatsion jamoalar ijodkorlik va qiziquvchanlik bilan boshqariladi. Ular atrofdagi dunyo o'zgarayotganini tushunishadi, lekin ular o'zgarishlarga dushman sifatida emas, balki ittifoqchilar sifatida munosabatda bo'lishadi. Ular ish muhiti bilan doimo o'zgarishga va rivojlanishga tayyor.

Muvaffaqiyatli loyiha jamoasining xususiyatlari:

loyihaga to'liq bag'ishlanish;

natijaga yo'naltirilganlik;

ijodiy fikrlash;

o'zgarishlarga tayyorlik;

sifat uchun g'amxo'rlik;

tendensiyalarni bashorat qilish qobiliyati;

xabardorlik, qiziqish va energiyani saqlash qobiliyati;

nizolarni tezda hal qilish qobiliyati;

muloqot qilish, fikr bildirish qobiliyati;

o'zaro mas'uliyat, ishonch;

o‘z-o‘zini rivojlantirishga qiziqish;

samarali tashkiliy aloqalar.

Samarali innovatsion jamoa buni bilishi kerak. Vaqt cheklangan vazifa va uning bajarilishi uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

Jamoa kollektivizmning aniq mezonlarini ishlab chiqishi kerak. Bu identifikatsiya asosan loyihaning maqsadi bilan belgilanadi. Kollektivizm tashqi tomonga yo‘naltirilishi kerak. Loyihaning yakuniy natijasiga e’tibor qaratish jamoani tashkilotning kengroq strategiyasidan xavfli ravishda ajratib qo‘ymasdan, birdamlikni saqlashga yordam beradi va nihoyat, muvaffaqiyatli innovatsion jamoa turli xil ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Jamoaning xilma-xilligi uning kuchidir. Vazifani bajarish jarayonida odamlarning ko‘nikmalari o‘zaro ta’sir qilganda o‘sadi. Jamoa ijodiy, konstruktiv va izchil fikr yurita olishi kerak. U fikr va ma'lumot almashishga, birgalikda yechimlar sari harakat qilishga va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishga tayyor bo‘lishi kerak. Jamoa samarali dialoglarni o‘tkazishga qodir bo‘lishi kerak. Innovatsion guruh faoliyatida korporativ ongning "paradoksizmi" alohida rol o‘ynaydi. Uning eng yorqin ko‘rinishlaridan biri bu faoliyat natijalaridan qat'i nazar, guruhning o‘z faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojiga jamoaviy ishonchidir.

Qoida sifatida, innovatsion jamoaning optimal soni taxminan 8-12 ni tashkil qiladi. Kattaroq guruhlarda ko‘pincha samarasiz ijtimoiy-psixologik keskinliklar yuzaga keladi, bu esa guruh ichidagi nizolarga olib keladi. Innovatsion guruh tomonidan bajariladigan funksiyalarning ko‘p qirraliligi kamida uchta toifadagi hamkor xodimlarning mavjudligini nazarda tutadi.

*Birinchi guruh* o‘z ichiga oladi: fikr generatorlari, ijodiy tashabbus ko‘rsatish, original g’oyalarni ilgari sura olish.

*Ikkinci guruh* innovator-menejerlardan iborat. Innovatsiyalarni jarayon sifatida boshqarishga qodir. Aynan ular noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishlari, moliyaviy va tadbirkorlik tavakkalchilagini o‘z zimmalariga olishlari, tashkiliy va psixologik qiyinchiliklarni yengib o‘tishlari kerak.

*Innovatsiyalar bo‘yicha uchinchi*, eng ko‘p guruh jamoa malakali ishchilardan tashkil topgan, ularning vazifasi qo‘llab-quvvatlash tizimi deb ataladigan tizimni

ta'minlashdan iborat. Aynan shu guruh axborotni qo'llab-quvvatlash, tashqi muhit va ichki imkoniyatlarni tahlil qiladi, innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishni amalga oshiradi.

Innovatsion jamoaning har bir a'zosining individual psixologik xususiyatlari (har uch guruhda, lekin har xil urg'u bilan) samarali innovatsiya uchun zarur bo'lgan fazilatlar to'plamiga mos kelishi kerak. Xususan, bular aql-zakovat, yetakchilik, tashabbuskorlik, xushmuomalalik, mas'uliyat, tashkilotchilik qobiliyati, qat'iyatlilik kabi fazilatlardir.

Rahbar innovatsion jamoaning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. U o'z rahbariyati bilan jamoaning kollektivligini kuchaytirishi, unga loyihaning maqsadlari va ularni amalga oshirish muhimligini doimo eslatib turishi, uni ilhomlantirishi va yuqori natijaga yo'naltirishi kerak. Bundan tashqari, avtoritar yoki buyruq-ma'muriy rahbarlik uslubi mumkin emas. Chunki innovatsion guruh a'zosining maqomi ish ierarxiyasidagi ish stoji, ta'lif darajasi bilan emas, balki ilgari surilgan g'oyalarning qadr-qimmati, ijodkorlik darajasi, fikrlash moslashuvchanligi bilan belgilanadi.

Tashkilotning innovatsion faoliyati.

Tashkilot yoki korxonaning innovatsion salohiyati ko'p jihatdan korxonaning innovatsiyalarga moyilligiga bog'liq. O'z navbatida, bu turli omillarga bog'liq bo'lgan murakkab ko'rsatkichdir: shaxsiy-psixologik, ichki yoki tarkibiy va tashqi. Ayniqsa, shaxsiy-psixologik omillarga quyidagilar kiradi:

menejmentning barcha darajalarida etakchilik xususiyatlari (innovatsiyalarga shaxsiy munosabat, professionallik, tashkilot ierarxiyasidagi o'rni, tavakkalchilik va faol harakatlarga moyillik, yosh xususiyatlari, martaba o'sishiga qiziqish);

xodimlarning xususiyatlari (ta'lif darajasi, yangiliklardan xabardorlik va motivatsiya, axborot aloqalari).

Ichki (tarkibiy) omillarga quyidagilar kiradi:

resurs xususiyatlari (resurslar miqdori, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, zaxiralarning mavjudligi, innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha ixtisoslashtirilgan bo'linma, innovatsiyalardan foydalanish tajribasi, kredit imkoniyatlari);

tuzilmaviy xarakteristikalar (markazlashtirish darajasi, aloqa kanallarini rivojlantirish, tashkilotlararo integratsiya, korxonaning innovatsiyalarni joriy etishga tashkiliy-texnik tayyorgarligi).

Tashqi omillar:

Tashqi muhit holati (barqarorlik, noaniqlik, o'sish, pasayish);

Tashkilotlararo hamkorlik;

Raqobat darajasi;

Mahsulotlarga (xizmatlarga) talab dinamikasi;

Mintaqaviy xususiyatlar.

Bundan tashqari, tashkiliy, boshqaruv va ijtimoiy-psixologik sohalarda innovatsiyalarga to'sqinlik qiluvchi va rag'batlantiruvchi omillarni aniqlash mumkin.

Jamiyatning innovatsion madaniyati.

Ijtimoiy subyektlarning (shaxslar, guruhlar, jamoalar) innovatsion faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan jamiyatdagi innovatsion iqlimning holati bilan belgilanadi. Innovatsion qabul qiluvchi muhitni shakllantirish jarayoni juda murakkab. Shu bilan birga, jadal rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatlar uchun innovatsiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish muammosi ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Jamiyat innovatsiyalarga nafaqat adekvat (o'xshash) munosabatda bo'lishi, balki ularni inson faoliyatining barcha sohalarida o'zlashtirishi kerak. Innovatsiyalarni rad etish, ularni blokirovka qilish jamiyat hayotida turg'unlikka olib keladi, bu esa umumiy orqada qolishga olib keladi. Shunday qilib, zamonaviy jamiyat jamiyat hayotining barcha sohalarida innovatsion faoliyatga ijtimoiy talab shakllantirilishi kerak.

4. Mehnat tarbiyasi – tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, intizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham Mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo'lgan.

Mehnat tarbiyasi g'oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo'lib, "mehnat ta'limi", "kasbga yo'naltirish", "politexnik ta'lim", "kasb ta'limi" singari tu-

shunchalarni o‘z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilohiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda Mehnat tarbiyasi ga katta e’tibor berilgan. Lekin ularga materialist (moddiyunchi)lardan farqli tarzda Mehnat tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko‘nikma va malakalarni shakllantirish ko‘zda tutilmagan.

Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o‘zini anglay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi. Jumladan, chaqaloklar go‘daklik bosqichiga o‘tishlari bilanoq, ularga dastlabki mehnat tarbiyasi berila boshlanadi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste’molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma’naviyati kemtik shaxs ham bo‘lib shakllanishi mumkin.

Bolalarga mehnat tarbiyasi berishda bog‘cha, maktab singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o‘rin tutadi. Chunki bu muassasalarda mehnat tarbiyasi ilmiy asosda tegishli mutaxassislar tomonidan uyushtiriladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagι asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Bolaning imkoniyatlaridan yengil mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og‘ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik bo‘lishiga qat’iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o‘qish jarayonining o‘zi og‘ir aqliy, jismoniy mehnatdir. Maktabga o‘z vaqtida kelib-ketish, o‘qish-yozishni o‘rganish, berilgan bilimlarni egallash uchun o‘quvchilarga mehnat tarbiyasi berilgan bo‘lishi kerak. Chunki o‘quv topshiriqlarini bajarish, dars o‘zlashtirish, o‘tilganlarni takrorlash, yozma ishlar bajarish, kerakli matnlarni yodlash, ko‘chirmalar olish, lu-g‘atlar bilan ishlay olishi uchun o‘quvchi muayyan institutizomga rioya etishi, tashkilotchilik qobiliyati va ishchanlik xususiyatiga ega bo‘lishi, ishning ko‘zini bilishi kerak. Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish jarayonlarining ham o‘rni katta. Chunki bu jarayonlarda o‘quvchilar bevosita tegishli mehnat ko‘nikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda qo‘llash bosqichini o‘taydilar. Shuningdek, ular bu asnoda

qaysi bir mehnat yo‘nalishi o‘ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar. Shuning uchun ham mehnat ta’limi imkon qadar xilma-xil bo‘lishi hamda o‘quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va jinsiy xususiyatlari muvofiq kelishi zarur.

Buyuk mutafakkir olim Abu Ali Ibn Sino - Odamning yashashi uchun eng zarur narsa bu foydali mehnat jangi, deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, ota-onalar o‘z bolalariga yoshlidan ma’lum bir kasb-hunar o‘rgatishlari lozim. Bola kasb-hunarni ma’lum darajada o‘zlashtirib bo‘lgandan so‘ng uni kasb-hunaridan foydalanishga, ya’ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o‘rgatish kerak. Mutafakkir bu ishning bolalar uchun ikki xil tarbiyaviy ahamiyatiga ega ekanligini ta’kidlaydi:

1. Bola o‘z kasb-hunari tufayli mustaqil turmush kechirib, uning dastlabki manfaatini ko‘rgandan keyin, o‘z hunariga yanada mahkam bog‘lanib, unga nisbatan muhabbat orttiradi va uni takomillashtirishga intiladi.
2. Yashash takomili o‘z zimmasiga yuklatilgandan keyin o‘z kasb-hunariga odat hosil qiladi.

Kasbga ko‘nikish davri odatda uchta xarakterli bosqich bo‘yicha boradiki, ularning har biri pedagoglar uchun juda muhim xususiyatlarga ega. Kasbga ko‘nikishning birinchi bosqichi – tanishtirish bo‘lib, o‘zining atrof-muhitdagagi yangi rolini anglashdan iborat. U tanlangan kasb bo‘yicha muayyan malaka olishga qaror qilingandan boshlanadi va ishlab chiqarish ta’limiga dastlabki nazariy tayyorgarlik davrida o‘quv ustaxonalari hamda bilim yurti bilan tanishish davrida etadi.

Kasb-hunarga ko‘nikishning bu birinchi bosqichida qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini o‘smir o‘zi baholaydi, kasbga, ishlab chiqarishga, kursdoshlar va o‘qituvchilar bilim yurti va korxonaga munosabati vujudga keladi. O‘smir o‘z kelajagiga nazar tashlaydi. Hamda tanlangan kasbida qandaydir jozibali va qandaydir xunuk tomonlarni ko‘radi. Bolalikda o‘yg‘ongan, qiziqtirgan sohalar haqidagi o‘y-hayollari barbod bo‘ladi hamda yangi umid va intilish paydo bo‘ladi.

Kasbga ko‘nikishning ikkinchi tayyorlov bosqichi ijtimoiy umumiylari maxsus predmetlar hamda o‘quv ustaxonalarida ishlab chiqarish ta’limini asosli egallashdan iborat kasb o‘rganishdir. Bu yerda ham tanlangan kasbga ko‘nikishning ancha uzoq va ma’suliyatli bo‘lgan davri, ya’ni kasbni o‘zlashtirayotgan malakali ishchi-shaxsning

dastlabki shakllanishi yuz beradi. Bu shakllanishning muvafaqqiyati o‘zini o‘quv mehnati natijasidan qanoatlanish va qanoatlanmaslik bilan bog‘liq yutuqlar quvontiradi va ilhom beradi, yanada kattaroq muvafaqqiyatlarga undaydi. Tasodifyi muvaffaqiyatsizlikka yanada ko‘proq kuchni safarbar qiladi. Ammo doimiy ravishdagi muvafaqqiyatsizlik ishga, o‘qishga va kasbga nisbatan qiziqishi susayadi.

Kasbga ko‘nikishning uchinchi asosiy bosqichi yosh insonning korxona ishchilari muhitiga singishidir. Bu bosqich o‘quvchi o‘zini o‘rab olgan o‘sha guruhning a’zosi yoki ishchi sifatida his qiladigan, ammo ular darajasida malaka orttirmagan, tegishli mehnat unumdoorligi va mahsulot sifatini ta’minlay olmaydigan, ba’zan xato va beparvoliklarga yo‘l qo‘yadigan ishlab chiqarish amaliyoti davrida boshlanadi. Rasmiy jihatdan o‘zining tengligi va atrofidagi kishilar bilan ishlab chiqarish malakasida teng emasligi hamda ularning èsh ishchiga «temir qanot qushcha» deb munosabatda bo‘lishini anglash uning bu bosqichdagi kasbga ko‘nikishi jarayonini favqulodda murakkablashtirib qo‘yadi. Buni ijobiy hal qilish esa amaliyotda korxona ishchi kadrlari bilan birgalikda qiladigan mehnatiga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki o‘quvchi yoshlarni mehnatga o‘rgatmasdan turib jamiyat uchun barkamol shaxs etib tarbiyalash mumkin emas. Mehnat insonni barkamollikka va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.

Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish va uning kasbiy qiziqishlarini aniqlash. Mehnat an’analalarini tayanchi sifatida yoshlarni hayotga ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Mehnat an’analari zamirida shaxsning axloqiy sifatlari mehnatsevarlik, yerga va tabiatga muhabbat, suvni isrof qilmaslik saxiylik, o‘zgalarning mehnatini qadrlash, mehnat baxt keltirishini anglashdir. Xalq tarbiyashunosligida mehnatsevarlik va kasb-hunarga doir g‘oyalarni yosh avlodlarimiz ongiga singdirish xalq ommasining ilg‘or mehnat, hunarmandchilik an’analariiga befarqqaramaslik zamon talablariga mos ma’lum tarbiya jarayonlarini tashkil etishdir.

Mehnat insonning hayotida muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham inson hayotini, turmushini mehnatsiz, yaratuvchiliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Inson mehnat bilan ulug‘. Kishilik jamiyatining asl tarixi hammehnatdan boshlangan. Mehnat –

tirikchilik manbai, qo‘yingki, hayot va turmushning qaysi jabhasiga bormang, inson qadami uning mehnati bilan qutlug‘. Zero, xalqimiz mehnatni bosh tarbiyachi debataydi. Sabab inson tarbiyasini asosan mehnatga bo‘lgan munosabatlariga qarab belgilanishi beziz emas.

Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish va uning kasbiy qiziqishlarini aniqlash. Mehnat an’analari tayanchi sifatida yoshlarni hayotga ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Mehnat an’analari zamirida shaxsning axloqiy sifatlari mehnatsevarlik, yerga va tabiatga muhabbat, suvni isrof qilmaslik saxiylik, o‘zgalarning mehnatini qadrlash, mehnat baxt keltirishini anglashdir.

Birinchi navbatda “kasb-hunar” tushunchasini ko‘rib chiqamiz. Ushbu terminni aniqlashda A.A.Jalolov to‘rt yondashuvdan foydalangan, bular:

- 1) inson o‘z mexnat funksiyalarini bajaradigan muhit;
- 2) aniq bir sohada ish olib boradigan insonlar hamjamiyati;
- 3) tayyorgarlik, ya’ni barcha bilim va malakalari yordamida shaxs aniq bir mehnat funksiyalarini bajara olishi;
- 4) o‘z kasbi mutaxassisi, professional, ya’ni vaqt bo‘yicha taqsimlangan mehnat funksiyalarini bajarish jarayoni.

Kasb-hunarga yo‘naltirish tushunchasi bilan bog‘liq keyingi tushunchalar bu «optant» va «optatsiya». Ya’ni, optatsiya – kasbiy rivojlanish yo‘lini tanlash bo‘yicha qabul qilingan yechim, bunda optant – shu yechimni qabul qilgan shaxs deb ataladi. Kasb-hunarga yo‘naltirish tushunchasi mazmunini yanada chuqurroq anglash uchun yana bir tushuncha, ya’ni insonning o‘zi uchun moyil bo‘lgan kasbni tanlash jarayoniga e’tibor qaratish kerak. O‘zi uchun qay bir kasb to‘g‘ri kelishini anglash jarayoni – bu davomiy va ko‘p bosqichli insonning shaxsiy kasb-hunar tanlashga qo‘yilgan rejali asosida o‘zi uchun moyil bo‘lgan aniq bir kasb-hunarni tanlash jarayoni deb tushuniladi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iborat bo‘ladiki, shaxs ma’lum bir tayyorgarlik bosqichidan o‘tgandan keyin, ya’ni o‘rta maktab bosqichidan keyingi bosqichga o‘tish davridan o‘z qiziqishlari, o‘zi uchun kelajakda u yoki bu kasbda band bo‘lish rejali asosida to‘g‘ri kasb tanlashi lozim bo‘ladi. Bunda unga, kasb-hunar

tanlashi uchun yo‘l ochib beradigan, unda kasblar dunyosi bilan tanishish va ular haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun yordam beradigan bir qator metodlar mavjud.

##### 5. Oila farzandning dastlabki tarbiya maktabidir.

Oilaning ikki sarkori - ota bilan onaning ma’naviy-ruhiy odobi, o‘zlarining namunali xulq-atvorlari, yaxshi tarbiya ko‘r- ganliklari, bolalarga tarbiya berishdagi tajriba va mahoratlari, qunt- sabotlari, sezgirlik va talabchanliklari bolalarni yoshlikdanoq boadab bo‘lib o‘sishida aks ettiruvchi ko‘zgudek muhim o‘rin tutadi. Bunda odamlarning: „Siz kimning farzandisiz?“ deb so‘rashlarida, u inson qanday tarbiya ko‘rganligini bilish maqsadi yotadi.

Xalqimizda „Qush uyasida ko‘rganini qiladi“, „Bolani yoshdan, niholni boshdan asra“, „Erkalasa onasi, taltayadi bolasi“, „Bola aziz - odobi undan aziz“ kabi naqllar borki, ularning mag‘zini chaqadigan bo‘lsak, farzandlarning qay tariqa tarbiya ko‘rib, o‘sib, voyaga yetishi, fe’l-atvorining qanday bo‘lib shaklla - nishi, birinchi galda ota-onaning farzandlarini qanday usul bilan tarbiyalashiga, o‘zlarini qanday tutishiga, ibrat ko‘rsatishiga, ijobiy yo salbiy ta’sir etishiga bevosita bog‘liqdir, degan ma’no-maqsad kelib chiqadi.

Ota-onsa bolaga yoshligidan hayotda yashash nima ekanini, mashaqqat chekmay, bir burda non topib bo‘lmasligini, biror kasb - hunar egasi bo‘lmasa, hayotda ko‘p qiyinchiliklar ko‘rishini uqtirmas ekan, bola voyaga yetgan sari yurar yo‘lini bilmay qoqla - di, garangsib, nima yumush qilishini bilmay, bekor qoladi, bekorchilikdan esa bemazagarchiliklar kelib chiqadi, xunuk ishlarga qo‘l uradi, odobi, tarbiyasi buziladi. Shuning uchun ham ota-onsa bolani kichikligidanoq axloq-odobga o‘rgatishi, ilm-hunarli qilishi, dastyorchilikda ko‘zini pishitib borishi ham qarz, ham farzdir.

Oilada bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashning yo‘l-yo‘riqlari.

Har bir oilada bolaga tarbiya berishning o‘ziga xos va mos bir qator muhim qonun-qoidalari borki, unga qat’iy amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, bu qonun-qoidalarni nisbiy ravishda umumiyl deyish mum - kin, chunki har bir bola - bir olam, ular har birining o‘ziga xos shaxsiyati, ahamiyati, ruhiyati va xulq-atvori bor, shu bois shunga qarab muomala qilish darkor. Shuning uchun tarbiyada ota-onaning mas’uliyati, mahorati, ziyrakligi, obro‘-e’tibori

muhimdir. Ota - ona qat'iy ravishda bola tarbiyasini maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borishi, hamma bolalarni teng ko'rishi, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishi, bolaning yoshi, o'sish va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishi va ayni paytda bola shaxsini hurmat qilishi, unga nisbatan talabchan bo'lishi muhimdirki, bu yo'l-yo'riqlar, qonun-qoidalalar oilada tabiiy ravishda, muntazam qo'llansa, juda yaxshi natijalar beradi, albatta. Shuningdek, bolalarda chiroyli xulq-atvor ko'nikmasini, malakalarini tarbiyalashning o'ziga xos ko'pgina usul va vositalari borki, ota-onu kundalik hayotda ularni yaxshi bilishi, bevosita har qaysisidan o'z o'rnida, me'yorida, maqsadga muvofiq foydalanishi g'oyat zarur. Bular jumlasiga: ibrat - namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, yaxshilikka odatlantirish, o'rni kelganda nasihat qilish, qat'iy tanbeh berish, bola bilan vaqtincha gaplashmaslik, ularga nisbatan munosabatni o'zgartirish, ishon - tirish, jamoatchilikning ta'siri, rag'batlantirish va qoralash kabi vositalar shunday uslublar hisoblanadi. Har bir ota-onu bola tarbiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishiga e'tibor berib, bu kabi nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarni o'zlashtirib, unga amal qilsa, ayni muddao bo'ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala bo'lib, bu ota-onadan katta odob bilimi, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi. Maqsad aniqligi tarbiyaning asosidir, to'g'rirog'i, u tarbiya ishlarini maqsadga muvofiq to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi. Demak, oliy maqsad - yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz, yaxshi urf-odatlarimiz va oilaviy an'analar ruhida tarbiyalash, jamiyat uchun oliyanob fazilatli, bilimdon, madaniyatli, bir so'z bilan aytganda, komil insonni yetishtirishdir. Xo'sh, komil inson tarbiyasida biz nimalarga e'tibor berishimiz zarur? Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyadagi birlikdir. Bunda ota-onu, oiladagi katta-yu kichik, hamma bir yoqadan bosh chiqarishi, harakat qilishi kerak. Hamma narsada: bolalarga muomalada, ularni rag'batlantirish va jazolashda, tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning boshqa vositalarini qo'llashda hammada yakdillik bo'lishi lozim. Odatda, ko'pincha, bolaning onasi yoki buvisi ruxsat bergen narsani otasi taqiqlab qo'yadi yoki otasi bergen jazoni onasi rad etib buzadi, bolaning bir qilig'ini buvisi maqtasa, shu qilig'i uchun otasi uni koyiydi va hokazo. Bunday telba-teskarilik, avvalo, bola tarbiyasini buzadi. Bunday vaziyatda bola talabchan otasi bilan rahmdil onasi va

ko'ngli bo'sh buvisi o'rtasida yo'l topishga odatlanadi. Kattalar orasidagi beqarorlik va kelishmovchilikni sezgan bola mug'ambirlik, aldamchilik, tilyog'la - malik, xushomadgo'ylikka o'rganadi. Bolani aql (talabchanlik) bilan sevganda, uning qiziqishlariga diqqat-e'tibor berganda, mazkur yoshidagi talab va ehtiyojlarni bilganda, bu harakat ota-onaga ruhan va jisman barkamol insonni tarbiyalab yetishtirish imkonini beradi. Bunday farzand o'z navba – tida ota-onasini mehr bilan sevadi, ular to'g'risida g'amxo'rlik qila di. Bu ajablanarli hol emas. Chunki biz bolalarni qay tarzda yaxshi ko'rsak, ularning ruhiyati, ichki dunyosi, atrof-muhitga muno - sabati ham shu tarzda tarkib topa boradi. Hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, ba'zi ota-onalar bolaning hamma talab-ehtiyojlariga haddan tashqari e'tiborli bo'lib, barcha injiqlik va o'jarliklarini ko'tarishga intiladilar. Bunday bola kelajakda noshud bo'lib o'sishdan tashqari, katta bo'lganda to'g'ri-noto'g'ri fikrni odamlarga zo'rlab o'tkazadigan, yomon xulqli, jamiyatga zararli kishi bo'lib qoladi. Ota-ona hamma bolalariga bir xilda munosabatda bo'lishi tarbiyaning muhim shartidir. Bu omil oilada aka-ukalarning ahil, bir-biriga mehribon, oqibatli bo'lishiga olib keladi, bola oldida ota - onaning obro'si, hurmatini oshiradi, o'z tengqurlari va boshqa odamlarga yaxshi munosabatda bo'lishga, ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishga o'rgatadi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, ba'zida bir ota, bir onadan tug'ilib, bir oilada katta bo'lgan bolalar ko'pincha fe'l-atvor jihatidan bir-birlariga hech o'xshamaydilar. Biri mo'min-qobil, gapga quloq soladigan bo'lsa, boshqasi sho'x, yerga ursa osmonga sapchiydigan bo'ladi. Bunday holatda kattalar ularning har biriga, o'ziga qarab muomala qilishlari, birini ikkinchisidan ortiq ko'rmasliklari lozim. Bil'aks, bu qarash har ikki bolaning tarbiyasiga, ruhiyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Buni unutmaslik kerak. Bola tarbiyasi g'oyat nozik, bu narsa vaqtini qo'ldan boy bermay, doimo, muntazam shug'ullanishni talab etadi. Bolaga munosabatda, birinchi navbatda, uning yoshini hisobga olish kerak. Bolaning o'sish bosqichini uning yoshiga nisbatan quyidagicha belgilash mumkin: uch yoshgacha; uchdan yeti yoshgacha; yettidan o'n yoshgacha; o'ndan o'n to'rtgacha; o'n to'rtdan o'n sakkiz yoshgacha. *Uch yoshgacha* bo'lgan bolada jismoniy-ruhiy belgilar rivojlanadi. Bu davr bola hayotida juda mas'uliyatli davrdir. Kichkina vujudning risoladagidek o'sishi, ya'ni ovqat yeishga,

yurish va gapishtiga o‘rganishi mana shu davrga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ota-onalar bu davrda bolaga juda hushyor bo‘lishlari kerak. Bola tana a’zolarining to‘g‘ri rivojlanishi, aniq-ravon so‘zlashga o‘rganishi, yaxshi-yomon narsalar haqida to‘g‘ri tushunchalar hosil qilishi ota-onalarning e’tiboriga bog‘liq.

Shuni unutmaslik kerakki, bola rivojlanishida 3-7 yosh oralig‘idagi bosqich juda nozik, alohida ahamiyat berish lozim bo‘ladigan davrdir. Bu davrda bola hissiyotida hayotga faol aralashish istak-ishtiyobi qanot yozib, jo‘sh uradi. Bola ko‘proq mustaqil harakat qilishga - kiyimlarini o‘zi xohlaganicha kiyishga, ovqatini o‘zi mustaqil yeishga, dov-daraxt va tepaliklarga tirmashib chiqishga, o‘yinchoqlarini buzib-tuzatishga, xullas, hamma-hamma narsani o‘zi bajarishga intiladi va o‘yinqaroq bo‘lib, hadeganda ko‘chaga chiqqisi kelaveradi. Nimani ko‘rsa, eshitsa, o‘sha haqda qayta-qayta savol berib so‘rayveradigan bo‘ladi. Ota-onalar boladagi bu xususiyatlarni to‘g‘ri tushunishlari, uning intilishi, qiziqishini bo‘g‘masliklari, aksincha erkinlik berib, faqat xatti-harakatlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini ziyraklik bilan kuzatib borishlari kerak. Xuddi ana shu davrda bolada hayotiy to‘g‘ri tushunchalarni shakllantirish lozim. Buning uchun esa yolg‘on gapirmaslik, iloji boricha xunuk narsalarni bemaza so‘zlar bilan ifodalamaslik, har bir savoliga yoqimli va jiddiy, aniq-ravshan javob berish kerak. *Yetti yoshdan o‘n yoshgacha* bo‘lgan bolalarda bu jarayonlar boshqacharoq kechadi. Bola bu yoshida ancha og‘ir-vazmin bo‘lib, jiddiy lashadi. Endi yangi davr - maktab hayoti boshlanadi. Bu davrda ota-onalar uydagi tarbiyaning maktab tarbiyasiga zid kelib qolmasligiga alohida e’tibor berishlari kerak. Buning uchun ota-onalar maktabga bot-bot borib, o‘qituvchilar bilan suhbatlashish - lari, bolaning uydagi va maktabdagi xatti-harakatlarini taqqoslab ko‘rishlari, ziddiyat paydo bo‘lsa, tezda oldini olishlari darkor. Bu davrda bolani ruhan qo‘llab-quvvatlab, yordam berish, unga madadkor bo‘lish, ko‘nglini ko‘tarib turish zarur, chunki yangi hayotga - maktab hayotiga o‘rganish, yangi ko‘nikmalar hosil qilish hamma bolalar uchun ham oson bo‘lavermaydi. *O‘n yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha* bo‘lgan bolalarda yanada yangi jarayonlar paydo bo‘ladi. Bolaning gap-so‘zları, xatti-harakatlari avvalgidan ham jiddiyroq ma’no kashf etadi. Bu davrda bola endi maktab hayotiga to‘la moslashib olgan, bir qator mashaqqatli soatlarni ortda qoldirgan, ancha mustaqillikka erishgan bo‘ladi. Ota - onalar bu davrda bolada paydo

bo‘layotgan yangi o‘zgarishlarga e’tiborni qaratishlari, ya’ni jinsiy balog‘atga yetayotgani, bu esa bolada allaqanday noxush kayfiyatlar tug‘dirayotganiga diqqatni qaratib, unda yaxshi, go‘zal tuyg‘ularning kamol topishiga ko‘mak - lashishlari kerak.

*O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha* bo‘lgan davr bolaning voyaga, kamolotga yetish davri hisoblanadi. Bu davrning asosiy, alohida belgisi - bola o‘zini to‘la mustaqil tutishga harakat qilishidir. Endi u odamlardan o‘ziga nisbatan kattalardek munosabatda bo‘lishlarini, uning fikr-mulohaza va rejali bilan hisoblashishlarini istaydi. Bu davrda ota-onalar bilan bolalar o‘rtasida ba’zi masalalar yuzasidan jiddiy ziddiyatlar chiqib turadi. Bunday vaqtda eng muhimi, ota-onalar: „Bolamiz biz nima desak, hammasini so‘zsiz bajaradi“, degan xayoldan voz kechib, uning yurak dardlarini tinglashlari, bola haq bo‘lsa, unga yon bosishlari kerak. Yana shuni unutmaslik lozimki, tarbiyada har bir bolaning xulq-atvoriga qarab alohida muomala, munosabat, e’tibor zarur. Bunda uning yoshi, aql-farosati, jinsi, ruhiy alomatlari, jismoniy kuch-quvvati, hamma-hamma-sini hisobga olish kerak bo‘ladi. „U hali bola-ku, bolaga bo‘laveradi“, „Hammasiga keyin o‘zi o‘rganib ketadi“ kabi zararli fikrlarni yig‘ishtirib qo‘yib, bola boshdanoq aqli rasolik bilan tarbiyalab borilishi kerak. Katta bo‘lgandan so‘ng odamlarning hurmatiga loyiq bo‘lib, o‘zi tanlagan sohasida jamiyat uchun foydali ish ko‘rsata olishi, oilasiga g‘amxo‘r ota-onsa bo‘lishi - bularning barchasi komil tarbiyaning shirin mevasidir. Har bir ota-onas bolaning yoshini, shu davrdagi holatini yaxshiroq tushunish uchun o‘zini bola o‘rniga qo‘yib ko‘rishi zarur. Shunda bolaning injiqligi, talabi ravshan ko‘rinadi qoladi. Bolaning ko‘ngli va holatiga tushunish oson emas, ammo u o‘z o‘rnida joiz. Bolaning ruhiy olami-sirli bir dunyo. Bu olamga kirishimiz, bolaning hayajonlari, iztiroblari, quvonchlari, o‘y-xayollari, his - tuyg‘ularini o‘zimizda sinab ko‘rib munosabatda bo‘lishimiz bolalarni tushunishda bosh mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ota-onas obro‘sni tarbiyada hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Farzandlarning ota-onaga so‘zsiz itoat qilishi ko‘p jihatdan ota yoki onaning oiladagi obro‘siga ham bog‘liq. Ba’zi ota-onalar, bolam menga hecham quloq solmaydi, tarbiyasi buzilgan, deb shikoyat qilishadi. Ochiq aytish kerakki, bolalarni gapga quloq solmasligi ota-onalarning obro‘yi yo‘qligini, yana ham to‘g‘rirog‘i obro‘larini yo‘qotib qo‘yganliklarini ko‘rsatuvchi belgidir.

Xo'sh, ota-onalarning obro'yi nima va u oilada qanday saqla - nishi lozim? Ota-onaning butun hayoti: odob-u xulqi, odamlar o'rtasidagi mavqeyi, ijtimoiy burchiga bo'lgan munosabati, mehnatsevarligi. (o'z ota-onasi oldidagi farzandlik burchini qay darajada o'taganligi), oilasi haqida qayg'urish, bolajonligi, pok vijdonli bo'lishi, odamlarga mehribon va jonkuyarligi kabilar ular qozonadigan obro'ning asosiy omillari hisoblanadi. Ota-onalar bolalar uchun eng mo'tabar, aziz-u mukarramkishilardirlar, shu bois bolalar ota-onalariga o'xshash uchun doimo havas bilan taqlid qilib yashaydilar. Shu tufayli ota-onalar hamma vaqt, har jihatdan bolalarga ibrat bo'lishlari shart. Oilada bolalar bilan ota-onalarning o'zaro munosabatlari, ularning bir-birlarini hurmatlashlari va bir-birlariga ishonishlari asosiga quriladi. Odatda, bolalar o'zlarining hamma ishlarida ota-onalarini o'zlariga eng yaqin maslahatchilari deb biladilar. Qiyinchiliklarga duch kelganlarida ham, eng og'ir muammoni hal etishda ham eng birinchi yordamchi ulardir. Bola uchun haqiqiy do'st ham, shodliklari va tashvishlarini baham ko'rvuchi aziz insonlar ham ota-onadir. Yosh bolaning kattalarga taqlidchan va itoatkor bo'lishi tabiiy bir hol. Kattalar nima bajarsa, u ham darrov shuni bajaradi. Nimani buyursa, ijro qiladi. Ulg'aygan sari bolaning aqli ko'p narsalarga yetadigan bo'lib qoladi, endi u ba'zi masalalarda kattalar fikri bilan kelisha olmaydi, o'z aytganida oyoq tirab turib oladi. Ko'pincha, kattalar bunday holda boladagi bu o'zgarishni odobsizlik, o'jarlik, o'zboshimchalikka yo'yib, uni nohaq jazolashga urinadilar, bu haqsizlik bola qalbini jarohatlaydi, natijada ota-onu bu haqsizligi bilan o'z obro'yiga putur yetkazadi. Yuqorida aytilgan fikrni yana bir bor ta'kidlash o'rinlik, bolani tushunmaslik, tarbiyada uning yoshi va xulq-atvoridagi yuz berayotgan o'zgarishlarni e'tiborga olmaslik, oxir-oqibat ota-onu va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat, ishonchni yo'qotishga olib keladi. Shuni unutmaslik kerakki, tarbiyada mayda-chuyda degan narsa bo'lmaydi, u o'z o'rnida juda muhim bo'lishi mumkin. „Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman, deb o'ylamang“, degan edi tarbiyashunos olimlardan biri. „Siz bolani turmushingizning har bir lahzasida, hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz yoki tashvishla - nishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday

muomala qilishingiz, gazeta o‘qishingiz - bular hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega“ deganda u haq edi.

Ma’lumki, katta-kichik oilada bola ota-onadan tashqari, uyidagi boshqa oila a’zolarining ta’sirida ham tarbiyalanadi. Kattalar o‘z tashvishlari bilan bo‘lib ketib, ba’zi noo‘rin xatti-harakatlari bilan salbiy yoki ijobjiy ta’sir ko‘rsatayotganlarini sezmay qolishadi. Chunonchi, bola doimo kattalarning baqir-chaqirlarini eshitaversa, darg‘azab yuzlarni ko‘raversa, bu hol asablariga ta’sir etib, u ham yomon fe'l-atvorli, jahldor bo‘lib o‘sadi. Agar oila a’zolari o‘zaro xushmuomalada bo‘lsalar, chehralaridan doim bir-birlariga mehribonlik va ahillik balqib tursa, bola ulardan zavq olib xushchaqchaq, odamoxun bo‘lib o‘sadi.

Ota-onsa o‘z bolalari oldida hech bir obro‘ga ega bo‘lmagan hollar ham uchrab turadi. Bunday ota-onalar bolaning har qanday injiqligini darrov bajaruvchi, o‘z talablariga mantiqsiz yondashuvchi, bolaga bugun bir narsa qilishga ruxsat berib, ertasi xuddi shu narsa uchun jazolovchi ota-onalardir, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Haqiqiy ota-onalik obro‘yini bolani qo‘rquituvchi qattiq - qo‘llik bilan ham, uning hamma narsani qilishga yo‘l qo‘yadigan, har qanday sho‘xligini kechiradigan muloyimlik va marhamatlilik bilan ham qo‘lga kiritib bo‘lmaydi. „Chinakam obro‘yingiz fuqarolik faoliyatizingizga, fuqarolik tuyg‘ularingizga, bola hayotini bilishingizga, sizning unga beradigan yordamingiz va uning tarbiyasi uchun o‘zingizni javobgar deb bilishingizga asoslanadi“, deb uqtiradi allomalardan biri. Ota-onaning obro‘yi baland bo‘lgan oilalarda bolalar hamma yumush-talablarni so‘zsiz bajaradilar, ko‘rsatmalarga bajon-u dil bo‘ysunadilar. Agar bolalar o‘z ota-onalarini chindan hurmat qilsalar, doimo ularning gapidan chiqmaydigan bo‘lishadi. Istak va talablariga quloq solishadi. Har bir narsada ular bilan maslahatlashib ish tutishadi. Bu, o‘z navbatida, bolalarni xato qilishdan asraydi. Oila tarbiyasidagi muvaffaqiyatlarning hal qiluvchi omillaridan yana biri, ota-onalarning Vatan oldidagi o‘z fuqarolik burchlarini faol, izchil va to‘la, ongli ravishda bajarishlaridadir. Oilada ota-onaning obro‘yi saqlanishida so‘z bilan ish birligi ham muhim o‘rin tutadi. Bolalarning o‘qishi, dam olishi, oilaviy yumushlarga yordamlashishi va hokazolarni muayyan tartibga solib, unga amal qilishini talab etishda, avvalo, ota-onaning o‘zi ham bu tartibga amal qilib, namuna ko‘rsatishi kerak. Chunki,

oqilona tuzilgan kun tartibi to‘g‘ri tarbiya vositasidir. Kun tartibi bolanitartib-intizomga o‘rgatadi, kuchi va vaqtini tejaydi, topshiriqlarni o‘z vaqtida puxta, aniq bajarishga, jamoat orasida o‘zini tutishga o‘rgatadi, odatlantiradi. Bola hayotining muayyan tarzda tashkil etilishi, mehnat bilan dam olishining to‘g‘ri almashinib turishini ta’minkaydi. Kun tartibi bolaning sog‘lom-tetik o‘sishiga hamda aqliy jihatdan to‘g‘ri rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Rejimga o‘rgangan bola har bir ishni o‘z vaqtida qilishga intiladi. Vaqtida mehnat qilib, vaqtida dam oladi. Sevgan mashg‘uloti bilan shug‘ullanishga ham payt topadi. Uy yumushlarida dastyor bo‘lishga odatlanadi. Oqibatda bola batartiblikka, saranjom-sarishtalikka, xush odobga o‘rganadi. Bunday bola hamisha ruhan tetik, maqsadga intiluvchan, serzavq bo‘ladi. Shuning uchun ota-onan bolani yoshlik chog‘idanoq vaqtdan to‘g‘ri foydalana olish, har bir ishni o‘z muddatida, ma’lum tartibda bajarishga odatlantirishi kerak. Ota-onalar bolaning o‘qishi bilan, odob-axloqi bilan qiziqishlari, maktab va o‘qituvchining o‘quvchiga talablarini, maslahat va topshiriqlarini jiddiy kuzatib borsalar, ayni muddao bo‘ladi. Bu esa bolaning yaxshi o‘qishi va intizomli bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Aks holda, ya’ni bolaning dars tayyorlashi va yurish-turishi o‘z ixtiyoriga tashlab qo‘yilsa, u vaqtda bola dars tayyorlamay, kunni bekor o‘tkazib, kech qiladi. Shuning uchun bolaning o‘z vaqtida dars tayyorlashini nazorat qilish ota-onan, qolaversa, har bir oila a’zosining burchidir.

Zotan, tarbiya ishi maktab bilan oila hamda jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan murakkab, mas’uliyatli va sharaflı vazifadir. Bu vazifaning to‘g‘ri bajarilishi ota-onalarni ham, maktabni ham, jamoatchilikni ham xushnud etadi, bundan keladigan tarbiya samarasi har tomonlama manfaatli bo‘ladi, shuni nazarda tutib, ota-onan farzandining o‘qituvchisini ustoz bilib, u bilan tarbiyada bamaslahat ish tutishi, o‘z navbatida, o‘qituvchi ham o‘quvchisining ota-onasini g‘oyat samimiy va hurmat bilan qalbiga yaqin tutishi kerak, shunda aloqa mustahkam bo‘ladi. Odatda, o‘qituvchilar ko‘pincha ota-onalar bilan faqat maxsus yig‘ilishlardagina, ya’ni yilda uch-to‘rt marta o‘tkaziladigan „ota-onalar majlisi“da ko‘rishib, „rasmiy“ gaplar bilan chegaralanadilar. Iqror bo‘lish lozimki, bunday „sovuuq“ tadbir ko‘zlangan maqsadni bermaydi, ota-onan va o‘qituvchi o‘rtasida iliqlik uyg‘ot-maydi. Shunday holatlar ro‘y bermasligi uchun

o‘qituvchi imkon topib har bir ota-onal bilan yaqindan munosabatda bo‘lishi, o‘zaro maqsadlari birligini yaxshilab tushuntirishi zarur. O‘qituvchi o‘quvchisining uyiga qarindoshidek kirib borishi ayni muddao. Ba’zida o‘quvchining uyiga o‘qituvchi birinchi marta borganida ota-onalar yaxshi kutib olmasliklari mumkin. Ko‘pincha, bu holat xulqi yomon, o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarning oilasida yuz berishi mumkin. Shunga qaramay, o‘qituvchi bunday vaziyatga tayyor turishi va uchrashuvga alohida tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Bunda o‘qituvchi o‘quvchining dars tayyorlaydigan xonasi, uyidagi xo‘jalik ishlariga ishtiroki, kattalarga hurmat munosabati, ukalariga mehribonligi, nimalarga ko‘proq qiziqishi, kun tartibi singarilar bilan qiziqishi kerak. Agar ota-onal o‘qituvchining bunday savollariga qoniqarli javob qaytarishni istamasa, bu holatga qaramay, o‘qituvchi bolaning yaxshi o‘qishi, tartib-intizomli bo‘lishi uchun ular nimalarga e’tibor qaratishlari haqida do‘stona maslahatlar berishga urinib ko‘rsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lardi. O‘qituvchi keyingi uchrashuvda ota-onaga o‘quvchi haqida (unda jiddiy ijobiy o‘zgarish yuz bermagan bo‘lsa-da), bolada ijobiy tomonlar, yaxshi xislatlar paydo bo‘layotganini gapirishi kerak. Bunday gapdan ota-onal xursand bo‘lishi va ular orasida munosabat iliqlashishi va qadrdonlik paydo bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi bilan ota-onalar o‘rtasidagi munosabat kutilgandek bo‘lishi qanchalik qiyin kechmasin, bunga erishish yo‘llarini topish lozim. Oilada bola tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladigan omillar, ko‘pincha ota-onalarning bolani, uning ruhiyatini tushunmay muomala qilishlaridan, pedagogik bilimlari yetarli emasligidan, shaxs rivojlanishi qonunlariga e’tiborsizliklaridan kelib chiqadi. Hamkorlik ishida maktab bo‘yicha o‘tkaziladigan umumiylig‘ilishlar bilanM bir qatorda, ayrim sinf majlislarining ham alohida o‘rni bor. Bolalarining qanaqa tarbiya olishlari u tarbiyalanayotgan muhitga bog‘liq. Shunday ekan, yoshlik - beboshlik bo‘lishi ham, yoshlik - nodonlikning boshlanishi bo‘lishi ham bolalarga berilayotgan tarbiyaga va bolalarning tarbiya topishiga bog‘liq. Ona O‘zbekistonimiz mustaqillikka erishgach, maorifimiz oldida birinchi navbatda yangi insonni tarbiyalashdek g‘oyat muhim vazifa ko‘ndalang bo‘ldi. Yangi inson - ona O‘zbekistonning chinakam sohibi, chinakam ishbilarmoni, chinakam yetuk fuqarosi, bir so‘z bilan aytganda, komil inson bo‘lishi kerak. Ustoz-murabbiylar shunday komil insonni tarbiyalashni oliy burch deb biladilar.

Millatning rivojlanishi, taraqqiy etish tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, bilimli, ma`naviyatli va ma`rifatli yoshlarining jamiyat yuksalishida o`rni beqiyos. Bunday yoshlarni barkamol etib tarbiyalovchi asosiy omillardan biri – mutolaa qilish vositasi kitob hisoblangan. Bizni yerdan ko`kka ko`taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug'lik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyat ham bu-kitobdir. Kitob insonni ulug'laydi, Vatanni sevish, insonparvarlik, o`zi yashab turgan hayotga shukronalik hissi bilan qarash, boshqalarga mehr-muruvvatli va xushmuomala bo`lish, atrofdagi insonlarga yaxshilik ulashish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Kitobning inson hayotidagi ahamiyati beqiyos bo`lib, u inson umr yo`llarini yorituvchi so`nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo`lguvchi sodiq do`stdir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, bugungi kunda yoshlar va aholi o`rtasida kitobga bo`lgan qiziqish va kitobxonlik darajasini oshirish hamda kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo`yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Kitobxonlik amalda keng joriy etish jarayonida birinchi navbatda mavjud kutubxonalarini rekonstruksiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini yangilash, kerakli ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, kutubxonalar faoliyatida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishimiz va undan samarali foydalanishimiz mumkin. Bu ishlarni amalga oshirilishi uchun zarur chora-tadbirlar belgilab berilgan va ularning ijrosi muntazam nazorat qilib borilmoqda. Buning yorqin dalili sifatida yurtimizni rivojlantirishdagi 5 ta muhim tashabbusga “Yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish, ular o`rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo`yicha tizimli ishlarni tashkil etish”ni alohida yo`nalish sifatida belgilab berilganligi fikrimizga yorqin misol bo`ladi. Buyuk bobokalonlarimiz ham bola tarbiyasida kitobning o`rni henihoya katta ekanligini, uni tafakkurning tolmas qanoti sifatida inson ma`naviy olamini boyitishi, yuksak ijodiy va yaratuvchalik vositasi sifatida nihoyatda qadrlash hamda undan samarali foydalanish zarurligini ta`kidlan o`tganlar.

Mutaxassislar bola hayotining ilk yosh davrini “mo`jizalar davri” deya nomlaganlar. Bu davrda bolalarga kitob o`qishga tayyorlanadi. Bunda avval nutq

malakalarini, eshitish va so`zlashishni mukammal o‘rganib olishlari lozim. Bolalarni kitobga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini biz albatta oiladan boshlasak juda ijobiy natija berishi va undan keyin maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirsak, kutilgan natijaning yanada samarali bo‘lishi mumkin. Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham shu maskandan boshlansa, yaxshi samara beradi. Chunki, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan gap behudaga aytilmagan. Muqaddas maskanda ota-onal bolalarni kitobga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishda o‘zlari namuna bo`lishlari va o‘zlari kitob mutoola qilishlari yaxshi samara beradi. Oilada ota-onal kitobga mehr qo‘ygan bo‘lsa bunday oilada tarbiyalanayotgan farzand ham kitobga oshno bo‘ladi, bunday bolalarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi keng bo‘ladi, xushmuomala, mehribon, boshqalarga iloji boricha yaxshilik qilishga urinadigan, har bir aytayotgan so‘zi, qilayotgan ishini o‘ylab bajaradigan, bir so‘z bilan aytganda, o‘zida barkamol shaxs xislatlarini namoyon qilishga harakat qiladigan ziyoli farzand bo‘lib voyaga yetadi. Oila muhitida kitobxonlikning tizimli ravishda olib borilishi kutilayotgan natijaning samarasini yanada oshiradi. Bolalarga yoshlikdan o‘zbek xalq ertaklaridan so‘zlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiylit, mehmondo‘stlik kabi insoniy fazilatlarni hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtirom kabi tushunchalarni tarbiyalaydi.

Bundan tashqari, buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Forobiy, Abdulla Avloniy, Niyoziy, Yusuf Xos Xojib, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarimiz bilan tanishtiramiz va ularning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlari esa bola tarbiyasida asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Respublikamiz Prezidenti ham yosh avlod ta’lim-tarbiyasida kitobning o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanini alohida ta’kidlab, “Ayni vaqtida axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘sit bo‘lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi”, aytgan fikrlari fikrimizning dalilidir. Yuqoridagi bayon etilgan fikrlarga tayangan holda quyidagilarni ota-onalarga tavsiya etishimiz mumkin:

- Bolani kitobga qiziqtirish uchun o`zingiz namuna bo`ling;

- O`qigan kitobingizdan namunalar o`qib bering yoki hikoya qilib bering;
- So`zlab berish uchun bolani yoshiga mos fikrlarni tanlab oling;
- Oilaviy kutubxonani shakllantiring, bunda bola uchun alohida bo`lim tashkil eting;
- Bolani yosh xususiyatlariga mos kitoblar tanlang va sotib oling;
- Farzandingizga tovush chiqarib, sanoq she`rlarni, tez-tez takrorlanuvchi satrlardan iborat bolalar she`rlarini, rasmi li kitobchalarni, turli hikoya va ertaklarni muntazam o`qib bering;
- Kichkintoylar uchun mo`ljallangan kutubxona va kitob do`koniga vaqt-i-vaqti bilan olib boring;
- Tanlagan kitoblaringiz pedagogik-psixologik talablarga javob bersin. Xulosa qilib aytganda, barcha ezgu ishlarning, bunyodkor g`oyalarning asosi bu kitobdir. Bizga ilm nurlarini sochadigan ham kitobdir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitobga bo`lgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarini shakllantirsak nur ustiga a`lo nur bo`ladi. Bolada o`qish malakalarni shakllantirish negizida og`zaki nutq rivojlanish va kitobga muhabbatni oshirish lozim. Biz buyuk ishlarga qodir yoshlарimizni hayot yo`llarida hamroh va maslahatgo`y, bir umrlik sodiq do`sht – kitobga tayanishni oiladan boshlasak, kelajagi buyuk yurtimiz uchun munosib bunyodkor yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazishda o`z hissamizni qo`sghan bo`lardik.

Oila byudjeti – bu oilaga bir oy davomida kelib tushadigan er va xotinning ishhaqi pullari, shuningdek, turli xil yordam pullari va boshqa daromadlarning umumiyligi yig`indisidir. Byudjetni rejalashtirish – bu oilaning daromad va xarajatlarini to`g`ri hisob-kitob qilishdir.

Oilaning har bir a`zosi oila byudjetini tuzish jarayonida ishtirok etishi muhimdir. Bolalarni bunga o`rgatish orqali siz ularga kelajakda o`z shaxsiy byudjetlarini boshqarish uchun asos yaratib berasiz. Avvaliga oilaviy byudjet nima ekanligini aniqlashtirib olsak. Oilaviy byudjet-bu sizning barcha daromad va xarajatlaringiz o`rtasidagi farqlanishdir. U ijobiy bo`lsa - yaxshi, salbiy bo`lsa esa - yomon. Qolaversa, u nolga teng bo`lishi ham mumkin. Bu natija eng jozibador hisoblanadi. Zero bu oilaviy byudjetningizdagi barcha mablag'dan foydalanayotganingizni anglatadi. Buni

tasdiqlovchi ibora ham mavjud pullar harakatda bo‘lishi, ishlashi lozim! Oylik maoshni orziqib kutmasligingiz uchun sizda kamida ikki-uch haftaga yetadigan zaxira mablag’ bo‘lishi lozim.

Ya’ni: odatda 15-sanada oylik olib, uni ishlatishga kirishmasdan, 31-sanaga kadar sizda ma’lum miqdorda pul bo‘lishiga erishishingiz kerak. Shunda 15-kuni oylik olganda uni birpasda ishlatib yubormay, keying oyning 1-kuniga kadar saqlab qolish mumkin bo’ladi. Boshqacha qilib aytganda, favqulodda holatlar uchun sizda doim ma’lum miqdorda zaxira saqlanib turadi. Tabiiyki, siz xarajatlaringiz tarkibini ham aniq bilishingiz kerak. Zero, barcha yirik xarajatlarni oldindan rejalashtirish lozim. Ularni vaqt boyicha bir tekis

tarqatsangiz, oylik maoshdan katta pul olishga xojat qolmaydi.

**6.** Oilada ka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlar ham alohida ahamiyatga ega. Oilada uyg'un tarbiyalash aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlarni hisobga olmasdan mumkin emas. Ular qanaqa? Turli xil! Ba'zan ular ko‘proq sevgi, tushunish va qo‘llab-quvvatlashga ega; lekin ko‘pincha - raqobat va shafqatsizlik. Ikkinci yoki uchinchi farzand ko‘rishga qaror qilgan ota-onalar uchun eng hayajonli muammolardan biri: bolalar qanday qilib bir-birlariga kichkina bo‘lib munosabatda bo‘lishadi? Bugungi kunda mojaro paydo bo‘ldi va xafagarchilik hayotda qolmasligi uchun ularga qanday yordam berish kerak? Savol tug'ilishi mumkin: aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi yaxshi munosabatlar nega shunchalik muhim? Qanday qilib ular bolalar fe'l-atvorining shakllanishiga yordam beradi? Gap shundaki, oila bola uchun dunyoning o‘ziga xos namunasidir. Aka-uka va opa-singillar bilan muloqotda bo‘lgan oilaning kichik a’zolari umuman odamlar bilan muloqot qilishni o‘rganadilar. Ma'lumki, yaqinlari bilan aloqasi bo‘lmagan bolalar maktabdagi do‘srtlari va o‘qituvchilari bilan qiyinchiliklarga duch kelishadi. Va kattalar bo‘lganda, ular ko‘pincha turmush o‘rtog'i, ishdagi hamkasblari va boshliqlari bilan muammolarga duch kelishadi.

Aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlar qo‘llab-quvvatlovchi va ishonchli bo‘lishi mumkin. Bir oilada o‘sган bolalar ko‘pincha bir-birlarining ichki sirlarini bilishadi, maktabda va oilada bir-birlarini himoya qilishadi. Kimdir bilan bo‘lgan maxsus maxfiy munosabatlarga urg'u berish uchun ular: "U menga singil

singari", deyishadi va "birodarlik" so'zi bir maqsadda yashaydigan hamfikr odamlarning birligini anglatadi.

Boshqa tomondan, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar to'g'ridan-to'g'ri raqobat, raqobat va rashk bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bolalar ota-onalar e'tiboriga, boshqalar orasida muvaffaqiyat uchun kurashadilar, bu ko'pincha jiddiy va uzoq davom etadigan nizolarga olib keladi. Qanday qilib bunday muammolardan qo'chish kerak? Javob aniq: bolalarda oilaning yangi a'zosi paydo bo'lgan paytdan boshlab bir-biriga bo'lgan muhabbat va hurmatni tarbiyalashni boshlash.

Oila psixologlari katta yoshdagi bolaning kichikroq ko'rinishiga qanday munosabatda bo'lishlari muhimligini bila turib ta'kidlashadi. Ular hech qanday holatda undan yaqinda yangi oila a'zosi paydo bo'lishini yashirishni maslahat bermaydilar; aksincha, oilani nima kutayotgani haqida bir necha bor gapirishga to'g'ri keladi. Bola bilan suhbatda asabiy lashmang, lekin ota-onalar uchun u qanchalik muhimligini doimo ta'kidlang; va birodar yoki opa-singilning paydo bo'lishi bilan, ularga bo'lgan sevgi kamaymaydi! Kichkintoy tug'ilgandan so'ng onalar va otalar katta yoshli bola bilan o'yinlar va qo'shma tadbirlar uchun vaqt ajratishlari muhimdir; iloji boricha, uni aka yoki singilga g'amxo'rlik qilishga jalb qiling. Shu bilan birga, bolaga g'amxo'rlik qilish katta yoshdagi bolaning zerikarli burchiga aylanmasligi kerak.

Ko'pincha, ota-onalar eng kichigi paydo bo'lishi bilan eng kichkina bolaning fe'l-atvori yomonlashganini yoki keskin yomonlashayotganini payqashadi: u urishishni boshlaydi. Agar bolalar o'rtasidagi yosh farqlari unchalik katta bo'lmasa, unda xatti-harakatlardagi o'zgarishlar ba'zida halokatli bo'ladi: katta yoshdagi ko'nikmalarni yo'qotadi, o'z-o'zidan ovqatlanishni to'xtatadi, hojatxonaga boradi va yomonroq gapira boshlaydi. Agar bola allaqachon maktab o'quvchisi bo'lsa, unda akademik ko'rsatkichlar bilan bog'liq muammolar paydo bo'ladi. Ko'pincha bu barcha hodisalar bolaning ota-onalarning e'tiborini jalb qilishning tabiiy istagi bilan bog'liq.

"Opa-singil" so'zi tom ma'noda "o'ziga tegishli ayol" yoki "o'z oilasining ayoli" degan ma'noni anglatadi. Tilshunoslarning fikriga ko'ra, u hind-Yevropalik "sve-sor" dan kelib chiqqan bo'lib, barcha lingvistik guruhlarga tarqalib ketgan va hozirgacha "ona" so'zi kabi tez-tez ishlatib kelinmoqda.

Oilaviy nomutanosiblikning o‘ziga xos namunasi "sanatoriya" deb ta'riflash mumkin bo‘lgan oila turi. Emotsional holati tashqi dunyo oldida tashvishning kuchayishi, sevgi va g'amxo‘rlik talabi bilan ifodalangan turmush o‘rtoqlardan biri o‘ziga xos cheklovni, yangi tajriba uchun to‘sinqi yaratadi. Bunday himoya, atrofdagi dunyoning noaniqligi oldida tashvish tuyg'usini kamaytirishga imkon beradi. Barcha oila a'zolari, shu jumladan bolalar, asta-sekin tor, cheklangan doiraga jalb qilinadi. Turmush o‘rtoqlarning xatti-harakati "kurort" shaklini oladi, sa'y-harakatlar o‘ziga xos jamoaviy o‘zini o‘zi cheklashga sarflanadi. Turmush o‘rtoqlar har doim birga bo‘lishadi va bolalarni o‘zlariga yaqin tutishga harakat qilishadi. Ajralishga urinishlar oilaning mavjudligiga tahdid sifatida qabul qilinadi, muloqot doirasi asta-sekin cheklanadi, do'stlar bilan aloqalar, qoida tariqasida, qarashlar va qadriyatlardagi farq bahonasida kamayadi. Oila "faqat tashqi ko‘rinishda birdam bo‘lib ko‘rinadi, munosabatlarning tubida sheriklardan birining bezovta qiluvchi qaramligi yotadi. Uyushma erkin do‘stona emas, balki simbiotik qaram bo‘lib qoladi. Bu oila a'zolaridan biri, ham kattalar, ham bolalar, chegaralaydi, degan ma'noni anglatadi. o‘z vazifalari, yaqinlarini tobora ko‘proq e'tibor bilan o‘rab olishga majbur qiladi.Oila a'zolari unga alohida g'amxo‘rlikni amalga oshirishda birlashadilar, uni qiyinchiliklardan himoya qiladilar, juda kuchli taassurotlardan himoya qiladilar.Ko‘pincha, agar oila himoyasi kattalar oilasi atrofida qurilgan bo‘lsa. a'zo bo‘lsa, u ongsiz ravishda qandaydir foyda oladi, masalan, turmush o‘rtog'ining sevgisini barqarorlashtirish va himoya qilish. Ba'zan, bunday pozitsiya bilan, turmush o‘rtoqlardan biri ongsiz ravishda boshqasidan qasos oladi, go‘yo: "Siz juda shafqatsiz edingiz (yoki bo‘lgansiz)). Menga, va endi men yordam so‘rashga majbur bo‘ldim, shuning uchun men yordam so‘rashga majbur. " Bunday bolalarning holati Agar oila ona yoki ota uchun "sanatoriya" ga aylangan taqdirda, bolalar odatda zarur g'amxo‘rlikdan mahrum bo‘lishadi. tajriba onaning mehr-muhabbati va mehrining etishmasligi. Qoida tariqasida, ular uy ishlariga erta jalb qilinadilar, ko‘pincha yillar davomida jismoniy va asabiy ortiqcha yuk sharoitida yashaydilar, haddan tashqari tashvish va hissiy jihatdan qaram bo‘lib qoladilar, shu bilan birga ota-onalariga iliq, mehribon va g'amxo‘r munosabatda bo‘lishadi. Turmush o‘rtoqlardan birining ongsiz maqsadi ikkinchisining sevgisi va g'amxo‘rligini saqlab

qolish bo‘lganligi sababli, bola ota-onadan ham, ikkinchisidan ham sevgi yetishmasligini qoplay olmaydi.

Qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash Islomda “silai rahm” deyiladi va dinimiz musulmonlarni doimiy ravishda silai rahmga buyurgan. Alloh taolo qarindoshchilik rishtalariga rioya qilish haq-huquqini oqil, donishmand kishilarning ulug‘ sifatlaridan deb baholaydi.

Jamiyat saodati, qonuniy tartib va nizom mustahkamlanishida asosiy omil bo‘lgan qarindoshlik aloqalarining, ya’ni silai rahmning ahamiyati adolat, yaxshilik qilish va boshqa chiroylar amallar kabi muhimdir. Zero, Alloh taolo aytadi: “Albatta, Alloh adolatga, ezgu ishlarga va qarindoshga yaxshilik qilishga buyuradi hamda buzuqchilik, yovuz ishlar va zulmdan qaytaradi. Eslatma olursiz, deb (U) sizlarga (doimo) nasihat qilur” (Nahl, 90).

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ham ummatlarini silai rahmga chaqirganlar va qarindoshlik aloqalarini uzganlarmi oxiratda og‘ir azob-qiyonoqlar kutayotgani haqida ogohlantirganlar. Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam marhamat qiladilar: “Silai rahm qilmagan, ya’ni qarindoshlaridan aloqani uzgan odam jannatga kirmaydi. Silai rahm doimiy bordi-keldi emas, balki uzoqlashib ketgan qarindosh holidan xabar olishdir”.

Qarindoshchilik rishtalarini turli yo‘l va usullar bilan mustahkamlashga harakat qilish insonning rizqi va umriga baraka berishi haqida ham Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam bashorat berib, bunday deganlar: “Kimni rizqu ro‘zi keng bo‘lishi va umri uzoq bo‘lishi xursand etsa, bas u silai rahm qilsin, ya’ni qarindoshlik rishtalarini mustahkmasin” (Imom Buxoriy va Muslim rivoyati).

Shu bilan birga qarindoshlik rishtalarini uzish eng katta gunohlardan va yomon ishlardan bo‘lib, bemehrlik, toshbag‘irlik va hissiyotsizlik, deb bilinadi. Bunday kimsadan biron bir yaxshilik kutilmaydi, undan rahm-shafqat umid qilinmaydi. Zero, odam o‘z yaqinlariga yaxshilik qilmasa, begonalardan butunlay chetda bo‘ladi. Uning qalbi o‘z tug‘ishganlariga nisbatan toshbag‘ir bo‘lsa, ulardan boshqalarga esa yanada qattiq va bemehr bo‘ladi. Islom ta’limoti bunday ishlardan qat’iy ogoh etadi.

Qavm-qarindoshlar bilan aloqani bog‘lash imondandir, bu aloqalarni uzish esa kofir-fosiqlarga xos xislatdir. Ulamolar aytishadiki: “Kishi qarindoshlari orasida bo‘lsa, o‘zaro hadya va ziyorat ila bog‘lanib turishi vojib bo‘ladi. Mol bilan marhamat ko‘rsatishga qodir bo‘lmasa, ziyorat qilish, ishlariga yordam berish bilan bog‘lansin. Agar buning ham iloji yo‘q bo‘lsa, ular bilan xat orqali bog‘lanib tursin. Borishga imkon bo‘lsa, borgani afzal”.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: “Qarindoshlar bilan bog‘lanish savobidek tez keladigan yaxshilik yo‘q. Dunyoda tezgina azob berib, oxiratda ham azob bo‘ladigan gunoh qarindoshlardan aloqani uzishdir”; “Qon-qarindoshlik aloqalarini uzganlar jannatga kirmaydi”; “Kim rizqi mo‘l bo‘lishini, ajali orqaga surilishini istasa, qarindoshlik aloqalarini uzmasin”; “Qarindoshga qilingan sadaqa – ham sadaqa, ham silai rahm hisoblanadi. Ularga ikki ajr beriladi: biri – qarindoshlik ajri, ikkinchisi – sadaqa ajri”, dedilar.

Qarindoshlik aloqalarini bog‘lash vojib bo‘lgan qarindoshlar aka-ukalar, amaki, tog‘alar, xolalar, ammalar va ularning farzandlaridir. Qarindoshlar bilan aloqani uzish tez orada jazolanishning, uqubatga uchrashning asosiy sabablaridan biridir. Silai rahmda o‘nta maqtalgan xislat bor:

1. Alloh taolonning roziligi bor, chunki Alloh taolo shunga buyuradi.
2. Mo‘minlarga xursandchilik yetkazish bor – bu haqda xabar kelgan.
3. Silai rahm bilan farishtalar xursand bo‘ladilar.
4. Silai rahmda musulmonlarga yaxshi maqtov bor.
5. Iblisga g‘am yetkazish bor. 6. Silai rahmda umr uzayadi.
7. Rizqda baraka bo‘ladi.

8. Marhumlar xursandligi bor, chunki ota-onha va bobolar ortlarida qolganlarning silai rahmidan mammun bo‘ladilar.

9. Do‘stlik kuchayadi, chunki bir sabab bilan qavm-qarindoshlar to‘planishib, quvonch yoki g‘amda bir-birlariga sherik bo‘ladilar va bu hol ularda do‘stlikning kuchayishiga sabab bo‘ladi;

10. O‘lgandan keyin ham ajrining ko‘payishi bor. Chunki qarindoshlar ortidan duo qiladilar, hamma vaqt yaxshiliklarini eslab yuradilar.

Rivoyatlarda keltirilganiday, aka singlisi holidan xabar olish uchun ketayotganida qarshisidan bug‘doyzor dala chiqib qolsa, yo‘lni qisqartirish uchun uni payxonlab o‘tishiga ijozat berilganining o‘zi ham akalarning o‘z singillariga qanday munosabatda bo‘lishlari kerakligini ko‘rsatib turibdi.

Kim o‘zi boy bo‘lsa-yu takabburlik ortidan kambag‘al qarindoshlaridan aloqasini uzsa, ularga xayr-ehson qilmasa, Yaratganning g‘azabiga uchrab, mukofotidan mahrum bo‘ladi. Faqat tavba qilib, ehsonini ko‘paytirsa va ularning ko‘nglini olsagina gunohi kechiriladi. Qarindoshlar bilan aloqani bog‘lash rizqning ziyoda, umrning uzun va yomon o‘limdan saqlanish sabablaridandir.

7. Ota-bobolarimiz qadimdan oilani muqaddas bilib, uni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratib kelgan. Zero, insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning fe’l-atvori, tabiatи va dunyoqarashini belgilaydigan yaxshilik va ezgulik, oljanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi ma’naviy mezon va qarashlar aynan oila sharoitida kamol topadi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan oilaning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini oshirish, uning huquqiy asoslarini yaratish eng muhim vazifalar sifatida belgilandi. O‘ziga xos milliy davlatchilik tariximiz, xalqimizning azaliy qadriyat va an’analari e’tiborga olinib, Konstitutsiyamizga “Oila” bobi kiritildi. Bosh Qomusimizning mazkur bobida oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga egaligi mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, unda nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliliga asoslanishi, ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalash, o‘z navbatida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburliklari, farzandlar, ota-onalarining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’iy nazar, qonun oldida tengligi, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi va boshqa qonun, huquqiy-me’yoriy hujjatlarda ham bu qoida va tartiblar qat’iy belgilab qo‘yilgan. Oila to‘ydan boshlanadi. Xalqimiz to‘ysiz, ya’ni jamoatdan bekitiqcha oila qurmaydi. Maslahatli to‘y tarqamas,

degan maqol zamirida xalqimizga xos birdamlik, hamjihatlik kabi fazilatlar mujassam. Ko‘pchilikning ko‘z o‘ngida oila qurgan yigit-qiz oila mas’uliyatini chuqurroq anglaydi. “Baxtli oilalarning hammasi bir-biriga o‘xshaydi, baxtsiz oilalarning esa har biri o‘zicha baxtsizdir”, degan edi Lev Tolstoy. Hayot haqiqatini teran anglagan donishmand yozuvchi haq.

To‘g’ri, o‘zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o‘xhash tomonlari yo‘q emas. Biroq uning o‘ziga xos jihatlarini sanab ado qilib bo‘lmaydi. O‘zbek oilalarning hammasi bir-biriga o‘xshaydi. Ularning baxti ana shu o‘xhashlikda. Jamiatning ravnaqi, taraqqiyoti ham ana shu o‘xhashlik tufaylidir.

Mamlakatimizda jamiatning asosiy bo‘g’ini hisoblangan oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, uning huquqiy asoslarini yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan mamlakatimiz Konstitutsiyasiga “Oila” alohida bob sifatida kiritilgan. Shu asosda O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi” va boshqa qonunlarida ham xalqimizning oilaga munosabati, o‘ziga xos qarashlari nuqtai nazaridan tegishli qoida va me’yorlar belgilangan.

Oilaning mustahkam bo‘lishi va unda har tomonlama sog’lom farzandlar kamol topishi ko‘p jihatdan er-xotinning salomatligi, oila qurishga tayyorligi, zimmasidagi burch va majburiyatni nechog’li anglab yetishiga bog’liq. Shu bois yigit-qizlarning nikoh va oila haqidagi tushunchalarini boyitish, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari, farzand ta’lim-tarbiyasiga oid bilimlarni mustahkamlash eng muhim vazifalardan sanaladi.

## **NAZORAT SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

1. Oilaning ilk kelib chiqishi haqida aytib bering?
2. Oila muqaddas deganda nimani tushunasiz?
3. Oilaning qadriyat va an’analari nimadan iborat?
4. Oilada ota-onaning bolani kasbga yo‘naltirishdagi vazifalari?
5. Oiladagi tarbiyaning jamiatga ta’sir etuvchi jarayonlarini aytib bering?
6. Oiladagi farzandlar: aka-uka va opa-singil munosabatlari haqida gapiring.
7. Oilaviy byudjet va uning oila farovonligidagi o‘rni haqida mustaqil fikringizni bildiring.

8. Baxtli oila tushunchasiga buyuk insonlar qanday ta’rif berishadi?

### **TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

1.Mas’uliyat nimalarda namayon bo‘ladi?

- A. Insonning o‘z xatti-harakatlari va so‘zlari oldidagi mas’uliyat
- B. Oilasi va yaqinlari oldida mas’uliyat
- C. Jamiyat oldidagi mas’uliyat
- D. Barcha javoblar to‘g’ri

2.Insonlar o‘rtasidagi do‘slik va birdamlik poydevori – bu ..... hisoblanadi. Nuqtalar o‘rniga mos javobni qo‘ying.

- A.Rostgo‘ylik
- B.Mehnatsevarlik
- C.Qobiliyat
- D.Quvnoqlik

3.“Hattoki yolg’iz o‘zing bo‘lsang ham, yomon gapirma va yomon ish qilma. Boshqalarga nisbatan ko‘proq o‘zingdan uyalishni o‘rgan”. Ushbu fikr qaysi mashhur faylasufga tegishli?

- A.Demokrit
- B.Platon
- C.Suqrot
- D.Aristotel

4.“Rostgo‘ylik” tushunchasi qaysi tushuncha bilan yonma-yon yuradi?

- A.Mehribonlik
- B.Intiluvchanlik
- C.Vijdon
- D.Mehnatsevarlik

5.Inson qalbining qalqoni bo‘lib, noto‘g’ri harakat qilmoqchi bo‘lganida uni axloqiy tartib-qoidaga chaqiruvchi ichki ovozga nima deyiladi?

- A.Muhabbat
- B.E’tiborlilik
- C.Vijdon

D.Jasorat

6.Mas’uliyatsizlik nima?

- A. Bu insonning o‘z so‘zlari va xatti-harakatlariga e’tiborsizligi
- B. Bu insonning faqat o‘z manfaatini o‘ylab ish tutishi
- C. Bu insonning har bir ishga vijdanan yondashishi
- D. Barcha javoblar to‘g’ri

7.“Dangasalik har vaqt insonni xor qilur”. Ushbu fikr muallifi kim?

- A. Abdulla Avloniy
- B. Alisher Navoiy
- C. Abdurauf Fitrat
- D. Mahmudxo‘ja Behbudiy

8.Insonlar o‘rtasidagi do‘slik va birdamlik poydevori – bu ..... hisoblanadi. Nuqtalar o‘rniga mos javobni qo‘ying.

- A.Rostgo‘ylik
- B.Mehnatsevarlik
- C.Qobiliyat
- D.Quvnoqlik

9.“Hattoki yolg’iz o‘zing bo‘lsang ham, yomon gapirma va yomon ish qilma. Boshqalarga nisbatan ko‘proq o‘zingdan uyalishni o‘rgan”. Ushbu fikr qaysi mashhur faylasufga tegishli?

- A.Demokrit
- B.Platon
- C.Suqrot
- D.Aristotel

10.“Rostgo‘ylik” tushunchasi qaysi tushuncha bilan yonma-yon yuradi?

- A.Mehribonlik
- B.Intiluvchanlik
- C.Vijdon
- D.Mehnatsevarlik

## **5-MAVZU: OILAQURISH ODOBİ (2 soat)**

### **Reja:**

1. Odam Ato va Momo Havodan meros jinsiy tarbiya. Qulqoqqa aytiladigan gaplar.
2. Balog'at yoshi muammolari. Erkak va ayollik. Islom dinida jinsiy munosabatlar masalasi.
3. "Hayo – iymondandir". Poklik va halollik. Xarom tushunchasi.
4. Nikohlanish odobi. Erlik majburiyati. Xotinlik majburiyati.
5. Sevgi-muhabbat. Oliy insoniy tuyg'u.
6. Nikoh to‘ylari: an'anaviylik va zamonaviylik. "Qizim senga gapiraman...".
7. Ota va ona bo‘lish havasi va mas’uliyati.

1. Odam Ato - islomga (shuningdek, iudaizm va xristianlikka) ko‘ra, Alloh tomonidan yaratilgan yer yuzidagi birinchi odam va inson zotining otasi. Qur’onga ko‘ra, Alloh Odam atoni loydan o‘zining yerdagi o‘rribbosari (xalifa) sifatida yaratib, unga o‘z ruhidan jon ato etgan. Odam Ato Abulbashar (insoniyat otasi) deb ham ataladi. Islomda Odam Ato birinchi payg‘ambar hisoblanadi. Alloh Odam Atoga barcha narsalarning nomlarini o‘rgatdi va bu bilan uni farishtalardan yuqori qo‘ydi, farishtalarga Odam Atoga bosh egib sajda qilishni buyurdi. Faqat Iblis sajda qilishdan bosh tortdi. Iblis takabburligi va sarkashligi tufayli jannatdan quvildi. Odam Ato jufti haloli Momohavo bilan jannatda yashab, ularga barcha ne’matlardan yeyishlikka ruxsat berildi, faqatgina bir daraxtning mevasidan yeyish taqiqlandi (A’rof surasi, 19-21-oyatlar). Iblis Odam Ato bilan Momohavoni aldab, taqiqlangan daraxt mevasini yediradi. Buning jazosi evaziga ular jannatdan chiqarilib, ularning avlodlari yerda yashashga va mehnat qilishga mahkum etiladi.

Islom dinida Odam. Musulmonlar Odam birinchi yaratilgan inson va payg‘ambar ekanligiga ishonadilar. Islomning muqaddas kitobi Qur’onda Odam Ato haqida yetti boshqa-boshqa joylarda yozilgan. Islomda Odamni tuproqdan yaratilganligiga va Ollo Odamga yagona aqli mavjudot bo‘lgani uchun boshqa jonzotlarga o‘rgatmagan narsalarni unga o‘rgatganligiga ishoniladi. Ollo farishtalarga Odamga sajda qilishni buyuradi, lekin Iblis kibri tufayli unga sajda qilmaydi. Kibri sababli u Jannatdan

haydaladi. Ba’zilar Iblisni isyonkor farishta bo‘lganiga ishonsalar-da, Qur’onning Qof surasida Iblis farishta emas, balki jin (olovdan yaratilgan) ekanligi ifoda etilgan.

Odamga juft qilib birinchi ayol – Momo Havvo yaratiladi. Olloh ularga Jannatda bitta daraxtning mevasidan tashqari hamma mevalarni yeyishga ruhsat beradi. Bir kuni iblisga ishonib yeyish man qilingan mevani yeydilar. Bu itoatsizlik tufayli Olloh ularni Jannatdan haydaydi va Yer yuziga yuboradi. Yer yuzida ko‘payishadilar.

Islom madaniyatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan bu qissa keyinchalik bir qancha madaniy va diniy oqimlarning ta’siri tufayli yanada afsonaviy va Qur’ondagidan farqli tus oladi. Bugungi kunda bu qissaning bir-biridan farqli ko‘p variantlari bor. Odam ato bundan taxminan 10000 yil oldin paydo bo`lgan.

Alloh taolo inson zotini barcha jonzodlardan afzal qilib yaratgan. Xatto farishtalarini ham Xazrati Odam alayhissalomga ta’zim qilishga buyurgan.

Alloh taolo odamzotiga butun borliqni bo‘ysundirib ko‘yish bilan birga, barcha mavjudotlarni inson manfaatiga xizmat qildirib qo‘yan. Quyosh aynan insonni isitib, yer yuzida hayotni ta’minalash uchun nur sochsa, tunda insonlar uchun oy ziyo sochadi.

Alloh taolo Qur’oni karimda shunday marhamat qiladi: “Darhaqiqat,( Biz) Odam farzandlarini aziz va mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizga ( ot- ulov va kemalarga) mindirib qo‘ydik hamda ularga pok narsalardan rizq berdik va ularni o‘zimiz yaratgan ko‘p jonzodlardan afzal qilib qo‘ydik” ( Isro surasi, 70- oyat). (Ey, insonlar) Allah osmonlar va yerdagi barcha narsalarni sizlarga bo‘yin sundirib qo‘yanini va sizlarga barcha zohiriylar va botiniy ne’matlarini komil bergenini ko‘rmadingizmi? ( Luqmon surasi, 20- oyat)

Islom dinida barcha insonlar barobar, bir-birlariga birodardirlar. Ulardan biri boshqasidan hech narsada — na boylikda, na mansabda, na chiroyi, na jamiyatda tutgan o‘rni bilan ustun bo‘la oladi. Allah nazdida insonlarning eng ulug‘i faqat uning o‘zidan qo‘rqadigan taqvodorlaridir. Allah taolo bu haqida shunday deydi: “Ey, insonlar, biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol ( Xavvo ) dan yaratdik hamda bir- birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elatlar) qilib qo‘ydik. Albatta, Allah bilguvchi va xabardor zotdir». ( Xujurat surasi 13- oyat).

Umuman olganda, muqaddas dinimizda odam azizdir, odamiylik undanda ulug‘vordir. Bu borada islom tarixiga oid nazariy bilimlarni puxta o‘rganish barchamizni komillikka yetaklaydi.

2. Balog'at yoshi o‘siprin rivojlanishining muhim qismidir. Ba'zi o‘siprinlar buni orzu qiladilar, ba'zilari esa bundan qo‘rqishadi va ko‘pchilik keyingi yillarda har ikkala haddan ziyod holatga duch kelishadi. O‘g'il bolalar va qizlarda balog'at yoshi har xil bo‘lsa-da, ba'zi aniq belgilar bolaning balog'at yoshiga kirgan vaqtini aniqlashi mumkin. Ushbu belgilarni aniqlash ota-onalar va o‘siprinlarga kelajakdagi o‘zgarishlarga o‘zlarini tayyorlashga yordam beradi.

Balog'at yoshi bolaning tanasi katta yoshga o‘tishni boshlaganda sodir bo‘ladi. Jarayon odatda qizlar uchun o‘n yoshdan 14 yoshgacha, o‘g'il bolalar uchun 12 yoshdan 16 yoshgacha boshlanadi. Jinsiy balog'at yoshi ikki yildan besh yilgacha davom etadi va o‘sish sur'atlari, yangi pubik va qo‘ltiq ostidagi sochlar va ba'zi hollarda husnbuzarlarni keltirib chiqaradi. Ushbu so‘nggi masala o‘g'il va qiz bolalardagi gormonal o‘zgarishlar tufayli yuzaga keladi va odatda balog'at yoshiga etganida yo‘qoladi.

Erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar. Yumshoqlik, muloyimlik va xush muomalalikdan iborat erkakning yagona dunyosi – bir so‘z bilan aytganda, u ayol dunyosida yashaydi, ayol esa bu vaqtda erkakning og‘ir va qattiq dunyosida chirpanadi. Ayol oila o‘chog‘iga g'amxo‘rlik qilishga, bolalarni tarbiyalashga, erini ishdan kutib olishga, har doim chiroyli bo‘lishga, yaxshi kayfiyatda bo‘lishga qodir. Ko‘pchilik ayollik tushunchasini shunday qabul qiladi, chunki bu katta muvaffaqiyatga erishish va martaba qurish uchun yetarli emas, deb o‘ylaydi. Darhaqiqat, faqat kuchli ayol bo‘lim boshlig‘i yoki kompaniyaning filiali boshlig‘i bo‘lishi mumkin, ammo ayollik asosiy yordamchidir.

Erkaklar ko‘zi bilan ayollik tashqi va ichki bo‘linadi, shuning uchun ular faqat istakni uyg‘otadigan odamlar tomonidan jalb qilinadi, degan fikr bor. Qiz bir qarashda erkakda ma'lum bir ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otsa, bu tashqi ayollik deb ataladi.

Erkaklar nigohida ayollik nima? Bu uning ehtiyyotkor bo‘yanishi - hech kim rassomlarning bo‘yanishini eslatuvchi ko‘zlardagi yorqin ranglarni yoqtirmaydi. Erkaklar nuqtayi nazaridan ular tabiiyga yaqin bo‘yanishli ayollarni yoqtirishadi.

Shakl, manikyur, parvarish - bu omillarsiz ayollik tushunchasi mumkin emas. Silliq sochlar, chiroqli, to'liq tasvir, toza dazmollangan kiyimlar, yoqimli atir - bularning barchasi ayolga hech qanday sharoitda erkaklar e'tiboridan chetda qolmasligini ta'minlaydi. Bu ayol go'zalligining asosidir.

Ichki ayollik yanada murakkab tushunchadir - har bir kishi unga alohida talablarga ega bo'lishi mumkin. Umuman olganda, ular alohida kuch, insoniylik, tushunish, samimiylilikni ta'kidlaydilar.

Bir butun sifatida ichki va tashqi ayollik belgilarini birlashtirgan holda, erkakning ko'zлari oldida ayollik xatti-harakati bilan ajralib turadigan tasvir yaratiladi.

Uning mezonlari:

- ichki yumshoqlik;
- sherikga hurmat, ishonch;
- ziddiyatli vaziyatlarni qo'zg'atmaslik qobiliyati;
- faqat yumshoq xarakterga xos bo'lgan mehr;
- bolaga muhabbat;
- nozik shakl;
- uzun sochlar;
- yomon odatlarning yo'qligi;
- o'zini yaxshilash istagi;
- har jihatdan poklik.
- tejamkorlik kabilar.

Ayollikni ochib berish va o'ziga ishonchini qozonish kundalik hayot mazmuniga va ovqat pishirish qobiliyatiga ko'nikmasdan mumkin emas. Ayollik tabiatini unchalik qiyin emas - muloyim fazilatlarning namoyon bo'lishi, rivojlanish uchun muntazam mashqlar (yoga va meditatsiya), o'quv resurslarini o'rganish, pishirish va o'zingizga g'amxo'rlik qilishni o'rganish istagi ayollik va nafislikni uyg'otishi mumkin. Hatto yovvoyi va yopiq odam ham o'zida ayollik fazilatlarini uyg'otishi mumkin.

Erkaklar ko'zi bilan ayollik nafaqat maxsus tashqi ma'lumotlar bilan bog'liq. Lekin xulq-atvor va xarakter ko'pincha zamonaviy kiyinish va o'zlariga g'amxo'rlik qilish qobiliyati yoki qobiliyatsizligidan muhimroqdir.

Hozirgi kunda ayol kuchli va o‘zini o‘zi ta’minlashi kerak, deb tez-tez aytildi. Biroq, hamma narsa me’yorida yaxshi ekanligini unutmang. Bejiz buvilarimiz ham ayollikning kuchi ayol zaifligida ekanligini aytishmagan. Haqiqiy erkak oilada asosiy va kuchli bo‘lishni xohlaydi. U kimgadir g’amxo‘rlik qilishi kerak. Zamonaviy xonimlar tobora ko‘proq bu haqda unutishadi va keyin ular barcha kundalik muammolar va qiyinchiliklar ularning mo‘rt yelkalariga yuklanganidan shikoyat qiladilar.

Ayol ham axloqiy, ham jismonan zaif ko‘rinishdan qo‘rqmasligi kerak. Erkak ishini erkakka ishonib topshirish va barcha jiddiy, shu jumladan moliyaviy muammolarni yolg’iz hal qilishga intilmaslik odatiy holdir. Ya’ni, ayolning ijobiy fazilatlari – bu uning atrofidagilar uchun, birinchi navbatda, erkaklar uchun qulay bo‘lgan fazilatlardir. Ayol, aslida, yorqin, bayramona paketdagi universal ishonchli kar-soqov oshxona-kir yuvish majmuasi. Afsuski, haqiqat shundaki, barcha ayollar o‘zlarining tana imkoniyatlari va cheklovlaridan mamnun emaslar. Kimdir onalik g’oyasiga qattiqqarshilik qiladi, kimdir past tajribasidan aziyat chekadi va erkaklar bilan qattiq raqobatlashadi. Boshqalar jimgina o‘z tanalarini umidsizlik manbayi sifatida yomon ko‘radilar.

Islom bizga hamma narsani o‘rgatadi. Jinsiy aloqalar hayotning muhim masalalaridan biri bo‘lib, Islom uni tushuntirish va to‘g’ri xulq-atvor va hukmlarni belgilash uchun kelgan bo‘lib, uni shunchaki hayvoniy zavq va jismoniy nafs darajasidan balandga ko‘taradi.

Islom buni solih niyat bilan bog‘laydi, iltijolar (adhkaar) musulmonning savobiga sazovor bo‘ladigan ibodat darajasiga ko‘taradigan to‘g’ri xulq. Payg’ambarimiz sunnatlari (assalomu alayhi va sallam) buni tushuntiradi. Imom Ibn al-Qayyim (Allah rahmatiga olsin) deydi o‘zining "Zad al-ma‘ad" kitobida:

“Jinsiy aloqalar haqida, payg’ambar (assalomu alayhi va sallam) eng mukammal hidoyat keltirdi, bu bilan sog’lik saqlanib qoladi va odamlar zavq va zavq olishlari mumkin, va u yaratilgan maqsadni amalga oshirishi mumkin. Intim munosabatlarda e’tibor berish kerak bo‘lgan muhim narsalar qatorida: bu ishni faqat Allah rizosi uchun qilish uchun xolis niyat qilish, o‘zini va xotinini harom ishlardan himoya qilish uchun

buni niyat qilish kerak, musulmon ummatining sonini ko‘paytirish, uning mavqeini oshirish, chunki ko‘pchilikda sharaf va g’urur bor.

3. Islom Alloh taoloning mukammal, barcha zamon va makonlarga salohiyatli dini o‘laroq inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Shu bilan birga kiyinish ham inson hayotining muhim sohasidir. Insonning kiyinishi uning ichki ma’naviy dunyosining sirtda aks etishidir. Qaysiki insonda uyat, hayo, or-nomus kabi tushunchalar bo‘lsa, o‘sha inson o‘z obro‘sini saqlaydigan, boshqalarning nafratini qo‘zatmaydigan holatda kiyinadi. Islomda kiyimning hukmi bir nechtadir:

1-farz - bu avratni berkitadigan va issiq sovuqni qaytaradigan kiyimdir. U paxta yoki kanopdan o‘ta nafisi bilan o‘ta yomonining o‘rtasida bo‘lishi kerak.

2-mustahab - bu avratni to‘sib ziynatni zohir qiladigan kiyimdir.

3-muboh - bu juma hayot va odamlar jamlanadigan kunlari yasanish uchun kiyiniladigan chiroyli kiyimdir.

4-makruh - bu mutakabbirlik va manmanlik uchun kiyiladigan kiyimdir

5-harom - bu avratni to‘smaydigan hamda erkaklar uchun shoyi ipak kiyimlardir.

“Hayo” so‘zi lug‘atda uyatsizlikning teskarisini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, hayo aybdan va yomonlanishdan qo‘rqib, o‘zini past olish va o‘zgarishdir. Ulamolar hayoni turlicha ta’rif qilganlar:

Jurjoniy: «Hayo nafsning bir narsadan tortinishi va malomatdan hazir bo‘lib, uni tark qilishidir», degan.

Islom ulamolari shunday deydilar: «Hayo ikki xil buladi: Birinchisi – nafsoniy. U barcha nafslarda xalq qilingan bo‘ladi. Ikkinchisi – iymoni. U musulmonning Alloh taolodan qo‘rqib harom ishlarni qilishdan tiyilishidir». Haqiqiy hayo shudir.

Odam zotining xilqatida yozilgan haqiqiy hayo shu iymoni hayodir. Kimda ana shu iymoni hayo bo‘lsa, unga Alloh taolo tomonidan katta ne’mat berilibdi. Chunki har bir inson ikki dunyo saodatiga ana shu iymoni hayo bilan erishadi. Kimda agar aksincha bo‘lsa, ikki dunyo saodatidan mahrum qolibdi. Hayo barcha yaxshiliklarning manbayidir. Hayoning ketishi esa barcha yaxshiliklarning ketishidir. Kishining dunyoda gunohga qo‘1 urishi, asta-sekin hayosining ketishiga sabab bo‘ladi. Yoki shu holda davom etishi bir yo‘la hayosini yo‘q qilib yuborishi mumkin. Bunday kishi shariatda

fosiq deyiladi. Fosiq kishini jamoat joylarda uyatli, shariat man qilgan ishlarni ochiq qilishi uning iymonsizligidandir. Hayo haqida so‘z ketganda, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning bir muborak hadislarini eslasak, o‘rinli bo‘ladi. U zot aytganlarki: «Har bir dinning xulqi bor. Islomning xulqi hayodir».

Demak, agar Islom dinining xulqi hayo bo‘lsa, unga e’tiqod qiluvchi musulmonlarning asosiy fazilati ham hayo bo‘lishi lozim.

Dinimizda uning madori bo‘lgan hadislar bor. Ulardan birida Payg‘ambarimiz (s.a.v.): «Agar hayo qilmasang, bilganiningni qilaver», deganlar. Buni 2 xil ma’noda tushunish mumkin. Birinchi ma’no amr, buyruq emas, undagi ohang kinoyadan iborat va odamlarni noto‘g‘ri narsadan qaytarish uchun yangromoqda. Ikkinci ma’noda esa xabar ohangi bor, bu ma’no kimning hayosi bo‘lmasa, u hech narsadan tap tortmasligi va bilgan ishini qilaverishi mumkinligi aytilmoqda. Bu hadis, dastlab, Abu Mas’ud roziallohu anhudan rivoyat qilingan. Unda «Odamlar payg‘ambarlikdan olgan ilk narsa hayo edi», deyiladi. Hayo ham iymonning bir bo‘lagi, shuningdek, inson xulqini go‘zal qiladigan vosita hamdir. Demak, hayo bizga sunnat hisoblanadi.

Poklik va halollik esa imonning asosiy belgilaridan biridir. Poklik va halolliksiz imonli bo‘lish mumkin emas monli bo‘lishning o‘zi esa insonning pokligi va halolligiga yo‘g‘rilgandir. Pok va halol bo‘lmagan odamdan ezgulik chiqmaydi, unda mehr-shafqat, oriyat, nomus, sharm va hayo bo‘lmaydi.

Barcha ezguliklarning, xayrli ishlarning boshi halollikdir, desak, yanglishmaymiz. Halollikning o‘zi kabi do‘stlari ko‘p: yaxshilik, baraka, xotirjamlik, osoyishtalik. Ehtimol, dunyonи go‘zallikdan ham oldin halollik qutqarar. Ibrat ko‘zi bilan boqsangiz, halol insonning dili, yo‘li to‘g‘ri, darajasi ulug‘. «Halol bo‘lsang, yashay olmaysan» esa og‘ziga kuchi yetmagan, bo‘yni mehnatga yor bermaydigan mahmadonalarning chala xulosasi ekanini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Halol luqma tomog‘ingizga tiqilmaydi, jig‘ildonni qaynatmaydi, uyqungizni qochirmaydi. Har narsaning haloli bo‘lsin, deb bejizga aytishmaydi

Islom dinida insonlar uchun halol va harom masalasiga alohida urg‘u berilgan. Halol va harom amallari insonlarning biror narsani iste’mol qilishida, mol (pul) topishida, biror bir ishni bajarishida, insonlar bilan muomalasi, munosabatlarida ham

amal qiladi. Demak, insonning butun faoliyatida halol va harom yonma-yon. Qaysi birini tanlash inson vujudidagi imon-e'tiqod, ushbu tushunchalar bilan ifoda etiladigan ma'naviyatiga bog'liq.

Islom dini insonlarga rizqni faqat halol kasb orqali qo'lga kiritishga buyuradi. Halollikka Qur'oni karimda, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarida va shariat ahkomlarida katta ahamiyat berilgan.

Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Halol kasb talab qilish farzdan keyingi farzdir". "Ogoh bo'ling! Tanada bir parcha go'sht bor, u sog'lom bo'lsa, butun tana sog'lom bo'ladi. U buzilsa, butun tana buziladi. Ogoh bo'ling! O'sha narsa qalbdir".

Halollikni ustun qo'yadigan insonning qalbida imon mujassam bo'ladi. Imonli odam ma'naviyatlari, ma'naviyatlari odamning hamma amallari esa halol bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz rahbarini tashvishga solib kelayotgan, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan, adolatga putur yetkazayotgan illat – korrupsiya bor joyda halollik bo'lmaydi. Qalbida imon va halollik tuyg'usi bo'lmagan kishi korrupsiya yo'li bilan manfaat ko'rishga intiladi.

Halol va harom – ijobiy yoki salbiy deb baholanadigan diniy, axloqiy-huquqiy normalar. Halol ("erkin", "bog'lanmagan") - shariatda musulmonlar uchun ruxsat etilgan xatti-harakatlar va ishlar, toza va pok hisoblangan oziq-ovqatlar. Qur'on va hadisga ko'ra, suv, sut, non, meva va uning sharbatlari, poliz ekinlari, Allohning ismi aytib so'yilgan halol hayvonlar va halol qilingan taomlar, kiyishga ruxsat berilgan kiyimlar haloldir. Halol mehnatdan topilgan mulk, meros, hadya qilingan narsa, ikki tomon roziligi bilan bo'lgan tijorat tufayli qo'lga kiritilgan mablag' halol bo'ladi. Shariatda halol hisoblangan narsani harom degan odam kofir hisoblanadi.

Harom ("man qilingan", "ta'qiqlangan") - shariatda musulmonlar uchun qat'iy ta'qiqlangan xatti-harakatlar, ishlar, yeyish man qilingan oziq-ovqatlar. Halolning ziddi. Islom diniga ko'ra, nohaq odam o'ldirish, mast qiluvchi ichimliklar ichish, cho'chqa go'shti yeyish, o'limtik hayvonlar go'shti, Allohning ismi aytilmay so'yilgan hayvonlar go'shti, qimor, o'g'irlik, yolg'on gapisish, birovning haqqini yeyish, odamlarni haqorat qilish, ularga yomon nom qo'yish, orqasidan g'iybat qilish, tuhmat, g'irromlik, fohi-

shalik, zinokorlik, o‘z so‘zini, ichgan qasamini buzish, sudxo‘rlik, poraxo‘rlik, shariat man qilgan yo‘l bilan qilingan savdo-sotiqdan topilgan har qanday mol-mulk haromdir. Foydalanish harom etilgan, istifoda qilgan kishiga faqat zarar beradigan o‘simliklarni ekish, parvarish qilish (u narsadan o‘zi foydalanmasa ham) halol bo‘lmaydi. Shariatda harom ishlarga odatlangan odam gunohkor bo‘lish bilan birga hayotda xorlik, sharmandalik, qashshoqlik va tuzalmas og‘ir kasallikka giriftor bo‘lishi ta’kidlanadi.

Halol va harom, keng ma’noda, axloqshunoslikning tushunchalari bo‘lib, jamiyat a’zolari zimmasiga yuklatilgan axloqiy-huquqiy talablarning vijdonan bajarilishini yoxud shaxsiy yoki guruh manfaatlarini ko‘zlab, oshkora yo pinxona buzilishini anglatadi.

#### 4. Nikohlanish odobi. Erlik majburiyati. Xotinlik majburiyati.

Nikoh (arab. حكمة; talaffuzi: *nikah*; tarjimasi: „birlashish“) - ikki jins vakillarining o‘zaro roziligi asosida tuzilgan ittifoq. Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan-bir asos bo‘lgani bois u faqat axloq normalari bilan emas, balki maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Alloh taolo barcha jonzotlarni, shuningdek, insonlarni ham juft-juft bo‘lib yashashga mos holda yaratgan. Oila inson zoti yaratilganidan boshlab davom etib, insoniyat tarixining barcha davrlarida har qanday tuzum va sharoitda ham insonlarning asosiy va muhim ishlaridan hisoblanib kelgan. Oila insonni saodatini ta’minlovchi muqaddas qo‘rg’ondir.

Oilada erkakning mas’uliyati alohida qayd qilingan. Alloh taolo erkak kishini ruhiy va jismoniy jihatlari bilan ayoldan farqli o‘laroq, uni oila rahbari bo‘lishga mos holda yaratgan. Oila qurish va uni nafaqa bilan ta’minalash, osoyishtaligini saqlash va bu yuldagи barcha surf-harajatlar erkakning zimmasidadir. Alloh taolo erkak kishiga oiladek muqaddas qo‘rg’onga rahbarlik qilish vazifasini yuklab, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan ado etishga buyurishi bilan birga bunday oilalarning baxtli bo‘lishlariga ham yo‘l ko‘rsatadi. Alloh taolo Qur’oni karimda shunday deydi: ya’ni: “Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshlig‘i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab - Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba’zi

xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o‘z oilasiga) o‘z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir” (Niso surasi, 34-oyat).

Erning o‘z xotini oldida ham ijtimoiy, ham jismoniy, ham moliyaviy burchi mavjud. Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “...Ular bilan tinch-totuv turmush kechiringiz...” (Niso surasi, 19-oyat).

Darhaqiqat, Islom dini o‘z ayollariga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lgan erkaklarni insonlarning eng yaxshisi qatoriga qo‘sadi. Bu xususda Payg’ambarimiz salollohu alayhi vassallam bunday marhamat qilganlar: ya’ni: “Sizlarning ichingizda eng yaxshingiz o‘z ahli ayoliga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lganingizdir. Men esa o‘z ahlimga sizlardan ko‘ra yaxshiroq munosabatdaman” (Imom Termiziyy rivoyati).

Albatta, har to‘kisda bir ayb deganlaridek, inson zoti ayb-u nuqsonlardan holi emas. Shunday ekan, erkaklarga o‘z ayollarining ayblarini berkitib, oilaning bardavom va baxtiyor bo‘lishini ko‘zda tutgan holda ularga vaqtি-vaqtি bilan pand-u nasihat qilib turishligi lozim bo‘ladi.

Payg’ambarimiz salollohu alayhi vassallam marhamat qiladilar: ya’ni: “Hech bir mo‘min hech qaysi mo‘mina ayolini yomon ko‘rmasin. Agar uning xulq-atvoridan birini yoqtirmasa, boshqa xulqini yoqtirishi mumkin” (Imom Muslim rivoyati).

Erkak kishining eng katta burchi o‘z qaramog’idagilarning o‘zgalarga qaram bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymasligidir. Darhaqiqat, erkaklarning zimmasiga ahli ayol nafaqasi farzdir. “Kishi o‘z qaramog’idagilarini nafaqasiz tashlab qo‘yishi uning qattiq gunohkorligiga kifoya qiladi” (Abu Dovud rivoyati).

Ming afsuslar bo‘lsinki, hozirgi kunda ba’zi bir oila boshliqlari ayni shu masalada uz vazifalarini unutib quymoqdalar. Hatto ba’zilari oriyatsizlik bilan o‘z juftu halollarini o‘zga yurtlarga borib ishlab pul topib kelishga majburlayotganliklari va ayolini topgan maoshiga kun kechirayotganliklari ham ma’lum bo‘lmoqda. Bunday holatlarni paydo bo‘lishi achinarli holdir. Islomda “Ayollarning haqlarida Allohdan qo‘rqinglar”, deyiladi. Sahobalar Rasululloh salollohu alayhi vassallamdan so‘radilar: “Zimmamizda ayollarimizning qanday haqlari bor?”. Aytdilarki: “Yeganingizda uni ham yedirmog’ingiz, yuziga urmaslik, qabih so‘zlar bilan haqorat qilmaslik, arazlashganda uydan chiqmagan holda o‘rinni boshqa qilib yotmoqlik” (Abu Dovud rivoyati).

“Bir kishi Umar ibn Xattob roziyallohu anhunikiga jufti halolining badxulqligidan shikoyat qilib keldi. Uning darvozasi oldida chiqishini kutib turdi. Birdan ichkaridan Umar (roziyallohu anhu)ning xotini unga til cho‘zayotganini, unga nisbatan qattiq-quruq gaplar aytayotganini eshitib qoldi. Umar (roziyallohu anhu) sukut saqlar, ayoliga gap qaytarmas edi. Haligi kelgan kishi ortiga qaytdi. Ichida: “Mo‘minlarning amiri bo‘la turib, shiddat va salobatda dong taratib, Umarning holi shu bo‘lsa, men xafa bo‘lmasam ham bo‘lar ekan”, -dedi. Umar (roziyallohu anhu) chiqib, uning qaytib ketayotganini ko‘rdi va oldiga chaqirdi-da:“Menda nima ishing bor edi?” -dedi.

“Ey mo‘minlarning amiri! Men jufti halolimning badxulqligidan, tilining yomonligidan shikoyat qilgani kelgan edim. Sizning jufti halolingiz ham o‘shanday ekanini bilib, “Mo‘minlar amirining o‘z ayoli bilan holi shu bo‘lsa, menga nima bo‘libdi”, deb ortimga qaytdim”, - dedi.

Shunda Umar (roziyallohu anhu) unga qarab shunday dedi: “Hoy birodar! Men uning menda haqqi borligi uchun chidayman. U mening taomimni pishiruvchi, nonimni yopuvchi, kiyimlarimni yuvuvchi, bolalarimni emizuvchidir. U bilan qalbim haromdan taskin topadi. Shuning uchun uning gaplariga va qilmishlariga chidayman”.

“Ey mo‘minlarning amiri! Mening jufti halolim ham shunday”, -dedi haligi kishi.

“Bas, unga nisbatan chidamli bo‘l, ey birodar, bu qisqa muddatdir”, -dedi Umar roziyallohu anhu. Qanday go‘zal ibrat.

Farzandlarni, odatda, onalar emizib, tarbiya qiladilar. Moddiy ta’milot bo‘yicha ayol eridan uning toqati yetmaydigan narsalarni talab qilishi mumkin emas. Ulamolarimiz aytadilarki, erining topganiga qanoat qilmasdan, undan yanada ko‘proq narsalar talab qilgan ayollar gunohkor bo‘ladilar. Erning o‘z ayoliga yaxshilik qilish sirasiga uning ota-onasiga va boshqa qarindoshlariga ham yaxshilik qilishligi ham kiradi. Zotan, erning ularga yaxshilik qilishi shariatning talabidir. Ota-onaga yaxshilik qilish qanchalik ahamiyatga ega ekanini har bir musulmon kishi yaxshi biladi. Kelin uchun erining otasi ota o‘rnida, onasi ona o‘rnida bo‘lganidek, kuyov uchun ham ayolinining otasi ota o‘rnida, onasi ona o‘rnida bo‘ladi.

Ayoliga bo‘lgan muhabbatini sezdirish uchun er muloyim bo‘lib, uning so‘zlariga e’tibor bilan quloq solib, hamfikr ekanini izhor qilib turmog’i lozim bo‘ladi. Agar uyda

ayol kishi ovqat pishirgan bo‘lsa, yangi kiyim kiysa, biror xabar yoki qissani aytsa, er bu narsalarga e’tibor bilan munosabatda bo‘lib, xursandligini, munosabatini bayon qilishi darkor. Ayoliga uy ishlarida yordam berib, bu sohada ham uning og’irini yengil qilib turishi kerak. Chunki, Payg’ambarimiz (s.a.v.) ham ahllari xizmatida bo‘lib, uy supurib, o‘z kiyimlarini o‘zi yamab, qo‘ylarini soqqanlar va ummatlariga ham shunday qilishni buyurganlar. Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vassallam biron marta ahli ayollariga qilgan ovqatlaridan ayb axtarib shikoyat qilmagan ekanlar. Risoladagi er ayoliga lutf bilan muomala qilib, uni eng chiroyli ismlar bilan chaqiradi va kamchiliklarini kechiradi.

A. Xotinning er zimmasidagi haqlaridan birinchisi er tomonidan unga yaxshi va adolatli muomala qilinishidir. Zero, Alloh taolo O‘z kitobida: “وَاعْشُرُو هُنَّا مَعْرُوفٌ” ya’ni “Ayollar bilan yaxshilik bilan umrguzaronlik qilinglar!”, deya amr etgan (Niso surasi: 19-oyat). Bu buyruq arning xotinga yaxshi muomalada bo‘lishini, tabiatidagi ayrim noqisliklarga sabr qilishni, ba’zi xatolariga ko‘z yumishni taqozo etadi. Shuningdek, bu buyruq ayolni tarbiyalash hamda unga dunyoyu oxiratda foydasi tegadigan narsalarni o‘rgatib, ta’lim berishni ham lozim tutadi. Nabiy sollallohu alayhi va sallamning bir hadislarida: “Mo‘min er mo‘mina xotindan nafratlanmasin, agar uning bir xulqini yomon ko‘rsa, boshqa xulqi tufayli undan rozi bo‘lib ketaveradi”, deyiladi (Imom Muslim rivoyati). Ya’ni, er xotining ayrim fe'lidan g‘azablansa, oilani buzib yuborishga sxoshilmaslik, shu tufayli xotinini yomon ko‘rib qolmaslik lozimligi, balki, uning yaxshi odatlarini ham ko‘z oldiga keltirib, shu bilan ko‘nglini to‘q qilib yurishi kerakligi kelib chiqadi. Shuningdek, er xotiniga xushfe'l bo‘lishi, u bilan yaxshi muomala qilishi, birga farovon hayot o‘tkazishi, unga ozor yetkazmasligi kerak.

B. Ayolning eri zimmasidagi ikkinchi haqqi bu mahr haqqidir. Bu ayolni ikrom qilish, unga yaxshilik qilish bobidandir. Alloh taolo Qur’oni karimda erlarni ayollarining mazkur haqlariga rioya qilishga chaqirib: ” وَأَثُو الْنِسَاءَ صَدِقَاتٍ هُنَّ بِخَلْلٍ ” ya’ni “xotinlariga mahrlarini hadya kabi (ya’ni chin ko‘ngildan) beringiz” (Niso surasi: 4 -oyat), deya amr etgan.

S. Er xotinning ozorini ko‘tarishi, u g‘azablanganida va jahli chiqqanida muloyim bo‘lishi, uning xatolarini kechirishi kerak. Bunday qilish Rasululloh sollallohu alayhi

vasallam sunnatlariga amal qilishdir. Imom Muslim rivoyat qilishlaricha, Anas ibn Molik roziyallohu anhu aytadilar: «Rasullulohdan boshqa oilasiga mehribonroq biror kishini ko‘rmadim».

D. Erkak ayolini qizg‘anishi, uning or-nomusini saqlashi kerak. Oqibati buzuq bo‘ladigan har qanday holga beparvo bo‘lmasligi lozim. Ammo yomon o‘y, o‘ta talabchanlik va gumonda haddan oshish durust emas. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bundan qaytarganlar. Imom Muslim Jobir roziyallohu anhudan shunday rivoyat qiladilar: «Rasululloh erni oilasini xiyonatda gumon qilib kechqurun kelishdan qaytarganlar».

E. Er xotinning o‘ziga alohida joy qilib berishi, unda arning yaqinlaridan hech kim bo‘lmasligi kerak.

J. Er xotinining oziq-ovqat va kiyim-bosh kabi ehtiyojlarini isrof etmay, yetarli ta'minlashi kerak. Er oilasiga sarflagan xarjlari uchun ajr va savobga erishadi. Imom Buxoriy va Muslim "Sahih"larida shunday kelgan: "Sa'd ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhu rivoyat qilishlaricha, Payg‘ambarimiz alayhissalom dedilar: (إِنَّكَ لَنَفِقْتَ فِي سَبَبٍ غَيْرِهَا وَجْهَ اللَّهِ إِلَّا أَجْرٌ شَعِيلٌ هُوَ حَتَّىٰ مَا تَجْعَلُ فِيمَا مَرَّتْكَ) ya'ni: "Sen Alloh taolo roziligini istab qilgan har qanday xarjing uchun ajr olasan. Hatto xotining og‘ziga solgan taoming uchun ham senga ajr bor». Shuningdek, bu masalada ya'ni nafaqa masalasida er o‘zining iqtisodiy holidan kelib chiqib ish ko‘radi. Xotinning bitmas-tuganmas talab va xohishlari uchun o‘zini o‘tga-cho‘qqa urib, noshar‘iy va noqonuniy yo‘llar bilan pul topishga kirishmaydi. Alloh taolo Qur‘oni karimda shunday marhamat qiladi: “Boy-badavlat kishi o‘z boyligidan (ya’ni o‘z boyligiga yarashadigan tarzda) nafaqa bersin. Kimning rizqi tang qilingan (kambag‘al) bo‘lsa, u holda Alloh o‘ziga ato etgan narsadan (o‘z holiga yarasha) nafaqa bersin. Alloh hech bir jonga O‘zi unga ato etgan narsadan boshqa narsani yuklamas. Alloh tanglik-kambag‘allikdan so‘ng yengillik-boylikni ham paydo qilur” (Taloq surasi: 7-oyat).

I. Er xotinining iffatini saqlashi lozim. Xotinini haromdan himoya qilish erga vojibdir.

P. Er xotinini yaxshi ko‘rsa, juda hurmatlashi lozim, yomon ko‘rsa, zulm qilmasligi kerak. Istasa, chidab yashasin yo yaxshilikcha ajralsin. Ayolni faqat mardlar qadrlaydi, pastlar xorlaydi.

Tegirmon ham navbati bilan degandek, arning ham o‘z xotini ustidagi shar‘iy haq-huquqlarini bilib qo‘yishimiz lozimdir. Toki, ayollarimiz mazkur huquqlarga og‘ishmay amal qilganlarida oilaviy baxt saodat hosil bo‘lsin. Zero, oilaning davomiyligi er xotinning bir-biridan roziligi va bir-birining haqlarini ado etishiga chambarchas bog‘liqdir. Xotin kishi erining haqlarini bilib, ularni ado qilganidagina soliha xotin bo‘ladi. Erning xotin zimmasidagi eng muhim haqlari quyidagilardir:

1. Xotinning eriga nisbatan eng birinchi burchi, yoxud arning o‘z ayoli ustidagi eng birinchi haqqi bu – ayol kishining eriga itoatkor bo‘lishidir. Ayol Allohga ma’siyat hisoblanmaydigan barcha ishda eriga itoat qilishi lozim. Busiz hayot hayot bo‘lmaydi. Ayol kishi oilada o‘z o‘rnini bilmas ekan, eriga itoatsiz, o‘jar-qaysar bo‘lar ekan, unday oilaning davomiyligi va mustahkamligi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Ayol kishi eriga gap qaytaradigan, hurmatsizlik qiladigan, odobsiz bo‘lsa, bunday oila tagidan yemirilgan oila hisoblanadi va ertami-kechmi u qulab tushadi, parchalanib ketadi. Ayolning eriga itoat qilishi naqadar buyuk fazilat va baxt ekanligi haqida Nabiy sollallohu alayhi va sallam shunday marhamat qiladilar: “Ayol besh vaqt namozini o‘qisa, (yilda) bir oy (farz) ro‘zasini tutsa, o‘z farjini haromdan saqlasa va eriga itoat qilsa, unga “jannatning istagan eshididan kir!”, deyiladi” (Tabaroniy rivoyati). Erning ayol ustidagi mazkur haqqi, ya’ni ayol kishi muboh ishlarda eriga itoat qilishi masalasiga ayol kishi erining ruxsatisiz nafl ro‘za tutmasligi, uning ruxsatisiz nafl haj qilmasligi, unga aytmasdan uyidan chiqib ketmasligi, uning roziligesiz uydagi narsalardan birovlarga sadaqa va ehson qilmasligi ham kirib ketadi. Islom shariatida erga itoat qilish ayol kishiga vojib bo‘lishining hikmatlaridan biri shuki, arning o‘z ayoli ustidagi haqlari va fazli oilaning boshqa a’zolariga nisbatan buyukdir. Er tufayli ayol kishi hurmatga sazovor bo‘ladi, er tufayli uning kam-ko‘sti butlanadi. Er tufayli ayol oilaning hurmatli bekasiga aylanadi. Er tufayli ayol kishi yomon ko‘zlardan, yomonlardan muhofaza qilinadi, himoyalananadi. Eri yo‘q ayolga - u ayol har qancha yaxshi ayol bo‘lmasin - begonalar, qalbida marazi bor kimsalar ko‘z olaytirishlari, shahvoniy jihatdan umidvor bo‘lishlari mumkin. O‘z hirs va ta’malari tufayli uning ketidan tushib, tegajoqlik qilishlari mumkin. Ammo eri bor ayolga nisbatan bunday holatlar kamdan-kam sodir bo‘ladi. Umuman ayol kishi hayotda har tomonlama eridan

qarzdor. Hayotdagi barcha yutuqlari eri tufayli hosil bo‘lishini ayol kishi unutmasligi lozim. Shuning uchun ham Nabiy sollallohu alayhi va sallam: “Agar biror kimsani biror kimsaga sajda qilishga buyurganimda (shu ish mumkin bo‘lganda) albatta, xotin kishini o‘z eriga sajda qilishga buyurgan bo‘lardim. Zero, arning xotin ustidagi haqqi buyukdir”, deya marhamat qilganlar. Bu hadisni Imom Hokim, Imom Ahmad, Imom Termiziy va Imom Abu Dovudlar rivoyat qilishgan.

2. Erning ayoli ustidagi ikkinchi haqqi shuki, ayol kishi asosiy vaqtini uyda o‘tkazib, faqat erining roziligi bilangina ko‘chaga chiqishi lozimligidir. Chunki, mantiqan o‘ylab qaralsa ham uy ayol kishining fitrati va tabiatiga mos bo‘lgan faoliyat maydoni hisoblanadi. Erkak kishi ko‘chadagi ishlar, pul topish, ro‘zg‘or tebratish uchun mas’ul ekan, o‘z-o‘zidan bolalarni parvarishlash, ularni uy ichida yedirib-ichirib o‘tirishga, kiyim-kechaklarni yuvib dazmollashga vaqtি bo‘lmaydi. Bu tabiatan ayol kishining fitriy vazifalaridandir. Agar er uy ichidagi yumushlarga ham mas’ul qilinsa, ko‘chadagi ishlar qolib ketib, zoye bo‘ladi, oilaning sarf-xarajatlari, turli tuman to‘lovlar kim tomonidan ado etiladi?! Shunday ekan, ayol kishi ko‘proq vaqtini uyda o‘tkazishi, farzandlariga yordamlashishi, ularning maktab yoki bog‘chaga vaqtida borishlari uchun vaqtida uyg‘otib, kiyintirib, bosh-qosh bo‘lishi, nonushta va hokazolarini o‘z vaqtida tayyorlab berishi, uy vazifalariga yordam berishi lozim. Bu nafaqat Islom shariatida balki, e’tibor bersangiz butun dunyoda, hatto g‘arb olamida ham shunday. O‘z fitrati va tabiatini yo‘qotmagan o‘sha ovro‘polik ayollar ham uyda farzand parvarishi va uy ishlarini idora qilish bilan shug‘ullanadi. Uy ishlari bir maromda ketishi uchun ayol kishi ko‘p vaqtini uyda o‘tkazishi talab etiladi. Eriga aytib o‘z ehtiyoji uchun ko‘chaga chiqish, ota-onasini ko‘rib kelish va hokazolar albatta shariatimizda mumkin bo‘lgan ish. Er kishi ayolini umuman uyg‘a bandi qilib zulm qilmasligi kerak. Agar o‘zaro rozilik asosida bo‘lsa, ayol kishi hatto ishga kirib, oilaviy holatga o‘zining hissasini qo‘shishi ham mumkin. Ammo, dinimiz Islom ayolga yengillik yuzasidan oila nafaqasini arning zimmasiga yuklab qo‘ygan. Chunki, ham uy yumushlari, ham tashqarida pul topish ayol kishiga mashaqqat bo‘ladi. Hozirgi paytda ayrimlar ayol umuman ko‘chaga chiqmay, faqat uyda o‘tirishi kerak, deb da’vo qilsa, boshqa birlari esa ayolini ishlatib qo‘yib, o‘zi uyda ularning ishini qilib o‘tiradi. Islom shariati bu ikki

yo‘lni ham birday qoralaydi. Bugungi kunda ayol zotining jamiyatimizdagi o‘rni va nufuzini, ijtimoiy faolligini yanada oshirish, xotin-qizlarning jamiyatda qilayotgan ishlarini munosib baholash, har qaysi xonadonda uy bekasi bo‘lmish opasingillarimizning og‘irini yengil qilishga yo‘naltirilgan ko‘plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

3. Xotin erining haqqini o‘z haqqidan va hamma yaqinlarining haqqidan ham ustun qo‘yishi kerak. Chunki zimmasidagi erining haqqi juda kattadir.

4. Xotin uyiga erining ruxsatisiz hech kimni qo‘ymasligi, erining uyidan uning ijozatisiz biror narsani o‘zining yaqinlariga ham berishi kerak emas. Agar bersa, xotinga gunoh, erga savob bo‘ladi.

5. Erning ayoli ustidagi haqlaridan biri xotin kishi Alloh taolo bergen nasibaga rozi bo‘lishi, eriga injiqlik qilmasligi kerak. Maishat qiyinchiligi yo hol nochorligi uchun g‘azablanmasligi va oh-voh urmasligi lozim. Balki xushnudlik va qanoat libosini kiyib, erining rizq topishdagi mashaqqatlarini qadrlashi, harom kasbga o‘tishidan qo‘rqib, undan hojatdan ortig‘ini talab qilmasligi darkor. Balki, erini ham qanoatga undab, harom yo‘llardan ogohlantirishi zarur. Momolarimiz erlarini kuzatayotib shunday derdilar: «Harom kasbdan saqlaning! Biz ochlik va qiyinchilikka chidaymiz, ammo do‘zax oloviga chiday olmaymiz».

Sevgi-muhabbat - oliy insoniy tuyg’u.

Sevgi-muhabbat – bu buyuk tuyg’u! Ishq deb atalmish hissiyotni so‘z bilan ifodalash juda ham murakkab. Sevgi bizni qalbimizga so‘rovsiz kirib oladi va bir umr biz bilan hamnafas, yo‘ldosh bo‘ladi. Hayotimizni boylik, go‘zallik, mansab tark etishi mumkin, ammo muhabbat bir umr biz bilan birga qoladi. Sevgan insonning qo‘lidan yomonlik kelmaydi, deyishadi. Shubhasiz, sevgan inson birovga yomonlik qila olmaydi. Zero, uning qalbida mehr- muhabbat bor.

Sevgi-muhabbatga oid 27 ta iboraga quyidagi 27 ta ta’rifni berish mumkin:

- 1) Muhabbat – ilohiy tuyg’u. U kechirimli, bariga chidaydi. Haqiqiy sevgi sizni hech qachon tark etmaydi. Sevgi hech qachon foyda ko‘zlamaydi. Orzular va his-tuyg’ularni yagona inson bilan bog’lab turuvchi rishta – bu muhabbat. Ba’zida sevgining ko‘zi ko‘r bo‘ladi. Hech qanday kamchiliklarni ko‘rmaydi. Ba’zida esa sevgi qahrli bo‘ladi. Yana

ko‘p hollarda azob beradi, ozor chekishga majbur qiladi, qalbda jarohat qoldiradi va bu jarohat anchagacha bitmaydi... Sevgi hayoliningizga keltirmagan ishlarni amalga oshirishga undaydi, ahmoqona yo‘l tutishga majbur qilib qo‘yadi. Zero, muhabbatning chegarasi yo‘q. Har bir insonning sevgi tarixi o‘ziga yarasha qissa.

- 2) Baxt – qalbdagi tinchlik va osoyishtalik.
- 3) Orzu – erishishni istayotgan narsangiz. Eng yaxshi orzu – bu amalga oshadigani. 4) Yurak – inson tanasining bir a’zosi. Shuningdek, qalb yashaydigan joy.
- 5) Qalb –uni o‘lmas tanaga qiyoslash mumkin. U juda ham ta’sirchan va tezda jarohatlanadi. Bizning qalbimiz – bu bizning o‘zimiz. Inson ichidagi ulkan samo!
- 6) Qizil gul – ayniqsa, bu atirgul bo‘lsa, sevgi izhorini anglatadi.
- 7) Bo‘sа – mehrli jarayon!
- 8) Do‘slik – ishonch. Hayotning har bir lahzasida bu insonga suyansang va ishonsang bo‘ladi.
- 9) Yolg‘on – har doim hafagarchilik va ko‘z yoshlari. Senga bo‘lgan ishonchsizlik.
- 10) Rashk – muhabbatni mayda-mayda bo‘laklarga ajratib yuboruvchi his. Ishonchsizlik va qaysidir jihatdan seni kamsitishlari.
- 11) Uchrashuv – to‘lin oy ostidagi romantik uchrashuv.
- 12) Ayiriliq – qalb azobi. Hayotdagi eng og’ir kunlar. Ko‘ngil qolishi.
- 13) G‘am – hayollarga berilib, o‘tgan og’ir damlarni yodga olish.
- 14) Sog’inch – bu hissiyotni faqat bir insonga nisbatan his etish mumkin.
- 15) Dard – bu inson ichidagi his. Asrab kelayotgan tuyg‘ularingga tegib ketadi.
- 16) Hayol – bu insonni o‘ziga bog’lab qo‘yadigan bir kechinma. Hayol og’ushida nimalarnidir o‘ylashga majbur bo‘lasiz.
- 17) Vijdon – bu hisni Xudo sen bilan gaplashganda sezasan. Ya’ni, tana ichidan chiquvchi ovoz.
- 18) Ishonch – bu biror insonga qalbing tubidagi eng nozik sirlaringni bemalol aytishingdir. Ishonchni qadrlash lozim, chunki uni yoqotish oson.
- 19) Umid – hatto eng noiloj hollarda ham umid oxirgi bo‘lib seni tark etadi.
- 20) Uzuk – chegarasiz muhabbat ramzi.
- 21) To‘y – yakuniy qaror, ikki sevishgan qalbning birlashuvi. Bu oila qurish demakdir!

- 22) Yaxshilik – bu biror insonga yoqimli va foydali ish qilish. Faqat buni orqasidan foya ko‘zlanmasligi lozim.
- 23) Vafo – bu vafo, chin yurakdan ishonish.
- 24) Xiyonat – bu gunoh.
- 25) Aql – bu insonning idroki. Bu ibora o‘z ichiga juda ko‘p ma’nolarni qamrab oladi. Jumladan, intellekt, o‘qimishlilik va hakazo.
- 26) Ilk muhabbat –bu inson hayotidagi eng yorqin hissiyot. U seni bir umr ta’qib qilib yuradi. Agar bilsangiz ko‘p odamlar o‘zining ilk muhabbatini doim eslaydi. Ilk muhabbat – qaysar, o‘jar va biroz ahmoqona bo‘ladi. U har qanday majburiyatlarga qarshi boradi.
- 27) Sevimli inson – bu sen uchun eng qadrli va eng ezgu hissiyotlarni his qiladigan insoningdir. Qalb har doim u tomon talpinadi.

6. Nikoh to‘ylari: an’anaviylik va zamonaviylik. “Qizim senga gapiraman...”.

Buni qarangki, o‘g‘il bolaga qaraganda, qiz bola jismonan pishiq tug‘iladi va oson katta bo‘ladi, bu ham bir sir! Qolaversa, ayol zoti nisbatan uzoqroq yashaydi, bu ham sinoat! Agar erkak yillabmas, aqalli bir necha kun davomida bir ayol o‘taydigan yumushni surunkali bajarib ko‘rsa, charchabgina, kasal bo‘libgina emas, hatto o‘lib qolishi mumkin ekan! Ayol esa uzilaman, deb turgan qilday beli, gulday nozik jussasi bilan bu dunyoning erkaklar ko‘tarolmagan zil yuklarini ko‘tarib o‘tadi! Uning harakatlari bamisli toshni yorib chiqayotgan maysaday! Yana buning ustiga birday yashnab turaverishini aytmaysizmi! Ayol - asrorxonan! Ayol - mo‘jiza!

“Qizom senga aytaman” turkumidan:

“Mo‘tabar oyim. Dunyo seni shunday intiqlik bilan qabul etdi, seni o‘zi aziz qildi, ammo bu bilan faxrlanmagaysan, aksincha, yelkangga qo‘yilayotgan yuk juda og‘ir, uni ko‘tara olish, torta olish mushkuloti bor. Hamma mo‘jiza sendagi o‘sha yukda! Atrofdagilarga balogardon bo‘ladigan va ularni saodatmand qiladigan ne’mat bor senda! Sen uni odamlarga tiling bilan, qo‘ling bilan ularhib yashaysan. Ilohim, shu yo‘lda adashtirmasin!

Bebarakot ro‘zg‘orlar, qo‘ydi-chiqdilar, bolalardagi badfe’llik, og‘a-inilar o‘rtasidagi uzilishlar, farzandlarning boshiga tushadigan kulfat, asosan, ayol zotining

xatolari tufaylidir! Bilib qo'y, sendan, ya'ni ayol zotidan, faqat yaxshilik tarqalishi kerak! Chunki jisming to'la xosiyat! Seni Ollohnning oliv ne'mati atadilar! Shu buyuk ne'matni, bu bebahoh imkoniyatni isrof qilib qo'yma. Odamlarga baxt ulash va o'zing ham baxt ichra yashab bor!"

Quyidagi ibratli pandnoma ushbu mavzuning to'laqonli yoritilishiga xizmat qilib, behad foydalidir.

Umomaning qizi Ummu Inasni turmushga berayotganida qilgan nasihatlari:

"Jonim bolam! Bir kimsani yaxhshilikka undash uchun nasihatlar beriladi.Odob – axloqli yoki boy kishining farzandi bo'lish yoki barchaga maqbul xislatga ega bo'lishning o'zi inson uchun kifoya qilganida edi, senga nasihat qilib o'tirmasdim. Aslida nasihat unutilganlarni eslatadi. Shunga ko'ra nasihatlar juda foydalidir.

Suyukli qizim! Agar birorta qiz otasi boy bo'lganidan turmushga chiqishga muhtoj bo'lmasaydi, sening hech qachon bunga mutojliging bo'lmasdi. Ammo bu hayot qonuni. Erkaklar biz uchun biz erkaklar uchun yaratilganmiz. O'zing tug'ilgan uydan chiqib mutlaqo begona bir uyga boras an, hech ko'rishib gaplashmagan, xulq-atvorini bilmagan bir kishining umr yo'ldoshi bo'lasan. Sen uning hizmatkori bo'lgilki, u ham sening yordamching bo'lsin. Bolam! Kel endi senga ba'zi nasihatlar berayin.Ularni o'rganib chiroyli amal qilsang umr bo'yi rohatda yashaysan.Umr yo'ldoshing bilan hech qachon orangiz buzilmaydi. Bu dunyoda baxtli hayot kechirganing kabi, oxiratda ham abadiy saodatga erishasan:

- Qanoatli bo'l, umr yo'ldoshing olib kelgan oziq-ovqat va kiyim-kechakni hammasini doimo mammuniyat ila qabul qil. Chunki qanoat qalbga huzur-halovat bag'ishlaydi.

- Aytayotgan gaplarni doimo diqqat ila eshit va hamisha itoatda bo'l. Umr yo'ldoshingga e'tiroz bildirma. U bilan hamfikr bo'lishga harakat qil.

- Umr yo'doshingni ko'zi tushadigan hamma joyga e'tiborli bo'l, shunday qilgilki uning ko'zi hech qachon nojo'ya holatlarga tushmasin.

- Yomon hid chiqishi mumkin bo'lgan narsa va yerkarda diqqat qil. Ularni topib tozala. Uyingdan har doim hushbo'y hid taralib tursin.

- Shuni yaxshi bil: tozalik va latofat suvga bog'liq, har qanday narsa suv bilan toza bo'ladi. Uyda suvlar toza turishiga ahamiyat ber.
- Eringni ovqatlanish soati bilan uyqu vaqtiga diqqat qil.Ovqatni hamisha uning odati bo'yicha tayyorla.Vaqtida uxlashi uchun ishlaringni vaqtida tamomla. Chunki ochlik kishini tajanglashtiradi, uyqusizlik esa xafalikka sabab bo'ladi.
- Uyingdagi mol-mulk va jihozlaringni ehtiyyot qil, bu narsa sening ishbilarmonligingni ko'rsatadi.
- Eringning yaqinlariga doimo chiroyli muomalada bo'l. Bu narsa sening yaxshi uybekasi ekanligingni bildiradi.
- Eringni sirlarini zinxor birovga aytma.Agar sirlarini atrofga yoysang, sendan ranjiydi. Bevafolik yo'liga ham kirib ketishi mumkin.
- Eringni hurmat qil, buyruqlarini bajar, gap qaytarib, unga qarshi chiqma. Agar qarshi borib, isyon qilsang, jahli chiqib ranjishiga, hatto dushman kabi harakat qilishiga sabab bo'ladi. Ering hafa bo'lganida o'zingni xursand tutma, agar ering xursand bo'lsa o'zingni xursand tutishga harakat qil. Har bir ayol ( qiz) eriga qanchalik hurmat va itoat etsa, shunchalik suyukli bo'ladi. Qanchalik rozi qilsa, shunchalik muhabbat ko'radi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, har bir ayol bularga, faqat uning istaklarini o'z xoyuhavaslaridan, uning roziliginini o'z orzularidan ustun qo'yish bilan uddalaydi. Yaratgan erkak bilan ayolni bir birlariga muhtoh qildi. Aql-zakovat bilan sharafladi, ularni boshqa maxluqlardan ustun qildi. Insonlar birlashib, yuzaga keltirgan jamiyatlar kuchli va mustahkam bo'lishi uchun ayol va erkakning o'zaro munosabatini nikoh vositasida shar'iy holga keltirdi. Ehtiyojlarini ta'minlashga shu yo'l bilan izn berdi. Erkak bilan ayolning birgalikdagi turmushi shar'iy nikohga asoslanadi. Bu amr olamning nizomi, insonlarning go'zal axloqli bo'lishlari va sog'lom jamiyatning vujudga kelishi uchundir. Demak, shar'iy nikoh sevgiga, murosa ila yashashga va yaxshi hayot kechirishga sabab bo'ladigan yagona bog'dir. "Nikohda karomat bordir" iborasi ham shu tajribalar tufayli maydonga kelgan haqiqatdir.O'zaro chiroyli munosabat insonlar uchun juda zarur. Dunyo hayoti ham bizdan shuni talab qiladi.

Buyuk olim Abu Lays Samarqandiy bu mavzuda shunday deganlar: "Inson yumshoq so'zli, go'zal axloqli bo'lishi kerak. Hech kimga yaldoqlanmasligi va birovni

yuziga maqtamasligi kerak. Axloqi va maslagi buzuq kishilar bilan suhbatda ehtiyoj bo‘lishi kerak. Ularning noto‘g’ri fikrlarini ma’qullayotganga o‘xshab jim turish juda katta xatodir". Bundan tashqari hamma bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, yomonlikdan yiroqlashish lozim. Janobi Haq Muso va Horun a.s.ga:" Fir'avnga yumshoq so‘zlar bilan gapiring", deb buyurmaganmidi? Insonlar orasidagi munosabatlarda shirinso‘z va ochiq yuzli bo‘lishga buyurilgach, er-xotinning bir-biriga mehr - muhabbat ortishi tabiiy. Demak, nikohlar har ikki tomon tashabbusi bilan yanada kuchayishi kerak. Er - xotin zimmalaridagi vazifalarni chiroyli bajarishlari bilan bu munosabatning yanada mustahkam bo‘lishiga zamin tayyorlaydilar. Bir-birlarini arzimas kamchiliklariga ahamiyat bermasdan hayotlarini tinch - totuv o‘tkazadilar. Aks holda, ya’ni, o‘zaro yomon muomala-munosabat o‘z haqlariga amal qilmaslik oqibatida oradagi mehr muhabbat yo‘qoladi. Keyin arzimas kamchiliklar tuyadek ko‘rinib, shu thlit kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Urush-janjal kun sayin kuchaya boradi. Bunday oilada halovat ketadi, tinch - totuv yashash mumkin bo‘lmay qoladi. Mana shu sababdan ayollar erlariga oid haq va vazifalarini bilib, unga amal etishlari kerak. Erlarining tabiatlarini o‘rganib, uni rozi qilishlari, osoyishta hayot kechirib, dunyodan o‘tgach, yaxshi xotiralar bilan eslanishlari kerak.

## 11. Ota va ona bo‘lish havasi va mas’uliyati.

Farzandi dunyoga kelib ota-onalik maqomiga erishgan ayol va erkakning yuzko‘zidagi quvonchni ko‘rganmisiz? O‘sha lahzalarda ular dunyodagi eng baxtiyor insonlarga aylanadilar. Aslida ham shunday emasmi? Axir avlodlarining davomchisi, xonadonlariga bir olam quvonch va shodlik olib kelgan bu murg‘ak vujud ularga to‘kis baxt hadya etdi. Endi olam ko‘zlariga yanayam go‘zal va charog‘ondek ko‘rinadi. Mana shunday baxtiyor insonlarni ko‘rganda beixtiyor qalbimizdan hammani mana shunday baxtga yetkazsin, degan ezgu istaklar o‘tadi.

Farzand tug‘ilgani – aslida ota-onaliga gardaniga bir olam shirin tashvish yuklangani, deganidir. Chunki hali oldinda go‘dakni parvarishlash, unga ta’lim-tarbiya berish, tarbiya jarayonida esa avvalo o‘zlari ibrat bo‘lish, farzandini komil inson qilib voyaga yetkazish, ularga e’tiborli bo‘lish, g‘amxo‘rlik qilish va doim farzandiga xuddi eng yaqin do‘stdek muomala qilishdek ma’suliyatli vazifalar bor. Bu bir qarashda oddiy

jihatdek tuyuladi insonga. Shuning uchun ham ba'zi ota-onalar bu jihatlarga ko'p amaliyat beravermaydilar. Lekin birgina e'tiborsizlik, beparvolik farzandlar taqdirida ko'p achinarli holatlarni yuzaga keltirishi mumkin ekan.

Har bir oila farzandlarining barkamol ulg'yib o'sishi uchun oila, mahalla va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligida ma'suldirlar. Oilada bola tarbisi uchun ota-onaning mas'uliyati alohida e'tiborga molik hisblanadi. Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafa fikirlari ham ta'kidlab o'tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Faqatgina ham jismonan, ham ma'nan sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga keladi. Zotan, sog'lom avlod deganda, eng avvalo sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi-fikri sog'lom, imon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlod tushuniladi.

Farzand tug'ilgan kunidan boshlab dastlab oila muhitida tarbiyalanadi. Bu davrda bolani to'g'ri ovqatlantirish, to'g'ri parvarish qilish juda muhim. Bir yoshgacha bo'lgan davrda bola o'ziga yaqin kishilarni ko'rganda xursand bo'ladi, rangdor o'ynichoqlarni xush ko'radi. Bu davrda bolani alla, ma'noli erkalashlar, chiroyli o'ynichoqlar orqali tarbiyalab borish lozim. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar esa turli o'ynichoqlarni o'ynay boshlaydilar, asta-sekin nutqi rivojiana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zin orqali bir-birlari bilan aloqa bog'laydilar, tasavvur, fikrlash jarayoni shakllanadi.

Bolalar bu davrda eshitgan narsasini takrorlashga urinadilar, shu sababli bu davrda kattalarning ma'nili so'zlashuvi, yurish-turishi, odobi, o'zaro ahilligi, mehribonligi bola ruhiyatiga ta'sir etadi. Ota-onalar yoki tarbiyachilarning bolalarni sevishi, ularning xatti-harakatiga ziyraklik va mehribonlik bilan munosabatda bo'lishi, bolaning sog'lom o'sishiga, odob-axloqli bo'lishiga olib keladi. Bolani lozim bo'lganda maqtash, diqqatini ijobiy faoliyatga tortish, yomon ishlardan ehtiyyot bo'lishini uqtirish, axloqsiz so'z va gaplardan uzoqroqda bo'lishini ta'minlash, o'rtoqlari bilan urishmaslik yo'llarini o'rgatish ularga axloqiy tarbiya berishda ijobiy ta'sir hisoblanadi.

Darhaqiqat, oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash kelajagimiz garovidir. Shuning uchun ham bolalarda yoshligidanoq milliyurf-odatlar, udumlar, an'analar va axloqiy madaniyati haqidagi tushunchalarni shakllantirish, oilaga bog'liq. Bolaning pok

va sadoqat, ma’naviy jihatdan yuksak bo‘lib o‘sishi, oiladagi mustahkam, tinch va totuvligiga bog’liq. Chunki, unda tarbiyalanayotgan yosh avlod ham ma’naviy jihatdan yetuk, sog’lom, mustaqil fikrli komil inson bo‘lib voyaga yetadi.

Albatta bolaning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi oila totuvligi, uning davomiyligi oila a’zolarining ruhiyatiga o‘zligini qanchalik darajada anglaganligida, o‘z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo‘lgandagina to‘laligicha ta’milnadi.

Oilada mehr-muhabbatning ustuvorligi bolada ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning asosini tashkil etadi. Biroq oila, o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘rahar bir farzand uchuno‘ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega. Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib, oila a’zolarining o‘z burchlari, bir-biriga nisbatan ezgulik, mehr oqibat, yaxshi va munosib tarzda yashash, oilasining, qarindosh-urug’lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarining omon-esonligi to‘g’risida g’amxo‘rlik qilish bolani ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, kattalarning yoshlarga bergan saboqlari, ro‘zg’or tutish, bola tarbiyalash bobidagi tajriba o‘g’il va qizlarga oila mustahkamligini ta’minlashda keyin ham asqotadi.

Oila – tarbiya maskani. Tarbiya uning eng muhim vazifalaridan sanaladi. Shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarini, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob, muomala qoidalarini ham o‘zlashtirib boradi. Ota-onan o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy maqom qadriyatlarni ona suti, oila a’zolarining mehri va namunasi bilan bola xulqi, ongiga singiydi. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, ma’naviy, gigiyenik, jinsiy tarbiyasida oila asosiy omil va vosita hisoblanadi. Bu o‘rinda misoli ota-onan san’atkor, bola – san’at asari, tarbiya jarayoni esa san’atning o‘zidir. O‘zbek oilalariga xos yana boshqa xarakterli xususiyatlar ham mavjud. Ular uzoq yillar davomida shakllanib, qadriyat darajasiga ko‘tarilgan va bugungi kunda ham o‘z qimmatini saqlab qolmoqda. Ya’ni, bolajonlilik, serfarzandlik, mehnat taqsimotining qat’iyligi, oila byudjetining ota-onan tomonidan boshqarilishi, kichiklarning kattalarga izzat-ikromi, oila g’ururi, sha’nini himoya qilish uning har bir

a'zosi uchun burchga aylanib qolganligi, tug'ilib o'sgan joyga alohida mehr-muhabbat tuyg'usini rivojlantiradi.

Tarbiya murakkab va uzoq davom etadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, u farzand tug'ilmasdan ancha oldin boshlanadi. Ya'ni, bo'lajak ota-onaning salomatligi, kayfiyati, nasl-nasabi, dunyoqarashi, ichki va tashqi dunyosi, axloqodobi, moddiy va ma'naviy darajasining mosligi, turmush qurishga ma'naviy vajismoniy tayyorligi farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir. Oilada amalga oshiriladigan tarbiyaning mazmuni farzandlarda o'z otaonasidan, oilasi, ajdodlari, tug'ilib o'sgan o'lkasi, Vatani, millati, xalqi, tili, dini, an'alaridan g'ururlanish hissini uyg'otishdan iborat. Xullas, insonning dastlaboila sharoitida shakllanib yetiladigan barkamol ma'naviyati yuksak ma'naviyatlijamiyat barpo etishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, bola o'z tarbiyasiga ko'rag'oyat ta'sirlanuvchan bo'ladi. Ota-onalar o'z bolalarini bilishlariga nisbatanbolalar o'z ota-onalarini yaxshiroq biladilar. Bola ilk yoshligidanoq kattalarningharakatlariga taqlid qiladi, ularning so'zlarini takrorlaydi. Kishi ulg'aygach, bolaligida ko'rgan hamma narsani takrorlamaydi, ammo ana shu narsalarning barchasi uning qalbida, ongida o'zidan qandaydir iz qoldirgan holda saqlanib qoladi.

## **NAZORAT SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

1. Islom ta'limotida olam va odamning yaralishi voqeasi qanday?
2. Muqaddas Islom dinida ulug'langan ezgu fazilatlar haqida aytib bering.
3. O'gil va qizlarni necha yoshda voyaga yetadi islom ta'limoti misolida?
4. Oila qurish tarbiyasi aytib bering qadriyatlar misolida?
5. Oilada er va xotinning burjlarini aytib bering?
6. Nikoh to'ylarning marosim va an'analari O'zbekiston misolida?
7. Oila mustahkamligi borasidagi hikmatli so'z va rivoyatlarni bilasizmi?
8. Bolani tarbiyalashda ota-onaning qanday burchlari bor?

## **TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

1. Kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevori bu nima?  
A) tarbiya B) ma'naviyat C) oila D) insonparvarlik
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiysi" to`g`risidagi qarori qachon qabul qilingan?  
A) 2018-yil 27-iyunda B) 2017-yil 27-iyunda  
C) 2019-yil 27-iyunda D) 2019-yil 27-iyulda
- 3.Qaysi xislat yuksak axloq va boshqa ko'pgina xulqlarning asosi hisoblanadi?  
A. Mehnatsevarlik  
B. Mehribonlik  
C. Sadoqat  
D. Bolajonlik
- 4.Mehribonlikka xos bo'lgan hususiyatlar berilgan qatorni aniqlang?  
A. Atrofdagilarga beg'araz yordam berish  
B. Bemorlarning holidan habar olish  
C. Kechirimli bo'lish  
D. Barcha javob to'g'ri
- 5.Mehr tuyg'usining yetishmasligi qanday oqibatlarga olib keladi?  
A. Odamlarda bemehrlik va bag'ritoshlikning paydo bo'lishiga olib keladi  
B. Odamlarga muhabbat uyg'otadi  
C. Insonning eng yaxshi fazilatlarini yuzaga chiqarishga imkon beradi  
D. Barcha javoblar to'g'ri
- 6.Maqolni davom ettiring: "Mehr – gul, qahr - .....".  
A. Nafrat  
B. Yaproq  
C. Tikan  
D. G'azab
7. Mehribonlikka xos bo'lgan xislat noto'g'ri berilgan qatorni toping?  
A. Atrofdagilarga beg'araz yordam berish  
B. Odamlarga bo'lgan ichki muhabbatning tashqi namoyishi  
C. Odamlarga ishonmaslik, bag'ritoshlik

D. Kechirimli bo‘lish

8.Maqolni davom ettiring: “Uyat yuzda bo‘lar, mehr - ....”.

- A. Qalbda
- B. Yurakda
- C. Ko‘zda
- D. So‘zda

9.Insonlar o‘rtasidagi do‘stlik va birdamlik poydevori – bu ..... hisoblanadi. Nuqtalar o‘rniga mos javobni qo‘ying.

- A.Rostgo‘ylik
- B.Mehnatsevarlik
- C.Qobiliyat
- D.Quvnoqlik

10. “Tarixan barqaror shakllangan, dastlabki davlatlarning paydo bo`lishi va barcha keyingi institutsional tuzilmalarning rivojlanishini belgilab bergen, o`z navbatida, mohiyati hamon saqlanib qolgan birlamchi modelni takror yaratishga xizmat qiluvchi asosiy ijtimoiy institutlar tizimi – bu ....” Nuqtalar o‘rniga mos javobni belgilang!

A) globallashuv B) milliy tarbiya C) institutsional matritsa D) milliy ma’naviyat

## **6-MAVZU: NAFS TARBIYASI (2 soat)**

### **REJA:**

1. Nafsni tanish. Nafsning turlari. Orzu-havas. Oltin me’yor.
2. Nafs haqida tasavvuf allomalarining qarashlari. Nafs insonni dunyo bilan bog’laydigan bir zanjir.
3. Nafsning halokatli oqibatlari. Nafsga hokimlik qilish eng ulug’ amallardan.
4. Boylik va dunyo. Ochko‘zlik va sahiylik. Qanday odam boy odam sanaladi?
5. Sudxo‘rlik, ta’magirlik, poraxo‘rlik, o‘g’irlilik, yolg’onchilik – eng yomon illatlar.
6. Kibr va uning zarari. Hirs ofatlari. Mulk haqida tushuncha.

1. Nafsni tanish. Nafsning turlari. Orzu-havas. Oltin me'yor. Inson zotiga aql bilan birga nafs ham ato etilgan. Toki jon tanani tark etmaguncha inson vujudida aql va nafs o'rtasida kurash boradi. Aql inson maqomini farishtalar maqomiga ko'tarishni istasa, nafs uni hayvonlar maqomiga tushirishga harakat qiladi. Shu ikkisi o'rtasidagi bahs-tortishuv tufayli inson bu dunyo sinovidan o'tadi. Nafs tomonida shayton tursa, aql tomonida Alloh turadi. Ba'zan aql nafsning dastyoriga aylanib, u nimani buyursa, shuni so'zsiz bajaradi. Ba'zan aql nafsdan ustun kelib, uning orzu-istagi va xohishini bajarishdan bosh tortadi. Aql nafs ustidan g'olib kelganida inson yaxshilik yo'lini tutadi. Agar nafs aqlni o'ziga tobe' qilib olsa, inson yomonlik yo'lini tutib, razolat va qabohat botqog'iga botadi. Ana shu vaqtida Allohnинг o'zi unga yordam bermasa, ya'ni to'g'ri yo'lga yo'llamasa, u hech qachon o'zini bundan qutqara olmaydi. Nafs yaxshiyomon, foyda-zararni farqlamaydi, xohish-istagi amalga oshsa, bas. Aql esa, uning aksi bo'lib, har bir narsaning foyda-zararini ajratishga xizmat qiladi. Shu bois, Qur'oni karimda aql egalarining martabasi yuksak ekani ko'plab oyatlarda qayd etib o'tilgan. Alloh taolo Qur'oni karimda nafs nomi bilan qasam ichishi bejiz emas. Alloh taolonining ichgan qasami oddiy qasam emas:

“Qasamyod etaman Quyosh va uning ziyosi bilan, uning (Quyoshning) ortidan kelgan Oy bilan, uni (Yerni Quyosh) yoritgan paytidagi kunduzi bilan, uni (Quyoshni) qoplagan tun bilan, osmonlar va (Alloh) bino qilgan (boshqa) narsalar bilan, Yer va (U) yoyib qo'ygan (boshqa) narsalar bilan, nafs va (U yaratib) tiklagan zotlar (insonlar) bilan. Darvoqe, unga (nafsga) fisq-fujurini ham, taqvosini ham (U) ilhom qilib qo'ygan. (Mazkurlar bilan qasamyod etamanki) haqiqatan, uni (nafsnii) poklagan kishi najot topur va u (nafs)ni (gunohlar bilan) ko'mib, xorlagan kimsa (Allohnинг rahmatidan) noumid bo'lur”. (“Shams” surasi, 1–10 oyatlar).

Demak, nafs oldida ikki yo'l mavjud: biri fisq-fujur yo'li va yana biri taqvo yo'li. Inson nafsi shundan birini tanlashga mahkum etilgan, unga yuradigan boshqa yo'l yo'q. Qaysi birini tanlash-tanlamaslik o'z sohibining ixtiyori va istak-xohishiga havola. Lekin biri Alloh taoloni rozi qilsa, ikkinchi biri Shaytonni rozi qiladi. Ha, inson o'z nafsini tanimasa, hatto uni o'ziga “iloh” qilib olishdan ham toymaydi. Bu holda unga dunyo lazzati va hoyu havaslari ziynatlab ko'rsatilganidan, aqlning ko'zi ko'r bo'lib, Allohnинг

tanimaslik darajasiga yetib boradi. Nafs juda katta kuchdir, lekin aql uni o‘ziga bo‘ysundirishi va itoat ettirishi mumkin.

Mo‘tabar kitoblarda nafsni but-sanamga tenglashtirilgan. O‘z nafsnini “iloh” qilib olganlar but-sanamga topinadigan mushriklarga o‘xshaydi. Kim uni but-sanamga aylantirib olgan bo‘lsa, bir umr Rabbini tanimay o‘tadi va badbaxtlik botqog‘iga g‘arq bo‘ladi. Biroq buni o‘zi anglamaydi va nafsi nimani buyursa, shuni bajo keltirib umrini boy beradi.

Inson butun umri davomida o‘z orzu-havaslari quliga aylanib yashaydi. Alloh taolo jannat va do‘zaxni bejiz yaratmadi, inson nafs xohishi va orzu-havaslarini yengib, qalbini va nafsnini poklasagina, jannatga kiradi. Agar qabohat va razolat yo‘lidan tavba qilib, Allohnin tanimas ekan, jannatning yaqiniga ham bormaydi. Jannatga olib boradigan amallarni qilish baxt, unga teskari amallarni qilish badbaxtlikdir. Inson nafsga bu dunyo hayoti ziynatlanib, bezab qo‘yilgan. Shayton dunyoni chiroyli ko‘rsatib, inson aqlini oladi va u shunga aldanadi.

Islom olamida yashagan allomalarining asarlarida nafs va uni isloh qilish masalasiga jiddiy e’tibor berilgan. Havoyi nafs va uni qo‘llab-quvvatlab turadigan illatlar birma-bir ko‘rsatib berilgan va ularni muolaja qilish yo‘llari haqida tavsiyalar berilgan. Bugungi kunda bunga jiddiy e’tibor beradiganlar juda kamayib bormoqda. Havoyi nafs o‘z ishini qilib, dabdaba va hashamatga burkangan hayotni odamlar ko‘ziga chiroyli qilib ko‘rsatmoqda. Agar Payg‘ambarimiz alayhissalom hayotlarini sinchiklab o‘rgansak, havoyi nafsdan nechog‘lik tiyilganlaridan hayratga tushamiz. Nega u zot dunyo matolari oyoqlari tagiga to‘kilganida ham unga parvo qilmadilar? Buning sababi nima? Nega u zot o‘z nafslarini dunyo lazzati va rohatidan tiydarilar, qorinlari ochganda unga tosh bog‘lab oldilar? Yo u zot dunyo matolaridan foydalanishga arzimas edilarmi? Biz mo‘min-musulmonlikni da’vo qilamiz-u, lekin dunyo kelganda mo‘min-musulmonligimiz nega esimizdan chiqib qolyapti? Bu olamda xursandchilik va xafalik, rohat-farog‘at va azob-uqubat birga yuradi. Hech qachon faqat bittasi yolg‘iz o‘zi qolmaydi. Hatto payg‘ambarlar ham havoyi nafs imtihoniga duch kelganlar, qiyinchilik va azoblarni boshdan kechirganlar. Lekin ular rohat va yaxshilik kelganda hovliqib, Allohnin esdan chiqarib qo‘ymaganlar, biror uqubat yoki kulfat

kelganda ham Allohga itoat etib, Uning amr-buyruqlarini bajarishda bardavom bo‘lganlar. Ular aql-farosat bilan ish tutib, nafs jilovini qo‘lga olganlar. Nafs har qancha o‘z yo‘liga og‘dirishga urinmasin, ular sabr-toqat bilan uning istak-xohishidan o‘zlarini tortib turganlar. Bugun aql nafsning hammoli va quliga aylanib, nafs uni o‘z izmiga solmoqda. Nafs o‘z egasini zabun va xor etib, Allohnini tanish, undan uyalish va taqvo qilishdan uzoqlashtirmoqda. Eng achinarlisi, oxirat va o‘limni eslash va bir kuni bu dunyoda qilgan amallariga hisob berish hissini qalblardan surib chiqarmoqda. Ulug‘lar sabr-qanoat qilib yashashga ahd qilgan his-tuyg‘ular bizga begona bo‘lib bormoqda. Muhammad ibn Vose’ degan zot quruq nonni suvga botirib yeb shunday der ekan: “Kim shunga qanoat qilsa, biron kishiga muhtoj bo‘lmaydi”. Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhu rivoyat qiladilarki: “Har kuni farishtalar: «Ey, odam bolasi, senga kifoya etadigan oz narsa seni tug‘yonga soladigan ko‘p narsadan yaxshiroqdir”, – deydilar». Bu zotlar dunyo ne’matlari o‘tkinchi ekanini yaxshi his etganlar, nafs jilovidan tortib, uning xohish-istagiga qarshi bora olganlar. Hozirgi zamonimizda nafs xohishi, hoyu havas va gunohu ma’siyatlarga to‘la hayotimizni ularnikiga solishtirib bo‘ladimi? Hozir mol-dunyosi ko‘payib, boyib borayotgan kishi xayolini qanday fikrlar band etadi, deb o‘ylaysiz? Shu mol-dunyosini o‘z nafsidan orttira olarmikan? Rivoyatga ko‘ra, Muhammad ibn Ka’b Qurayziyning mol-dunyosi ko‘paydi. Shunda unga: “Uni o‘zingdan keyin farzandingga olib qo‘ysang-chi”, deyildi. U: “Yo‘q, lekin men uni Rabbim huzuridagi nafsim uchun olib qo‘yamanki, Rabbim farzandimga yig‘ib qo‘yadi”, deb javob berdi. Ha, u zotlar Alloh huzuriga borganda hisob-kitob va bu dunyoda qilgan ishlari uchun javobgarlikka jiddiy qaraganlar. Hatto o‘z farzandi kelajagi uchun mol-dunyo yig‘ishni o‘ylamaganlar, Rabbi taologa qattiq ishonche’tiqodda bo‘lganlar. Bizning zamonimizda nafsni isloh etish va o‘zini-o‘zi tergash hissi kamayib bormoqda. Aksar kishilar haqiqiy baxt nimayu, o‘tkinchi baxt nimaligini farqlamay qo‘ydilar. Ba’zan hayot og‘ir, qiyin bo‘lib ketdi, deb noliganlarni eshitib qolamiz. Hayot qiyin bo‘lib ketdimi yoki biz o‘zimiz uni qiyin qilib oldikmi? Bu savol aql-farosat egalarining o‘ziga havola. Hayot qachon yengil va oson bo‘lgan? Inson nafs quliga aylanib yashar ekan, hayot hech qachon yengil bo‘lmaydi. Inson yelkasidan nafs yuki bosib turar ekan, u hech qachon emin-erkin nafas ola olmaydi.

2. Nafs tarbiyasi eng hassos mavzulardan biri hisoblanadi. Bu mavzuda ko‘plab olimlar, tariqat mashoyixlari so‘z yuritganlar, qator kitoblar va risolalar bitganlar.

Darhaqiqat, nafsga bo‘ysunmaslikda inson uchun juda ko‘p yaxshiliklar, barakalar bor. Unga ergashish esa yomonliklarning poydevori hisoblanadi. Shu kungacha o‘tgan solih bandalar barcha yaxshiliklarning asosi nafsni tarbiya qilish, barcha yomonliklarning asosi esa unga tobe bo‘lishda ekanligini ta’kidlaganlar. Nafsga ergashmay, uni tarbiyalagan kishi yutuqqa, muvaffaqiyatga yetishadi. Unga faqat gumroh kimsalargina ergashadilar.

“Haqiqatda, kim u (nafs)ni poklasa, yutuqqa erishadi”. (“Shams” surasi, 9 - oyat). “...O‘z havo ni nafsga ergashgan kishidan ko‘ra adashganroq kimsa bormi?!”. (“Qasos” surasi 50-oyat).

Donishmand xalqimiz “Mening nafsim balodir, o‘tdan cho‘qqa solodir” deb ham bejiz aytmagan. Ulamolar nafs istaklariga teskari harakat qilishni ibodatning boshi, deydilar. Tarixda o‘tgan ko‘plab allomalar, mashoyixlar, ruhiy tarbiya ulamolari nafslarini isloh etish bilan oliy martabalar, maqomlarga erishganlar.

Bir kishi havoda muallaq o‘tirgan odamni ko‘rib, buning sababini so‘radi. U aytdi: “Men havoni tark qilgan edim, Alloh havoni bo‘ysundirib qo‘ydi”. Ya’ni, ichimdagি nafsim istaklariga xilof qilgan edim, Alloh tashimdagи havoni xizmatimda qildi.

Mashoyixlar aytadi:

Nafsga xilof qilishning barakasi, ta’siri har bir insonga garchi u Islom ahlidan bo‘lmasa ham o‘tadi. Rivoyat qilinishicha, Misrda mukoshafa bilan mashhur bo‘lgan rohib bo‘lar edi. Uning bu holati musulmonlarni fitnaga solishidan qo‘rqan bir olim zaharlangan pichoqni olib, rohibning uyiga bordi. U eshikni taqqillatgan edi, ichkaridan: “Hoy muslimonlar peshvosi! Pichoqni tashla”, degan ovoz eshtildi. Olim pichoqni tashlab, uy ichiga kirdi. Rohibga qarab: “Senda mukoshafa nuri qayerdan paydo bo‘ldi? Yoki muslimonmisan”, dedi. Rohib aytdi: “Ha, muslimon bo‘ldim”. Imom: “Bu qanday sodir bo‘ldi?”, dedi. U: “Nafsga xilof qilish bilan bo‘ldi. Nafsimga Islomni taklif qilgandim, u bosh tortdi. Men esa unga xilof qildim”, deb javob qaytardi.

Nafsning muolajasi mavjud:

Alloh taolo Qur’oni karimda nafsnı poklashga chaqirib, bu ishni amalga oshirgan insonni yutuqqa erishganini ta’kidlaydi. “Haqiqatda, kim u (nafsnı)ni poklasa, yutuqqa erishadi” (Shams surasi, 9-oyat).

Mashoyixlar nafs tarbiyasi va isloxida asosan, uchta muhim yo‘lga urg‘u beradilar. Nafsdan xohlayotgan narsalarini tiyish yoki kamaytirish. Chunki asov hayvonni jilovlash va qo‘lga o‘rgatish uning yemini kamaytirish bilan bo‘ladi. Xuddi shuningdek, bebosh nafsnı tarbiya qilaman degan kishi nafs xohish va istaklarini jilovlab tiyish kerak. Nafsga og‘ir keladigan ibodatlar, yaxshi ishlarni yuklash. Asov hayvonni bo‘yin sundirishining yana bir yo‘li, uning yemini ozaytirish bilan birga ustiga ortiladigan yukini ko‘paytirish bilan bo‘ladi. Shunda hayvon zaiflashib, o‘z-o‘zidan itoatkor bo‘lib qoladi. Nafs tarbiyasida mana shu usulni qo‘llash yaxshi samara keltiradi. Bu yo‘lda doim Allah taolodan tavfiq va yordam so‘rash. Chunki nafsnı Allah taolo yaratdi. Uning holatini, qiladigan ishlarini bizdan ko‘ra yaxshiroq biladi.

Ulamolar quyidagi nabaviy duoni o‘qishni tavsiya qiladilar: "Allahim, nafsimga taqvosini ber. Va uni pokla. Sen poklovchilarning eng yaxshisisan. Uning Egasi va Xoliqi ham O‘zingsan".

3. Inson nafsining hakalak otishiga bir qancha omillar, jumladan, boylik, amal, mavqe, martaba kabi unsurlar ta’sir qilsa-da, ammo bu jarayonda iqtisodiy jihatning o‘rni katta. Masalaga oddiy bir holat sifatida qaraydigan bo‘lsak, inson faoliyatida iqtisodning o‘rni katta. Barchamiz yaxshi yashashni, yaxshi ovqatlanishni, yaxshi kiyinishni suyamiz, unga intilamiz. Buning yomon joyi yo‘q. Ammo bunday qulayliklarga erishish uchunadolatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik, milliy fe‘l-atvor va jamiyat qonunlariga so‘zsiz amal qilish, nafsimizni jilovlay olishimiz muhim. Buyuk mutafakkir Arastu “Fazilat - me’yorni bilishdan iborat”, deb ta’kidlagandi.

Shu ma’noda inson hayotida iqtisodiy faoliyat, undan keladigan foydani ham me’yorda anglash va shunday munosabatda bo‘lish o‘ta foydali. Bu narsa islom olamida iqtisodiy vasatiylik (mo‘tadillik), deb nomlanadi. Islomda mol-u dunyoning ortidan tushib, unga qul bo‘lib qolishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, mol-dunyoni tamoman inkor qilishga targ‘ib ham qilinmaydi. Mol-u mulk masalasida mo‘tadillik, afsuski, ayrim hollarda ayrim vatandoshlarimiz tomonidan buzilayotganligini ko‘rishimiz

mumkin. Tasavvur qilaylik, bir oiladagi ota-onasiga, 2 yoki 3 nafar farzand uchun nechta xonali uy kerak? Ayrim xonardonlarda mezbon maqtanish uchunmi, o‘z xonardonidagi ayrim xonalarga yillab kirmaganligini gapiradi.

Ayrim yoshlarimizda tezroq boyish, imkoniyatlarga ega bo‘lish, o‘zining ehtiyojlarini bir zarb bilan qondirish kabi “sifat”lar paydo bo‘lmoqda. Vaholanki, moddiy jihatdan lazzatlanish har birimizda ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan e’tiborimizni susaytiradi, oxir-oqibat kishilarni “mol quli”ga aylantiradi. Shu ma’noda, bizning tarbiya tizimimizda ma’naviy lazzatlanishga alohida ahamiyat beriladi. Nazarimizda, “och qornim-tinch qulog‘im” degan maqol o‘zbekning o‘zbekligini, uning boy ma’naviy kuchini ko‘rsatadigan qadriyatdir.

Qolaversa, davlat rahbarining “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa , davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” kabi fikrlari, g‘oyalari, hech shubhasiz, ayrim fuqarolarimiz orasidagi nafs qulligi darajasini kamaytirishga imkon beradi.

Nafs balosidan qutulish insonni ko‘klarga ko‘taradi, jamiyatni poklantiradi, odamlarni vijdon azobidan qutqaradi, baxtli qiladi. Bu juda og‘ir vazifa. Ammo bugungi O‘zbekiston jamiyati aynan ana shu yo‘ldan bormoqda.

4. Hamma umrida "ochko‘zlik" so‘zini eshitgan. Bu nimani anglatadi va u qanday insoniy fazilatlarni ko‘rsatadi? Bu odamning tobora ko‘proq moddiy qadriyatlarga ega bo‘lish istagini boshqara olmasligidir. Shu bilan birga, u bundan ma’naviy qoniqish olmaydi. Ochko‘zlik - bu foyda olishning patologik istagi.

Darhaqiqat, insoniyat mavjudligini zaharlaydigan illatlar ko‘p. Ammo eng makkor va ba’zida dahshatli narsalardan biri - ochko‘zlik. Bu odamda ochko‘zlik, g‘azab va shaxsiy qiziqish uyg‘otadi. Ammo shu bilan birga, amalga oshmagan istaklarning azoblanishiga sabab bo‘ladigan - bu sotib olish. Ochko‘zlik odamni baxtli bo‘lishiga to‘sinqilik qiladi. Bu haqiqiy qadriyatlardan uzoqlashadi. Yengish qiyin, u iroda va mehrga bo‘lgan istakni olib tashlaydi, nizo va suiiste’mollik sepati.

Shunday qilib, ochko‘zlik odamni ko‘proq pul olish istagini qo‘zg‘atadi. Ba’zida shunday nuqsoni bor odamlar jamg‘armalarini sarflashni umuman to‘xtatib qo‘yishadi. Ularni yig‘adilar. Shu bilan birga, ular o‘zlarini baxtsiz his qilib, tom ma’noda o‘z

boyliklaridan mahrum bo‘lishadi. Ular o‘zlariga pul keltira olmaydigan hamma narsani ko‘rishni to‘xtatadilar. Bundan tashqari, ochko‘zlik boshqa dahshatli yomonliklarning paydo bo‘lishi uchun manba hisoblanadi.

Ochko‘zlik - bu ruhiy "kasallik"mi? Va bu odamda yana qanday illatlarni keltirib chiqaradi?

Birinchidan, ochko‘zlik hamma narsadan foyda olish istagini keltirib chiqaradi. Inson hatto boshqalarning muammolaridan ham qochmaydi. Ruhda rahm -shafqat va rahm -shafqat uchun joy yo‘q, faqat foyda olish istagi bor. Shuning uchun ham shaxsiy manfaat hali hech kimga haqiqiy tinchlik olib kelmagan.

Ochko‘zlik bilan kechadigan yana bir illat - hasaddir. U odamni ichidan "yeb qo‘yadi". Baham ko‘rishni istamaslik ochko‘z odamdan qaytaradi. U barcha jamg‘armalarini saqlab qolish istagida yolg‘iz qoladi. Aynan mana shu illatlar insoniyat tarixi davomida oltin va boshqa boyliklar tufayli qon to‘kilishiga sabab bo‘lgan. Ochko‘z odamlar doimo pul haqida gapirishadi. Ular yetishmasligidan shikoyat qiladilar. Ular hasad qilib, o‘zlaridan ko‘p daromad oladiganlarga nopok hiyla -nayrang qilishadi. Bundan tashqari, bunday odam yaxshi lavozimni egallashi va ta‘minlanishi mumkin. Ochko‘z odamlar eng arzon kiyim-kechak, oziq -ovqat sotib oladilar, ular hech qachon o‘yin-kulgiga pul sarflamaydilar. Agar ularning sevimli mashg‘ulotlari bo‘lsa ham, bu har doim pulni tejash g‘oyasi bilan bog‘liq. Masalan, pul to‘lashga moyil odam dacha sotib olishi mumkin, shuning uchun siz o‘zingizni ovqat bilan ta‘minlay olasiz va pul sarflamaysiz,yoki u eski shim va kurtkalarni o‘zgartirsa ham kiyim tikadi.

Ochko‘z odamlar noqonuniy yo‘l bilan pul olish imkoniyatini qo‘ldan boy bermaydilar, ular har doim pora oladi, shantaj va o‘g‘irlikdan qochmaydi. Bunday odam qarindoshlaridan doimo pul talab qiladi, lekin u qaytarib bermaydi. Janjallarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, u o‘zidan yomon yashaydigan qarindoshi yoki do‘sitan o‘g‘irlik qilishi mumkin. Ko‘ngilsizlik haddan tashqari ko‘tarilishi mumkin. Ochko‘z odamlar axlat qutilarini qidirishdan tortinmaydilar, ular pulni tejashga imkon beradigan narsani topishga umid qiladilar, masalan, eski mebel, kiyim yoki pulni qaytarib beradigan metall.

Katta miqdordagi pulni olishga intilgan odamni zamonaviy dunyoning baxtsiz odami, deyishadi. Zamonaviy dunyo, barcha hisob-kitoblarga ko‘ra, pul bilan boshqariladi. Katta boylikka erishish va unga ega bo‘lishga intilish odatiy holdir. Biroq, bu ochko‘zlikning namoyonidir, chunki ko‘pincha odamlar boshqalardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zlarini boyitishning bunday usullarini tanlaydilar. Yaxshi va farovon hayotga intilish yaxshi. Biroq, ochko‘zlik va ochko‘zlikka asoslangan ochko‘zlik allaqachon xavfli bo‘lib bormoqda. Ko‘p psixologlar ochko‘zlik tuyg‘usini tabiiy deb bilishadi. Bir vaqtlar, har bir kishi o‘z hayoti uchun kurashishi kerak edi, ko‘p foyda yo‘q edi. Endi oziq -ovqat olish zarurati pul ishlash bilan almashtirildi. Ularning ko‘pligi bilan siz ko‘plab imtiyozlarga ega bo‘lishingiz mumkin. Ochko‘zlik odam moddiy ne’matlarni butlarga aylantirganda xavfli bo‘ladi. U endi ular uchun yashaydi, harakat qiladi, faqat ular haqida o‘yaydi. Uning fikri xiralashgan, xatti -harakatlari faqat ularni sotib olishga qaratilgan.

Ochko‘zlik qayerdan paydo bo‘ladi? Bu masala bo‘yicha ko‘plab qarashlar mavjud. Ba’zilar ochko‘zlik genetik yo‘l bilan yuqishini aytishadi, boshqalari uning tug‘ilishidan keyin, boshqalari esa shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan deb ta’kidlashadi. Sobiq sovet xalqi haqida nima deya olasiz? Katta ehtimol bilan, ularning ochko‘zligi o‘sha kamomad davri va Sovet Ittifoqining qulashi bilan bog‘liq, chunki odamlarning o‘z pullari bilan sotib olish uchun hech narsasi yo‘q edi, keyin esa o‘sha jamg‘armalardan mahrum bo‘lishdi. Aynan mana shunday salbiy tajriba sizni narsalarni nima uchun kerakligini o‘ylamasdan saqlashga va sotib olishga undaydi. "Qachondir bu yordamga keladi!" - deydi hayotida imtiyozlar yetishmasligini boshdan kechirgan har qanday odam.

Ba’zida ochko‘zlik bolalikdagi moddiy yetishmovchilik, shuningdek, o‘z qadrsizligini his qilishning natijasidir, deb ishoniladi.

Ochko‘zlikning ijobiy tomoni - o‘zini takomillashtirish, o‘zini anglash va yaxshiroq dunyoga intilishdir. Yaxshi hayotga intilgan odam harakat qiladi va taraqqiyotga yordam beradi. Bu ijobiy baholanadi. Boylik insонning o‘z ehtiyojidan va oilasi ehtiyojidan ortiq pul, maskan, ulov, asbob-anjom va turli ne’matlarga ega bo‘lishidir. U kambag‘allikning ziddidir.

“Mol” so‘zi arabcha “mola-yamiyu” fe’lining o‘zagi bo‘lib, qiymatga ega va ko‘ngil mayli tortadigan narsani anglatadi.

Ko‘ngil mayli tortadigan qimmatli narsalarning hammasi - pul, tilla, kumush, ko‘chmas va ko‘char mulk va boshqalar mol deyilaveradi. Bu narsalar ko‘ngil tortishi, ishtaha qilishi deyiladi. Ishtaha esa shahvat ma’nosini anglatadi. Shuning uchun Qur’oni karimda bunday narsalarning barchasi shahvatlar deb atalgan.

Islom inson mol jamlash orqali erishadigan turli foydalarni inkor qilmaydi. Balki Qur’oni karim bir necha o‘rinda molni xayr - yaxshilik deb atagan:

- mol jamlash odoblariga rioya qilish.
- mol Alloh taolonikidir.
- Alloh taoloning roziligi uchun mol ne’matiga shukr keltirish shartdir.
- mulkdor bo‘lish og‘ir mas’uliyatdir.
- mol-dunyo topish yo‘llariga va manbalariga ahamiyat berish o‘ta zarurdir.
- mol-dunyo va boylik odoblaridan biri oila a’zolari va qaramog‘idagilarga nisbatan qizg‘anchiq bo‘lmaslikdir.
- davlatmand kishilarining ziynati saxiylik va yaxshilik qilishdir.
- mol-mulk egasi zimmasida ado etilishi zarur bo‘lgan ko‘p haqlar bor.

Mol-dunyoda Alloh taoloning bir qancha haqqi bor:

Mazkur haqlarning birinchisi zakotdir.

Mol-mulkdagi Alloh taoloning haqlaridan biri fitr sadaqasidir.

Mol-mulkdagi Alloh taoloning haqlari ichida turli kafforotlar ham bor.

Mol-mulkdagi Alloh taoloning haqlaridan biri nazrlardir.

Mol-mulkdagi Alloh taoloning haqlaridan biri haj ibodatining sarf-xarajatidir.

Mol-mulkdagi bandalarning haqqiga oila a’zolarining, ota-onasining, opasinglisining va qo‘l ostidagilarning vojib nafaqasi, kambag‘al bandalarning ham mustahab haqlari ham kiradi.

Molu mulkdagi bandalarning haqlaridan biri qarz egasining haqqini qaytarib berish va birovga moliyaviy talofat yetkazilganda, o‘sha yetkazilgan talofatni to‘lab berishidir.

Molu dunyodagi bandalarning haqlaridan biri birovlarga bergen va’daga vafo qilishdir.

Saxiylik, muruvvat ko'rsatish va xayr-ehson ma'nosida, savob umidida mol sarflash ham bandalarning mol-dunyodagi haqlaridandir. Mol-mulk egalarining eng yuksak odoblaridan biri tavozeli bo'lish va berganini minnat qilmaslikdir. Mol-dunyo va unga bog'liq turli dabdaba-shuhuratlar inson qadrining o'lchovi bo'lolmaydi. Insonning ixtiyoridagi mol-dunyo - omonat, inson bir xalifa (vakil), xolos. Ha, Islom mol-mulkka shunday nazar bilan qaraydi. Musulmonlardan har biri qo'lidagi molning muhofazasini jamoa a'zolariga topshiradi. Dastlab har bir kishi teng imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramay, ba'zilari yashash uchun mablag'ni zo'rg'a, qiyinchilik bilan topishadi, boshqalar esa ko'ngillari tusagan narsalarga osonlik bilan erishib, molu-dunyoga ko'milib yashaydilar. Nima uchun kambag'allar yanada kambag'allahib boraveradi, boylar esa boyib ketaveradilar, ular qanday fikrlash tarziga ega? Boylarningn hayot tarziga e'tibor bersangiz, ularning hayotga nisbatan shaxsiy dunyoqarashlari mavjud.

Boy insonlar qimmatbaho narsalarni sotib olib, o'zlarining obro'larini ko'tarishlari shart emas. Boy odamlar ishlatilgan narsalarni, jumladan, mebel, avtomashinalarni sotib olishda hech qanday yomon narsani ko'rmaydilar. Agar mahsulot yangi ko'rinishga ega bo'lsa, ortiqcha to'loving nima keragi bor? Ular tejab qolingan har bir tiyinni muhimroq narsaga sarflashni afzal ko'radilar.

Boy odamlarning psixologiyasi shundan iboratki, ular imkoniyatlaridan kelib chiqib, qurbilari yetgan narsalarnigina xarid qiladilar. Topgan pullarini kredit foizini to'lash uchun qarzga kirmaydilar. Ular uzoq muddatli "qullikka kirish"dan saqlanadilar, chunki bu narsa ularni hayot quvonchlaridan mahrum qiladi.

Arzon mahsulotlarni sotib olib, ko'pincha shu yo'l bilan tejab qolayapmiz, deb o'zimizni aldaymiz. Keling, bir misolni ko'rib chiqaylik: siz falon so'mga poyabzal sotib olishga ehtiyojingiz bor, ammo huddi shunga o'xhash, nisbatan arzonroq va sifat darajasi pastroq bo'lgan boshqa poyafzalni ko'rasiz. Siz arzon poyafzal sotib olib, pulingizni tejashingizga ishonasiz. Biroq, u juda tez orada eskiradi va siz yana yangisini xarid qilishingizga to'g'ri keladi. Bunda siz yutgan emas, yutqizgan bo'lib chiqasiz. Boy odamlar bunday soxta tejash aldoviga uchmaydilar.

Albatta, boy odamlar ham dam olishadi. Ular hatto nafaqa yoshiga yetmasdan ham ishlamay qo'yishlari mumkin, moliyaviy ahvollari shunga imkon beradi. Ammo bunday

odamlar nafaqa yoshiga yetganlarida ham ishlashdan to‘xtatmaydilar. Qolaversa, ishtiyoyqmand odamning bexosdan ishsiz qolishi qiyin.

Har kuni marketologlar bizni sotib olishga "majbur qilishadi". Ko‘pincha biz o‘zimiz xohlamagan holda rejalashtirmagan narsamizni xarid qilamiz va buni har doimgi reklama harakati natijasida sodir bo‘lganini tushunib ham yetmaymiz. Boy odamlar marketoglarning hiyla-nayranglariga aldanmaydilar. Ular haqiqatan ham zarur bo‘lgan narsalarni sotib oladilar va ortib qolgan manbalarni yanada qimmatliroq narsalarga tikadilar.

Boy odamlar aksiyalar, chegirmalar va maxsus qulay takliflarni kuzatib borishdan charchamaydilar. Axir, tejash imkoniyati bo‘lsa, nega undan foydalanmaslik kerak.

Barcha boy odamlar o‘z moliyalarini rejalashtiradilar. Ular chiqimni, daromadni, sarmoyadagi foizlarni, bonuslar, sovg’alar – hamma-hammagini hisobga oladilar. Xullas, har bir tiyin hisobli. Bunda to‘g’rilik muhim o‘rin tutadi, odam o‘zligini yo‘qotib qo‘ymasligi hamda foyda-zarar, chiqim va harajatlarni doim nazorat qilib turishi kerak. Byudjetni kuzata turib, qaysi yo‘nalish yoki kategoriyada sarf-harajat ko‘p bo‘layotganligini yoki qaysi joyga pul tikmaslik kerakligini tushunib yetadilar.

Boy insonlar hammaga boyliklarini ko‘z-ko‘z qilishga zor emaslar. Ular o‘zlarining haqiqiy baholarini biladilar, shuning uchun oddiy odamlardek ko‘rinadilar. Va eng asosiysi boy odamlar yorqin va to‘la-to‘kis hayot kechirishlari uchun harakat qiladilar. Ular hech kimga hech narsani isbotlab o‘tirmaydilar, shunchaki hayotdan zavq olib yashaydilar.

**5. Sudxo‘rlik, ta’magirlik, poraxo‘rlik, o‘g’irlik, yolg’onchilik** – eng yomon illatlar.

Sudxo‘rlik - g‘oyat og‘ir shartlar bilan qarz berib, foyda olinadigan faoliyat. Sudxo‘rlikning paydo bo‘lishi ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish davriga to‘g’ri keladi. Sudxo‘rlik kreditning qadimiy shakli bo‘lib, dastlab moddiy natural holda bo‘lgan. Uning egasi o‘z iste’molidan ortib qolgan mahsulotini muhtojlarga qarzga bergen. Pul paydo bo‘lgach, sudxo‘rlik pulni g‘oyat yuqori foiz evaziga qarzga berish shakliga kirgan. Sharq mamlakatlari, shu jumladan, O‘rta Osiyoda sudxo‘rlik bilan sarroflar va boy savdogarlar shug‘ullangan. Sudxo‘rlikda qarzni qaytarish muddati,

to‘lanadigan foiz miqdori og‘zaki kelishuv yoki tilxat bilan rasmiylashtirilgan. Qarz foizining darajasi turli mamlakatlarda turlicha, hatto bir mamlakatdagi shahar va tumanlarda ham har xil bo‘lgan. Olingan qarz pulidan kapital tarzida emas, to‘lov va harid maqsadlarida foydalanish, qarz foizining g‘oyat yuqori bo‘lishi, kafolat uchun ko‘chmas mulk, qimmatbaho buyumlarni garovga qo‘yish sudxo‘rlikka xos. Ko‘p hollarda qarzdorlar qarzni o‘z vaqtida uza olmay yeridan, uy-joyidan, mol-mulkidan ajralib, xonavayron bo‘lgan, sudxo‘rlar esa boyib ketgan.

Islom dinida sudxo‘rlik harom mashg‘ulot qisoblanadi. Shu sababli islom dini tarqalgan mamlakatlarda sudxo‘rlik yashirin tus olgan. 20-asr boshlarida O‘rta Osiyoda sudxo‘rlik paxta ekadigan muhtoj deqqonlarga yer-mulklarini garovga qo‘yish sharti bilan bo‘nak shaklini olgan. Bo‘nak pulini foizi bilan qaytara olmaganlarning yeri boylar qo‘liga o‘tgan.

Mamlakatda ichki bozor va tovar-pul munosabatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, kredit tizimining nochorligi, mayda tovar xo‘jaligi shakllarining ustunligi sudxo‘rlikning saqlanib qolishi uchun sharoitlar yaratadi. G‘oyat yuqori foizlarda chakana qarzlar berish shaklidagi sudxo‘rlik rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud. Lekin bunday faoliyat qonun bilan taqiqlangan. Madaniy bozor iqtisodiyoti sudxo‘rlikni rad etadi. Uning yashirin ko‘rinishlari xufiya iqtisodiyot sohasida yashirin bitishuvlarda, jinoiy unsurlar orasida uchraydi. Sudxo‘rlik qarz beruvchining qo‘pol xatti-harakatlarini, odatda dastlabki kredit bo‘yicha foizlarni yoki garov talablarini suiiste'mol bilan yig'ish hisoblanadi.

“Sudxo‘rlik” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, so‘zdan tashkil topgan *usus "foydalanish huquqi"* va qo‘shimchani ko‘rsatib –*sura* faoliyat turini ifodalovchi. Shu ma'noda, sudxo‘rlik unga tegishli bo‘lgan narsadan, umuman, puldan foydalanish huquqini to‘lashni anglatardi. Sudxo‘rlik bilan shug'ullanadiganlar sudxo‘rlar deyiladi. Shu ma'noda, sudxo‘rlik axloqsiz munosabat deb hisoblanadi, chunki u o‘z manfaati uchun qo‘lidan kelgan imkoniyatlardan foydalanadi.

sudxo‘rlik amaliyoti eng zaif qatlamga ta'sir qiladi va ijtimoiy, shuning uchun axloqiy muammoga aylanadi. Shu tarzda, sudxo‘rlikka qarshi qonunlar suiiste'mol qilish evaziga foyda ambitsiyalarini cheklash uchun yaratilgan.

Tamagirlik - birovdan bir narsa kutish va uning ilinjida bo'lish; moddiy naf ko'rish, ochko'zlik, dunyo orttirishga intilish va shu kabi g'arazli niyatlar bilan qilingan xatti-harakat. Huquqda jinoyat motivlaridan biri. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 56-moddasi "k" bandida g'arazli yoki boshqa past niyatlarda jinoyat sodir etilishi jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Jinoyat Kodeksi 97-moddasi 2-qismi "i" bandida ham tamagirlik niyatida odam o'ldirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

"Poraxo'rlik" - pora olish, pora berish, bu ishda vositachilik qilish kabi mansabdorlik jinoyatlari. Poraxo'rlik moddiy boylik yoki mulkiy manfaat evaziga muayyan harakatlarni bajarish yoki bajarmaslik bilan tavsiflanadi. O'zbekiston Respublikasi JK ga ko'ra, u boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar sirasiga kiradi. JK bo'yicha, pora olish deganda mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lган muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi, yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy naf ko'rishi tushuniladi. Pora berish deganda mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lган muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga unga bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish tushuniladi.

O'g'rilik - o'zganining mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish, yomon, salbiy xislatlarga ega bo'lishlik; yomon, yaramas ishlar qilish; qabihlik, yovuzlik demakdir.

Yomonlik - yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi illat. Yolg'onchilik, pastkashlik, munofiqlik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon bo'ladi. Diniy nuqtayi nazardan yaxshilik ilohiy inoyat, yomonlik esa insondagi shaytoniy va hayvoniy xislatlarning ifodasi tarzida talqin qilinadi; yaxshilik ham, yomonlik ham insonning ixtiyor erkinligidan qay darajada foydalanishining oqibati sanaladi.

Shaxsning salbiy fikrlari, reaksiyalari, his-tuyg'ulari (g'azab, nafrat va boshqalar) va fazilatlari (tajovuzkorlik, hasad, dangosalik, ochko'zlik va boshqalar). Ular uning yo'q qilinishiga va shunga mos ravishda azob-uqubatlarga, jazo va o'limga olib keladi.

Bir so‘z bilan aytganda - salbiy oqibatlarga. Har xil illatlar va yomon odatlar: qo‘pollik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, tuhmat, har xil giyohvandlik, behayolik va boshqalar. Haqiqatning katta qismini o‘z ichiga olgan go‘zal ibora ham bor: "Yomonlik yorug'lik bo‘lмаган yoki juda oz joyda paydo bo‘лади". Ya'ni, sevgi bo‘lмаган joyda nafrat paydo bo‘лади, qo‘rquv bo‘лган joyda qo‘rquv va shunga mos ravishda qo‘rroq tug'iladi, mehribonlik bo‘lмаган joyda yovuzlik yashiringan va boshqalar. Shuning uchun maslahat: ichingizda va atrofingizda iloji boricha ko‘proq Yaxshilik va Nur borligiga ishonch hosil qiling.

Kim yomonlik yo‘qligiga ishonsa, undan birinchi bo‘lib azob chekadi. Yodingizda bo‘lsin, biz odamlar yovuzlik yo‘qligiga ishonishimiz va uni yo‘q qilish uchun hech narsa qilmasligimiz yomonlik uchun juda foydali. Ijtimoiy va shaxsiy hayotning har qanday salbiy hodisalarini anglatuvchi, insonning ma'naviy, aqliy va biologik salohiyatini yo‘q qilishga olib keladigan va o‘zaro yomonlikni keltirib chiqaradigan axloqiy kategoriya. Yovuzlik har doim o‘ta o‘lchamli, haddan tashqari, kuchli, buzuq narsadir. U o‘zini shaxsning salbiy holati (azob, qo‘rquv, azob, qashshoqlik, xo‘rlash), bu holatlarga sabab bo‘лган kuchlar (tabiiy elementlar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, odamlarning harakatlari), shaxsning shaxsiy fazilatlari (nodonlik, dangasalik, shafqatsizlik) sifatida namoyon bo‘лади. Yovuzlik yaxshilikning antipodidir, u bilan birga yashaydi, ko‘pincha u bilan oziqlanadi va hatto undan o‘sib chiqadi. Demak, inson uchun haddan tashqari tashvish uni ojiz va boshqa birovning qayg'usiga befarqligiga olib kelishi mumkin.

6. Kibr, kibr-havo, manmanlik, dimog‘dorlik - o‘z shaxsiyatiga, qobiliyatiga ortiqcha baho berish, o‘zini boshqalardan yuqori qo‘yish, kalondimog‘lik oqibatida namoyon bo‘ladigan salbiy axloqiy sifat. Bu sifat kishilarni mensimaslik, ularga past nazar bilan qarash, o‘rinsiz g‘ururga berilish, o‘zining arzimas yutuqlarini bo‘rttirib ko‘rsatish va boshqalarda ko‘rinadi.

Kibrli kishi o‘z aybi, nuqsonlaridan ko‘z yumadi, manmansiraydi. Manman kishi o‘zgalarning nasihatini yoqtirmaydi, zalolat botqog‘iga botadi. Kibr - kishilarning kamchiligi, nuqsonidir. Kibr odamlar o‘rtasida birdamlik, ahillik va muhabbatni yo‘q

qiladi, adovat uyg‘otadi. Kibr odobsizlik belgisi bo‘lib, u doimo qoralangan. Qur’onda kibru havoli kishilarning joyi jahannam ekanligi (Zumar surasi, 60-oyat) ta’kidlangan.

Mulk va milk (ko‘pligi - amlok) - ma’nodosh bo‘lgan va ko‘pincha aralash holda qo‘llaniladigan istilohlar (MLK o‘zagidan - "ega bo‘lmoq"). Mulk ham cheklanmagan hokimiyat (jumladan, podsho hokimiyatini) va shak-shubhasiz xususiy egalikni, ham mana shu xususiy egalik obyektini, milk esa - faqat xususiy egalik obyektini anglatadi. Xususiy egalik huquqi meros, sotib olish, in’om, xususiy egalik oby’ektini yaratish (buyumlar yasash, unumsiz yerni o‘zlashtirish, foydali qazilmalar qazib chiqarish va b.) va harbiy o‘lja sifatida bosib olish yo‘li bilan vujudga keladi.

Mulk - moddiy va ma’naviy ne’matlarning muayyan kishilar egaligida bo‘lishi va ular tomonidan o‘zlashtirilishi; mulkka egalik huquqi hamda mulk ob’yektlariga egalik, ularni bo‘lish, taqsimlash bo‘yicha kishilar o‘rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar. Mulk obyekti yer va yer osti boyliklari, korxona, bino, inshootlar, mashina va uskunalar, tayyor mahsulot, pul, qimmatli qog‘ozlar, san’at va adabiyot asarlari, ilmiy va texnikaviy ishlanmalar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Moddiy va ma’naviy ne’matlarni amalda o‘zlashtiruvchilar mulk subyektlari, ya’ni egalari hisoblanadi. Bularga ayrim kishilar, oilalar, jamoalar va, nihoyat, davlat kiradi. Mulkdan amalda foydalanib, bundan naf ko‘rish mulkni iqtisodiy tasarruf qilish hisoblanadi.

## **NAZORAT SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

1. Nafs bilan ochko‘likni farqlab bering?
2. Nafs va ochko‘zlikka Sharq allomalari qanday tarif bergan?
3. Nafs va ochko‘zlik qanday oqibatlarga olib keladi?
4. Qanday odam boy odam sanaladi?
5. Sudxo‘rlik mazmun-mohiyatini aytib bering?
6. Kibrilik manmanlik bilan tenglashtiriladimi?
7. Muqaddas dinimiz poraxo‘rlikni qanday qoralaydi?
8. Illatlar inson umrini xarob qilishi haqida hayotiy misollaringiz, shaxsiy mulohazalaringiz bormi?

## **TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

1.“Bola huquqlari to‘grisida’gi Konvensiya nechta moddadan iborat?

- A.50 ta
- B.52 ta
- C.54 ta
- D.56 ta

2.UNICEF qanday tashkilot?

- A.BMTning fan, ta’lim va madaniyat bo‘yicha tuzilmasi
- B.Milliy qadriyatlarni ro‘yxatga oluvchi tashkilot
- C.Ayollarni, xotin-qizlarni himoyalovchi tashkilot
- D.Bolalar muammolarini xalqaro miqyosda hal qiluvchi tashkilot

3.Odamlar, tashkilotlar, davlat va boshqa davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan xulq-atvor qoidalari yoki normalari to‘plamiga nima deyiladi?

- A.Farmon
- B.Buyruq
- C.Akt
- D.Qonun

4.Atrofimizda yoki dilimizda sodir bo‘layotganlarga munosabatimizni ifodalashga nima deyiladi?

- A.Quvonch
- B.G’azab
- C.His-tuyg’u
- D.Muhabbat

5.His- tuyg’ular nechta guruhga bo‘linadi?

- A.2
- B.3
- C.4
- D.5

6.“Bola huquqlari to‘grisida’gi Konvensiya nechta moddadan iborat?

- A.50 ta

B.52 ta

C.54 ta

D.56 ta

7.UNICEF qanday tashkilot?

A.BMTning fan, ta’lim va madaniyat bo‘yicha tuzilmasi

B.Milliy qadriyatlarni ro‘yxatga oluvchi tashkilot

C.Ayollarni, xotin-qizlarni himoyalovchi tashkilot

D.Bolalar muammolarini xalqaro miqyosda hal qiluvchi tashkilot

8.Odamlar, tashkilotlar, davlat va boshqa davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan xulq-atvor qoidalari yoki normalari to‘plamiga nima deyiladi?

A.Farmon

B.Buyruq

C.Akt

D.Qonun

9.Atrofimizda yoki dilimizda sodir bo‘layotganlarga munosabatimizni ifodalashga nima deyiladi?

A.Quvonch

B.G’azab

C.His-tuyg’u

D.Muhabbat

10.His- tuyg’ular nechta guruhga bo‘linadi?

A.2

B.3

C.4

D.5

11.His-tuyg’u guruhlari tog’ri berilgan qatorni toping?

A.Ijobiy tuyg’ular va salbiy tuyg’ular

B.Betaraf tuyg’ular

C.Bir yoqlama va ko‘p tomonlama tuyg’ular

D.A va B javoblar to‘g’ri

## **7-MAVZU: ODAMIYLIK SABOQLARI (4 soat)**

### **Reja:**

1. Hazrati inson tarbiyasi. Nasab va Hasab. Ma'rifat – najot, Alloh ilmidan bir parcha. Muhammad (S.A.V) ning fazilatlari.
2. Halol va xarom. Husni xulq. Shijoat, karam. Iroda. Sabot. Sabr. Halimlik. Iffat. Riyo. Munofiqlik.
3. Zohir va botin. Til odobi. Hasad va havas. Do'st va dushmanlik. Ulug'vorlik va olivjanoblik. Kechirimlilik. Jinoyat va jazo. Qalb ko'zi. Dard va bedardlik. Yaxshilik. Tushkunlik va yolg'izlik.
4. O'z joniga qasd qilish - eng og'ir gunoh. Qo'rqoqlik. Jasorat. Tavba. G'iybat va fisqu-fasod. Ta'qiq. Qo'shnining haqqi.
5. Buni hayot deydilar. O'lim. Vasiyat. Jannatga yo'l.

1. Ulug' manbalarda dars etiladiki, eng avval yaratilgan inson hazrati Odam Ato edi. So'ngra uning jufti Momo Havvo onamiz xalq etildi. Bu muborak juftlikdan esa bani bashar tarqaldi. Albatta, bu haqda ko'p aytilgan.

Yaratgan zot insonni bunyod etgan ekan, uni nima uchun yaratganini ham kalomi sharifida aytadi. Ya'ni, inson o'zini yaratgan zotni tanishi, Unga ibodat va itoat qilishi uchun yaratildi. Bu holni hazrat Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonining hamd bobida shunday ifodalaydi:

Ofarinishdin qilib inson g'araz,

Oni aylab xalq ichinda beavaz.

Ko'nglin oning maxzani irfon qilib,

Ul tilism ichra o'zin pinhon qilib.

Rozi maxfiy ganj o'lub bu turfa jism,

Sun'idin ul ganj hifzig'a tilism.

Ham tilism ul maxzan uzra, ham amin,

Ofarin sun'ungg'a, ey jon ofarin.

Insonning kimligi va nima uchun yaratilgani xususidagi savollarga bundan-da to'g'riroq va mukammalroq javob yo'q. Ammo shunday bo'lsa-da, hamma zamonlarda

jamiyatshunoslar, ruhshunoslar, insonshunoslar va boshqa o‘nlab “...shunoslar” hazrati Inson tiynatini tadqiq etadilar. Bu haqda jild-jild kitoblar yoziladi, ilmiy ishlar yoqlanadi. Va bu izlanishlar pirovardida yana o‘sha: “Inson kim?” degan savol kelib chiqaveradi.

Eramizdan avval yashab o‘tgan qadimgi yunon faylasuflaridan biri Ezop asarlaridan birida insonga qarata xitob qiladi: “Men seni angolmadim, kimsan, ayt! Javobingni kimdan olayin?” Ingliz adabiyotining buyuk dramaturgi Vilyam Shekspir yozadi: “Hayot – sahna. Barchamiz mana shu sahnada o‘z rolimizni o‘ynayotgan aktyorlarmiz”.

Demak, azaldan Inson muammosi eng buyuk asarlarning mavzusi bo‘lib keldi. Inson o‘z-o‘zini axtarishi natijasida minglab kashfiyotlarga erishdi. O‘zini axtarishi natijasida O‘zlikni, ya’ni o‘zini yaratgan Zotni topdi. Zero, insonni boshqa yaralmishlardan ajratib turadigan xususiyatlarning eng asosiysi ham uning ongi va tafakkuridir. Inson bilimlarining ibtidosi – tasavvur. Tasavvur insonni mushohadaga boshladi. Mushohada esa o‘z navbatida haqiqatga doyalik qildi...

Insonning o‘z Yaratguvchisi qudratini anglay bilishi ham tasavvur tufayli sodir bo‘lgan. Zotan, yaralmishlar ichida eng mukammali bo‘lgan inson o‘z ijodkorining qudratini tasavvur qilib ko‘rmog‘i lozim edi. U shunday qildi. Bu Buyuk Tasavvur uning tasavvurlariga sig‘madi. Chunki Yaratguvchi qudratining bepoyonligi oldida inson tasavvurining kengligi dengizdan bir tomchi edi, xolos. Mana shu izlanishlar ma’lum ma’noda insonning o‘ziga o‘zini tanitdi.

Rivoyat qiladilarki, bir kuni hazrat Boyazid Bistomiyni uzoq manzildan bir yo‘lovchi izlab kelibdi. Odamlar hazratning uyini musofirga ko‘rsatib yuboribdilar. Musofir Bistomiy hazratlarining darvozasiga borib, ovoz beribdi.

– Kimsiz, nima yumushingiz bor? – debdi ichkarida turib Bistomiy hazratlari.

– Bistomiy janoblarini izlab kelgan edim, – debdi musofir.

Shunda u ulug‘ zot boshlarini chayqab, aytgan ekanlar:

– Men ham uzoq vaqtlardan beri Bistomiyni izlayapman. Lekin topolmayapman, topolmayapman.

Bu rivoyat ko‘hna moziyning oddiy manzaralaridan biri bo‘lib tuyulishi ham mumkin. Zero, o‘tmishda bunga o‘xhash voqealar juda ko‘p sodir bo‘lgan. Ammo mazkur rivoyat juda teran bir haqiqatga ishora qiladiki, bu haqiqatni ta’kidlab o‘tmasak bo‘lmas.

Rivoyatda Bistomiy hazratlari izlagan narsa insonning o‘zligidir. Bu yuksak falsafa Alisher Navoiy nazmida juda go‘zal ifoda etilgan:

El netib topgay menikim,

Men o‘zimni topmasam.

Chindan ham inson o‘zini, o‘zligini, tiriklik atalmish ne’mat unga nima sababdan tuhfa etilgani-yu, uni qanday sarflash kerakligini anglamas, idrok etmas ekan, uning yashashidan ma’no yo‘q.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, u bugungi kungacha ne-ne zamonlar va to‘fonlarni boshidan kechirmadi deysiz. Biroq, tan olish kerakki, insoniyat bugungi kungacha juda ko‘p narsalarga erishdi. Ayniqsa, ilm-fan bobida ulkan yutuqlar qo‘lga kiritildi. O‘zga sayyoralar, yer osti va yer usti boyliklari tadqiq etildi. Garchi afsusli bo‘lsa-da aytish mumkinki, bir soniyada minglab chaqirim uzoqliklardagi jonzotlarni yo‘q qilib yuborishga qodir qurollar kashf etildi. Bularning bari qaysidir ma’noda insonning o‘zini topish borasidagi izlanishlari edi. Ne tongki, bu izlanishlar hamon davom etmoqda.

Xullas, inson o‘zining kimligini topishi asnosida baxtga erishadi. Muvaffaqiyatlarga sohib bo‘ladi. Yangi-yangi kashfiyotlarga erishadi. Zero, inson Yaratganning tilsimidir. Bu tilsim atrofidagi izlanishlar esa, to hayot bor ekan, davom etaveradi.

Nasab (arab. - qon-qarindoshlik) - bir ota-bobodan tarqalgan avlod; umuman avlod-ajdod, nasl .

“Nasab” arabcha so‘z bo‘lib, kelib chiqish, nasl-nasab, sulola, ajdod ma’nolarini anglatadi. Islom ahlining ko‘payishi, arab xalqlarining ajam xalqlari bilan qo‘silib ketishi nasablarni o‘rganish haqidagi ilmnинг dunyoga kelishiga zamin yaratdi. Uning asoschisi nasab ilmining imomi Hishom ibn Muhammad ibn Soib al-Kilabiy (vafoti hijriy 204-(milodiy 820) yil)dir.

Bir kishi o‘zi hech narsa qilmay turib, ota-bobolarning kazo-kazo bo‘lganlari uchungina qadr-qiyomat topishi, boshqalardan o‘zini ustun qo‘yishi, imtiyozli sanalishi va o‘zgalarga past nazar bilan qarashi, ularni haqir sanashi islomiy o‘lchovga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

Nasabu hasab bilan faxrlanish boshqa xalqlardan ham ko‘ra arablarda qattiq avj olgan edi. Ular arablarni boshqa halqlardan ko‘ra oliy nasablik hisoblaganlari ham yetmaganidek, arab qabilalari ichida, qabilalardagi urug‘lar ichida ham nasab surishtirar, birlarni ustun qo‘yishib, boshqalarni ostin qo‘yishar edilar.

Islom nasabi va hasabiga qarab odamlar orasida tengsizlikka yo‘l qo‘yishga ham o‘zining insonparvarlik g‘oyalari asosida qarshi chiqdi va bundoq noto‘g‘ri ishni yo‘q qilish uchun kurash boshladi.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam o‘z hadislaridan birida: “Albatta, Alloh sizdan johiliyatning kiborligini va ota-bobolar ila o‘zini katta tutishini ketkazdi. Kishilar Odam bolalaridir, Odam esa tuproqdadadir”, - dedilar.

Demak, kim nasabi ila kiborlik qilsa, o‘zida hech narsa yo‘q bo‘la turib, ota-bobosi ila faxrlansa johiliyatning ishini qilgan bo‘ladi. Nasabi qanchalar oliy bo‘lmashin, ota-bobolari qanchalik ulug‘ bo‘lmashinlar, kishining o‘zida bir narsa bo‘lmasa, foydasi yo‘q. Har kim o‘zi yaxshi xislatlarga ega bo‘lishi kerak, har kim o‘zi amal qilishi kerak.

Ha, har kim nimaga erishadigan bo‘lsa o‘z amali bilan erishadi. O‘tib ketgan shaxslardagi xislatlar tufayli birov ko‘klarga ko‘tarilib, boshqalar yerga urilmaydi. Barcha barobar Allohning bandasi, Odamning bolasi.

Bu borada xalifa Umar ibn Xattob roziyallohu anhuning: “Kimning amali kamlik qilsa, uni nasabi tezlata olmaydi”, degan gaplari qoida o‘rniga o‘tib qolgan.

Shu tariqa, Islom odamlarni nasabu-hasabga emas, o‘z amaliga qarab, o‘z shaxsiga qarab baholanishi zarurligiga asta-sekin o‘rgatib bordi. Gohida eski odat ham o‘zini ko‘rsatib qolsa, darhol musulmonlar bir-birini ogohlantirishar, o‘zlariga qayta kelishar edilar.

Bir kuni sahabalar gaplashib o‘tirib, o‘tganlarni eslashib qolishdi. Gap o‘z-o‘zidan ota-bobolarga borib taqaldi. O‘tirganlar mening otam undoq bo‘lgan edi, bobom bundoq bo‘lgan ekan, deb ota-bobolari ila faxrlana boshlashdi. Men falonchining o‘gliman,

deyishga o'tishdi. Navbat asli arab bo'lmanan sahibiylardan biriga kelganda u kishi, men Islom o'gliman, dedi. Shunda Umar ibn Xattob roziyallohu anhu o'rnidan turib, men ham Islom o'gliman, deb yig'lab yubordi. Majlisda o'tirganlar, birdan o'zlariga kelishib, Umar roziyallohu anhuga qo'shilib yig'lashdi va o'zlaridan o'tgan nuqsonga afsus qilishdi.

Ilm-ma'rifat - insonni kamolotga yetaklovchi, unga najot beruvchi buyuk ne'mat. Bu fikrning yorqin dalili sifatida Imom Buxoriyning o'n ikki asr oldin "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay" degan fikrlari asos bo'ladi. Shu bois ajdodlarimiz qadimdan ilm-ma'rifat o'rganish va farzand ta'lim-tarbiyasiga ustuvor ahamiyat qaratib keladi. Bugun bu an'ana davom etayotgani, so'nggi yillarda mamlakatimizda ilm-fan va ma'rifatga berilayotgan e'tibor yaqin kelajakda o'z samarasini berishi, shubhasiz.

Insondagi ulug'lik va kamolot fazilatlari ikki turlidir: birinchisi, dunyoviy xislati zaruriya bo'lib, u inson tabiatini va yashash ehtiyojidan kelib chiqadi, ikkinchisi, diniy xislati qasbiya bo'lib, bu sifatga erishganlar maqtovga sazovor va Allohga yaqinlashganlar jumlasiga kiradi. Dunyoviy xislati zaruriya kasbiy bo'lmaydi, u insonning ixtiyoriga bog'liq ham emas. Masalan: Payg'ambar alayhissalomning yaratilishlaridagi tabiiy kamolotlari, husndagi go'zalliklari, aqliy zakovatlari, idroklarining yuksakligi, tillarining fasohatliligi, his-tuyg'u va badanlarining kuchliligi, harakatlarining mo'tadilligi, nasablarining tozaligi, qavmlari va yurtlarining mo'tabarligi kabi xislatlar bo'lib, yashash zarurati taqozo etadigan ovqat, uyqu, kiyim-kechak, turar-joy, mol-mulk va obro'-e'tibor kabilalar shu jumлага mansubdir; din, ilm, muloyimlik, sabr, shukr, adolat, haqqoniylik, ta'madan yiroqlik, kamtarlik, kechirimlilik, iffat, saxiylik, shijoat, hayo, odamgarchilik, kamgaplik, tamkinlik, og'ir-bosiqlik, mehr-shafqat, husnixulq, yaxshi muomala kabi yuksak axloq-odobning barchasi oxiratga mansub xislati kasbiya sanalib, bular go'zal axloq deb ataladi. Insonda mavjud tabiiy yo'sindagi g'ayrikasbiy kamolot xususiyatlarining barchasi Payg'ambar alayhissalomning vujudlarida mavjud edi.

Payg'ambar alayhissalomning rang- ro'ylari benihoya chiroyli, gavda tuzilishi va a'zolarining mutanosibligi rivoyatlarda bunday tasvirlanadi: Payg'ambar

alayhissalomning yuzlari oppoq, nuroniy, ko‘zлari katta, qorachig‘lari timqora, oqi qizg‘ishga moyil, kipriklari quyuq, qoshlari uzun, ingichka, qirra burunlarining uchi xiyol egilgan, tishlari guruch donasidek oppoq, orasi ochiqroq, peshonalari keng, yuzlari dumaloq, soqollari quyuq, ko‘kraklari keng, gavdali, bilaklari uzun, kaftlari, oyoqlarining tovoni keng, o‘rta bo‘y, miqtidan kelgan, jundor odam edilar; ko‘kraklarida pastga qarab o‘sigan mayin yolları bor edi, kulganlarida tishlari xuddi marvarid donalaridek yarqirab ketardi, gapirganlarida shu'lalanib, og‘izlaridan nur taralayotgandek bo‘lardi, bo‘yinlari ham gavdalariga g‘oyat mos edi.

Payg‘ambar alayhissalom aqlda komilliklari, zehnlari o‘tkirligi, hissiyotlarining kuchliligi, tillarining biyronligi, harakatlarining chaqqonligi, axloqlarining go‘zalligiga qaraganda u Zoti muborakni hech shubhasiz eng aqli va eng hushyor inson deb e’tirof etish kerak. Sarvari olam ilgari o‘qib, xat-savod chiqarmagan, maxsus saboq olmagan, dunyoviy va diniy kitoblarni ko‘rmagan bo‘lishlariga qaramay, odamlarga juda ko‘p ilmlarni o‘rgatdilar, shariatni barpo etdilar, odamlarning shaxsiy va jamoat ishlarini boshqarishlari, xalqqa qo‘llagan siyosatlari, betakror xulq-atvorlari va ajoyib turmush tarzları u kishi aql-zakovatda komil, idroklari teran zot ekanliklarini isbotlab turibdi. Payg‘ambar alayhissalom namoz o‘qiyotganlarida orqadagi narsalarni ham xuddi oldilaridagidek aniq-tiniq ko‘rardilar. Alloh taoloning Shuarо surasidagi: “Alloh namozga turgan paytingizdagи harakatlaringizni ham ko‘rib turadi”, degan 219-oyati bevosita yuqoridagi fikrlarning tasdig‘idir.

Payg‘ambar alayhissalomning nutqlari benihoya fasohatli va chuqur ma’noli edi. Gaplari sun’iylikdan holi, ravon, jumlalari lo‘nda, qisqa, tushunarli, fikrlari aniq, mazmunli, takallufsiz va chuqur ma’noli edi. U kishi arab tilining lahjalarini, hikmatli so‘zlarini ko‘p bilardilar. Har bir xalqqa ularning o‘z tili, shevasi va uslubida fasohatiga yarasha gapirar edilar. Ko‘pgina sahabalar so‘zlarning ma’nosini aytib berishni Payg‘ambar alayhissalomdan iltimos qilishardi. Rasulullohning hadislari va tarixlari bilan tanishgan odam bu narsani, ayniqsa, yaxshi his etadi. Payg‘ambar alayhissalomning Quraysh xalqiga, Hazri Mavj va Yaman podsholariga hamda Najdning oqsoqollariga aytgan gaplari bir-biridan keskin farq qiladi. U kishi biron qabila bilan gaplashganlarida ular yoqtiradigan iboralarni ishlatar, yerlik odamlarga

xush keladigan uslubda so‘zlashar edilar. Sarvari olam mana shu tarzda Islom dinining ta’limotlarini odamlarga yetkazar, Qur’on oyatlarini, shariat ahkomlarini har bir kishining didi, saviyasiga moslab tushuntirar edilar.

Inson hayotiga zarur hisoblangan ayrim narsalarning oz bo‘lishi fazilatdir. Masalan: ovqat bilan uyquning kami shu jumлага kiradi. Odamlar azalu azaldan me’yorida ovqatlanish bilan kam uplashni maqtab, ko‘p yeyish bilan ko‘p uplashni ayplashgan. Ko‘p yeyish, ko‘p ichish ochko‘zlik, harislik, shahvatparastlik nishonasidir. Ko‘p yeyish va ko‘p uplash bu dunyoda ham, u dunyoda ham zarar, koni ziyon, turli kasalliklarni keltirib chiqaradi, aqlni zaiflashtirib, xomush qilib qo‘yadi; oz yeyish esa qanoatning, nafsni jilovlay bilishning, shahvatni o‘ldirishning nishonasidir, badanni sog‘lomlashtirib, zehnni o‘tkirlashtiradi; ko‘p uplash kishini lanj, zaif, xomush, yalqov qilib qo‘yadi, inson umrini zoye ketgizadi, diydasini qotiradi, g‘aflatda qoldirib, dilini o‘ldiradi. Payg‘ambar alayhissalom oz yeb, kam uxlaganlar. Shu bois u kishi doim oz yeyishni targ‘ib etganlar: “Odam bolasi qorin degan rasvo idishni to‘ldirolgani yo‘q. To‘yish uchun bir necha luqma kifoya, yeyish zarur bo‘lganda u oshqozonning uchdan birini ovqat uchun, uchdan birini suv uchun, uchdan birini nafsi uchun ajratib qo‘ysin” deganlar. Ko‘p yeyish bilan ko‘p ichish ko‘p uplashga sabab bo‘ladi.

Muhammad alayhissalomning qadr-qimmatlari balandligi va Alloh taolo u kishini payg‘ambarlikka tanlagani bu dunyoda erishgan eng yuqori martabalaridir. Oxiratda esa Rasululloh bani Inson sayyididurlar.

Payg‘ambar alayhissalomning muloyimligi, bag‘rikengligi, o‘ch olishga qodir bo‘la turib avf etishlari, boshlariga musibat tushganda, chidam bilan yengishlari, sabrliliklari hammamiz uchun ibratdir. Alloh taolo o‘z kalomida Payg‘ambar alayhissalomga: “Afvni do‘s tutgin, amri ma’ruf qilgin va nodonlar bilan teng bo‘lماn”， deydi.

Payg‘ambar alayhissalom o‘ta vazmin, xushaxloq, ko‘pincha yuкинан kuyi sukut saqlardilar, faqat lozim bo‘lgandagina gapirardilar. U kishining gaplari ayni vaqtida aytilib, yurakka em bo‘lardi. Behuda chakak uradiganlarning gapiga qulog solmasdilar, qah-qah otmasdan faqat tabassum bilan kulardilar, sahabalar ham u kishiga hurmatan va taqlidan tabassum bilan kifoyalanishar edi. Rasulullohning suhbatlari shirin, hayoli,

dilni yayratadigan va amin kayfiyatda o'tardi. U Kishi bor davrada hech qachon shovqin-suron, xunuk gap eshitilmasdi. Sarvari olam gapirayotganlarida suhbatdoshlari xuddi boshlariga xumo qushi qo'ngandek qilt etmay tinglashardi.

2. Alloh taolo ruxsat etgan narsalar shariatda "halol" deyiladi. Mo'min-musulmonlarga halol rizq topish, halol kasb bilan ro'zg'or tebratish, halol taom-ichimliklarni iste'mol qilish buyurilgan. Shariatimizda ijozat etilgan hamma narsa, yeylimadigan taomlar yoki qilinadlgan ishlar halol sanaladi. Alloh taolo halol qilgan narsalar inson uchun moddiy va ma'naviy foydalardan holi emas.

Alloh taolo man qilgan narsalar va ishlar shariatda harom hisoblanadi. Harom ishga o'tish yoki harom taom yeish og'ir gunoh sanaladi. (Ba'zan zarurat tufayli harom halolga aylanishi ham mumkin, masalan, ochdan o'layotgan odam zarur miqdorda harom iste'mol qilishi, dushmanga nisbatan yolg'on ishlatish mumkinligi kabilar). Harom ish va narsalar sanoqlidir. Quyida ulardan ayrimlarini keltiramiz: to'ng'iz, vahshiy hayvonlar, o'zi o'lib qolgan halol hayvonlarning go'shtlari, so'yganda chiqqan qon, "Bismillah"siz so'yilgan halol hayvonlarning go'shti, dinsiz (majusiy)lar so'ygan hayvon go'shti, mast qiluvchi ichimlik va giyohvand moddalarning barcha turlari, erkaklarga ipak va tilla ishlatish, ayollarga erkakcha kiyinish, tilla-kumush idishda ovqat yeish, zinokorlik, sudxo'rlik, o'g'rilik, qaroqchilik, g'iybat, tuhmat, bo'hton, yolg'onchilik kabi narsalar musulmonlarga harom qilingan.

Yaratganning bandasiga in'om etgan go'zal va buyuk ma'naviy in'omlaridan biri husni xulq, ya'ni, go'zal fazilatdir.

Husni xulq - bu inson ichki dunyosini va ruhiy olamini go'zallashtiribgina qolmay, uning fe'l atvorida ham namoyon bo'ladigan go'zal fazilatdir. Shu bilan birga husni xalq degan so'z ham borki, bu kishining tashqi go'zalligini ifoda etadi. Husni xulqsiz husni xalq nisbiy go'zallikdir. Inson tabiatidagi xulqlar ikki xil bo'lib - ular axloqi hamida va axloqi zamima deb nomlanadi. Bu so'zlar xalqimiz orasida axloqi hamidani husni xulq, go'zal axloq, xush xulq deb izohlansa axloqi zamimani esa bad axloq, xulqi buzuq kabi atamalar bilan talqin qilinadi.

Xulq inson tabiatida mutlaq sobit turuvchi, o'zgartirib bo'lmaydigan atvor emas. Kishi o'z tabiatida mavjud bo'lgan husni xulqni davomiy sayqallashi, mavjud

bo‘lmanini esa hosil qilmoqlik uchun astoydil urinmog‘i lozim bo‘ladi. Ulamolar bunga misol tariqasida Rasulimiz Muhammad (s.a.v.)ning o‘z ashoblariga (r.a) xulqlarini go‘zallashtirishga amr qilishlari va badaxloqlikdan ogohlantirishlarini, hatto o‘zlariga Alloh tomonidan buyuk xulq sohibi ekanliklari vahiy orqali e’lon qilingan bo‘lsa-da Allohdan doimo xulqlarini yanada go‘zal qilishligini va nomaqbul xulqlardan asrashini so‘rab, duo qilganliklarini hadisi shariflar orqali bayon qiladilar. Zero, Islom dinining asl maqsadlaridan biri Rasululloh (s.a.v.)ning zimmalaridagi risolat burchi ham solih axloqlarni batamom mukammal etish ekani Rasululloh (s.a.v.) ning muborak tillaridan bayon qilingan haqiqatdir.

Yaxshi xulq mo‘minning dunyosini ham oxiratini ham obod qiladigan omildir. Xushxulq kishi jamiyatning qaysi jabhasida bo‘lsa ham u ota yoki ona, farzand yoki nabira, ustoz yoki shogird, amaldor yoki xodim - barchaga mahbub bo‘ladi, do‘st-u yaqinlari unga xayri xoh bo‘lib va qadrdonlarining safi ko‘payadi. Badaxloq kishi ma’nан qashshoqdirki, undan barcha o‘zini uzoq olmoqqa harakat qiladi, nafratlanadi.

Mo‘min kishi o‘zida axloqi hamidalarni kashf etmoq va sayqallamoqni istasa Rasululloh (s.a.v.)ning xulqlari bilan xulqlanishga harakat qilmog‘i lozimdir. Rasululloh (s.a.v.)ning xulqlari Qur’oniyyidir. Qur’on esa buyuk xulq egasi Allohnинг go‘zal xulqlariga targ‘ib qiladigan buyuk kitobdir. Demak, Islom dini go‘zal axloqlar dinidir.

Hozirgi kunimizda jamiyat oldidagi komil inson tarbiyasidek muhim vazifa turgan bir pallada “Zamonaviy demokratiya erkinliklari” niqobi ostida “Ommaviy madaniyat” deb nomlanuvchi mafkuraviy, axloqiy buzuqlikni targ‘ib qiluvchi, milliy-ma’naviy madaniyatimiz o‘q tomiriga halokat zARBASINI berishni o‘zining oliy maqsadi qilib olgan illatning shiddat bilan kirib kelayotgani kishini dahshatga soladi. Hech qaysi samoviy din insoniyatga ravo ko‘rmaydigan axloqsiz omillarni o‘zida mujassam etgan bu ofat ayniqlsa, yoshlar ongini o‘z iskanjasiga olish uchun turli vositalarni - jumladan; behayo seriallar, multfilmlar, internet tarmog‘idagi ko‘plab saytlarga joylashtirilgan hayosiz filmlar, suratlar, maqolalar va shu kabilarni ishga solmoqda. Demak, axloqsizlik din va millatlarning ayovsiz dushmani bo‘lib, komil inson tarbiyasiga qarshi qaratilgan yovuz kuchdir.

Aslida kishining "ommaviy madaniyat"dan olinadigan "yaxshi g'oya" va mafkuralarga qarshi immuniteti bo'lmog'i shart! Bu go'zal axloqdir! Kishi qachon komillikka erishadi? - Iymoni komil bo'lsa! Iymon qachon komil bo'ladi? - Xulq go'zal bo'lsa!

Iroda - odamning o'z faoliyati va psixik jarayonlarini o'zi boshqarishda namoyon bo'ladigan qobiliyati. Inson iroda viy harakatini amalga oshirar-kan, o'ziga xukmron ehtiyoj va xohishlariga qarshi turadi: iroda uchun "men xohlayman" degan kechinma emas, balki "kerak", "bajarishim shart" degan kechinma xosdir.

Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi. Iroda mehnatda paydo bo'ladi va toblanadi. Irodaning ongdagi faoliyati harakat maqsadini belgilashda, maqsadga erishish vositalari va yo'l-yo'riqlarini oldindan aniqlab, ma'lum qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo'ladi. Odamda irodaning qay darajada ekanligi maqsadni qanday ro'yobga chiqarishida ko'rindi. Iroda viy harakat jarayonlarida kishi ichki va tashqi to'siqlarga duch keladi. Ichki to'siqlar kishining o'ziga, uning ichki mayllariga xos holat. Kishining ichki mayllarini yenga olish, o'zini boshqarish va o'z ustidan hukmronlik qila bilish layoqati ichki iroda deb ataladi. Tashqi to'siklar tevarak-atrofdagi voqelikda uchraydi. Kishining ana shunday tashqi to'siqlarni yenga olish layoqati tashqi iroda deb ataladi. Irodaviy faoliyatda tashqi to'siqlarni yengish (tashqi iroda) ichki to'siqlar (ichki iroda) ni yengish bilan uzviy bog'liq.

Muhim sifatlar: o'zini tuta bilish, dadillik, qat'iylik, chidam va toqat, prinsipiallik, mustaqillik va boshqalar iroda kuchi shu sifatlarning qay darajada namoyon bo'lishiga qarab belgilanadi. Kishi yuksak g'oyalarga asoslangan ongi, qat'iyat va sabot bilan o'z harakati yo'lidagi to'siqlarni yengar ekan, u kuchli iroda egasi hisoblanadi. Iroda kishining xarakteri bilan uzviy bog'liq, uning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Iffat deb nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytildi. Bizlarni gunoh va ma'siyatdan saqlaguvchi, harom-harishdan nafsimizni asraguvchi faqat iffatimizdir. Axloq sohibi, iffat egasi qalbini, vijdonini poklab, tilini yolg'on, g'iybat, bo'hton kabi yomon so'zlardan saqlar. Chunki insonga ko'proq til iffati lozimdir.

“Boshimizga keladurgan kulfat va zahmatlarning aksari yomon tilimizdan, andozadan ortuq so‘ylaganimizdan kelur.

“*O ‘ylamay so ‘ylagan og ‘rimay o ‘lar,*

*Fikr ila soylagan yig ‘lamay kular*”.

“Iffat erlardan ko‘proq xotunlar uchun olmosdan qimmat, injudan qadrli ziynat va fazilatdur. Iffatli kishi har vaqt nazari ibrat ila harakat qilur. Kecha va kunduz fikri, zikri vatandoshlariga, qarindoshlariga yaxshilik, xayrixohlikdan iborat bo‘lur. So‘zida, fe’lida sodiq bo‘lub, vijdonga ters, insoniyatga kelishmagan muomaladan hazar qilur. Hazrati Ali raziallohu anhu: “Iffat xotunlarning eng ziynatli libosi, erlearning sarmoyayi ulviyatidur”, – demishlar.

Hazrati Luqmon: “Iffat nomusning eng mahkam suyanchig‘idur. Nafsning hujumiga shul quvvat ila muqobala qilinur”, – demishlar.

Aflatun hakim: “Iffat xotundan ko‘proq erlarga yarashadurgan bir sifatdurdur. Xotun iffati adab va nomusini saqlovdurdur. Erlarning iffati butun insoniyat adablariga shomildur. Iffatsiz inson yalang‘och jasad kabidur”, – demishlar.

*Zotingga ziynat o ‘lan iffatni dilda saqlagil,*

*Shahvat nafsing seni bolg ‘usidur aqlingga ‘a qul.*

*Har kishining dunyoda yirtilsa iffat pardasi,*

*Nafsi shaytondek ani bir kun solur bo ‘yniga g ‘ul”.*

Abdulla AVLONIYning “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobidan.

Halimlik – muloyimlik. Azal-azaldan ajdodlarimiz go‘zal muomala bilan tanilganlar. Ota-onaga munosabat, do‘stlik, aka-ukalik va birodarchilik, qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari va shularga o‘xhash odatlar xalqimiz orasida juda go‘zal tarzda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu millatimiz yuksak ma’naviyat va madaniyatiga ega ekaniga dalolat qiladi.

Millatimiz tarixida o‘tgan yaxshi-yomon kunlar, boshiga tushgan turli mustamlakalar tufayli har xil musibat-u, mashaqqatlar va ularga nisbatan ajdodlarimizning munosabatlari – ularning teran fikrlari, aql zakovatli va muloyim xulq sohibi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Muqaddas dinimizni qabul qilgandan so‘ng ajdodlarimiz bu dinning butun mazmun - mohiyatini o‘zlariga to‘laligicha singdirdilar va shu sababli bizlarga go‘zal va nihoyatda jozibador urf-odatlar qoldirdilar. Bu urf-odatlarni chuqurroq o‘ylab, bular ustida teranroq fikr yuritgan inson, ota- bobolarimiz naqadar haqsevar va xalqsevar bo‘lganliklari, haqni faqatgina nazariy ravishda qabul qilish bilan cheklanmasdan, uni hayotlariga doimo amalda qo‘llab, odatga aylantirganliklari va bu bilan kelasi avlodlarga ham yetib borishini ta’minlaganliklarini guvohi bo‘ladi. Millatimiz urf - odatiga aylangan ota-onaga har qanday holda ham yaxshilik qilish, qo‘ni-qo‘shni va birodarlar bilan ularning injiqliklariga qaramasdan ularga yaxshi muomalada bo‘lish va shularga o‘xhash xislatlar asosan xalqimiz qon qoniga singib ketgan halimlik-muloyimlik sifati bilan chambarchas bog’liqdir. Ha, ular aynan halimliklari tufayli kuchli edilar, muloyimliklari sababli adolatli, hamda ahil-inoq edilar. Ajdodlarimiz shu halimliklari tufayli dunyoga rahbar bo‘ldilar, ilm-u fanda yetakchi va sarbonga aylandilar. Zero, halimlik-ilmnning vaziridir, muloyimlik-uning otasi.

Riyo. Alloh taolo munofiqlar haqida xabar bera turib: «Insonlarga riyo qiladilar», deydi. Ya’ni, ularning namoz o‘qishdan ko‘zlagan maqsadlari - Allohnинг yuzi emas, balki odamlar ko‘rib, eshitishlari - xo‘jako‘rsin uchundir. «Albatta, munofiqlar Allohnи aldamoqchi bo‘ladilar. - Holbuki, Alloh ularni «aldab» qo‘yguvchidir. Va ular qachon namozga tursalar, dangasalik bilan, odamlar ko‘rsin, deb turadilar va Allohnи kamdan-kam eslaydilar» (Niso surasi, 142).

Namozlariga beparvo, yengiltaklik qilib uni o‘z vaqtidan kechiktirib o‘qiydigan kimsalarga halokat, azob bo‘lsin. «... ular riyokorlik qiladigan kimsalardir». Ular odamlar ko‘z o‘ngida «solih» deb aytishlari uchun namoz o‘qiydilar, «taqvodor» deb nom qozonish uchun xushu‘li va huzu‘li bo‘lib ko‘rinadilar va «saxiy» degan nom olish uchun ehson-sadaqa qiladilar. Ularning har bir amallari riyo va nom qozonish uchundir.

Munofiqlik - so‘zi bilan ishi bir-biriga to‘g‘ri kelmaslik, nosamimiylilik, ikkiyuzlamachilikni, so‘zidan qaytishni ifodalovchi salbiy axloqiy sifat. Halollik, to‘g‘rilik, samimiylilik tushunchalariga zid. Qur’onda tilida imon keltirib, dilida kofir bo‘lib qolgan kishilarning munofiq ekanliklari ta’kidlanadi.

Munofiqlar haqida eshitganmiz. Ular qanday odamlar bo‘ladi? Munofiqlarni boshqalardan ajratuvchi belgilar bormi? Bu haqda ta’lim berar ekanlar, Payg‘ambarimizdan (s.a.v) quyidagi hadis keltiriladi.

“Munofiq odamning alomatlari uchtadir:

1. Qachon gapirsa, yolg‘on gapiradi;
2. Qachon va'da bersa, va'dasini ustidan chiqmaydi (ya'ni, va'daga vafo qilmaydi);
3. Unga biror bir narsa omonat qilinsa, omonatga xiyonat qiladi (ya'ni, biror bir narsani omonat qilib berilsa, uni o‘z egasiga qaytarib bermaydi)”.

Ko‘rinib turibdiki, munofiqning uch alomati bor ekan. Odamlar bilan suhbatlashganda, biror bir xabarni yetkazganida yolg‘on gapiradi. Buni, albatta, o‘z manfaati uchun qiladi. Ikkinchchi belgisi, va'da bersa, uning ustidan chiqmaydi. Bu bilan mas’uliyatni his etmaydi, o‘zida beburdlik illatini shakllantiradi va o‘zgalarni hurmat qilmaydi. Uchinchi belgi – omonatga xiyonat qilish, ya'ni birovning haqiga xiyonat qilishidir. Bu bilan o‘ziga nisbatan boshqalar ishonchini yo‘qotadi.

Bir so‘z bilan aytganda, munofiq – tuslanuvchi, ikkiyuzlamachi odamdir. U o‘zgalar ko‘z oldida Allohga ishonuvchi, uning aytganlarini qiluvchi mo‘min-musulmon bo‘lib ko‘rinadi, ammo qalban bu narsalarni tasdiqlamaydi, gunoh ishlarda davom etaveradi.

3. Xudo har bir insonga uning bo‘yin tomiridan ham yaqin deyilgan. Xuddi shuningdek, Allohnинг kalomi ham har bir insonga shunday yaqin. Xudoning o‘zi mehr bilan yaratgan va tarbiyalagan Insonga yetkazgan So‘zlari - pandu nasihatlari, yashamoq yo‘l-yo‘riqlari, tartib-intizomlari, man etganlari hamda buyurganlari, iroda etmish barcha hukmlarini inson qanchalar teran tushunib, anglab yetsa, ular haqida butun aqlining kuchini ishlatib o‘ylasa, fikr yuritsa, o‘z hayotini hidoyat asosiga qursa, Alloh bilan Inson o‘rtasida yaqinlik hamda Kalom bilan Inson o‘rtasida yaqinlik shunchalar ortib boradi.

Qanchadan-qancha odamzod qavmlari qabohat chohiga botib ketdi. Yer yuzi sayyora miqyosida ne-ne to‘fonlar, zilzilalar, mangu sovuq, mangu issiqlar girdobida qayta-qayta bino bo‘ldi. Keyingi zamonalardagi Birinchi va Ikkinchchi jahon urushi qirg‘inlari, tirik jonzotlar uzra yadro qurollarining portlatilishi, ularning yerni mahv

etish maqsadida tinimsiz sinab ko‘rilishi, din niqobi ostida yovuz tajovuzlarning avj olishi - bular bari Oxirzamon nishonalaridir. Yer kurrasini Shimoliy va Janubiy Qutblarning tarang muzliklari mustahkam tutib turadi. Endilikda ayrim buyuk davlatlar shu ikki Qutb tagidagi boyliklarning zahiralarini talash va birdan-bir makonimiz bo‘lmish sayyoramizni tuxum po‘chog‘idek qilib qo‘yish rejalarini tuzib, bir-birlari bilan kon, joy talashmoqda. Sayyoramizni bunday talon-taroj qilishga urinishlar - og‘ir zamonalarning nishonalaridir. O‘z-o‘zidan Qiyomat hech qachon bo‘Imagay. U faqat razolat so‘ng nuqtaga ko‘tarilgandagina va Inson shu go‘zal sayyorada umrguzarlik qilishga noloyiq, nobop bo‘lib qolgan oxirgi palladagina ro‘y beradi. Qur’onning har bir oyati shundan darak beradi va ogohlantiradi. Umid shundaki, bunday razolatlardan saqlanish va o‘zni tiyish odamlar va ularning hozirgi zamon jamiyatlarining o‘z qo‘lida, irodasida. Alloh buning ibratlari va saboqlarini Mehribonlik kitobi bo‘lmish Qur’onda ta’sirli qissalar, ibratli masalalar, Inson aqlini quvvatlantiruvchi hikmatlar va mav’izalarda Rahm qudrati bilan aytib o‘tadi

“Ilmi zohir – tashqi ilm. Ilmi botin – ichki ilm. Qalb bilan, his bilan bo‘ladigan ilm. Shariat ba’zi amallarni qilishga buyurgan, ba’zi ishlarni qilmaslikka buyurgan. Shariat buyurgan ishlarga ma’murot – buyruqlar; qaytargan ishlarga manhiyot - qaytariqlar deyiladi.

Namoz o‘qing - bu zohirga taalluqli.

Ro‘za tuting - zohirga tegishli.

Haj qiling - zohirga taalluqli.

Zakot bering - zohirga taalluqli.

Qurbanlik so‘ying - zohirga taalluqli.

Va yana ba’zi amallar botinga taalluqli bo‘ladi:

Masalan, Alloh Ta’olo:

Tavakkul qiling, deb buyuradi. Tavakkul botinga taalluqlidir.

Sabr qiling - botinga taalluqli.

Shukr qiling - botinga taalluqli amal.

Chunki bu amallar bandaga ko‘rinmaydi. Bular botiniy kayfiyat-holatning nomi.

Manhiyot - qaytarilgan amallar ham xuddi shunday ikkiga bo‘linadi. Ba’zisi zohirga, ba’zisi botinga taalluqli. Masalan, shariatda buyurilgan:  
O‘g‘rilik qilmang, sharob ichmang, odam o‘ldirmang, zino qilmang!

Bular zohirga ta’alluqli manhiyot amallar bo‘lib shariat bu amallardan qaytargan. Va yana ba’zi qaytariqlar botinga ta’alluqli bo‘ladi. Masalan, “Hasad qilmang!” - deyilgan. Endi aytingchi, hasad ko‘zga ko‘rinadimi? Yo‘q, ko‘rinmaydi. Kimning qalbida nima borligini Alloh biladi.

Qalbda gina saqlamang, deyilgan. Kim bilsin kimning qalbi kiyna - kuduratga to‘lib toshgan. Qalbda biror kishiga nisbatan kek saqlashni islomda kiyna deyiladi va yana takabburlikdan saqlaning, deyilgan. Bu bemorlik ham ko‘rinmaydigan amallardan. Bularning barchasi shariat man’ qilgan botiniy gunohlardan.

Zohirga taalluqli butun ma’murot va manhiyot ilmini islomda fiqh deyiladi. Bu “fiqhuz-zohir”dir. Botinga taalluqli bo‘lgan butun ma’murot va manhiyot ilmini tasavvuf deyiladi”. Shayx Zulfiqor Ahmad Naqshbandiyining “Xutaboti Faqiyr” kitobidan. 22-jild.)

Dil – qulf, til – kalit.

Ko‘ngil qulfiga mosu xos ochqich bu so‘zingiz, nutqingizdir. U qanday bo‘lishi kerak? Buning uchun esa muomala madaniyatining ikkinchi muhim jihatiga e’tiborni qaratish zarur.

Alisher Navoiyning “ko‘ngil xazinasin qulfi til, kaliti so‘z”, deganlarida, muomala tilsimotiga ishora qilganlarini ilg‘ab olish qiyin emas. Qolaversa, til muomala odobining avvali ekanini Mahmud Qoshg‘ariy “Ardam (odob) boshi – til” deya e’tirof etgan. “Kishi so‘zlashu, yilqi yizlashu” deganida ham kishilar bir-birlarini so‘zlashib bilib olganlaridek, hayvonlar hidlashib bilishadi degan fikrni qayd etadi. Bularning barchasi muloqot jarayonida so‘zga, nutqqa ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish zaruratinini anglatadi.

Tilning boyligi, go‘zalligi, nafosati ham undagi so‘zlarning soni va jilosi bilan bog‘liq. Uning boqiyligi esa undan foydalanuvchi millatning ma’naviyati va istiqboliga tegishli. Ta’bir joiz bo‘lsa, deylik siz me’morsiz. O‘z zahirangizda mavjud bo‘lgan so‘zlardan foydalanib, fikr etkazasiz va qabul qilasiz. Boshqacha aytganda, tafakkur

imoratini bunyod etasiz. Shunday ekan, so‘z ana shu imoratga qo‘yilgan g‘ishtdir. G‘ishtning tarkibi qum, loy kabi jinslardan iborat bo‘lgani kabi so‘zning tarkibi ham tovush, fonemalardan iborat.

G‘isht jips holda o‘z o‘rniga hafsalal bilan terilsa, imorat pishiq, mustahkam bo‘ladi. Shunday ekan, har bir so‘zning o‘z o‘rni, hajmi, o‘lchovi, ko‘rinishi, vazni, tarovati, hidi bor. Uni didi bor, nozikta’b tafakkur sohiblari anglashadi, amalda qo‘llay olishadi. So‘z sahovati va latofatini idrok etgan adiblarimiz buning qudratidan foydalangan holda nasru nazm durdonalarini yaratishgan. Tilda yuz minglab so‘z bo‘lsa ham, ularning moddiy asosini bir necha o‘nlab tovushlar tashkil qilishi haqida fikr yurita turib, muqtadir olim Alibek Rustamiy shunday yozadi: «... o‘zbek adabiy tilida 31 tovush bor. Shevadagilarni qo‘shsak, 40 dan oshmaydi. Shu qadar ozgina tovushdan milliondan ortiq so‘z yasalgan».

To‘g‘ri ta’kidlanganidek, gap so‘zning soni yoki sifatida emas, balki ularni bilish va o‘z o‘rnida qo‘llay olishdadir. Demak, so‘z – ne’mat, so‘z – rag‘bat, so‘z – tashviq, so‘z – da’vat, so‘z – davlat, so‘z – savlat, so‘z – hikmat, so‘z – himmat, so‘z – hurmat, so‘z – rahmat, so‘z – zahmat, so‘z – fazilat, so‘z – illat, so‘z – tuzuvchi, so‘z – buzuvchi, so‘z – ilm, so‘z – tilsim, so‘z – bilim, so‘z – zulm, so‘z – saboq, so‘z – tayoq, so‘z – havas, so‘z – hasad, so‘z – g‘urbat, so‘z – g‘iybat, so‘z – do‘st, so‘z – dushman, so‘z – sharofat, so‘z – ofat, so‘z – olqish, so‘z – qarg‘ish, so‘z – mehr, so‘z – qahr ... xullas, so‘z – hamma narsa. Faqat uni qachon, qayerda, qanday qilib qo‘llash so‘zlovchiga bog‘liq. Bu esa so‘zlovchining ongu shuuriga, aqlu idrokiga, fahmu farosatiga daxldordir.

Demak, til, nutq odobi inson ma’naviyati va kamolotida etakchi mezon ekanini Yusuf Xos Hojibning «So‘zning o‘rni – sir» degan fikridan ham uqish mumkin. So‘zning sir-sinoatlarini idrok etib, o‘rnini topa olgan zukko suxanvarlargina so‘zning sahovatlaridan bahramand bo‘la oladi, o‘zgalarni ham bahramand qila oladi.

Hasad – fe’l-atvorning o‘ta yomon xususiyatlaridan biri, hasad -bu nuqson, hasad baxt ulashmaydi. Hammamiz shu kabi gaplarni ko‘p eshitganmiz va ularni inkor qilib bo‘lmaydi! Ammo hasad bilan kurashish juda murakkab jarayon. O‘zimizni

hasadgo‘ylik uchun qanchalar koyisak, undan qutulishga harakat qilsak-da, u shunchalar kuchayib boraveradi.

Gohida hamma narsaga qo‘l siltab o‘z kuchsizligingni tan olging keladi kishi. Kimdir sendan muvaffaqiyatliroqligi tufayli “adolat” uchun jazo olishi kerakdek tuyulaveradi. Biroq, sxoshmang! Balki hasad bilan kurashishning hatto hayolingizga ham kelmagan yanada yaxshiroq usuli bordir, axir?

Bir dehqonning yakkayu yagona kurkasini tulki bo‘g’izlab ketibdi-yu, o‘sha kurkadan sahar tongda tuqqan faqat bir dona tuxumgina qolibdi. Buni eshitgan qo‘shnisi tuxum behudaga nobud bo‘lmasin, deb dehqondan yaxshigina pul evaziga sotib olmoqchi bo‘libdi. Uning kurk-tovug’i aynan o‘sha paytda tuxum bosib o‘tirgan ekan. Dehqon rosa o‘ylab ko‘rib ertasi kuni qo‘shnisiga tuxumni sotibdi. Tez kunlarda tuxumlardan jo‘jalar ochilib chiqibdi, ammo kurkaning jo‘jası ochilmay qolibdi. Chunki qo‘shnisiga berishdan oldin haligi dehqon uni qaynatib chiqqan ekan.

Avvalo gapni shundan boshlaylikki – o‘z hasadgo‘yligini tan olish undan qutulish yo‘lidagi muvaffaqiyatning yarmi. Shunday odamlar borki, o‘zida hasad borligini tan olishga qodir emas. G’iybat va fisq-fasod gaplar – hasadning shakllaridan biri. "Hech kim o‘lik itni urmaydi". Deyl Karnegi bu gaplarni aytganida mutlaqo haq edi: agar ijobiy yoki salbiy jihatidan qat’iy nazar kimdir muhokama qilinsa, demak, u noshud odam emas. Uni pastga urib, xunuk qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lsalar, demak u nimagadir bo‘lsa ham ega, kim uchundir uning zaminida o‘zining hamda boshqalarning ko‘zida afzalroq bo‘lib ko‘rinish kerak bo‘lib qolgan.

Bunga sabab o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, o‘zining zaifligiga, jozibasizligiga, omadsizligiga va hokazo kabilarga yopishib olganlik bo‘ladi. Xatto namoyishkorona kimgadir rahmi kelganida ham, rahmi kelgan odam uning o‘rnida bo‘lib qolishdan ongsiz ravishda qo‘rqishini “tan oladi”. Xo‘sh, nima qilmoq kerak?

Hissiyotlar va emotsiyalar bizga to‘g’ridan-to‘g’ri bo‘ysunmaydi. Salbiy hissiyotlarning mavjudligini tan olish yoki ularni inkor qilish mumkin. Qandaydir ma’lum bir paytga qadar! Har qanday emotsiya va hissiyotni tan olishdan qo‘rqib yoki ularga hayot-mamot urush e’lon qilib biz ularning vakolatini hamda mustahkam

obro’sini kuchaytirib yuboramiz, chunki hech kim qandaydir ahamiyatsiz biror narsa bilan bu darajadagi jon-jahd bilan kurashmaydi.

Emotsiyalarni inkor qilganda biz biror narsa qilish, vaziyatni o‘z foydamiz tomonga o‘zgartirish uchun ojizligimizga imzo chekkan bo‘lamiz. Hasad ikki xil bo‘ladi – qora va oq. Qora hasad kimlarnidir “asossiz” ustunliklar, vositalar, boshqa odamlarning munosabatlari va hokazolardan mahrum qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Boshqacha qilib aytganda uning maqsadi – adolat o‘rnatish. Hasad qilayotganning hisoblashicha bunga erishib bo‘lmaydi.(Aslini olganda kerak ham emas!) Shuning uchun ham omad sohibi hasad qilayotganning azoblariga teng azoblarni boshidan kechirsa adolatdan bo‘ladi. Oq hasad qandaydir va ma’lum darajada boshqa odamning xursandchiliginи hamda huzur-halovatini adolatli va asosli ekanligini tan oladi. Hech bo‘lmaganida u nimasi bilandir yoqimli ekanligi tufayli qisman o‘zining “ustunliklari”ga ega bo‘lishga balki haqlidir.

Inson qanchalar ko‘p hasad qilsa, u shunchalar o‘zining noshudligiga, boshqalarda bor narsaga hech qachon erisha olmasligiga ishonib boraveradi. Agar yaxshilab o‘ylab ko‘rsa, harbir kishida tahsinga va havas qilishga loyiq fazilatlari bor. Biroq hasad qiluvchi o‘zining kuchli tomonlarini, tashqi qiyofasi, axloqi, turmush tarzining afzalliklarini yaqindan tikilgan holda ham ko‘rmaydi. Xatto shu kabi biror narsani sezib qolgan taqdirda ham u o‘zi egalik qilayotgan narsani qadrlamaydi,chunki ularni arzimas va ahamiyatsiz deb hisoblaydi.

Do‘stlik va sadoqat tushunchalari bir-biriga ma‘nodosh va bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan so‘zlardir. To‘g‘rirog‘i, sadoqat bu – do‘stlik degani, do‘stlik esa sadoqat demakdir. Zero, arab tilidan kirib kelgan sadoqat so‘zi do‘stlik ma‘nosini ifoda qiladi. Chunki haqiqiy do‘st sadoqatli bo‘ladi. Sodiq do‘st degan so‘z ham shundan kelib chiqqan. Sadoqat - do‘stlik kishi uchun nasib qilishi mumkin bo‘lgan ne’matlarning eng yaxshilaridan biridir, deb aytsak xato qilmagan bo‘lamiz. Bu ne’matni faqat haqiqiy do‘sti bor odamgina to‘laqonli his qila oladi.

Sadoqat - do‘stlik “sidq” so‘zidan olingan. “Sidq” esa rostgo‘ylik, samimiyat va vafodorlikni anglatadi. Zero, do‘st do‘stiga nisbatan rostgo‘y, samimiy va vafodor bo‘ladi.

Do'stlik tushunchasining mazmun mohiyati haqida donishmand kishilar, olimu fozillar tomonidan ko'plab so'zlar aytilgan bo'lib, ularning ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

- Do'stlik shunday bir daraxtdirki, urug'i vafo, shohlari umid, yaproqlari saodatdir.
- Do'stlik bir shahardirki, kaliti vafo, aholisi esa vafodorlardir.
- Do'stlik usiz inson yashay olmaydigan kuch-quvvat manbaidir.
- Do'stlik ikki shaxsning go'yoki bir shaxs sifatida birlashib ketishi va yagona fikrni o'zida tashimog'idir.
- Do'stlik u orqali kishi o'z dardini chiqarib yuborib, yengil nafas oladigan bir tuynukdir.
- Do'stlik o'zga uchun o'z manfaatlarini qurbon qilish, fidokor bo'lish hamda xudbinlik illatidan ozod bo'lishdir.
- Do'stlik va sadoqat vafodorlik va fidokorlik tushunchalariga tutash bo'lgan tuyg'udir. Xiyonat unga butkul begona. Haqiqiy do'st do'stiga hech qachon xiyonatda bo'lmaydi.

Do'stning, yaqin kishining xiyonati juda og'ir va alamli bo'ladi. Uni qalbdan butkul o'chirib yuborish mushkul. Do'st tomonidan yetkazilgan kichik aziyat ham zohiran kichik bo'lib ko'ringani bilan aslida katta bo'lib, qalbda chuqur jarohat qoldiradi. Chunki, do'stdan jafoning kattasi ham, kichigi ham kutilmaydi. Nainki jafo, balki, qandaydir e'tiborsizlik, bemehrlik ham do'st bilinuvchi kishidan sodir bo'lishi ko'ngilga og'ir botadi. Donishmandlardan biri shunga ishora qilib: "dushmanlarim tosh otdi, parvo qilmadim. Do'stlarim otgan guldan boshim yorildi", degan ekan.

Demak inson o'ziga yaqin bo'lмаган, do'st hisoblamagan odamlardan yetadigan aziyatlargacha ular harchand katta va og'ir bo'lmasin, bardosh berishi mumkin. Ammo, do'st deb bilgan insondan sodir bo'ladigan kichik aziyatni o'ziga qattiq olar ekan.

Do'st, og'a - ini shunisi bilan ham do'stki, u do'stining ahvolini aytmasa ham sezadi, uning ehtiyojini o'z ehtiyojidan ustun qo'yadi. Do'stining dardi bilan o'z dardidan ko'ra ko'proq og'riydi. Uning tashvishi bilan yashaydi. Haqiqiy do'stlik quyosh botishi kabi g'oyib bo'lmaydi, qorning erishidek erib ketmaydi. U hechqachon o'lmaydi. Illo, qalbdagi muhabbat o'lsagina o'lishi mumkin. Do'stlik bu iymon alomati. U vijdonni maskan tutadi, hech qanday mezonda o'lchanmaydi. Uni moddiy qiymat bilan baholash mumkin emas.

Haqiqiy do'st biror o'tirishga kelib qolsangiz, darrov sizga joy beradi. Ko'rishganda birinchi bo'lib salom beradi. Mabodo, ishingiz tushsa quvonch va shodlik bilan hojatingizni ravo qilish yo'lida yelib-yuguradi. U o'ziga yaxshi ko'rgan narsasini sizga ham yaxshi ko'radi. Hatto sizni o'zidan ustun qo'yadi. Doim sizga yaxshilikni ravo ko'radi. Haqiqiy do'st biror moddiy yoki ma'naviy manfaatni ko'zlamagan holda sizni Alloh uchun yaxshi ko'radi. U hayotingiz to'kin-sochinligida ham, mashaqqatl paytida ham, shodlikda ham, qayg'uda ham, kengchiligu torchilikda ham yoningizda turadi. Haqiqiy do'st aybingni ko'rsa, tanholikda nasihat qiladi. Yaxshi ishingizni ustidan chiqsa, shijoatlantiradi. Ezgu ishlarni amalgalashirishingizda ko'makchi bo'ladi. Chin do'st siz haqingizda doimo yaxshi fikrda bo'ladi. Bordi-yu unga nisbatan xatolikka yo'l qo'ysangiz ham buning uchun urz topadi. Kechirib ketadi.

Ona zamin faqat ma'lum mavsumlardagina meva bersa, do'stlik mevasi har lahzada teriladi. Hakimlardan biri do'stlikni shamsiyaga (soyabon) mengzatadi. Yomg'ir kuchaygan sari soyabonga ehtiyoj ortganidek, musibat va mushkilot yomg'irlari boshingiz uzra shiddatli tus olgani sari do'stlik shamsiyasiga ham ehtiyojingiz kuchayaveradi. "Yomg'ir"dan soyabon bo'limgan do'st do'st emas. U shunchaki, tanish -bilishlardan biridir.

Haqiqiy do'st shunday kishiki, u bilan birga bo'lsangiz, xuddi yolg'iz holda bo'lganiningizdek o'zingizni betakalluf tutasiz. U qaysidir kamchililingiz tufayli sizdan yuz o'girib ketmaydi. Yig'ingiz uchun yig'laydi, shodligingiz uchun quvnaydi. Uzringizni qabul qiladi, xatoingizni kechiradi va yo'qligingizda ham sizga vafodorlikni saqlaydi, kam - ko'stingizni to'ldiradi.

Ulug'vorlik - estetika tushunchalaridan biri. Hajm va salmoq bilan bog'liq bo'lgan narsa-hodisalarning bir qarashda ilg'ab olinmaydigan botiniy jihatlarini, ulkan qudrat va miqyosga ega voqelikning estetik ko'rinishini anglatadi. U kundalik hayotda istisnoli voqelik sifatida namoyon bo'lib, odatiy voqeal-hodisalardan o'zining favquloddaligi bilan ajralib turadi. Ulug'vorlik ob'yektiv va sub'yektiv asosga ega. Yulduzli osmon, vulqon, suv toshqini, ulkan dengiz to'lqinlari kabi tabiatdagi narsa va hodisalar, fidoyilik, qahramonlik, buyuk tarixiy shaxslarning ijobiliy faoliyati kabi jamiyatdagi voqeliklar ulug'vorlikning ob'yektiv asoslari hisoblanadi. Favqulodda yoki odatiy

tasavvurlardan tashqaridagi voqeal-hodisalarini estetik idrok etayotgan inson qalbining moyilligi ulug‘vorlik ning subyektiv asosi sanaladi; ko‘pchilikni hayratga solgan voqelik ba’zilarni qayratga solmasligi va aksincha bo‘lishi ham mumkin. Ulug‘vorlik o‘zining har tomonlama ijodiy ifodasini san’atda topadi, san’atning barcha tur, xil va ko‘rinishlari uchun asosiy tasvir ob’yektlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ulug‘vorlikning san’atda namoyon bo‘lishi axloqiylik va ijtimoiylik bilan bog‘liq. Insoniyat va jamiyat taraqqiyotida ro‘y beradigan muhim voqealar, ulkan tarixiy shaxslar faoliyati, qahramonliklari, fidoyiliklari kishilarda hayrat va ularga ta(ushd qilish tuyg‘ularini uyg‘otadi. San’atdagi ulug‘vorlik badiiy mazmun va shakl vositasida ifodalanadi, bunda g‘oya hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ulug‘vorlik me’morlikda alohida ahamiyat kasb etadi. Misr ehromlari, Samarqand, Buxoro, Xiva sh.laridagi me’morlik obidalari o‘zining salobati, ulug‘vorligi bilan kishini hayratda qoldiradi. U. faqat miqyos bilan belgilanmaydi, undagi nafislik, atrof muhit bilan uzviy qo‘silib ketganlik aloxida ahamiyatga ega. Ulug‘vorlik insonni oljanoblikka, yuksaklikka, buyuklikka undaydi, tabiat hodisalarini estetik anglash va baholash imkonini beradi, shaxe, jamiyat va millat estetik tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Jinoyat - ijtimoiy xavfli qilmish. Muayyan qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasi har bir davlatda o‘zining ijtimoiy tuzumi, aholining turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odatlari, an’analari va h. k. ga muvofiq xalqaro huquq me’yorlari e’tiborga olingan holda hal etiladi. Qilmish jinoyat ekanligini aniqlash uchun quyidagi umumiy belgilar nazarga olinadi:

- 1) qilmishning ijtimoiy xavfliligi;
- 2) aybning mavjudligi;
- 3) jazoga sazovorligi.

Har qanday jinoiy qilmishda mazkur belgilarning barchasi birdaniga mavjud bo‘lishi shart, ulardan biri mavjud bo‘lmasa, qilmishni jinoyat emas, deb hisoblashga asos topiladi. Jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra:

- ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan;
- uncha og‘ir bo‘lmagan;
- og‘ir;

- o‘ta og‘ir

jinoyatlarga bo‘linadi. Jinoyatlar tajovuz obyektiga ko‘ra, shaxsga qarshi jinoyat, iqtisodiyot sohasidagi jinoyat, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyat, davlat hokimiyatiga qarshi jinoyat, ekologiya sohasidagi jinoyat, harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyat, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatga bo‘linadi. Aybning shakliga ko‘ra esa qasddan sodir etilgan jinoyat va ehtiyoitsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatga bo‘linadi. Shaxs o‘z harakati yoki harakatsizligini va bundan kelib chiqadigan jinoiy oqibatni anglagan, o‘z harakatlarini boshqara oladigan bo‘lsagina qilmishi jinoyat hisoblanadi.

Subyekt yoshiga yetmagan va aqli noraso shaxslar tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat sanalmaydi va ularga nisbatan jinoyat qonunida nazarda tutilgan majburlov choralarini qo‘llash mumkin emas. O‘zR Jinoyat Kodeksida qilmishning jinoiyligini istisno etadigan holatlarning quyidagi 6 turi belgilangan:

- 1) kam ahamiyatli qilmishlar;
- 2) zaruriy mudofaa;
- 3) oxirgi zarurat;
- 4) ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazish;
- 5) buyruq yoki boshqa vazifalarni ijro etish;
- 6) kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq asosli tavakkalchilik (36-41-moddalar).

Mazkur harakatlar tufayli kelib chiqqan oqibatlar jinoiy oqibat hisoblanmaydi, qilmish ham jinoyat sanalmaydi. Alovida olingan muayyan bir jinoyat va umuman jinoyatchilik sodir etilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillar, hodisalar, jarayonlar bo‘ladi. Jinoyat sabablari o‘rganilayotganda ana shular hisobga olinadi. Jumladan, birinchidan shaxsning o‘zi, uning dunyoqarashi, qiziqishlari, jamiyat va davlatga, yon atrofidagi kishilar va oilaga munosabati, unda salbiy sifatlarning shakllanishi va kuchayishi; ikkinchidan - shaxs tarbiyalangan, voyaga yetgan oilaviy va ijtimoiy muhit; uchinchidan jinoyat sodir etilgan vaqtdagi sharoit, vaziyatga e’tibor beriladi.

Jazo (huquqda) - huquqbazarlik sodir etishda ayblangan shaxslarga nisbatan qo‘llanadigan ma’naviy, moddiy yoki jismoniy cheklashlar bilan bog‘liq bo‘lgan majburlov chorasi. Jazo huquqiy tartibot sifatida davlat va huquq, shuningdek, bunday

huquqni qo'llash vakolati bo'lgan maxsus organlar vujudga kelgan paytdan boshlab paydo bo'lgan.

Jazo ijtimoiyadolatni tiklash, jinoyat sodir etgan shaxsni axloqan tuzatish, huquqbazarlik va jinoiy faoliyat davom etishiga to'sqinlik qilish, yangi huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Sodir etilgan huquqbazarlikning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab, jazolar intizomi, ma'muriy va jinoiy bo'lishi mumkin. Ana shu jazolardan qaysi biri qo'llanilmasin, huquq buzishda ayblanayotgan shaxsga nisbatan qonun va normativ hujjatlarda belgilangan tartibda ma'naviy, moddiy yoki jismoniy harakterdagi cheklash qo'llaniladi. Shu bilan birga huquq buzish sodir etishda foydalanilgan qurol, vosita, huquq buzish orqali qo'lga kiritilgan narsalar musodara qilinishi mumkin.

Intizomi jazo - mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har qanday yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona, muassasa, tashkilotda belgilangan ichki mehnat intizomin buzgan shaxsga nisbatan ish beruvchilar tomonidan qo'llanadigan majburlov chorasi bo'lib, xayfsan berish, jarima solish, mehnat shartnomasini bekor qilish (ishdan bo'shatish) tarzida bo'lishi mumkin. Intizomi jazo shaxslarni ishga qabul qilish huquqi berilgan shaxs (organ) tomonidan, ma'muriy jazo - ma'muriy ishlar bo'yicha tuman (shahar) sudyasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qoshidagi ma'muriy komissiyalar, voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi tuman (shahar) komissiyalar, ichki ishlar (militsiya) organlarining, davlat inspeksiyasi organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek, ma'muriy jazo qo'llash vakolati berilgan boshqa organlarning mansabdor shaxslari tomonidan, jinoiy jazo esa - davlat nomidan sud hukmi bilan beriladi.

Jinoiy jazo - jinoyat sodir etganlikda ayblangan shaxsga nisbatan davlatning majburlov chorasi. Sud hukmi bilan qo'llaniladi. Jinoiy jazoning qat'iy ro'yxati faqat jinoyat qonunida beriladi va JKda ko'rsatilmagan boshqa birorta chora jinoiy jazo chorasi hisoblanmaydi. Jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazoning turi va og'irlik darjasini sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfiliyi darajasiga bog'liqdir. Jinoiy jazoning boshqa majburlov choralaridan farqi uning davlat nomidan sud tomonidan tayinlanishi, jazolash (ma'naviy, moddiy,

jismoniy cheklash) darajasining ancha yuqori bo‘lishi, mahkumning huquq va erkinliklari qonunda belgilangan tartibda jiddiy cheklanishidadir. O‘zbekiston Respublikasining JKga ko‘ra, jinoiy jazo choralari quyidagilardan iborat: jarima, muayyan huquqdan maxrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash, qamoq, intizomiy qismga jo‘natish, ozodlikdan mahrum qilish, o‘lim jazosi, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum etish

Jazo choralari jinoyatchilikka qarshi kurashda, jamiyatni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Jazo Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normasida javobgarlik belgilangan, sodir etil-gan jinoyatning huquqqa xiloflilik belgisidir. Jinoyat va jazo tushun-chalarining o‘zaro bog‘liqliligi sodir etilgan jinoyatga nisbatan qo‘lla-niladigan qonuniylik va ayb uchun javobgarlik prinsiplarida ifodalanadi. Jazo - sud hukmi bilan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan va sudlanuvchini ozodlikdan mahrum qiluvchi yoki uning huquq va erkinliklarini cheklovchi majburlov choraside.

Qalb ko‘zi. Mavlono Jaloliddin Rumiy o‘zining «Qalb ko‘zingni och» kitobida shunday hikmatlarni so‘zlaydi:

- Ogoh bo‘lki, avliyolar zamonning Isrofillaridirlar. O‘liklar ulardan jon topadilar, tiriladilar.
- Shuning uchun yumshoqmi-qattiqmi, avliyolarning so‘zlarini tinglashdan qochma, ularga qulq os, u so‘zlar diningga quvvat bo‘ladi.
- Ularning qahrabolari bor, chiqarsalar sening somon cho‘pidek borlig‘ingni devona qiladi, o‘zlariga tortadi. Qahrabolarini yashirsalar. sen yo‘ldan ozasan. Inson martabasining ham Allohning avliyolari qo‘lida hayvondek mag‘lub bo‘lganini angla, ey yo‘qsil!
- O‘zing bilgan, necha marta lab o‘tgan yo‘lda ham yo‘lboshlovchi bo‘lmasa adashasan. O‘zingga kel! Yurmagan yo‘lingdan yolg‘iz borma, yo‘l ko‘rsatuvchidan aslo yuz o‘girma!
- Yo‘lovchilarning yo‘ldan adashganlari, yovuz ruhli shaytonning ularga nimalar qilganini “Qur’on”dan o‘qi! Ularni asosiy yo‘ldan yuz minglab yil uzoq bo‘lgan yo‘lga eltdi, falokatga yo‘liqgirdi, qip-yalang‘och qoldirdi. Ularning suyaklariga,

ulardan qolgan nishonalarga qara va ibrat ol: eshagingni ularning yo‘liga boshlama.

- Yo‘l biluvchi idrokli pir nafs quli bog‘lariga arik qazuvchidir. Irmoq o‘zini qanday poklaydi? Insonning bilimi Alloh ilmi bilan birga naf beradi. Qilich qinini kesa oladimi? Bor, bu jarohatni jarrohga ko‘rsat. Agar bu yaraga pir malham ko‘ysagina dardingdan qutulasan, faryod-u fig‘oning bitadi.
- Hazrat Payg‘ambar (s.a.v.): “Ummatlarim ichida shundaylari bor-ki, ular men bilan bir xil yaratilganlar, men bilan teng himmat sohibilar. Men ularni qaysi nur bilan ko‘rsam, ularning qalblari ham meni aynan shu nur bilan ko‘radi”, dedilar.
- Yolg‘izlikdan umidsizlikka tushgach quyoshdek bir sevgilining soyasi ostiga kir. Bor, tezda biror Alloh do‘stini qidir. Shunday kil, Alloh sening do‘sting bo‘ladi.
- Tuproqdan ham ojizmisan? Tuproq sevgilini topgach bir bahor tufayli yuz minglab gullarga yetishdi.
- Pirlar shunday kishilar-ki, hali bu dunyo yaralmaganida ham ularning jonlari karam dengizida bor edi. Bu tanga tushishdan oldin necha bor yashadilar. ekishdan oldin mevalar saraladilar.

Ushbu hikmatlardan qalb ko‘zlarimizga, ma’naviy olamimizga ozuqa olishimiz muqarrardir.

Dard – bu tojikcha ko‘pma’noli ot bo‘lib, og‘riq, kasallik, qayg‘u kabi ma’nolarni anglatadi. Bu otdan o‘zbek tilida dardlashmoq fe’li hosil qilingan, tojik tilidan shu ot bilan tuzilgan dardi bedavo izofa birikmasi ham olingan, kasallik; ozor, alam; ruhiy azob; jismoniy azob; og‘riq, kasallik: Og‘ir dard, dard ko‘rmoq; Dardni yashirsang, isitmasi oshkora qiladi; Dard chekmagan dori qadrini bilmas; Tanasi boshqa dard bilmas; Dard ko‘rma yoki qo‘ling dard ko‘rmasin kabi.

Tushkunlik - eng yomon dushman. Tushkunlikka tushmoq - tushkun holatga berilmoq. Irodali kishi hayotni hamisha to‘g‘ri tushunadi, tushkunlikka tushmaydi. Iqtisodiy tushkunlik: Boy tarixga ega bo‘lgan Vatanimiz muayyan tarixiy sabablarga ko‘ra, bir necha asr davomida tushkunlikni boshidan kechirgan.

Yolg‘izlik - bu boshqa odamlar bilan yaqin ijobiy aloqalar yo‘qligi yoki mavjud aloqani yo‘qotish qo‘rquvi tufayli yuzaga keladigan odamning o‘ziga xos

hissiy holati. Talqinlarga ko‘ra, yolg‘izlik “izolyatsiya” tushunchasi bilan sinonim bo‘lib, salbiy ma’noni anglatadi. Ammo, shunga qaramay, ba’zi hollarda yolg‘izlik ijobiy funksiyani ham bajaradi. Masalan, yolg‘izlik ilhom manbayi bo‘lib qoladigan holatlar ko‘p uchraydi, bu musiqachilar, rassomlar va yozuvchilar ijodida o‘z ifodasini topadi.

Yolg‘izlik o‘zini past baholaydigan odamlarga xosdir. Ular o‘zlarining ijtimoiy aloqalarini kengaytirishni xohlashadi, lekin o‘z-o‘ziga bo‘lgan past baho ularga buni qilishga imkon bermaydi. Natijada yolg‘izlik tuyg‘usi kuchayadi va o‘z-o‘zini hurmat qilish, aksincha yanada pasayadi, bu esa og‘ir depressiyaga olib kelishi mumkin. Ba’zi hollarda yolg‘izlik psixikadagi patologik o‘zgarishlar (shizofreniya, autizm va boshqalar) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Yolg‘izlik har bir kishi tomonidan individual ravishda boshdan kechiriladi, unga turli hodisalar sabab bo‘lishi mumkin. Yolg‘izlik hissi sizning shaxsiy tajribangizdan kelib chiqadi, masalan, boshqa odamlar bilan vaqt o‘tkaza olmaslik ta’sir qilishi mumkin. Yolg‘izlik hissiga turli omillar ta’sir qilishi mumkin:

- hayotdagi o‘zgarishlar;
- yaqinlarning etishmasligi;
- yaqinlaringizning o‘limi;
- qo‘rquv va noto‘g‘ri qarashlar;
- kasallik;
- xotira muammolari;
- yashash joyi;
- moliyaviy qiyinchiliklar va h/k.

Yolg‘iz kishilar hayotdagi o‘zgarishlarga juda individual tarzda munosabatda bo‘ladilar. Yangilik va o‘zgarish yolg‘izlikka olib kelishi mumkin. Odatiy sharoitlar bizni atrofimizdagi dunyo bilan bog‘lab turadi, ammo o‘zgarishlar begonalashish va izolyatsiya tuyg‘usini keltirib chiqarishi mumkin. Qarishning oqibatlaridan biri kamroq ijtimoiy aloqadir. Do‘stlarni yo‘qotish izolyatsiya va yolg‘izlik tuyg‘usiga olib kelishi mumkin.

Ko‘pchiligidan boshqa odamlar bilan yashashimizga qaramay, biz ko‘pincha hayotdagi quvonchimizni yo‘qotadigan yolg‘izlik tuyg‘usini boshdan kechiramiz. Yolg‘izlik qalbimizni yutib yuboradi va hayotimizni ma’nosiz qiladi, ba’zan uni qattiq azobga aylantiradi. Ehtimol, ko‘pchiligidan yolg‘iz qolish yomon, juda yomon va qayg‘uli degan fikrga qo‘shilishadi. Ayni paytda, atrofimizda juda ko‘p odamlar bor, ular hech qanday yolg‘izlik haqida gapirish mumkin emasdek tuyuladi, ammo bu shunday, ammo biz buni his qilamiz. Nega biz yolg‘izlikni his qilyapmiz va nega yolg‘izlik biz uchun juda achinarli? Va eng muhimi - yolg‘izlik bilan nima qilish kerak, undan qanday qutulish kerak?

Yolg‘izlik alohida ahamiyatga ega hissiy holat u o‘zining foydasizligini his qiladigan va o‘zini his qilmaydigan odam. Yolg‘iz odam boshqa odamlar bilan aloqaning yo‘qligi sababli o‘zini his qilishni yo‘qotadi, u bo‘shliqqa tushadi, u odam sifatida u emas. Ushbu hissiy holat odam boshqa odamlardan to‘liq e’tibor olmaydigan, o‘zini yaxshi his qilmaydigan paytlarda paydo bo‘ladi. Hissiy bog‘liqlik odamlar bilan yoki uni yo‘qotishdan qo‘rqadi. Bundan tashqari, uning atrofida ko‘plab odamlar bo‘lishi mumkin va ular hatto u bilan muloqot qilishlari mumkin. Hamma narsa ushbu muloqot shakli haqida - odam shunchaki tinglamasligi, eshitmasligi va tushunmasligi mumkin. Ko‘pincha, odamlar bilan muloqot qilishda, ular bizni shunchaki eshitmaydilar, shuning uchun tushunmaydilar, shuning uchun biz yolg‘izlikni his qila boshlaymiz. Ma'lum bo‘lishicha, odamlar bilan muloqot biz bilan sodir bo‘ladigandek tuyuladi, ammo bu unchalik foydasiz bo‘lgan devor bilan muloqotga o‘xshaydi. Shunday qilib, yolg‘izlikni his qilish uchun cho‘l orolida yashash va jamiyatdan ajralib qolish umuman shart emas, siz juda ko‘p odamlarning qurshovida bo‘lishingiz mumkin, nafaqat his qilishingiz, balki haqiqatan ham yolg‘iz odam bo‘lishingiz mumkin - agar hamma sizga g‘amxo‘rlik qilmasa.

Psixologiyada yolg‘izlik jismoniy yoki hissiy izolyatsiyani to‘liq yoki qisman olib kelishi mumkin bo‘lgan psixogen omil hisoblanadi. Yolg‘iz odamlar tashvishlanish holatlarini boshdan kechirishlari mumkin: depressiya, befarqlik, kuchlanish, vegetativ funktsiya buzilishi.

Har bir inson uchun yolg'izlikning o'ziga xos tushunchasi bor. Ba'zilar uchun yolg'izlik - bu boshqa jins bilan aloqa qilishning qiyinligi. Boshqalar uchun bu yaqinlaringiz tomonidan tushunmovchilik. Kimdir ataylab o'zini qidirish uchun o'zini jamiyatdan ajratishga urinadi.

Ba'zi odamlar boshqa odamlar bilan doimiy va mo'l-ko'l muloqotga muhtoj emaslar, ular to'liq munosabatda bo'lishlari mumkin ichki dialog o'zлari bilan ular aks ettirishlari, kitoblarni o'qishlari, o'zлari yaxshi ko'rgan narsalarni qilishlari mumkin va ular juda qulay bo'ladi. Bunday odamlar uchun yolg'izlik jazo emas, balki inoyatdir, ammo me'yorida, chunki yuqorida aytib o'tilganidek, hammamiz odamlar bilan aloqalarga va ularning bizga e'tiboriga muhtojmiz. Ammo ma'lum darajada hammamiz yolg'izlikka muhtojmiz, shu sababli biz tashqi dunyodan o'zimizni berkitmasligimiz kerak, aks holda biz eskirgan, yolg'iz, o'zimizga yopiq odamlar bo'lib qolamiz. Va bu bizga hech qanday foyda keltirmaydi. Shuning uchun odamlar bilan muloqotni o'zingiz bilan muloqot bilan almashtirishga urinmang, bu sizni yolg'izlikdan qutqarmaydi. O'zingiz bilan muloqotda bo'lgan odamlar bilan muloqotni to'ldirish uchun - to'ldiring, lekin uni almashtirmang, to'liq hayot kechiring - o'zingiz uchun mos suhbatdoshlarni qidiring va ular bilan muloqot qiling.

4. Alloh taolo odam bolasiga juda ko'p ne'matlar bergen, ularni sanab adog'iga yeta olmaymiz. Shubhasiz, ular ichida eng qimmatli va muhimlaridan biri – hayot, tiriklik ne'matidir. Chunki bu ne'mat inson qolgan ne'matlarni qabul qilib olishiga sababchi bo'ladi. Qur'oni karimning 200 dan ortiq oyati karimalarida arab tilidagi "xalq", ya'ni "yaratish" ma'nosidagi o'zakdan yasalgan so'zlar keladi. Bu esa bizga inson bo'lib yaralish Alloh taolo tomonidan berilgan katta ne'mat ekanini bildiradi.

Shunisi ham aniqki, inson hayoti doim bir xil ne'matlar ichida kechmaydi – gohida yengil, gohida og'ir, ba'zida xursandchilik, ba'zida musibat. Musibat yetganda biz Allohnинг bandasi va unga qaytib borishimizni eslashimiz darkor. Alloh taolo marhamat qiladi: "Sizlarni biroz xavf-xatar, ochlik (azobi) bilan, molu jon va mevalar (hosili)ni kamaytirish yo'li bilan sinagaymiz. (Shunday holatlarda) sabr qiluvchilarga xushxabar bering (ey, Muhammad)! Ularga musibat yetganda: «Albatta, biz Allohnинг ixtiyoridamiz va albatta, biz Uning huzuriga qaytuvchilarmiz», – deydilar. Aynan

o'shalarga Parvardigorlari tomonidan salavot (mag'firat) va rahmat bordir va aynan ular, hidoyat topuvchilardir" (Baqara surasi, 155-oyat).

Demak, imonli kishilar hayotda hech qachon tushkunlikka tushmasligi kerak, balki yaxshilikdan umidvor bo'lib, doim harakatda bo'lishi lozim. Afsuski, ahyon-ahyonda o'z joniga qasd qilgan kishilar haqidagi so'zlar qulog'imizga chalinadi. Ayniqsa, bu kabi fojealar ayollar ichida ko'p uchrab turishi achinarli holatdir. Bu gunohni oqlab bo'lmaydi, lekin ma'lum bir qism ayollar o'zlariga bo'lgan zulm-zo'ravonlik sababli bu ishga qo'l urayotgani sir emas. Yurtimizda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni kuchga kirdi. Bu qonun dinimizdagi ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik man qilinishi haqidagi ko'rsatmalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Shuni bilish kerakki, biror qiyinchilikdan qutilish yoki kimdandir norozi bo'lib, o'z joniga qasd qilish – masalaning yechimi emas. Masalan, qarz yoki moliyaviy qiyinchilik sababli o'z joniga qasd qilgan odam qarzidan qutilib qolmaydi. Balki yanada qiyinroq bo'lgan oxiratda qarzdor odamga aylanadi. Qaytanga bu hayotda qolib, maqsadi uchun kurashib, ikki dunyoda yuzi yorug' bo'lishi – haqiqiy bandalik maqomidir. Kimdir o'z joniga qasd qilib gunohkor bo'ladi, orqasida ota-onasi va yaqinlarini qattiq qayg'uda qoldiradi. Aslida farzand ularni xizmatlarini qilib, rozi va xursand qilishi kerak edi.

O'z joniga qasd qilishning oxiratdagi oqibatlari yana ham yomonroqdir. Dinimiz ta'limotida insonning o'z joniga qasd qilishi katta gunoh hisoblanadi. Bu haqda Alloh taolo shunday deydi: "...O'zlaringizni o'ldirmangiz! Albatta, Alloh sizlarga rahm-shafqatlidir" (Niso surasi, 29-oyat).

Alloh taolo bandasiga omonat o'laroq ato qilgan jon-tiriklikni faqat O'zi xohlagan paytda qaytarib oladi. Jonni bandaning o'zi olishga harakat qilishi – sxoshilish va Alloh taoloning taqdiriga norozilikdir. Toki ajal vaqtি kelgunicha banda jonni to'g'ri yo'lda asrab-avaylab ishlatishi kerak. Bu mavzuda Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam shunday deganlar: "Kim o'zini-o'zi bo'g'ib o'ldirsa, do'zaxda ham shu xil azobga qoladi va kim o'zini tig' bilan o'ldirsa, do'zax olovida ham xuddi shunday azobga qoladi" (Imom Buxoriy rivoyati).

Aslini olganda dinimiz o‘z joniga qasd qilishga olib boradigan yo‘llarni ham berkitgan. Masalan, musulmon kishi o‘ziga o‘lim tilashi mumkin emas. Chunki amallar solih bo‘lib, umrning uzun bo‘lishi biz uchun katta mukofot hisoblanadi.

Bu mavzuda eng katta muammo – ruhiy iztirobning mavjudligi, qalb xotirjamligi va imonga suyanadigan irodaning yo‘qligi, deb hisoblaymiz. Buning ustiga o‘smirlilik davrida yigit-qizlarning qarovsiz qolishi, turli nobop yo‘llarga kirishi, yomonlar bilan do‘sst tutinishi, mast qiluvchi ichimliklar va giyohvand moddalarga berilib qolishi ham o‘z joniga qasd qilishning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Albatta, yoshlar tarbiyasiga uyda ota-onas, o‘quv muassasalarida esa ustozlar mas’uldir. Vaqt-vaqt bilan internetda o‘z joniga qasd qilishni o‘rgatuvchi videolar, qiziqtiruvchi o‘yinlar tarqalib turadi. Afsuski, bekorchilik va ota-onalarning e’tiborsizligi sababli ba’zi yoshlarimiz bu “to‘r”larga tushib qolmoqdalar.

Yuqoridagi muammolarning yechimi – qalb xotirjamligi va sabr toqatdir. Alloh taolo Zumar surasida shunday marhamat qiladi: “(Ey, Muhammad!) O‘z jonlariga (gunoh bilan) zulm qilgan bandalarimga ayting: «Allohning rahmatidan noumid bo‘lmangiz! Albatta, Alloh barcha gunohlarni mag‘firat qilur. Albatta, Uning o‘zi Mag‘firatli va Rahmlidir” (Zumar surasi, 53-oyat).

Yana bir oyati karimada shunday deyiladi: “Ular imon keltirgan va qalblari Allohning zikri bilan orom oladigan zotlardir. Ogoh bo‘lingizki, Allohni zikr etish bilan qalblar orom olur (va taskin topur)” (Ra’d surasi, 28-oyat).

Banda Alloh taoloning ne’matlarini tafakkur qilsa, o‘zidan-da yomon ahvolda bo‘lgan minglab odamlar borligi va ularning aksariyati shukr qilib yashayotganini tushunib yetsa, tiliga beixtiyor “shukr” keladi, kamchiliklari uchun istig‘for aytadi. Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam shunday marhamat qiladilar: “O‘zingizdan ustun kishilarga emas, o‘zingizdan past odamlarga qarang. Mana shu (ish) Allohning ne’matlarini past sanamasligingiz uchun yaxshiroq bo‘ladi”

Bu hadisga amal qilgan kishi Alloh unga juda ko‘p ne’matlar bergenini mulohaza qiladi. Shukrli inson bu dunyo qiyinchiliklarini oson yengadi. Mo‘min kishining ishi ajoyib, u hech qachon yutqazmaydi. Yaxshilik kelsa – shukr qiladi, savob oladi. Boshiga sinov kelsa – sabr qiladi, yana savob oladi. Banda Alloh taoloning zikridan va

shukridan g'ofil qolsa, shayton uning qalbiga vasvasa qila boshlaydi. Qachon Allohning zikrini qilsa, ortga chekinadi. Alloh taolo bizga bu dunyo qiyinchiliklarini qanday yengib o'tish yo'lini ko'rsatdi: "(Allohdan) sabr va namoz ila yordam so'rangiz.

Darhaqiqat, u (namoz) og'ir ishdir. Illo, itoatli (xokisor) kishilarga (og'ir) emas" (Baqara surasi, 45-oyat).

Albatta, bu masalada diniy tarbiyaning o'rni muhim. Farzandlarga dinimiz asoslari, ibodatning ma'nosi, gunoh-savob, halol-haromni oiladan o'rgatib borishimiz kerak. Ularning oldiga yuksak marralar va maqsadlar qo'yib, o'sha tomonga yetaklashimiz, kerakli yordamni berishimiz kerak. Yana ularni turli zararli odatlardan saqlasak, bo'sh vaqtlarini bilim o'rganish, sport bilan shug'ullanishga sarflasak, natija yaxshi bo'ladi.

Xulosa shuki, inson doimo Allohning rahmatidan umidvor bo'lib, azobidan qo'rishi kerak. Ana shunda uning imoni salomat bo'ladi, shayton vasvasalaridan omonda bo'ladi. Yana bir muhim jihat - doimo olim kishilardan pand-nasihatlar eshitish va solih kishilar, sog'lom tabiatli odamlar bilan do'stlashish, ular bilan birga bo'lishdir. Bu ishlar kishining ruhiyatini tetik va yashovchan qiladi.

Qo'rkoqlik - bu jamiyatdagi shaxsning xatti-harakati. Odamlarning bunday psixotipi, qoida tariqasida, o'z g'oyalarini, maqsadlarini, istaklarini yoki orzularini amalga oshirishga qodir emas. Har qanday qo'rquv yoki xato qilish qo'rquvi bunga to'sqinlik qiladi.

Jasorat deganda shaxsning xavfli vaziyatni yengish va unga javob qaytarish munosabati va qat'iyati tushuniladi. Bu qo'rquv yoki xavf-xatarga duch keladigan vaziyatga javob berish uchun odamlarning ichki kuchining bir qismidir.

"Tavba" so'zining qaytmoq, pushaymon bo'lmoq, gunohlarni tark etib, Haqqa yuz burmoq, kelajakda gunohni takrorlamaslikka azm etmoq kabi ma'nolari bor. Gunohlar bois paydo bo'lib, banda bilan uning suyukli narsalari orasini to'sadigan ulkan zararni anglash ilmdir. Bu ulkan zararni to'la anglagan kishi o'z qalbiga g'olib bo'ladi. Bu anglash suyukli narsasini boy bergen qalbda alam-og'riq paydo qiladi. Qalbda yo'qotish hissi ortgani sayin alamning shiddati ham kuchayadi. Mahbubini o'zining bir yomon fe'li sabab boy bergani uchun qalb afsus chekadi. Qalbning bu og'rig'i nadomat deyiladi. Og'riq ichkarini butunlay egallab olganidan so'ng, qalbda qasd deb atalgan

o‘zgacha bir holat namoyon bo‘ladi (qasd – gunohni tark etishni maqsad qilish, shu maqsad tomon qadam tashlash).

Tavba shunday og‘riqki, u bekor o‘tayotgan umrni his qilish, Allohning g‘azabi ostida zoe bo‘layotgan bebahos ne’mat – o‘tgan va o‘tayotgan kunlarni o‘ylab, qonli yoshlar to‘kishdir. Darhaqiqat, o‘tgan xatodan pushaymon bo‘lib, g‘amga botish musulmon uchun vojibdir. Bu hol tavbaning ruhi, o‘nglanish u bilan kamoliga yetadi.

Tavbaning shartlari.

Olimlar bunday deganlar: “Tavbaning uchta sharti bor: Gunohdan to‘xtash, pushaymon bo‘lish va unga qaytmaslikka ahd qilish”. Ba’zi olimlar esa: “Tavbada sodir etilgan gunohdan pushaymon bo‘lishning o‘zi yetarlidir. Zero, bu pushaymonlik gunohdan uzilishni va qaytib uni qilmaslikka ahd qilishni taqozo etadi. Bu ikkisi pushaymonlikdan paydo bo‘ladi, shuning uchun ham: “Pushaymonlik tavbadir”, deyishgan.

Tavba va istig‘for o‘rtasidagi farq. “Istig‘for” – kechirim, mag‘firat so‘rash degani. Davomli gunoh qiladigan kimsa ham, tavbakor ham istig‘for aytishi mumkin. “Tavba” so‘zining ta’rifida: “Gunohdan voz kechish, unga qaytmaslikka ahd qilish va undan butunlay uzilishdir”, deyilgan. Birgina istig‘forning o‘zidan bu ma’no tushunilmaydi.

Imom Qurtubiy “Al-Mufhim”da istig‘forning foydasi kattaligini, ammo uni davomli gunoh qilishga barham berib, pushaymonlik g‘ami ezib turgan holda, til bilan dilni bir qilib, samimi aytilish kerakligini yozadi. Qurtubiya ko‘ra, ana shunday istig‘for tavbaning tarjimasidir. Bu aslo tili bilan “astag‘firulloh” deb qo‘yib, gunohini davom ettiraverish emas. Bunday kimsalarning istig‘fori istig‘forga muhtojdir!

Tavbaning ahamiyati va zarurati.

Gunohdan so‘ng darhol tavba qilish vojibdir. Chunki gunohning halokatli ekanini anglash imon taqozosidir. Tavbani kechiktirish mumkin emasligini anglagan kishi darhol amalga o‘tadi, o‘zini yomon fe’llardan tiya boshlaydi. Har bir ilm yaxshi amal bajarish uchun o‘rganiladi. Modomiki, ilm amalga sabab bo‘lmas ekan, uning mas’uliyatini to‘la his qilish mushkul. Gunohlarning zararini bilish, anglab yetish ilmdir. Mana shunday ilm gunohlarni tark qilishga sabab bo‘ladi. Undan ko‘zlangan maqsad ham aslida ana shu.

Kimki gunohlarni tark etmas ekan, imoni zaiflashib boraveradi. Zararli oziqlar badanga qanday ta'sir etsa, gunohlar ham imonga shunday ta'sir qiladi. Doimiy ravishda ichkarida to'planib qolayotgan zararli oziqlar kishi sezmagan holda uning mizojini o'zgartiradi, hatto uni buzilishgacha olib boradi. Natijada kishi daf'atan dardga chalinadi, daf'atan o'ladi.

Gunohlarning imonga ta'siri ham shu yo'sinda boshlanib, shu yo'sinda yakun topadi. Demak, bu o'tkinchi dunyoda o'limdan qo'rquvchi kishiga darhol va har qanday holatda zararli oziqlardan tiyilmoq vojib. Abadiy halokatdan qo'rquvchi kishiga esa gunohlardan tiyilishning vojibligi yana bir hissa ko'proqdir.

Kishining dinini gunohlari zaharlaydi. Kimki uni sodir etsa, fursat borida bu qilmishidan qaytmog'i vojib. Bu fursat umrdir. Fursat boy berilsa, umr zoe bo'ladi. Bundan ham alamlirog'i esa, oxirat saodatini boy berishdir.

Qur'oni Karimda Alloh taolo mo'min-musulmonlarni hayot tarzi, oldi-berdi, oila, o'zaro munosabatlari qanday bo'lishi lozimligi aniq tizgilar bilan tasvirlab berdi. Jumladan o'zaro munosabatlarda g'iybat qilmaslikni mo'min bandalarga ta'kidlab shunday marhamat qiladi:

“Ey iymon keltirgan bandalar ko‘p gumon qilishlikdan saqlaning! Ba'zilaringiz Ba'zilaringizni g'iybat qilmasin! Sizlardan birontalaringiz o‘z birodarini go‘shtini o‘lik xolatda yeishlikni xohlaydimi?! Bas, gunohi undan ham yomon bo‘lgan g'iybatdan saqlaning”! Hujurot surasi.

Sahobai kiromlar so'rashdi: “Ey rasululloh! “G'iybat nima”? “Birodaringni o‘zi yo‘q paytida eshitsa xafa bo‘ladigan ishlarini gapirishliliging” – dedilar. Shunda sahabalar: “Biz gapirgan xolat unda bo‘lsa-chi”? – deyishdilar. Shunda Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: “Agar siz gapirgan narsa unda bo‘lsa, g'iybat bo'ladi, agar unda bo‘lmasa, unda tuxmat qilgan bo‘lasiz”, - dedilar”.

Hayotimizda “G'iybat emas-u, lekin falonchi undaq yoki bundoq” – degan xolat ko‘p uchraydi. “G'iybat qilmang” – desangiz, “G'iybat emas, haqiqat” – deyishadi. Hadisdan xulosa chiqarib aytadigan bo‘lsak, haqiqat bo‘lsa, g'iybat bo‘lar ekan. Aks xolda tuxmat bo‘lar ekan.

G‘iybat odamlar o‘rtasida nifoq soladigan, oilalarni yemiradigan, jamiyatni parokanda qiladigan qabih illatdir. Shu sabab Alloh taolo buni ulkan gunoh sanab, bandalarini bu ishni qilishdan qaytargan. Ammo shunday bo‘lsa-da, g‘iybatchilar va bu ishlarini ulkan illat hisoblamaydigan odamlar ham yo‘q emas.

Insoniyatning tili va undan sodir bo‘ladigan illatlar bisyor. Til yordamida Alloh taologa istig‘for aytildi, Qur’oni karim tilovat qilinadi, tavba aytib, duolar qilinadi. Lekin ana shu tildan shunday gunohlar sodir bo‘ladi-ki, insonning vaqt, mablag‘i ketib, yiqqan savoblari behuda ketishiga sabab bo‘ladi. Ana shunday gunohlardan biri – g‘iybatdir.

Islomda g‘iybat harom qilingan. Insonning sha’ni borasida, uning bor bo‘lgan aybi borasida uning ketidan gapirish g‘iybat hisoblanadi. Agar o‘sha odam eshitsa xafa bo‘ladigan, ranjiydigan sifatlarni gapirishlik ham bu g‘iybatdir. Uning ketidan yo‘q sifatlarni, yo‘q odatlarini gapirish esa bo‘hton bo‘ladi.

Alloh taolo g‘iybatni ulkan gunohligini bayon qila turib, marahamat qiladi: “Ba’zilaringiz ba’zilaringizni g‘iybat qilmasin. Birodarlingizning go‘shtini yeishni xohlaysizmi? Albatta, xohlamaysiz”. Bundan ma’no kelib chiqadi-ki, g‘iybat qilgan odam g‘iybat qilingan odamning go‘shtini yegan bilan barobar ekan. Bu gunohning naqadar xatarli va og‘ir ekanligini yaxshiroq his qilganimizda undan yanayam qattiq ehtiyyot bo‘lgan bo‘lar edik.

Afsuslar bo‘lsinki, bugungi kunda ba’zi bir odamlar o‘zi bilmagan holatda birovni g‘iybat qilib qo‘ymoqda. Bu juda katta xatar. Tilimizni bundan xalos qilishimiz kerak. Payg‘ambarimiz alayhissalom bundan juda qattiq qaytarganlar. Nafaqat g‘iybat qilgan odam, balki g‘iybat qilinayotgan davrada o‘tirgan, uni qaytarmgan odam ham baravar gunohkor bo‘lib qoladi”.

Aslida, nima uchun g‘iybat qilinadi? O‘sha odamning erishgan yutug‘ini, darajasini, mavqesini, obro‘sini ko‘ra olmaslik natijasida g‘iybat qilinadi. Bu gunohni til sodir etadi, ammo bunga undagan uning qalbi bo‘ladi. Shu sabab qalbimizni isloh qilishimiz lozim. Agar qalbimiz isloh bo‘lsa, til faqat yaxshilikni so‘zlaydi.

G‘iybatning virtual ko‘rinishi ham sodir etilmoqda. G‘iybat nafaqat so‘z bilan, balki yozma shaklda ham bo‘lishi mumkin. Bir odamning sha’niga noloyiq so‘zlarini

yozib, xabar shaklida jo‘natishimiz mumkin. Yoki ijtimoiy tarmoqlarda o‘zi bilmagan, yaxshi tanimaydigan, ichki dunyosidan bexabar odamlarga nisbatan izoh qoldirish ham g‘iybatdir.

Qo‘shnining haqqi.

Qo‘shniga duch kelganda salom berib, hol-ahvol so‘rashish, xasta bo‘lsa, ziyyoratida bo‘lish zarur.

Qo‘shnini ziyyorat etish uchun ruxsat olish, iznsiz uyiga kirmaslik lozim. Qo‘shnini xafa qiluvchi ishlardan saqlanish kerak.

Qo‘shni biror narsa so‘rasa berish, ishi tushsa bitirishga astoydil harakat qilish kerak.

«Qo‘shnining qo‘shnidan haqqi meros haqqiday (muhim). Agar bu qo‘shni musulmon bo‘lsa, bu haq ikki barobar ortadi».

Faqir qo‘shnining taomlanishi uchun oziq-ovqatlar olishiga yordam berish kerak. Taom pishirganingizda hidi qo‘shniga yetsa, albatta o‘sha pishirgan taomingizdan qo‘shningizga yedirishingiz shart bo‘ladi. Bu haqda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat etadilar: «Bir kishi hidini uydan tashqariga chiqarib taom pishirsa-yu qo‘shnilariga bermasa, joyini jahannamdan tayyorlayversin!»

Qo‘shni haqi juda muhim bir haq. Qo‘shni nochor qo‘shnisiga yeganidan yedirib, kiyganidan kiydirishi kerak. Har ehtiyojini bitirishi kerak. Har xususda qo‘shni qo‘shnining ko‘nglini olishi, molini, jonini, sha’nini, or-nomusini o‘zinikidan ziyodaroq ko‘rishi zarur. Bu xizmatlar oxiratda do‘zaxga to‘siq bo‘ladi, bu dunyoda esa ko‘p yaxshiliklarga sababchi bo‘ladi.

5. “Meros” so‘zi «virosatun» so‘zidan olingan bo‘lib, ma’naviy yoki moliyaviy haqqa ega bo‘lish degani. Ya’ni, biron narsani bir shaxsdan boshqasiga o‘tishligidir. Shu ma’noga ko‘ra, “meros” mol, boylik, ilm, ulug‘likni o‘z ichiga oladi.

Fiqxiy tushuncha bo‘yicha, mayitning ortida shar’iy vorisga qolgan mol va huquqlarga meros deyiladi. Meros ilmining asosiy dalil va hujjatlari Qur’oni Karim, sunnat va ijmo‘dan olingan. Bu ilmda qiyosga o‘rin qolmagan. Meros ilmini faroiz ilmi o‘rgatadi. Bu ilmning bilimdoni “faroizi” deb nomlanadi.

Meros ilmining g‘oyasi – qoldirilgan merosni har haq egasiga o‘z haqini, shar’iy belgilangan ulushini yetkazishdir. Meros ilmiga Alloh taoloning o‘zi asos solgandir. Ibni Abbos roziyallohu anhu Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qilingan hadisda: “Ahli faroizlar o‘rtasida molni Allohning kitobi bo‘yicha taqsim qilinglar”, dedilar. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam sunnatlarida bu masalaga ozgina o‘rin qolgan xolos.

Bir muslimon odam vafot etganidan so‘ng uning tariqasi hisob qilinib, birinchi galda uni kafanga qo‘yish uchun ketadigan sarflarga ajratiladi. Bu harajatlar uchun ketadigan mollarda merosxo‘rlarning haqlari bo‘lmaydi.

Qarzlari bo‘lsa, ularga ham mablag‘ ajratiladi. Qarz ikki xil bo‘ladi.

1. Bandalardan qarzi.

2. Allohdan qarzi.

Bu qarz ham merosxo‘rlarning haqidan ustun turadi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam, Imom Ahmad rivoyat qilgan hadislarda: “Mo‘minning ruhi – to ado etilmaguncha qarziga bog‘liq bo‘lib turadi», deganlar.

Allohdan qarziga berilmay qolgan zakot, kaforat va nazirlariga o‘xshash narsalar kiradi. Agar mol qoldiruvchi o‘limidan oldin Allohdan qarzlarini ham ado qilish haqida vasiyat qilgan bo‘lsa, ular ham ado etiladi. “Agar mayit o‘limidan oldin Allohdan qarzlarini o‘tash haqida vasiyat qilmagan bo‘lsa, nima bo‘ladi?” degan savolga hanafiy mazhab ulomalari aytishlaricha: u qarzlar berilmaydi, chunki ular moliyaviy ibodat edi, o‘lim yetishi bilan ibodatlar undan to‘xtaydi, u ibodatlarni, ya’ni zakot, kaforatlarini o‘z vaqtida, ya’ni tirikligida ado etmagani uchun mayit gunohkor bo‘ladi. Uyog‘i Allohga havola qilinadi. Xohlasa azob, xohlasa mag‘firat qiladi. Boshqa mazhablar esa: “Bu qarzlar ham tariqadan ado etiladi”, deydilar. Lekin merosxo‘rlar o‘z ulushlaridan marhumga atab qilsa, savob.

Agar merosxo‘rlar rozi bo‘lsa, vasiyat qilinganidan ziyodasini ham o‘z ixtiyorlari bilan, savob umidida, hayrli ishlariga sarflashlari mumkin. Bunga dalil Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam huzurlariga Sa‘ad ibn Abu Vaqqos kelib o‘z mollarini hammasini sadaqa qilish haqida vasiyat qilmoqchi ekanlarini aytganlarida Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ruxsat bermaganlar. “Yarminichi?” deb

so‘raganlarida ham izn bermadilar. “Uchdan birinichi?” deganlarida u zot “uchdan biriga mayli, aslida uchdan biri ham ko‘p” dedilar. “Sendan keyin merosxo‘rlaringni boy, behojat hollarida qoldirib ketmog‘ing, ularni odamlardan tilanib boradigan hollarida qoldirib ketmog‘ingdan yaxshidir”, deganlar.

O‘layotgan odam o‘lim oldidan ko‘ziga hech narsa ko‘rinmay, oxiratni o‘ylab bor budini sadaqa qilib yuborishga tayyor bo‘lib turadi. Hammasini berib yuborishi merosxo‘rlariga zulm qilgan bo‘ladi. Endi vasiyatlar o‘limdan keyin amalgalashishiga ekanmi, shunday bo‘lganidan keyin, kishi agar o‘z farzandidan biriga biror uyni vasiyat qilmoqchi bo‘lsa nima qilishi kerak. “Bolam mana shu uy mendan senga tirikligimda hadya, senga shuni berdim” desa, u bola: “xo‘p qabul qildim” desa, bu mulk o‘sha bolasini shaxsiy mulkiga aylanadi. Lekin zinxor ota: “Mana shu uy o‘lganimdan keyin senga” deb aytishga haqqi yo‘q, nega? Chunki u o‘lganda qolgan molining uchdan birinigina vasiyatga bajara oladi, xolos, qolgan qismida boshqa qolgan yaqinlarining ham haqi bo‘ladi. Aslida uylarini otamiz tirikligida biz qurgan bo‘lishimiz mumkin. Lekin u uyni otamizni yeriga qurganmiz, qurayotib otamga, deb qurganmiz. Shuning uchun ota o‘zidan keyin muammo tug‘ilishiga ko‘zi yetsa, uni tirikligida molu davlatini xohlagan farzandiga hadya qildim, deb bera olishi mumkin, “o‘lganimdan keyin” degan so‘zni aytmasligi kerak. Endi uy bolaning mulkiga aylanadi, otaning gardanidan soqit bo‘ladi, bolasiga aytadi: “o‘g‘lim, endi sizning uyingizda o‘lgunumga qadar yashab turaman”, desa bola u otasini o‘sha uyda qaromog‘iga olib birga turadi va otasi o‘lgandan keyin ham o‘sha uyda boshqalarning haqi qolmaydi va taqsimlanmaydi. Agar mana shu uy senga o‘lganimdan keyin, deb aytgan bo‘lsa, o‘sha o‘g‘lidan tashqari boshqa farzandlarini uyli- joyli qilib bo‘lgan, qizlarini uzatgan bo‘lsa ham hammasining u uyda haqqi bo‘ladi. Kishini tirikligida bergani hadya bo‘ladi, o‘lganidan keyin senga yoki falonchiga deyishi vasiyat bo‘ladi. Lekin vasiyatga atalgan mol mulk o‘zinikilarga ya’ni merosxo‘rlarga o‘tmaydi. Begonalarga berish uchun aytgan vasiyati o‘tadi. Islomning avvalida ota, ona va qarindoshlar foydasiga vasiyat qilish vojib edi. Musulmon kishi o‘limidan oldin “molining bunchasi otamga, bunchasi onamga, yana bunchasi o‘g‘limga yoki qizimga beringlar” deb vasiyat qilar edi. Meros oyatlari nozil

bo‘lib, bu narsa (amaldan qolib, qolgan molni oyat asosida merosxo‘rlar) orasida taqsim qilish joriy qilindi.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, Nabiyy sollallohu alayhi vasallam: “Albatta, bir erkak yoki ayol 60 yil Allohning toatida amal qiladi, so‘ngra ikkoviga o‘lim hozir bo‘lur ana shunda zararli vasiyat qilib qo‘yib, ikkisiga do‘zax vojib bo‘lur” dedilar va “Qilingan zarar yetkazmaydigan vasiyat yoki qarzdan” so‘ng oyatini qiroat qiladilar”. Zararli vasiyatga misol: falonchi yaqinimga merosimdan berilmasin deb o‘z merosxo‘rlariga zarar yetkazadigan vasiyat qilish musulmon kishi uchun harom. Yuqoridagilardan qolgani vorislarga shar’iy meros qilib taqsimlanadi.

**Jannat** - ko‘pchilik diniy ta’limotlarga ko‘ra, taqvodor dindorlar narigi dunyoda rohat va farog‘atda yashaydigan joy. Yahudiylik, Xristianlik, Islom dinlaridagi asosiy tushunchalardan biri. Barcha dinlarda jannat do‘zaxga qarama-qarshi qo‘yiladi. Bibliya (Qadimgi ahd)da jannat go‘zal bog‘ sifatida tasvirlanadi, unda Odam Ato bilan Momo Havo yashagani, ular gunoh ish qilib qo‘yanlaridan keyin jannatdan quvilgani haqida yozilgan. Qur’onda jannat haqida bir necha yerda bayon qilingan. Diniy aqida bo‘yicha, bu dunyodagi hayoti davrida imonli holida ezgu ishlar bilan shug‘ullangan kishilarga Alloh tomonidan jannatdan joy beriladi. Jannatdagi hayot abadiy, bezavoldir. Jannatdagilarni Alloh turli ne’matlar bilan ta’minlaydi. U yerda g‘am-g‘ussa va tashvish yo‘q. Odamlarning yaxshi ko‘rgan barcha narsasi muhayyo etiladi. Qur’onda jannat daraxtzor, ariqlarda zilol suvlar oqib turadi, deb ta’riflanadi. U yerda insonlar qarimaydi va kasal ham bo‘lmaydi. Diniy ta’limotda ta’kidlanishicha, jannatda havzi Kavsar mavjud bo‘lib, uning suvi oq va muzdayligi hamda xislatlari ta’riflanadi. Havzi Kavsardan jannat ahli suv ichadi.

Islom diniga ko‘ra, jannatning 8 ta darvozasi bor. Bular: payg‘ambarlar, shahidlar, siddiq bandalar va sahiylar; namozxonlar; zakot beruvchilar; amri ma’ruf, nahiy munkar qilgan mo‘minlar; nafs-u shahvatini jilovlab yurganlar; haj va umra qilganlar; Alloh yo‘lida jiddu jahd qilganlar; taqvodorlar va ota-onasini rozi qilganlar kiradigan darvozalardir. Jannatni qo‘riqlovchi farishta "Rizvoni jannat" deb ataladi. Jannatda eng oliy ne’mat Allohning diydorini ko‘rishlik hisoblanadi.

## **NAZORAT SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

- 1.** Nasab tushunchasiga ta'rif bering?
- 2.** Xusni xulq insonning qanday darajasi?
- 3.** Kishi qachon komillikka erishadi?
- 4.** Iymon qachon komil bo'ladi?
- 5.** Haqiqiy do'st kimlar bo'ladi?
- 6.** Qo'shnining qo'shnidagi haqqi deganda nimani tushunasiz?
- 7.** Jannat haqida va unga munosiblik haqida so'zlang.
- 8.** Tavba va istig'for o'rtasidagi farqni aytib bering?

## **TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

### **1.«Madaniyat» tushunchasi nimani anglatadi?**

- \*A. Fikr yuritish tarzi va harakati
- B.Tasviriy san'at
- C.Axloq, muomala
- D.Ilm olish

### **2.Hozirgi kunda madaniyatga munosabat qanday?**

- \*A Jamiyat taraqqiyoti dvigiteli sifatida
- B.Ikkinchi darajali hodisa sifatida
- C.Madaniy muassasa faoliyati sifatida
- D.Ijtimoiy hayotning elementi sifatida

### **3.Madaniyatni ilmiy tushunchasi qayerda shakllangan?**

- \*A. Germaniya
- B. Buyuk Britaniya
- C. AQSh
- D. Rossiya

### **4.«Ibtidoiy madaniyat» asari muallifi?**

- \*A. E.Teylor
- B. O.Shpengler
- C. F.Tyonnis

D. G.Klemm

**5.Tarixni uch oqimga ajratgan olim: sotsial jarayon, sivilizatsiya jarayoni, madaniy jarayon**

\*A. M.Veber

B. A.Veber

C. O.Shpengler

D. P.Sorokin

**6.Quyidagi ibora qaysi sotsiolog olimga tegishli. «Madaniyat yoki sivilizatsiya etnografik jihatdan bilim, iymon, san'at, axloq, qonun, urf-odat va boshqa qobiliyatlar, hamda odatlarni inson jamiyatning a'zosi sifatida keng ko'lamda o'zlashtiradi.»**

\*A. E. Teylor.

B. E. Dyurkgeym

C. M. Veber

D. A. Veber

**7.P. Sorokin madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro munosabatini qanday tavsiflaydi?**

\*A. Sotsiomadaniyat supertizim

B. Madaniyat qadriyatlarning yuqori sistemasi

C. Madaniy tizim

D. Jahon madaniyati.

**8.Quyidagi fikr kimga tegishli: «Hayot madaniy bo'lishi lozim, madaniyat esa hayotiy. Madaniyatsiz hayot bu varvarlik, o'lik madaniyat bu vizantizm?»**

\*A. X. Ortega-i-Gasset

B. T. Parsons.

C. A. Veber.

D. O. Shpengler.

**9.Kim XX asrda madaniyatning parchalanish shiorini an'analar tayanchi sifatida ilgari surgan?**

\*A. Avangardlar va bolsheviklar

B. Fashistlar.

C. «Yashillar»

D. Modernistlar

**10.O‘zbekiston tarixining qaysi davrida milliy madaniy qadriyatlarning yemirilishi kuzatilgan?**

\*A. XX asrning 40-50- yillarda

B. XX asr boshlarida

C. XX asrning 60-70- yillarda

D. XX asrning 80-90-yillarda

## **8-MAVZU: INSON MOHIYATI (2 soat)**

### **Reja.**

1. “Yo asling kabi ko‘rin, yoki ko‘ringaning kabi bo‘l” . Hayot so‘qmoqlari sari. Yashashdan maqsad nima?

2. Baxt haqida. Yaxshidur achchiq haqiqat. Mehnatsevarlik – oliv fazilat. Go‘zallik dunyoni qutqaradi.

3. Insonning surati va siyrati. Samimiylilik va tog‘rilik. Kamtarlik. Xushmuomalalik. Odamiy ersang.

4. Muhabbat - eng oliv tuyg‘u. “Jannat onalar oyog‘i ostidadur”. Ayol - olamning gultoji.

5.O‘z-o‘zini tarbiyalash usullari. Ilm talab qilish haqida. Ta’lim oluvchining odobi. “Ustoz otangdek ulug”.

6. Kelinlik odobi. Insonlar bilan muomala qilish san’ati. Oriyat. Andisha. Nomus. Aql-tafakkur .

7. Xotira. Mahalla. Tobutkashlik nima?

1. Bu dunyodagi barcha xatti-harakatlarimizning ibtidosi yashashga bo‘lgan intilishga borib taqaladi. Aslida esa yashash uchun unchalik ko‘p narsa zarur emasdek go‘yo. Lekin inson ongli mavjudot bo‘lgani bois shunchaki yashash, havo, suv, ozuqa, issiqlik, yorug‘likka bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish bilangina kifoyalana olmaydi. U

yaxshi yashashga intiladi, ehtiyojlarini imkon qadar to‘liqroq qondirish payida bo‘ladi. Xullas, inson aynan shu mayli – yaxshi yashashga intilish tuyg‘usi bilan boshqa mavjudot va maxluqotlardan farqlanadi.

Odamzod dunyoga kelibdiki, yaxshi yashash yo‘llarini izlaydi. Bu esa unda olamni bilishga, o‘zligini anglashga intilish, qavmdoshlari bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish va ma’lumot almashish kabi ma’naviy ehtiyojlarni ham vujudga keltiradiki, bugun endi aynan shu ehtiyojlar qay darajada qondirilayotgani farovon yashash sharti, to‘kinsochinlikning asosiy omili hisoblanmoqda.

Xo‘sish, inson yashamoqda, boringki bekamu ko‘s, yaxshi yashamoqda. Lekin bundan maqsad bormi o‘zi degan savol barchamizni mushohadaga chorlaydi. Darhaqiqat, inson butun hayotini, umrini yeb-ichishga, kiyinishga, mol-u dunyo to‘plashga, farzandlar tarbiyasiga, to‘y-u ma’raka qilishga, hordiq chiqarishga, sayr-u sayohat qilishga va boshqa ishlarga sarflaydi. Va keyin umr yo‘limizning nechog‘lik mazmunli o‘tgan, o‘tmaganligini sarhisob qila boshlaymiz. Kundalik yumushlardan ham tashqari pichoqqa ilinadigan biron bir ish qildimmi o‘zi degan savol ko‘pchilikni o‘ylantirishi tabiiy hol, albatta.

Keling, yaxshisi umrimiz sarhisobini bugundan boshlaylik. Kun bo‘yi qilgan ishlarimizni ikki bo‘lakka ajrataylik: xayrli va befoyda amallarga. Shunda umrimizning bir kuni mazmunining formulasi kelib chiqadi. Natija sizni qoniqtirmasa, demak, maqsadsiz yashamoqdasiz.

Aslida esa yashashdan maqsad nima? Nima qilsak biz bosib o‘tgan umr yo‘limizdan mammun bo‘lamiz, hayotimizdan qoniqish hosil qilamiz. Qanday yo‘l tutsak, ikki dunyomiz obod bo‘ladi?

Shu taxlit o‘y-xayollar girdobida yurib bexosdan savobli ishlarni ko‘proq qilishga kirishib ketamiz. Qilgan yaxshiliklaringiz evaziga yomonlik ko‘rganingizda, savob umidida bajargan amalingiz ortidan ta’nayu dashnomlar eshitganingizda yana boshingiz qotadi. Nima qilish kerak o‘zi? Odamlarga nima kerak o‘zi? Hatto salomingga alik ham olgisi kelmaydi-ya. Yana boshingiz qotgan.

Atrofingizdagи odamlar bilan iliq samimiy munosabatlar, tinchlik-totuvlik aloqalarini o‘rnatishni istasangiz, unda eng avvalo kuchingiz o‘zingizga yetsin!

Boshqalardan ranju alam ko‘rsangiz ham siz ularga faqat yaxshilik, ezgulik bilan javob qaytaring. O‘qrayganga jilmaying, musht ko‘targanga ta’zim qiling, so‘kkanga sukul qiling, birortasi sizdan noo‘rin ranjigan bo‘lsa, uzr so‘rashdan orlanmang. Xalqimizda «Savobning tagi teshik» degan ibora mavjud. Haqiqatan birovga yaxshilik qilasiz, ammo undan javob qaytmaydi, kelsa ham yaxshilicingiz evaziga yomonlik ko‘rasiz. Birovga rahm qilib qarz berasiz, ololmay qiynalasiz, hatto unga dushmanga aylanasisiz. Birovga yordam qilish uchun bitmayotgan ishiga yelka qo‘yib yuborasiz, evaziga kinoyali «minnatdorchilik» ila siylanasiz.

Yuqoridagi kabi holatlar sizni aslo chiroyli ishlarni tark etishga, boshqalarga yaxshilik va yordam qilmaslikka da’vat bo‘lib tuyulmasin. Yaxshiliklaringiz barbod bo‘lib, irodangiz chilparchin bo‘lganida evaziga xazinasi tugamaydigan Zot tomonidan savob, ya’ni mukofotlar berilishini o‘ylang-da, qilgan ishingizdan faxrlanib, xursand bo‘lib yuravering.

Agar sizda g‘am-alam paydo bo‘lib qolsa, o‘zingizdan boshqalarga yaxshilik qiling va go‘zallikni hadya eting, shunda qiyinchilik va mashaqqatni unutasiz va ajoyib rohatni his etasiz. Demak, mahrumlarga narsa ulashing, mazlumlarga yordam bering, qiyinchilikka tushib qolganni qutqaring, ochni to‘ydiring, kasalni borib ko‘ring, jabrlanganlarga yordam qo‘lini cho‘zing, shunda sizni hamma tomoningizdan baxtsaodat va xotirjamlik o‘rab oladi.

Aslida ham yashashdan maqsad shu emasmi?!

Yaxshiliklarni bajarib yurish xuddi xushbo‘y bir narsaga o‘xshaydiki, uning ko‘tarib yuruvchisi, sotuvchisi, sotib oluvchisi, qo‘yingki barcha undan naf oladi.

Gohida muammolar girdobidan horib-charchab, yolg‘izlikni istab qolamiz, tog‘-u toshlarga chiqib, uzlatga chekinib ketgimiz keladi. Aslida esa odamlar bilan munosabatda uzlatga chekinish ham insonga ruhiy xotirjamlik baxsh etadi. Bu narsani tarkidunyochilik, hammadan uzilib, bir uyda biqinib yashash, deb tushunmaslik kerak. Uzlat degani yomonliklardan, yomon odamlardan o‘zni tortish, uzoqlashishdir. Bekorchi bilan qo‘shilsangiz, uning bema’nilarcha vaqtini sovurishiga sherik bo‘lasiz. Bezoriga yaqinlashsangiz, bir kuni uning «qorasi» albatta sizga ham yuqadi, jinoyatiga tortadi, jazoni ham birga o‘tashga to‘g‘ri keladi. Qimorboz bilan ulfat bo‘lsangiz, yana

hayotingizdan fayz, farog‘at ketdi, deyavering. Ichkilikboz yoki giyohvand kimsa bilan oshno tutinsangiz-ku, umuman turmushingiz zahar-zaqqumga aylanadi, o‘zingiz xaroblik chohiga qarab yo‘l olasiz. Yashashdan maqsadingiz qolmaydi.

Ana shunday kishilardan yiroqlashgandagina fikringiz tinchib, xotiringiz rohatlanadi, zehningiz hikmat durlari bilan jilolanib, ko‘zingiz ma’rifat bo‘stonida sayr qilib yuradi. Oqil, zakovatli insonlar kulfat va ziyonni foydaga yo‘naltiradi. Har bir yomonlik go‘zal bir intihoga olib borishi mumkin. Bir falokat ezgu, xayrli oqibat olib kelishi mumkin.

Oqil va dono insonlar har bir balo-musibatdan, boshlariga tushgan mushkulotdan hikmat izlashadi, yo‘qchilik va yo‘qotishlardan ibratlanishadi. Zamonamizning yetuk allomasi Sadriddin Salim Buxoriy domlaning “Qalb gavhari” atalmish

Illat izlaganga illatdir dunyo,

G‘urbat izlaganga g‘urbatdir dunyo.

Kim neni izlasa topgay begumon,

Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo,

to‘rtligini mutolaa qilar ekanmiz, bu misralar zamirida buyuk kashfiyotlar zohir ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Bu dunyoda yaxshiligu yomonlikdan, baxtu kulfatdan, sog‘lik va xastalikdan, boylik va faqirlikdan, xullas, barcha amallardan hikmat izlagan va uni topgan kishigina hayotning asl mohiyatini anglab, umrining mazmunini chaqa boshlaydi va shu taxlit yashashidan ma’no va maqsad topadi.

Qalbimizdagи ezgulik va chin e’tiqodimiz barchamizni yuksak maqsadlar sari yetaklasin. Zero, ana shu yuksak maqsad va unga intilib yashash maxluqotlar ichra azizu mukarram sanalgan inson atalmish xilqatga yaratgan tomonidan ato etilgan buyuk bir ne’matdir.

Inson qaysi manzilga ketayotganini bilmasa,

uning yelkaniga hech bir shamol ham duch kelolmaydi. (SENEKA)

Bu dunyoda har bir kishining o‘z tabiati, dunyoqarashi, hayotga munosabati turlicha bo‘ladi. Insonning hayotda qanday yo‘ldan borishi faqat uning o‘ziga bog‘liq. Maqsad har xil, lekin: - Men bu dunyoga nega keldim, kim uchun va nima uchun

yashayapman? - deb o‘ziga o‘zi savol bergen kishining maqsadi boshqacha bo‘ladi. Oramizda shunday insonlar borki, ular hatto ertaga nima qilishini bilmaydi. Buguni-ku mayli, ertaga, indinga, bir oydan keyin, bir yildan so‘ng o‘zini qanday tasavvur qiladi? Ertaga nima bo‘lishini yaratgandan o‘zga hech kim bilmaydi demoqchimisiz? To‘g‘ri shunday! Ammo Yaratgan bizga: “Sendan harakat, mendan barakat” deb aytgani-chi? Biz bir ishni boshlashdan va oldimizga maqsad qo‘yishdan qo‘rqamiz. Buni tan olish kerak! Nima uchun bunday desak, bahonalar ham topiladi. Unday bo‘lsa buyuk olim-u mutafakkirlarimiz-chi? Ular qanday qilib muvaffaqiyatga erishishdi? Qanday qilib inson ongi, tafakkurining cho‘qqisiga chiqa olishdi. Kalendarni, telefonni, kompyuterni, yozuvni, kosmosni, xullas hayotimizda kerakli bo‘lgan qanchadan - qancha buyuk ixtiolar biz kabi insonlarning aql-tafakkuri orqali dunyoga kelmadi-mi?

Inson shunday bir mavjudotki, imkoniyat darajalarining chek-chegarasi yo‘q. Qanday qilib, dersiz, hozirgi kunda biz uchayotgan odam haqida eshitib qolsak ham hech hayratlanmaymiz. Osmon-u falakda uchayotgan, suvning ustida yurayotgan va o‘ziga o‘xshagan odam robot yaratayotgan, eh-he qanchadan qancha buyuk ishlarning barini inson bajara olayapti. Hayotimizdagi barcha qulayliklar robotlar, mashinalar, ovqat pishiradigan moslama, kir yuvadigan, quritib ilib hatto kiydirib qo‘yadigan mashinalar ham yo‘q emas. Albatta, bunday texnikalarning barini inson o‘z qo‘li bilan yaratmoqda.

Ha, biz ham qobiliyatlimiz, bizning qo‘limizdan ham ko‘p narsalar kelishi mumkin. Bizning shu kabi buyuk kashfiyotlarni yaratib qo‘yan insonlardan hecham kam joyimiz yo‘q. Biz ham ulardek ixtiolar qilib, yurtimiz kelajagiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz mumkin. Lekin birinchi o‘rinda insonda maqsad bo‘lishi kerak, deb o‘ylayman. Maqsad yo‘lida tinmay izlanish va tajriba orttirish insonni buyuklikka yetaklaydi. Axir aytishadiku “Insonda bir foiz qobiliyat va to‘qson to‘qqiz foiz mehnat muvaffaqiyatga yetaklaydi” deb.

Lekin hamma muvaffaqiyatlar zamirida o‘sha bir foiz qobiliyat yotadi. Ko‘pincha, biror ishni boshlashdan avval omadsizlikka uchrashdan qo‘rqamiz va uni iloji boricha ortga suramiz. Yo‘q, axir hayotimizga o‘zgartirishlar kiritish payti kelmadimikan!

Ikkilanish va qo‘rqish doimo o‘zimizga dushman bo‘lib qolaveradi-ku. Qo‘rquvni va tinimsiz o‘ylanishlarni chetga surib, tavakkal qilishni ham o‘rganishimiz kerak emasmi?

Mashhur faylasuf Arastuning kitoblaridan birida: “Bir maqsad yo‘lidagi qo‘yilgan birinchi qadam deyarli uning yarmi bajarilganidan dalolat beradi” deb yozilgan edi. Maqsadsiz yashash - bu hayotdagi eng katta xatolardan biridir. Chunki inson bor - yo‘g‘i o‘rtacha 70-80 yil umr ko‘radi. Ushbu umrimizdan yarmi uplash va yana ancha qismi bemaqsad o‘tib ketishi juda ham ayanchli holatdir. Barchamiz niyat bilan yashaymiz, shirin orzular qilamiz va hatto o‘ylaganlarimiz tushlarimizga ham kirib chiqadi. Orzu bilan yashash yaxshi, ammo uni ro‘yobga chiqarmasak ne foyda. Orzu niyatlarimizni ro‘yobga chiqarish uchun biz avvalo o‘zimizga, aniqrog‘i, o‘scha niyatlarimiz amalga oshishiga ishonishimiz va maqsadlar yo‘lida barcha imkoniyatlardan foydalanib, harakat qilishimiz kerak. Maqsad qat’iy bo‘lsa, baribir bir kun orzuga yetishish mumkin. Lekin ba’zan ko‘p narsani xohlaymiz-u istaklarimizni ro‘yobga chiqarish uchun o‘zimiz ham shunga yarasha intilmaymiz. Bu - irodasizlik va kuchsizlik alomati. Haqiqiy kuch bilakda emas, irodada, ishonchda! Kuchli odamlar erinchoqlikni unutadi, o‘zini doimo nazorat qila oladi. Har kuni kechqurun, bugun men nimalarga ulgurdim, qaysi ishlarimni bajara oldim-u qaysilari chala qoldi, deb sarhisob qiladi. So‘ng ertangi kun uchun rejalar tuzadi. Bunday insonlarning avvalo yashashdan maqsadi aniq, ertangi kunidan umidi katta, bir oydan, bir yildan so‘ng nima ish qilishini biladi. Kuchli odam o‘zining kamchiligidan tonmaydi. Men nima uchun yashayapman, degan savolni o‘z-o‘ziga bera oladi va shu savolga doimo javob axtaradi. Yashashdan maqsadni aniq tasavvur qiladi. Hayotning mazmunini his etadi, kuchiga kuch qo‘shiladi!

2. Inson hamisha go‘zallikka, baxtga intiladi, baxtiyor damlarni kutib yashaydi. O‘ziga to‘kis baxtni sog‘inmagan odam zoti topilmasa kerak. Baxt esa, misoli bir qush: qattiqroq ushlasang ham, bir oz bo‘sh qo‘ysang ham undan ayrilib qolishing mumkin. Shu tufayli uni har kim o‘zicha tushunadi, o‘zicha tasavvur etadi, o‘zicha anglaydi. Dunyodagi buyuk kashfiyotlar, o‘lmas san’at asarlarining yaratilishiga ham aslida insoniyatning baxt haqidagi orzu-armonlari sababchi bo‘lgan bo‘lsa, ehtimol.

Odamlar baxt deganda ko‘proq nimani tushunishadi?

Har kim o‘zining ongi, tafakkuri rivojiga qarab baxtni har narsada ko‘radi. Ayollar asosan oilasining tinch-xotirjamligi, erining unga mehr-muhabbatli bo‘lib, farzandlari barkamol bo‘lishini, qizlar esa har tomonlama o‘ziga mos kishini uchratishni baxt deb hisoblaydi. Ba’zi erkaklar uchun oilasining moddiy ta’minlanganligi, ayolining shirinso‘zligi bo‘lsa, ayrimlari uchun ko‘chadagi ayol bilan munosabat o‘rnatish baxt. Yigitlar kelajagini oila bilan bog’laydi. Ular chiroyli ayolni chiroyli oila deb biladi. Baxtni boylik bilan o‘lchab bo‘ladimi?

Boylik baxt ko‘rsatkichi emas. Masalan, bir buyuk rus olimi o‘zining baxtini raketalar yaratishda ko‘rgan. U oshxonalardagi qoldiq ovqatlarni yeb kun ko‘rgan. Lekin bunday sharoitda ham o‘zini baxtli hisoblagan. O‘ziga to‘q bo‘lish baxtni his qilish uchun ozgina omil bo‘lishi mumkin. Odam ehtiyojlarining hech bo‘lmaganda o‘rtamiyona darajada qondirilishi ham baxtli bo‘lish uchun zamin yaratadi. Ba’zan hamma narsasi yetarli odamlar ham o‘zini baxtsiz his qiladi. Kishilar o‘zlarini baxtli his etishlari uchun nima qilishlari kerak?

Bu dunyoga inson bo‘lib kelishning o‘zi baxt, undan inson bo‘lib ketish undan ham katta baxt. Afsuski, baxtning qadriga har doim ham yetavermaymiz. Erta bilan turib quyosh nurini ko‘rishning o‘zi katta baxt. Gap uni his qilib, dunyo ne’matlaridan lazzatlana olishda. Baxtning davomiyligi qancha? Bir umrlik deb qarash noto‘g’ri. Faqat kasbdan topilgan baxt bir umrlik bo‘lishi mumkin.

Go‘zallik - estetika tushunchasi. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, inson faoliyatining kishida mehr-muhabbat, quvonch, zavq, erkinlik tuyg‘ulari hosil qilishga qodir bo‘lgan xususiyatlarini ifodalaydi.

Islom ta’limotida go‘zallikning o‘zi ham, timsoli ham Alloh jamolidandir. Inson go‘zalligi uning yaxshilik qilishida, sabr-toqatida; bular inson go‘zalligini belgilovchi mezon sifatida qaraladi. Go‘zallik insonning Alloh karomatini tushunib yetishi va unga ergashishi, ma’naviy axloqiy poklanish sari intilishidir.

O‘rta Osiyo mutafakkirlari go‘zallikni islom aqidalari ruhida idrok etsalar-da, go‘zallikning murakkab ma’naviy jarayon ekanligini ta’kidlashga harakat qilganlar.

Forobiy ta’limotiga ko‘ra, go‘zallik - insonning jismoniy, ma’naviy va axloqiy chiroyining ifodasidir. Alisher Navoiy barcha go‘zallik hayot va insonda, ayni vaqtida,

barcha xunuklik va nopoliklik ham insonda deb bildi, shuning uchun u inson tarbiyasiga katta ahamiyat berdi.

Go‘zallik haqida juda ko‘p nazariyalar, qarashlar, ta’limotlar mavjud. Ularda go‘zallikning qaysidir bir tomoni, belgisi, ahamiyati qayd etiladi. Sokrat fikricha, inson uchun foydali va kerakli narsalar go‘zaldir. Platon tasavvuricha, inson go‘zallikni allaqanday estetik-ruhiy kayfiyat chog‘idagina idrok eta oladi. Uning ta’limotiga ko‘ra, go‘zallik narsa va predmetlarga xos bo‘lmay, insonning voqelikka ma’naviy-estetik munosabati natijasida tug‘iladigan g‘oya, tushunchadir. Aristotel, Didro fikriga ko‘ra, narsa va hodisalardagi uyg‘unlik, mutanosiblik go‘zallikni tashkil etadi. Inson narsa va hodisalarning go‘zal yoki xunukligini belgilashda me’yor vazifasini o‘taydi. Insoniy me’yor go‘zallikning asosidir. Kant go‘zallik asosiga kishining narsa va hodisalardan beg‘araz zavq olishini qo‘yadi. Ma’rifatparvarlar go‘zallik deb, insonning hayotda uyg‘un ijtimoiy aloqalar o‘rnatishga bo‘lgan intilishini tushunganlar. Gegel fikriga ko‘ra, tabiatdagi go‘zallikdan san’at go‘zalligi mukammalroq, chunki unda timsol va g‘oya o‘zining mutlaq uyg‘unligini topadi. Chernishevskiy ta’kidlashicha, hayot - go‘zallikdir, inson hayoti, ehtiyoji va maqsadiga mos tushuvchi narsalar go‘zaldir.

XIX-XX asrda jahon estetikasidagi turli falsafiy yo‘nalishlar vakillari ilgari surgan g‘oyaga ko‘ra, go‘zallik inson ruhiyati, qalbi va ma’naviyati bilan bog‘liq tushunchadir. Go‘zallik manbayi shaxs qalbidadir.

Go‘zallik - inson va hodisalarni umuminsoniy va milliy qadriyat sifatida belgilovchi ijtimoiy, ijobiy va ijodiy tushunchadir. Go‘zallikni idrok etish shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ongi, didi, dunyoqarashi kabi omillarga bog‘liq. O‘zbek tilidagi «chiroyli» so‘zi estetik baho sifatida alohida buyum, narsa va shaxsni, ko‘pincha tashqi belgilar va shakllarning mutanosibligi, uyg‘unligini nazarda tutsa, go‘zallik so‘zi inson ongidagi tushunchani, tasavvurni, idealni ifodalaydi. Tarixiy taraqqiyot natijasida har bir xalq o‘zining go‘zallik ideali va tushunchasiga ega bo‘ladi. Bu tushunchalardagi mushtarak insoniyma’naviy jihatlar umumbashariy go‘zallik haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Go‘zallik tabiat, jamiyat va insonga xos mushtarak xususiyatlarni qamrab olgan holda muayyan sharoit va hodisalar b-n bog‘liq tarixiy, ijtimoiy, milliy va o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘ladi.

Tabiatdagi go‘zallik ko‘proq mutanosiblik, uygunlik, rang-baranglik singari zohiriy belgilar, sifatlar me’yori bilan baholanadi; ijtimoiy hayotdagi go‘zallik jamiyatning inson uchun yaratgan erkin va demokratik tamoyillari darajasi bilan o‘lchanadi; adabiyot va san’atdagi go‘zallik ijodkorning original obrazlar, g‘oyalar kashfiyoti, badiiy maxrrati bilan belgilanadi.

Barcha narsa va hodisalarning go‘zalligini ifodalovchi asosiy omil - uning kishiga zavq bag‘ishlashi. San’at asarlari go‘zallikni yorqin va umumlashtirib aks ettirgani uchun ular xar bir shaxsda zavq uyg‘otadi, go‘zallik tuyg‘usini tarbiyalaydi.

3. Samimiylit - ilohiy uchqun. Bu tong shudringi kabi toza. Aslida, bu uchqun har bir insonda mavjud, shunchaki qalbimizda to‘planadi, uni ko‘rmoq qiyin. Aslida, bir samimiylit inson har doim boshqalarni o‘ziga jalb etadi. Samimiylit hurmatni anglatadi. Samimiylit odam bugungi dunyoda kamdan kam bo‘ladi.

To‘g‘rilik. Qadim zamonda bir podsho bo‘lgan ekan. Podsho o‘z saroyiga katta ayvon soldirmoqchi bo‘libdi. Buning uchun turli mamlakatlardan eng yaxshi ustalarni chaqirtiribdi. Ustalar qisqa vaqt ichida juda katta ayvon qurishga kirishibdi. Ayvon bitay deb qolganida bitta chetiga ustun yetmay qolibdi. Ayvonga to‘g‘ri va silliq ustun kerak ekan.

Podsho ayvonga mos keladigan ustun qidirib topishga buyruq beribdi. Saroy ulamolari ko‘p joylarga borib, hech qaerdan ayvonga mos ustunni topa olmabdilar. Bir xaroba hovlida bir kampir yolg‘iz yashar ekan. Uning hovlisida bitta-yu bitta teragi bo‘lib, u juda to‘g‘ri va chiroyli bo‘lib o‘sigan ekan. Buni eshitgan saroy odamlari podshoga yetkazishibdi.

Podsho o‘sha terakni kesib, olib kelishni buyuribdi. Terakni keltirib, ayvonga qo‘yishibdi. Terak ayvonga juda ham mos kelibdi. Naqqoshlar terakka ajoyib naqshlar, gullar solib, oltin bilan bezashibdi. Ayvon ham bitibdi.

Bir necha kun o‘tgach, kampir o‘z teragini ko‘rib kelish uchun saroyga yo‘l olibdi. U o‘z teragini tanib, uni naqadar go‘zal bo‘lib ketganligidan zavqlanib, tomosha qila boshlabdi. Saroy soqchilari kampirdan xavotir olib, uni podsho yoniga olib boribdilar. Podsho kampirdan, bu yerda nima ish bilan yurganini so‘rabdi. Shunda kampir: - Sizning ayvoningizni qurishda ishlatilgan mening teragim, ota-onamdan qolgan edi. U

yoshligidan boshlab to‘g‘ri va chiroyli bo‘lib o‘sdi. Shuning uchun uning nafi ham tegdi, o‘zini ham, meni ham zarga botirdi. To‘g‘rilik qanday yaxshi ekan, -debdii. Podsho kampirning aytganlaridan quvonib, unga yana bir qancha tillalar-u, qimmatbaho buyumlar beribdi.

Xulosa shuki, to’g‘rilik hamisha yaxshilik olib keladi.

Kamtarlik - bu ezgu niyatlichkeit, odamiylik, xushmuomalalik, bag`ri kenglik, izzat-ikromni bilishlik, do`stlari va umuman o`zgalarning qadriga yetishlik, hurmat qila olishlik, ma`naviy poklik demakdir.

Xalq og`zaki ijodi odobnomasida kamtarlikning foydasi, inson uchun qusur hisoblangan manmanlikning zararli oqibatlari hayotiy voqeа va ibratomuz tasvirlar vositasida to`la-to`kis aks ettirilgan.

Kamtarlikni o`ziga libos qilib olgan insonlar hayotdagi eng yaxshi, sof vijdonli kishilar bo`lib, har qanday sharoitda, har qanday lavozimda to`g`ri va haqqoniy yo`l tutadilar, to`g`ri so`zlab, to`g`ri yuradilar, oljanob va rahm-shafqatli, hamma ishni saranjom, osoyishta bajaradilar. Manmanlikka, dabdababozlikka, mubolag`a, bo`rttirishlarga, yolg`on-yashiqqa yo`l qo`ymaydilar.

E`tibor bering-a, mana xalqimiz kamtarlik to`g`risida nima deydi:

“Yo`q narsa ham bor bo`lur, Sen kamtar bo`lsang.

Bor narsa ham yo`q bo`lur, Sen manman bo`lsang”.

Yoshlikdan kamtarinlik libosini kiygan kishi keyinchalik ham qoqilmaydi, tobora kamol topa boradi. Luqmoni Hakim shunday deydi:

“Mag`rurlik aqlsizlik alomatidir. Kibrlanish, mag`rurlanish insonni halokatga soladi. Mag`rur kishilar jamiyat g`azabiga duchor bo`ladilar. Garchi mag`rur, takabbur kishilar boy, olim, mansabdor esalarda, jamiyat o`rtasida hech obro`lari, qadrlari bo`lmaydi. Ularning haqiqiy do`sti, ulfati bo`lmaydi, borlari ham boshiga yomon kun tushganda asqotmaydilar. Oxir oqibat ular xorlik, yolg`izlikda yashashga mahkumdirlar.”

Kamtarlik - bu boshqalarning xatti-harakatlari va qadriyatlarini ichkilashtirish natijasida olingan shaxsiy xususiyatdir. U o‘zining hissiy va xulq-atvorini ma'lum chegaralarda ushlab turish, xotirjamlik, mo‘tadillik va vazminlikni saqlash, boshqa

odamlarga, moddiy va maishiy sharoitlarga minimal talablar qo‘yish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Kamtarlik insonning turmush tarzini o‘zgartiradi, muloqotda odoblilikni, odob-axloqni hurmat qilishni, hashamatsiz hayot kechirishni ta‘minlaydi.

Kamtarlik insonni bezatadi, uni ortiqcha maqtanmasdan, insonning fazilatlari xatti-harakatlarida namoyon bo‘lganda va mukofotlar tilanchiliksiz va talab qilmasdan keladi, deb ishoniladi. Ko‘pincha kamtarlik uyatchanlik va qo‘rroqlik bilan sinonim sifatida ishlataladi, ammo bu noto‘g’ri, hatto shunga o‘xhash ko‘rinishlarda ham, chunki kamtarlik ongli harakat, tanlovdır va boshqa ko‘rinishlar ongsiz kelib chiqadi.

Kamtarlik insonga atrof-muhitga ortiqcha e’tiborni jalb qilmasdan moslashishga imkon beradigan xarakter xususiyati hisoblanadi, asosan o‘z shaxsiga (harakat yoki so‘z, kiyim yoki xarid bilan) e’tiborni qaratishni noloyiq xatti-harakatlar deb hisoblaydi. Ko‘pgina qoidalar to‘plami (odob-axloq qoidalari, odobli ijtimoiy xulq-atvor) orqali kamtarlik insonni bezatadi va boshqalarga ulardan o‘rganish imkoniyatini va qarashlarini ta‘minlaydigan, mehribonlikni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan eng qimmatli xususiyatdir.

Kamtarlik xulq-atvorda namoyon bo‘ladi va uning ma'lum bir chizig'ini aks ettiradi va bunday xatti-harakatlarning sabablari ham har xil bo‘lishi mumkin. Kamtar odam oljanoblikdan bo‘lishi mumkin yoki u o‘zining xizmatlarini chin dildan ajoyib deb hisoblamasligi yoki o‘zini ko‘rsatishga qodir emasligi yoki hayo niqobi ostida yashirinib, boshqalarning uni taqdim etishini kutishi mumkin. Ko‘pchilik, boshqalar kamtarona namoyishlarni qanchalik qadrlashini bilib, faqat qisman o‘zlari taassurot qoldirishlari kerak bo‘lgan kerakli odamning huzurida harakat qilishlari mumkin. Bu haqiqiy kamtarlik emas, xuddi o‘z g’arazli maqsadlarini ko‘zlagan mehribonlik haqiqiy mehribonlik emasligi kabi

**4. XXI asrga kelib, inson mohiyatini, uning hayoti ma’no-mazmunini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib borayotgani o‘z navbatida yana muhabbat mavzusiga murojaat qilishni taqozo qiladi.** Aslida, butun insoniyat tarixi – insoniyat madaniyatlarining hamma qatlamlari, inson takomilining barcha darajalari – tabiiy-biologik bo‘ladimi yoki ruhiy emotsiyal, ijtimoiy-shaxsiy yoki ma’naviy-axloqiy muhabbat mavzusi bilan bog‘liqdir. “Hozirgi kunda kechayotgan antropologik inqiroz

insonning o‘z-o‘zidan, boshqa insonlardan, tabiatdan, jamiyatdan va umuman kosmosdan begonalashuvining kuchayib borayotgani ham muhabbat mavzusini tadqiq etishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Shuning uchun biz ushbu mavzuni – muhabbat mavzusining tarixiy-genetik ildizlarini, bunga bog‘liq bo‘lgan ba’zi tushunchalarning etimologik ma’nolarini, o‘rta asrlarda bu borada kechgan bahs-munozaralarning o‘ziga xos jihatlarini, uning nazariy-g‘oyaviy asoslarini, ushbu mavzuga oid bo‘lgan turli mutasavvif va faylasuf allomalarining qarashlarini islom falsafiy tafakkurining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan tasavvuf ta’limoti asosida ilmiy tadqiq etishni lozim topdik. Xususan, bunda shayx, imomi kabir, sayyid, zohid nomlari bilan mashhur bo‘lgan mutasavvif alloma Abu Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh Mustamliy Buxoriyning “Sharh at-taarruf” asarini asos sifatida tanladik.

Dastlab manbalarni tahlil etar ekanmiz, “muhabbat” so‘zining “ishq”, “sevgi”, “mehr” kabi tushunchalar bilan birga qo‘llanilishini ko‘ramiz.

“Muhabbat” so‘zining etimologiyasi va ma’nolari.

“Muhabbat” so‘zining kelib chiqishi to‘g‘risida turli qarashlar mavjud. Ba’zilar ushbu so‘zni “muhovibat” so‘zidan olingan, deyishadi. Boshqa ba’zilar esa “muhabbat” so‘zining “hubb” (*xum*) so‘zidan kelib chiqqanini taxmin qilishadi. Ularning ta’kidlashlaricha, xum to‘lganida unda boshqa narsa uchun joy qolmaganidek, ko‘ngil ham muhabbat bilan to‘lganidan so‘ng, unda sevmagan kishisiga joy qolmagay. Yana boshqa ba’zilar “muhabbat” so‘zining “habb” (*don*) so‘zidan kelib chiqqani to‘g‘risida fikr bildirishadi. Jumladan, “habb” so‘zi to‘g‘risida har bir mag‘zli narsaning doni bor, deydilar. Shundan kelib chiqib, yurakning o‘rtasini “habbat ul-qalb” (*yurak doni*), deydilar va do‘sst (*sevgili, suyukli, mahbub, ma’shuq*) o‘sha joydan o‘tsa, o‘shani “muhabbat” deb ataydilar.

Muhabbat bosh mezoniy tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o‘z «xissa»siga ega. Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vataparvarlikni, na insonparvarlikni muhabbatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

U – insonni olam bilan bog‘lovchi, uni yolg‘izlikdan olib chiqadigan buyuk kuch. Muhabbatning obyekti doimo go‘zallik, manfaatsiz go‘zallik. U – OAllohmi, Vatanmi,

yormi –muhabbat egasiga undan-da go‘zalroq narsa yo’q. Ayni paytda bir obyektni sevgan kishi boshqa obyektlarni ham sevmasligi mumkin emas. Deylik, yorga bo’lgan haqiqiy muhabbat Vatanga, insoniyatga muhabbatni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero «o’z-o’zicha», yakka, «xudbin» muhabbatning bo’lishi mumkin emas. Inson o’zi o’zgaga aylanganida, o’zgani o’ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi. Mana shu obyekt bilan subyekt orasidagi farqning yo’qolishi eng buyuk, eng mukammal lazzatdir. Buni mavlono Fuzuliy nihoyatda go‘zal qilib, bir baytda shunday ifodalaydi:

Ishqdir ul, nasha’I komilkim, andandir mudom

Mayda tashviri xarorat, nayda ta’siri sado.

Komil nash’a, komil lazzatga faqat komil insongina erisha oladi. Demak, muhabbat inson axloqiy hayotining cho’qqisi, komillik belgisidir. Shu bois haqiqiy muhabbat egalari yoshlar tomonidan doimo axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi: Farhod va Shirin, Romeo va Julyetta, Otabek va Kumush kabi. Shuni ta’kidlash lozimki, muhabbat –oliv tuyg’u.

Bu dunyoda o’z yurtini, kindik qoni tomgan ota makonini sevmaydigan, Vatandan uzoqlarga ketganida uni intiqib sog‘inmaydigan inson bo‘lmasa kerak. Inson qalbidagi sadoqat, fidoyilik tuyg‘ulari ham o’z Vataniga bo’lgan muhabbatdan paydo bo‘ladi. Dunyodagi eng go‘zal bino va inshootlar ham ana shunday muhabbat qudratidan paydo bo’lgan va ular Vatanga sadoqat va fidoyilik timsoli sifatida mangu qad rostlab turaveradi.

Shoir Vatanga bo’lgan tuyg‘usini she’rlarida yonib kuylasa, quruvchi yerdan qad rostlab har bir shahar va qishloqqa ko‘cha va xiyobonga, so‘lim oromgohlarga ko‘rk bo‘lib turgan turli bino va inshootlarni yaratadi. Ustoz- muallimlar turli kasblarni egallab, shu yurtga sadoqat bilan xizmat qiluvchi o‘g‘il-qizlarni tarbiyalaydi, shifokor shunday insonlarning sog‘lig‘ini asraydi va hokazo.

Biz buning isbotiga mustaqillik yillarida guvoh bo‘layapmiz, ko‘rayapmiz, quvonayapmiz. Mustaqillik yillarida tug‘ilgan o‘g‘il-qizlarimiz hozir ayni navqiron yoshda. Shu yurt uchun, ota makon uchun belbog‘lab mehnat qilayaptilar, o‘qiyaptilar,

yangi ixtiolar yaratayaptilar, sport shohsupalarida O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko‘tarib, yurt sha’ni va qadr-qimmatini ulug‘layaptilar.

Qadimda bir olim shogirdlariga turli ilmlarni o‘rgatar ekan. Bir kuni quyidagicha topshiriq berdi: ertangi darsga menga jannat tuprog‘idan bir hovuchdan olib kelinglar. Shogirdlar hayron-u lol bo‘lishibdi, har qancha urinishmasin bu savolga javob topishholmabdi. Faqat ilmli, zukko, ibodatlarga qoim bo‘lgan, mehribon bir shogirdi ertasiga lattaga o‘ralgan bir hovuch tuproqni ustozni oldiga qo‘yibdi. Olim buning izohini so‘rabdi. Shunda shogird debdi:

«Siz menga Payg‘ambarimiz (s.a.v.) aytgan bir hadisni o‘rgatgan edingiz: «Jannat onalar oyog‘i ostidadir». Shuning uchun men mehribon onam oyoq izlari bosilgan tuproqdan sizga olib keldim. Bergan topshirig‘ingizga javobim shu».

Olim shogirdining aql-zakovatiga tan berib, uni boshqalarga o‘rnak qilib ko‘rsatgan ekan.

Alloh taolo barcha mavjudotlar qatori insonni ham juft holida yaratgan. Ayol zoti erkaklarga jufti halol, orom-sakinat, oilaning chirog‘i va farzandlar murabbiyasidir. Qur’oni karimda marhamat qilinganidek, “ular sizlar uchun libos, sizlar ular uchun libosdirsiz”.

Ayol – onamiz, jufti halolimiz, opa-singlimiz, qizimizdir. Agar ayol ham jismonan, ham ma’nан sog‘lom bo‘lsa, demak, jamiyat sog‘lom bo‘ladi. Chunki kelajak mevasi, ertamiz egalari bo‘lmish farzandlarni onalar dunyoga keltiradi. Ularga boshlang‘ich ta’lim-tarbiya va odob-axloqni ham onalarimiz, momolarimiz o‘rgatadi. Shunday ekan, kelajak avlod ko‘p jihatdan bugungi kun ayollarining qanchalik oqila, soliha, hayoli, axloqli bo‘lishlariga bog‘liqdir.

Yurtimizda xotin-qizlarni ulug‘lash borasida amalga oshirilayotgan ezgu sa’y-harakatlar xalqimizning asrlar osha yashab kelayotgan o‘lmas qadriyatlariga, muqaddas islom dinimiz amallariga uyg‘un va hamohangdir.

Islom dinida ayol oliv martabaga ko‘tarilgan va ayolning sharafi, iffati, haq-huquqlari ta’minlangan. “Jannat onalar oyog‘i ostidadir”, “O‘z xotiniga mehr-shafqatli bo‘lgan kishilar eng yaxshilaringizdir”, deyiladi sahif hadislarda. Islomda erkaklarga o‘z ayollariga yaxshi, xush muomalada bo‘lish, ularning ilm olishiga sharoit yaratib

berish, taom, kiyim, boshpana va ro‘zg‘or ashyolari bilan ta’minalash, nikohda mahrini berish kabi ko‘plab majburiyatlar yuklangan.

Qur’oni karimda ayol haqida ko‘p oyatlar nozil qilingan. Suralarning biri Niso (Ayollar), yana biri Taloq deya nomlanib, bularda asosan ayollarga taalluqli ilohiy hukmlar bayon qilingan. Baqara, Moida, Nur, Ahzob, Mujodala, Mumtahana va Tahrим suralarida ham ayollarga tegishli ko‘p masalalar batafsil aytilgan. Bu islom dinida ayol zotiga qanchalik katta e’tibor va ehtirom ko‘rsatilgani, ayollarning o‘rni qay darajada ulug‘ ekanidan dalolatdir.

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, ayolga har doim ham birday yaxshi munosabatda bo‘linmagan. Qadimgi davrlarda nikoh, mulk tasarrufi, axloq sohasida ularning haq-huquqlari poymol etilgan, izzat-nafslari kamsitilgan.

Bugungi kunda ham ayrim mamlakatlarda ayol ko‘ngil xushiga, o‘tmas molni xaridorgir qilish, ya’ni reklama vositasiga aylanib borayotgani sir emas. Ba’zi soxta shiorlar, buzuq mafkurlar yordamida ayollarni iffatidan, xonadonidan, oilasidan tortib olishga urinishlar bo‘layotir. Eng yomoni, bu illat “ommaviy madaniyat” shaklida keng tarqalmoqda, boshqa xalqlarning qadriyatlari, betakror an'analariga ham “chang solmoqda”.

Farzandiga mehribonlik ko‘rsatmaydigan, turli bahonalar bilan chaqalog‘ini emizishdan bo‘yin tovlaydigan, ularni bolalar uylariga tashlab ketadigan, farzandlar tarbiyasi bilan mutlaqo shug‘ullanmaydigan ayrim bemehr onalar ham uchrab turishi barchamizni tashvishlantiradi. Xotin-qizlarimiz orasida hashamga o‘chlik, mol-dunyoga ruju qo‘yish, hoyu havasga ergashish hollari ham kuzatilmoqda. Ayrim ayollarning behayolarcha kiyinishi, so‘kinishi, tamaki chekishi, ichkilik ichishi, bazm-ishrat qilishi kishida noxush kayfiyat uyg‘otadi.

Bularning barchasi, albatta, o‘zbek ayoliga, ayniqsa, musulmon ayollarga yarashmagan ishdir. Negaki ayol deganda bizning ko‘z o‘ngimizda, avvalo, ibo-hayo sohibalari gavdalanadi. Musulmon ayol eriga vafodorlikni, mehribonlik va oilaparvarlikni ibodat darjasiga ko‘taradi. Har qanday sharoitda ham o‘zini yomon ko‘zlardan asraydi, sabr-qanoatli bo‘ladi. Xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan, hatto

urush yillarining mashaqqatlariga chidagan ulug‘ momolarimizning ibratli hayoti bunga misoldir.

Qur’oni karim va sunnat ta’limotlarida ayolga taalluqli huquqlar alohida belgilab berilgan. Alloh taolo ayol haq-huquqlari haqida bunday marhamat qiladi: “Ayollar uchun (belgilangan huquqlar) o‘z me’yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir”.

Dinimiz ta’limotiga ko‘ra, ayol o‘z moli va boyliklarini tasarruf qilish, eri yoki otasining aralashuviziz tijoriy shartnomalarni tuzish kabi moliyaviy muomalalarda, ilm va ma’rifat o‘rganish, din ta’limotlariga rioya qilgan holda joni, sog‘lig‘i, aqlini saqlash va rivojlantirish, aqli va jismi islohoti bilan bog‘liq bo‘lgan hamma ishda erkaklar bilan barobar huquqqa egadir.

Islom shariati xotinni erining uyida mas’ul bo‘lishida erkak kishi maqomi bilan barobar o‘ringa qo‘ygan. Jumladan, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) marhamat qiladilarki: “Barchalaringiz bamisoli cho‘ponsiz va qo‘l ostidagilaringizdan so‘ralursiz. Imom o‘z qavmiga mas’uldir, ayol erining uyiga mas’uldir, er ahli ayoliga mas’uldir”. Bu hadisi sharif ayol va erkak mas’uliyatda barobar ekaniga dalolat qiladi hamda ayol jamiyat va oilada naqadar katta mavqega ega ekanini bildiradi.

Ulug‘ vatandoshimiz Abu Lays Samarqandiy erkaklar xotinini haloldan rizqlantirish, unga zarur ilmlarni o‘rgatish, zulm qilmaslik, agar haddidan oshsa, nasihat qilish lozimligini ta’kidlagan.

Ayol kishi, avvalo, onadir. Qur’oni karimning bir necha oyatlarida onani e’zozlash, uning haqqini ado etish buyurilgan. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) ham hadislarining birida: “Jannat onalar oyog‘i ostidadir”, deb marhamat qilganlar. Islom ta’limotida oilali ayolning zimmasiga qator vazifalar yuklatilishi barobarida, oilada u o‘z haq-huquqiga ham ega ekani aytilgan.

Payg‘ambarimizning (s.a.v.): “Ayollar erkaklarning ajralmas bir qismidirlar”, degan hadislariga binoan ayol kishi jamiyatning ajralmas bir bo‘lagi ekan, u ijtimoiy hayotda o‘z mavqeiga ega bo‘lib, ilm olishga, kasb-hunar qilishga haqlidir. Shunga binoan bugungi kunning ayoli ham unga berilgan haq-huquqlardan oqilona foydalanish bilan birga, ayollik iffatini saqlab, o‘z sha’niga dog‘ tushirmslikka harakat qilishi lozim. Ularni turli yomonlik, xavf-xatar va illatlardan himoyalash, hurmatini joyiga

qo‘yib, chiroyli munosabatda bo‘lish esa erkaklarning zimmasidadir. Chunonchi, Rasululloh (s.a.v.) ayollarga yaxshi munosabatli bo‘lishga buyurib, bunday marhamat qiladilar: “Mo‘minlarning imon jihatidan komilrog‘i xulqi yaxshi bo‘lganlaridir. Sizlarning yaxshilaringiz o‘z ahlu ayoliga yaxshi bo‘lganlaringizdir”.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari va manfaatlarini ta’minlash borasida izchillik bilan amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning huquqiy asosi Bosh qomusimizda o‘z ifodasini topgan. Insonning, shu jumladan, xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta’minlaydigan milliy qonunchiligidimiz me’yorlari esa Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga hamohangdir.

Jamiyatimizda ayollarimiz salomatligini saqlash, ularni ish bilan ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, ijodiy-aqliy salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim dasturilamal bo‘lmoqda.

Bugun O‘zbekistonda xotin-qizlarga ehtirom ko‘rsatish, ularning huquqlarini muhofaza qilish, salomatliklari uchun qayg‘urish borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar xalqaro miqyosda ham keng e’tirof etilmoqda. Ayollarimiz mohir uy bekasi, jonkuyar ona bo‘lishi bilan birga yurtimizdagи ijtimoiy, madaniy va siyosiy jabhalarda erkaklar bilan birdek faol ishtirok etayotganidan faxrlansak arziyi.

## 5. O‘z-o‘zini tarbiyalash nima?

Biror kishining har qanday vaqtda o‘z kuchi, mahorati va qat’iyati bilan erishgan narsalari har doim qimmatli bo‘lgan. Shaxsiyatni shakllantirishda o‘z-o‘zini boshqarishning roli juda katta ahamiyatga ega: insonni o‘ziga xos va individual ovozda dunyoga ochib berish.

O‘z-o‘zini tarbiyalash - bu insonning tabiatan beradigan potensialini maqsadga muvofiq va mustaqil ravishda amalga oshirishga bo‘lgan ongli intilishi. To‘liq amalga oshirish uchun o‘zingizning chuqur bilimingiz, shaxsiy fazilatlaringizni takomillashtirish, zarur ko‘nikmalarni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish kerak. O‘z-o‘zini tarbiyalash - bu masala qadimgi tarixdan boshlab yozuvchilar, faylasuflar, pedagoglar, psixologlar tomonidan chuqur o‘rganilgan.

## O‘z-o‘zini tarbiyalash psixologiyasi

Psixologlar inson qalbi rivojlanishining asosiy omili ekanligini aytadilar. O‘z-o‘zini tarbiyalash konseptsiyasi bir necha tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi: xarakteri, irodasi, xulq-atvorini shakllantirish. XX asrning nemis psixoanalchisi va faylasufi Erik Fromm insonning asosiy hayotiy vazifasi haqida gapirar ekan, o‘z hayotini berishga, uning potentsialiga aylanishiga sabab bo‘ldi. Ishlarning eng muhim natijasi - uning o‘ziga xosligi. Asosiy sabablar o‘zlariga ishlaydigan ichki impulslarni hosil qiladi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash nimani anglatadi?

Voyaga etgan inson hayotida o‘z-o‘zini tarbiyalash - uning asosiy maqsadi insonning o‘z fe'l-atvori ustidan chuqur ishlarini olib boradi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: qiyin hayot sharoitlarini bartaraf etish - bu faqat insonni g'azablantiradi; salbiy xususiyatlarni ishlab chiqish va ijobjiy rivojlanish; his-tuyg'ularni yengish va nazorat qilish bo‘yicha treninglar - emotSIONAL razvedka darajasini ko‘tarish; hayotda o‘z hayotiga sodiqlik.

Nima uchun siz o‘zingizga ta’lim olishingiz kerak?

Insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashi insonning o‘zlarini o‘zgartirish zarurati ostidagi qarama-qarshilik va ziddiyatlarni bartaraf etishning muhim jarayonidir. Bilish har doim yoqimli jarayon emas. Salbiy tomonlarini e'tirof etgan kishi, aybdor his qilish, tajovuzkorlik, g'azablanish hissiyotlariga duch keladi - bu achchiq va ayni paytda davolovchi moment. O‘z-o‘zini tarbiyalash va takomillashtirish yordami:

o‘zingizga va atrofdagilar uchun baxtli bo‘lish;

yengishning quvonchli fazilati;

ehtiyojga muhtoj bo‘lganlarga yordam berish istagi

ijodiy o‘zini o‘zi ifodalashni amalga oshirish

kabilar inson qalbi va hayotini tarbiyalash, bu orqali muvaffaqiyatga erishishga sabab bo‘ladi.

“Ustoz - otangdek ulug“.

Ilm - bebaho boylik, uni egallash oson ish emas. Ulamolar ilm olishni igna bilan quduq qazishga o‘xshatishgan. Inson shunday bebaho xazinaning sohibi bo‘lishida ustozning o‘rni beqiyos.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bir hadisi sharifda o‘zidagi bilim va hunarni boshqalarga o‘rgatuvchi insonlar haqida: «Albatta, Alloh taolo uning farishtalari, samovot ahli, hattoki, kavakdagi chumoli, dengizdagi baliqqacha barchalari insonlarga yaxshilik o‘rgatuvchi kishi haqiga salovat-duo aytib turadilar”, deb marhamat qilganlar.

Xalqimizda “Ustoz otangdek ulug” - degan hikmat bejiz aytilmaydi. O‘tgan ulug‘larimiz, ota-bobolarimiz ustoz va muallimlarning haqqini yaxshi bilganlar, ularning qadri nechog‘li baland ekanini teran anglaganlar va shunga ko‘ra muomala qilganlar. Imomi a’zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh shunday deganlari rivoyat qilinadi: «Ustozim Hammodning hurmati uchun uning uyi tomonga oyog‘imni uzatmaganman. Holbuki, uning uyi bilan mening uyim orasida yettita ko‘cha bor edi. Hammod vafot etgandan so‘ng qachon namoz o‘qisam, har safar albatta ota-onamga qo‘sib, unga ham Allohdan mag‘firat so‘raganman. Nafaqat u ustozim, balki kimdan nimadir o‘rgangan bo‘lsam yoki kimdir menga nimadir o‘rgatgan bo‘lsa, albatta, o‘sha kishilar uchun ham doim Allohdan mag‘firat so‘rayman».

Ustozlar haqida gap borganda hazrat Alisher Navoiyning bu baytlaridan oshirib bir so‘z aytmoq mushkuldir:

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,

Aylamat bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Shunday ekan, yoshlari, talabalar va barchamiz ustozlarni qadrlab, doimo ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatishimiz lozim. Talabalik odoblariga rioya qilgan shogird haqiqiy ma’noda ustozlarini hurmat qilgan bo‘ladi va olayotgan ilm-u hunari samarali bo‘lib, vujudiga singadi va kelajakda manfaatli bo‘ladi.

## 6. Oiladagi saranjom-sarishtalik yoki uy tutish qoidalari.

Dunyoda hech bir xalqda, oilada kelin mavqeiga Sharq xalqlari, xususan o‘zbeklarchalik katta o‘rin berilmaydi. O‘zbeklarda turmushga chiqqan qiz borki, u kelinlikning nozik davrini albatta boshidan kechiradi. Necha-necha asrlardan beri oila bor. Lekin kelinlikning muayyan bir nomasi yo‘q. Har bir kelin o‘z peshonasiga bitilgan baxtni ushlab qolishi kerak. Saranjom-sarishtalik va oila iqtisodiyotini to‘g‘ri yuritmasdan oila farovonligini tasavvur etib bo‘lmaydi. Xoh qishloq sharoitida, xoh

shaharda bo'lsin, o'zbek xonadonlarida ertalabdan hayot qaynaydi. Tong saharda uyqidan turadilar. Yotgan o'rin-to'shak yig'iladi, yuvini hovliga suv sepib, supurib-sidiriladi. Ertalabki ro'zg'or ishlari tugagach, nonushtaga o'tiriladi. Xonadon sohiblarining qandayligini ostonadan bilish mumkin, shuning uchun doimo darvoza oldi supuriladi. Hovlidagi tartibsizlik, ekinlarning rejasiz ekilishi, qarovsiz, parvarishsiz, daraxtlar shu hovliga kirgan kishining dilini xira qiladi. Musulmon xalqiga mansub har bir oilada mehmonlar uchun alohida mehmonxona, bolalar, ota-onalar uchun alohida yotoqxonalar, dam olib suhbatlashadigan umumiy xona, oshxona va qo'shimcha xonalar bo'ladi. Yotoqxona uchun shinam, shovqin-surondan holi, bahavo xona ajratiladi. Yotoqxonada ko'rpalar, ko'rpachalar alohida, sandiq va quti ustiga did bilan yig'ib, oq choyshablarga o'rav qo'yiladi. Ota-onalarning alohida, o'g'il bolalar va qiz bolalar uchun alohida-alohida yotoqxonalar bo'lishi lozim. U yerda shkaf bo'lishi zarur. Har bir kishiga yuvib almashtirish uchun ikkitadan choyshab va yostiq g'iloflari bo'lishi kerak. Yotoqxona ortiqcha narsalar, devorlarga osilgan gilamlar, televizor, muzlatgich kabilar bilan to'ldirilmaydi, deraza tokchasiga gul qo'yiladi. Deraza pardalari vaqtiga bilan yuvib dazmullanadi. Ba'zi xonadonlarda "Hech kim kirmaydi-ku" deb o'rin yig'ilmay, kiyim-kechak palapartish tashlab ketilaveradi. Afsuski, bunday bekalar kelgusi hayotda ularning qiz-o'g'illari xuddi shunday andoza olishlari yoki o'zlarini bilan biror kishi kirib kelsa, noqulay vaziyatda qolishlarini o'ylamaydilar. Mehmonxona - toza va ozoda bo'lishi kerak. Mehmonxona sharqona bezatilsa, xontaxta atrofiga ko'rpachalar to'shaladi, yevropacha usulda esa stol va stullar qo'yiladi. Mehmon kuzatilgach, eshik-derazalar ochilib, havosi tozalanadi, idishlar yuvilib, dasturxon, sochiqlar yuvib dazmellanib qo'yiladi. Ba'zi mehmonxonalarga kirsangiz, kerakli-keraksiz uy anjomlari va devorda qo'sha-qo'sha gilamlar taxlab tashlangan. Billur chinnilar, qimmatbaho mebellar, xona devorlariga didsiz chizilgan har xil bachkana rasmlar kishining dilini xiralashtiradi. Buyumlar diqqat-e'tiborni tortib, fikrni chalg'itadi.

O'zbek xalqida xonadonga sovchi yoki mehmon kelsa, avvalo oshxonaga e'tibor beradi. Oshxona yorug', shinam, shamollatish oson va qo'shni xonalarga yaqin bo'lishi lozim. Oshxona kuniga bir marta tozalanib, yuvib, shamollatib turiladi. U yerda sabzavot va meva po'choqlari uchun va suyak, ovqat qoldiqlari uchun alohida chelak

bo‘lishi lozim, idishlar yuvilgach, qaynoq suvda chayiladi. Sanchqi va qoshiqlar artiladi. Sovitgichda esa sariyog', go‘sht, sut, taomlar, ho‘l mevalar og'zi yopiq holda saqlanadi. Maslahatlar: farosatli bo‘ling, singan, cheti uchgan idishlarda choy yoki taom keltirmang, hovlini supurish, kir yuvish kabi ishlarni ertalab yoki uyda odam kam paytda bajaring. Mehmonga xizmat ko‘rsatish, mehmonga borganda e'zoz ko‘rish ham bu dunyoning ziynatidir.

O‘zini tutish madaniyati - salomlashish odobi.

Muomala madaniyati: Salomlashish, so‘rashish, ko‘rishish - insonga xos bo‘lgan ajoyib fazilat, odamiylikning ko‘rki, asrlar davomida tarkib topgan va axloqiy qiyofalardagi normalarni ifodalaydigan belgi hisoblanadi. Qo‘l berib so‘rashish tarixi ibridoiy urug‘chilik davrida kelib chiqqanligini etnograf, arxeolog olimlar bunday talqin qilishadi:

Ibtidoiy odamlar bir-birlariga duch kelganlarida: "Men seni o‘ldirmoqchi emasman, mana qara, qo‘limda toshim yo‘q" deganday bir-birining qo‘lini ushlab qo‘yisharkan. Qo‘l qisib salomlashish o‘shandan meros bo‘lib, dunyodagi barcha xalqlarga xos odat tusiga aylanib ketgan. Bundan tashqari, turli xalqlarning o‘ziga xos urf-odati, turlicha sharoiti va taraqqiyoti zaminida salomlashishning yana boshqacha shakllari ham tarkib topgan. Masala: YYevropa xalqlari salomlashganda bosh kiyimlarini yechib-kiyib qo‘yishadi. Buning ma'nosi: "Men senga do‘sit bo‘laman, boshimga to‘qmoq bilan urmassan", deganidir. Hindistonliklarda kaftlarini juftlab, peshonasining o‘rtasiga tegizib, "Namaste!" so‘zini aytishadi. Buning ma'nosi: "Bosh omon bo‘lsa, hamisha siz bilan birga bo‘lamiz", deganidir. Afg'onistonda esa o‘ng qo‘lini manglayiga tegizib, ta'zim bajo keltirishadi, bu ham "boshimiz omon bo‘lsin" deb istak bildirishidir. Xitoyda salomlashish "chi-fan-la-lya-ma!" xitobini aytishdan boshlanadi. Ma'nosi: "Sen bugun ovqatlandingmi, qorning to‘qmi?" deganidir. Ma'lumki, Xitoy tarixining hamma davrlarida ham aholisining ko‘pligi bilan mashhur bo‘lgan. Xitoyda qorin to‘ydirish doimo muammo bo‘lib kelgan, shu sababli hayvonot-u o‘simlikning barcha turlaridan taom tayyorlash uslublari kelib chiqqan. Qorin och-to‘qligini so‘rash salomlashishning bir shakli sifatida kelib chiqishning boisi ham shunda. Tibetliklar salomlashganda bir-biriga qarab tillarini chiqarib iljayishar ekan.

Chunki Tibetda kishiga qarab tilini chiqarish o‘ziga xos nazokat, ziynat deb tushunilgandan shunday salomlashish urf bo‘lgan ekan.

Biz o‘zbeklarning turmush tarzimizda ajoyib udum - kelin bo‘lish odobi bor. Bu odob - yangi xonadonda hamisha samimiylar va halol bo‘lish, rostgo‘ylik va o‘zini tutabilish, so‘zlashish va muosharat, kuyov xonadonidagi oila a’zolari bilan til topishib ketish, hurmatini qozonish, kamtarlik, saranjom-sarishtalik kabilalar. Momolar, yangalar o‘giti "...Kelin bo‘ldingiz, umr yo‘ldoshingizni jon dildan seving, unga vafodor va sadoqatli bo‘ling, kelin bo‘lib kelgan kuningizdanoq yangi oilangizni hamma yumushiga aqlingiz, kuchingiz yetganicha qarashing, mehnatda pishiysiz, qadr topasiz, hurmatli bo‘lasiz. Bilmaganlaringizni o‘rganishga intilishingiz ham sizga nisbatan mehr uyg’otadi. Qaynota va qaynonangizni hurmatini joyiga qo‘ying. Har tongda va ko‘chadan kelganda salom bering. Muomalangiz har qanday sharoitda ham muloyim va e’tiborli bo‘lsin, tabassum va mayinlik bilan gapiring. Hamma gapga ham aralashavermang. Keksalar oldida bolalarmi urushmang, kattalar sizni o‘ziniki deb biror gap yoki maslahat aytganda, sizga yoqmasa ham burulmang, qosh qovog’ingizni tushurmang. Hech ham eringizga tik boqmang, zarda qilmang, bo‘lar-bo‘lmasga gap talashavermang, uni pastga urmang, kamsuqum va mehribon bo‘ling, shunday qilingki, umr yo‘ldoshingiz sizdan bezib ko‘chaga qochmasin. Xalqimizda "Chiqqan qiz - chig’iriqdan tashqari" degan ibora bor. Oil a qurdingizmi, demak shu xonodon sizning uyingiz. Huda-behudaga qizlik uyingizga boravermang, gap tashimang, qo‘ni-qo‘shniga, qarindosh-urug’ga, dugonalaringizga oilangiz, ro‘zg’oringiz, munosabatlaringiz va hokazolar haqida hamma narsani gapirmang, siringizni sirtga chiqarmang. Qo‘ni-qo‘shnilarga, onaxon-otaxonlarga, katta-kichikka hamisha ochiq chehra, aql-farosat bilan muomala qiling. Ertalab turgach, yuvinib, qaynota-qaynona, oila a’zolari bilan muloqotni iltifot bilan salom berish, "Yaxshi dam oldingizmi?" degan so‘zni aytish bilan boshlash joiz. Assalomu-alaykum, arabcha so‘z bo‘lib, "Sizga tinchlik tilayman" deganidir, bu so‘z to‘liq aytilishi kerak. "Assalom-alayka", "Va alayka", "Salom", "Salom alaykum", "Salom berdik", "Alaykum" kabi qisqa so‘zlar ishlatilmasligi kerak.

Kiyinish madaniyatni.

Yaxshi kiyinish ham o‘ziga xos san’at hisoblanadi. Yaxshi did, avvalo kiyimlarni bir-biriga moslab kiyishda namoyon bo‘ladi. Moslab kiyilgan kiyim ma'lum sharoitga munosib, kishining mashg'uloti, voqea, muhit va shu kabilar bilan muvofiq hamda vaqtin va joyiga qarab bashang bo‘lishi mumkin.

Moda deganda muayyan ijtimoiy guruh, kishilar orasida ularning ta'biga, didiga mos kiyinish odatining ma'lum vaqtgacha urf bo‘lishi tushuniladi. Moda liboslarning o‘zgarishigina bo‘lib qolmay, o‘ziga xos estetik uslubni qidirib topish, yurish-turish tarzi, did va ichki madaniyatning namoyon bo‘lishi hamdir. Moda uzoq tarixga ega. Ko‘pgina mutaxassislar moda XIV asrda vujudga kelgan deb taxmin qiladilar. Turkiy xalqlar ayollarida asosiy bosh kiyim do‘ppi, ro‘mol, oyoq kiyimi mahsi, kavush, ich kiyim-ko‘ylak, ust kiyim- kaltacha, kamzul, nimcha, chopon bo‘lgan. Respublikamiz iqlimi issiq bo‘lganligi bois bizning sharoitda ayollar uchun eng qulay moda - ko‘krak burma va pasti yaxlit bichimli "o‘zbekcha" ko‘ylak hisoblanadi. Buning afzalligi shundaki, issiq avjiga chiqib, kishi terlab turganda ham kiyim badanga yopishib qolmaydi. Shuning uchun ham ko‘krak burma ko‘ylak hech qachon modadan qolmaydi. Faqat ayrim detallari biroz o‘zgartirilib, zamonaviy tus bergen holda yangilanaveradi. Chiroyli atlas, tovor kabi matolar qadimdan o‘zbek ayollari sevib kiyadigan milliy matolardir.

Dunyoda hech bir xalqda oilada kelin mavqeiga sharq xalqlari, xususan o‘zbeklarchalik katta o‘rin berilmaydi. Kelin tushirilayotgan xonadonda katta tayyorgarlik ko‘riladi. Yosh oilaga yangi uy solinadi yoki shu xonadondagi eng yaxshi xonalar ta’mirlanib yangi holatga keltiriladi. Kelinga sarpolar, sovg‘alar tayyorlanadi. Eng muhimi xonadonning kattasidan kichigigacha oilaning yangi a’zosi - kelin bilan uchrashuvga, u bilan birga yashashga o‘zini ruhan tayyorlaydi. Kishilar ruhida ko‘tarinkilik, mehr-muhabbat, ezgulik, hayo qaror topadi. «Kelingning qadami qutlug kelsin!» deya duo qilishadi keksalar. Hali kelin kelmasidanoq xonodon go‘yo fayzli farishtali pardaga o‘raladi. Qutlug‘ qadam! Qaynonalar bu qutlug‘ qadamda bundan keyin aytar so‘zlarini, ko‘rar ko‘zlarini, dillaridagi armonlarini, yur-magan yo‘llarining ro‘yosini ko‘rgandek bo‘lib entikadilar. Singillar bu qutlug‘ qadam ila o‘zlariga ibrat kelayotganidan sevinadilar. Birinchi qadam, birinchi tilaklar, birinchi orzularning

samimiyligi, ezguligi kelinlarga dastlabki mas’uliyatli davrda quvvat beradi, qadamlarini qutlug‘ qiladi.

So‘zlash, tinglash va anglash.

Uchta tushuncha zamon va makon tanlamaydi. Bular so‘zlash, tinglash va anglashdir. Odamzot yaralibdiki, o‘zaro munosabat jarayonida ana shu uch birlikka amal qilib kelinadi. Buning namoyon bo‘lishi har bir xalqning o‘z mentalitetiga mos va xos. O‘zaro munosabat, murojaat qilish jarayonidagi o‘zni tutish va fikr almashuvlar muomala madaniyati tushunchasida uyg‘unlashadi. Munosabat, murojaat, muloqot, munozara, mubohasa, muhokama, mulohaza singari tushunchalarning barchasi muayyan millatning tiynatiga mos bo‘lgan ziynatlar bo‘lib, u etik va estetik me’yorlar, qoidalar bilan amalga oshiriladi.

Muloqot qisman monologik, asosan, dialogik, polilogik shaklda bo‘ladi. Boshqacha aytganda, ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro munosabatlarida reallashadi. Dunyo go‘zallik qonuniyatlariga binoan qurilarkan, demak, insonning xulqi va nutqi ham, ko‘rinishi va kiyinishi ham, munosabati va muloqoti ham go‘zal bo‘lishi maqsadga muvofiq. Xalqimizning “O‘zingga qarab kutarlar, so‘zingga qarab kuzatarlar” – degan o‘giti bejiz emas. “Til yarasi bitmas, tig‘ yarasi bitar” – deganida ham inson uchun zarur bo‘lgan muomala jarayoniga e’tibor zaruriyatini sezish qiyin emas.

Shaxs ma’naviyatining uzviy bir bo‘lagi muomala madaniyati bo‘lsa, xulq-atvor, odob-axloq, nutqiy faoliyat tushunchalari uning zamiriga kiradi. Asrlar osha har bir xalqqa xos bo‘lgan, milliy-ma’naviy qadriyatlar yuksak madaniyat ramziga aylangan urf-odatlar, yurish-turish, yashash tarzi barchasi kishi shaxsiyatida aks etishi tabiiy.

Insonlar bilan muomala qilish san’ati.

U yoki bu ishda ishlamoqchi bo‘lgan inson uchun eng zarur qobiliyat, kutubxonada yoki laboratoriyyada, omma bilan yoki ularsiz ishлаshingizdan qat’iy nazar insonlar bilan aloqa vositalari orqali va bevosita unumli va yengil muomala qilish qobiliyati juda keraklidir. Sizning o‘z fikrlaringizni bayon qila olishingiz oxir oqibat muvaffaqiyatga ta’sir ko‘rsatadi, har bir xodim o‘z fikrini yozma va og‘zaki bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Sizning individuallikka intilishingiz va o‘zingiz tanlamagan ishchilar

bilan hamkorlikda ishlay olishingiz uchun zarur xislat hisoblanadi. Biron bir lavozimga talabgor ish beruvchi bilan suhbat mobaynida o'zini qanday tutishi ko'p narsadan dalolat beradi: muomala qilish va o'zaro muloqot qilish qobiliyatları qay darajadaligi bilinadi. Masalan, intervju olib borayotgan insonning ko'ziga tik qara olmasangiz, bu hol ish beruvchi sizda o'z kuchiga ishonmaslik hissi rivojlangan degan fikrga kelishi mumkin. Bunday bo'lmaslik uchun, siz o'z ustingizda ishlappingiz kerak, passiv eshituvchi emas, balki faol suhbatdosh sifatida o'z fikringizni to'g'ri bayon qilib, turli mavzularda suhbat qurish qobiliyatiga ega bo'lishingiz lozim.

Andisha – axloqiy tushuncha. O'zaro muomalada sharm-hayo, bosiqlik va muloyimlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Andishali odam birovlarning izzat-nafsiya tegmaydi, kattalar, oqsoqollar hurmatini joyiga qo'yadi; o'ta bosiqlik bilan fikr yuritib, biror ishni hal qiladi. Andisha sharm-hayo, uyat, istihola, iffat, ibo kabi odob tushunchalari bilan uzviy bog'liq.

Nomus, or, oriyat - bu kishining o'z obro'sini ulug'lash va ardoqlash tuyg'usi; kishining qadr-qimmatiga, o'z xatti-harakatlari oldidagi axloqiy mas'uliyatiga bo'lgan qarashlarni ifodalovchi tushuncha. Asosan, individual ma'noda ishlatiladi. Xijolat tortish, uyalish tuyg'usini, bundan tashqari, hazar qilish, or qilish ma'nolarini ham bildiradi; boshqa shaxslarga nisbatan sharm-hayo bilan munosabatda bo'lishga undovchi his.

Tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarini, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur - inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi.

Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi.

Inson o‘zining Tafakkurni, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o‘zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiyligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqeа va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko‘rish imkoniyatiga ega.

Tafakkur ko‘pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, biologiya va h.)ning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko‘rsatish darajasiga ko‘ra bir necha turlarga (ko‘rgazmali harakat, ko‘rgazmaliobrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va h.k.) ajratib tadqiq qilinadi.

Ijtimoiy hayotda, ta’lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo‘ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o‘zini o‘zi tanqid, baholash, tekshirish, o‘zini o‘zi tekshirish, nazorat qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok kilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtiolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo‘lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o‘rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko‘p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda.

Tafakkurning ikki darajasi mavjud: fahm-farosat – abstraksiyalardan foydalanish o‘zgarmas chizmalar, namunalar chegarasida sodir bo‘ladigan oddiy tafakkur, sog‘lom fikr, tafakkurning boshlang‘ich darajasi, uning mantiqiy mazmunini emas, balki, ibora va dalillar tuzilishini o‘rganadi, bu aniq, izchilliliklik bilan mulohaza yuritish, fikrlarni to‘g‘ri tuzish, dalillarni qat’iy tizimlashtirish, tasniflash layoqati; aql (dialektik tafakkur)

– abstraksiyalarni ijodiy qo‘llash va ular tabiatini ongli tadqiq etish xususiyatiga ega bo‘lgan nazariy bilishning oliy darajasi, aql yordamida inson narsalar mohiyati, ularning qonunlari va qarama-qarshiliklarini anglab etadi.

Tafakkurning psixik faoliyat sifatidagi umumiy xususiyatlarni chizma shaklida keltirish mumkin:

7. Xotira - idrok etilgan narsa va hodisalarni yoki o‘tmish tajribalarni esda qoldirish va zarur bo‘lganda tiklashdan iborat psixik jarayon. U nerv sistemasi xususiyatlaridan biri bo‘lib, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlash hamda uni ong faoliyatida va xulq, xatti harakat doirasida takror tiklash qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Individning o‘z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi.

Xotira haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar Sharq mutafakkirlari va yunon faylasuflari (Aristotel va boshqalar) da uchraydi. Xususan, Forobiy xotiraga bilishdagi aqliy jarayonning tarkibiy qismi sifatida qarab, xotirani faqat insonga emas, hayvonga ham xos xususiyat ekanini alohida ta’kidlagan.

Xotiraning fiziologik asosi bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ining muvaqqat bog‘lanishi va ularning keyingi faoliyatidan iborat. Xotira ko‘lami, axborotlarning uzoq vaqt va mustahkam saqlanishi, shuningdek, muhitdagi murakkab signallarni idrok etish va adekvat reaksiyalarda ishlab chikish bosh miya nerv hujayralari (neyronlar) sonining ko‘payib borishi hamda uning strukturasi murakkablashuvi jarayonida o‘sib boradi. Fiziologik tadqiqotlarda qisqa va uzoq muddatli xotiralar qayd etilgan. Qisqa muddatli xotirada axborotlar bir necha dakiqadan bir necha o‘n minutgacha saqlanadi, neyronlar ishiga xalal berilganda (mas, elektr shok, narkoz ta’sirida) u buziladi. Uzoq muddatli xotirada axborotlar odam umri bo‘yi saqlanib turli ta’sirlarga chidamli bo‘ladi. Qisqa muddatli xotira asta-sekin uzoq muddatli xotiraga aylanadi. Xotira ruhiyatning o‘tmish holati bilan hozirgi holati va kelgusidagi holatlarga tayyorlash jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ko‘rsatadi. Boshqa psixik hodisalar kabi xotira ham shaxsning xususiyatlari, uning ehtiyoji, qiziqishlari, odati, fe’l-atvori va sh.k. bilan uzviy bog‘liq.

Xotira namoyon bo‘lishdagi shakliga ko‘ra, shartli ravishda emotsional xotira (histuyg‘uni esda tutish), obraz xotirasi (narsalarning tasviri va xususiyatlarini esda tutish), so‘z -mantiq xotirasi (narsalarning mohiyati, mazmunini so‘z bilan ifodalangan hodda esda tutish) kabi turlarga bo‘linadi. Bulardan insonda so‘z-mantiq xotirasi yetakchi o‘rin tutadi.

Xotiraning barcha turi bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi. Psixologiyada, shuningdek, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotiralar farq qilinadi. Ixtiyoriy xotirada muayyan materialni esda olib qolish oldindan maqsad qilib qo‘yiladi; ixtiyorsiz xotirada bunday maksad bo‘lmaydi - biror faoliyatda (mas, mehnat jarayonida yoki kim bilandir suhbatlashib turilganda) o‘z-o‘zidan esda saqlab qolinadi. Barqarorligi jihatdan ixtiyoriy xotira ixtiyorsiz xotiradan samaraliroq.

Fanda xotira bilan bog‘liq ravishda unutish masalasini o‘rganishga ahamiyat berilmoqda. „Normal“ unutishni psixik kasalliklarda xotira buzilishidan farq qilmoq kerak. Bu kasalliklarda xotira susayishi (gipomneziya), yo‘qolishi (amneziya) yoki bir tomonlama kuchayishi (gipermeziya) kuzatiladi. Ba’zi kasalliklarda u sifat jihatdan buziladi: bemorga bo‘lmagan voqealarni go‘yoki o‘z boshidan kechirgandek tuyuladi, yoki qachonlardir bo‘lib o‘tgan voqealarni kecha yoki bugun ro‘y bergen deb o‘ylaydi (konfabulyatsiya, psevdoreminssensiya), bunday soxta xotiralar kishida jiddiy ruhiy xastaliklar oqibatida kelib chiqadi. Bunday kasalliklarga bosh miya qon tomirlari aterosklerozi, shikastlanish, miyaga qon quyilishi holatlari, og‘ir zaharlanishlar oqibati (mas, alkogolizmda uchraydigan psixoz) va sh.k. kiradi. Xotira buzilganda uni keltirib chiqaruvchi asosiy kasallikni davolashga e’tiborni qaratish kerak.

Mahalla tarixi qadim zamonalarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, jez davrining yodgorligi bo‘lgan Sopollitepada 8 ta oila yashagan. Ularni faqat urug‘ jamoasigina emas, balki ishlab chiqarish manfaatlari ham birlashtirib turgan. Keyinchalik ularning safiga patriarchal tizim asosida 100 dan ortiq oilalar kelib qo‘silgan. Katta oilalar jamoasini ular orasidan saylangan oqsoqol boshqargan. Oqsoqollar o‘z navbatida oliy oqsoqollar kengashiga birlashgan. Oqsoqollar, odatda, jamoa - qishloq hayoti bilan bog‘liq barcha masalalarni oliy kengash orqali hal qilishgan. Miloddan avvalgi 3-asrdan milodiy 5-asrning boshlarigacha Farg‘ona

(Parkana) davlatida ham oqsoqollar kengashi muhim vazifalarni hal etgan. Kengash, asosan, sulk tuzish, vazirlar tarkibi va soliqlarni tayinlash, urush e'lon qilish, jamoa ishlariga safarbar etish kabi masalalar bilan shug'ullangan.

Mahalla atamasi arabcha bo'lib, „o'rinn-joy“ degan ma'noni anglatadi. U turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan. Adabiyotlarda mahallalarning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Masalan, Narshaxiy o'zining „Buxoro tarixi“ asarida Buxoroda bundan 1100-yil ilgari bir qancha mahallalar bo'lganini qayd etib o'tgan. Alisher Navoiy o'zining „Hayrat ul-abror“ asarida mahallani „mahalla shahar ichidagi shaharcha“dir deb ta'riflaydi, Hirot shahri yuz shaharcha ahamiyatiga ega bo'lgan mahallalardan tashkil topganini aytib o'tadi. Mahallalar, ayniqsa, Amir Temur davrida ravnaq topgan. Bu davrda mahallalar fuqarolarning kasbkori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, misgarlik, ko'nchilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi va h.k. mahalla qadimda mahalliy hokimiyatning o'ziga xos bir shakli, ko'rinishi tarzida faoliyat ko'rsatgan. Uni boshqarish jamoatchilik asosida olib borilib, o'zining yozilmagan ichki tartib-qoidalariga ega bo'lib, u hamma uchun birdek qonuniy hisoblangan.

Tobut - Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari xalklarida marhumni qabrga eltish uchun ishlatiladigan moslama. Usti ochiq, 4 oyoqchali, bosh tomoni kengroq, oyoq tomoni torroq, uz. 2- 2,5 m. Kafanlangan murda solingandan keyin tobut maxsus narvoncha ustiga o'matiladi va uni 4 kishi ko'taradi, Ba'zi xalqlarda, masalan, ruslarda tobut 4 qopqoqli bo'lib, marhumning jasadi bilan birga go'rga qo'yiladi. Qadimgi O'rta Osiyo xalqlarida ham oliy tabaqaga mansub marhumni yiroq yerdan olib kelishda qopqoqli yog'och tobut ishlatilgan. Masalan, Amir Temur va uning nabirasi Muhammad Sulton tut yog'ochidan yasalgan qopqoqli tobutda go'rga qo'yilgan. Tosh tobutda, ya'ni sarkofag (YYevropada atalishi)da oliy tabaqa jasadlar ko'milgan.

Yuqoridagi ma'lumotlar bejizga keltirilmadi. Xalqimizda tobutkashlik degan, tushuncha ham borki, u odamlar o'rtasida mehr, oqibat, insoniylikning eng muhim qirrasini ko'rsatadi. Tobutkashlik bu bir din va iymon ostida yashab, umr so'nggida ham o'sha qadr-qimmat va oqibatni saqlab qolish istagini in'ikosi hamdir.

## **NAZORAT SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

- 1.** Inson yashashdan maqsad nima?
- 2.** Go‘zallik baxt bilan uyg’unmi?
- 3.** “Muhabbat” so‘zining etimologiyasi va ma’nolarini so‘zlab bering?
- 4.** O‘z-o‘zini tarbiyalash - bu nima?
- 5.** Nima uchun siz o‘zingizni tarbiylashingiz kerak?
- 6.** Xotira tushunchasini ta’riflang.
- 7.** Samimi inson qanday bo‘ladi?
- 8.** Kelinlik odoblari haqidagi mulohazalaringiz?
- 9.** Mavzu yuzasidan donishmandlarning fikrlarini aytib bering.

## **TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

- 1.Boshqa insonlarni tushunish, ularning kayfiyatini sezish, hissiyotlarini hurmat qilish qaysi xislatga xos belgilar hisoblanadi?
  - A.Mehribonlik
  - B.Sezgirlik
  - C.Mardlik
  - D.Qat’iyatlilik
- 2.Qanday inson o‘z xato va kamchiliklarini tan oladi?
  - A.Mehnatsevar inson
  - B.Quvnoq inson
  - C.Haqiqatgo‘y inson
  - D.Bolajon inson
- 3.Davlat tomonidan berilgan, biz foydalanishimiz mumkin bo‘lgan imkoniyat nima?
  - A.Burch
  - B.Mas’uliyat
  - C.Huquq

D.Talab

4.His-tuyg'u guruhlari tog'ri berilgan qatorni toping?

A.Ijobiy tuyg'ular va salbiy tuyg'ular

B.Betaraf tuyg'ular

C.Bir yoqlama va ko‘p tomonlama tuyg'ular

D.A va B javoblar to‘g’ri

5.Ijobiy his-tuyg'ularga qanday tuyg'ular kiradi?

A.Xursandchilik, shodlik, mammuniyat, ilhomlanish

B.Qo‘rquv, g’azab, qayg'u, umidsizlik, xafagarchilik

C.Ajablanish, bee’tiborsizlik, loqaydlik

D.Barcha javoblar to‘g’ri

6.Mas’uliyatsizlik qanday oqibatlarga olib keladi?

E. Insonni muvaffaqiyatga erishish imkonidan mahrum qiladi, insonni ojiz qiladi.

F. Insonni o‘zgalarning qoidalari asosida yashashga majbur etadi, shaxs sifatida shakllanishi yo‘qolib boradi.

G. O‘z oldiga qo‘yan maqsadlari tomon dadil harakat qiladi.

H. A va B javoblar to‘g’ri.

7. Mas’uliyatlilik insonga qanday yordam beradi?

E. Muhim va mustaqil qarorlar qabul qilishda;

F. Xulosa chiqarib, xatolarni tuzatishda;

G. O‘z oldiga qo‘yan maqsadi tomon harakat qilishda;

H. Barcha javoblar to‘g’ri.

8.Quyidagi maqollarning qaysi birida mehr insonlar uchun qimmatli boylik ekanligi ta’kidlangan?

E. Hayot yaxshi ishlar uchun beriladi

F. Mehr – gul, qahr – tikan

G. Mehr – insonning xazinasi

H. Uyat yuzda bo‘lar, mehr – ko‘zda

9.Kichik uka-singillarimizga o‘z mehrimizni qanday namoyon etishimiz mumkin?

E. Ularga muzqaymoq olib berish orqali

- F. Doimiy multfilm tomosha qilish orqali
- G. Kun bo‘yi ular bilan ko‘chada o‘ynash orqali
- H. Darslarini tayyorlashga yordam berish orqali
- 10. Mehribon odamlar bilan do‘stlashish va bunday odamlar bilan muloqot qilish nimalarga sababchi bo‘ladi?
- D. Hayotga bo‘lgan qiziqishning oshishiga
- E. Ezgu amallar qilish istagining paydo bo‘lishiga
- F. Insonlarga ishonchsizlik paydo bo‘lishiga
- G. A va B javoblar to‘g’ri

### **9-mavzu: OLAM ICHRA OLAM (4 soat)**

#### **Reja:**

1. Inson - tabiatning bir bo‘lagi. Ma’naviyatli inson tushunchasi. Ziyolilik. Inson tafakkuri cheksizligi.
2. Hayolot olami. Ong osti sezgilari. Insonning ma’naviy olami. Insonning ijtimoiy-siyosiy tuyg’usi. Estetik tuyg’u.
3. “Odam ikki dunyoning eng aziz va sharif maxluqidir” (A.Navoiy). Insondagi ijodkorlik tuyg’usi.
4. Jaholat insonni mohiyatidan uzoqlashtiradi. Obodlik qalbdan boshlanadi. Kasbni sevish.
5. Vatan va ota-onan tanlanmaydi. Dahldorlik tuyg’usi. Shukronalik.
6. Konfliktologiya. Sog’lom tanda - sog’ aql. Ruhiy tarbiya.
1. Tabiat - keng ma’noda - butun borliq, olam va uning xilma-xil shakllari, tor ma’noda - kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo`lgan atrof tabiiy muhit. Jamiyat va tabiat tizimini ko`rib chiqayotganda ikkinchi tor ma’nodagi tushuncha qo`llaniladi. Chunki inson o`zining hayoti davomida butun borliqdan emas, balki uni o`rab turuvchi va uning ta’siri doirasida turgan atrof tabiiy muhitdan foydalanishi mumkin. Shu tariqa insoniyat tarixida jamiyat bilan tabiat o`rtasida to`xtovsiz va xilma-xil o`zaro ta’sirlar ro`y berib kelgan. Ammo tabiat insonlarsiz bu

moddiy dunyoda hukm surib kelgan, lekin insonlar tabiatning bir bo`lagi bo`lib, ular tabiatsiz hayot kechira olishmaydi.

Insonlar o`z hayoti uchun zarur bo`lgan hamma narsani tabiatdan oladi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh uchun xomashyo, qurilish uchun binokorlik materiallari, nafas olish uchun atmosfera havosi, o`chirish uchun suv, dam olish uchun go`zal landshaftlar va h.k. Shunday qilib, inson hayoti davomida foydalanilgan hamma narsalar tabiiy modda va kishilar faoliyatining mahsulidir.

Inson - tirik organizmlar turkumiga kiruvchi murakkab ijtimoiy va mehnat faoliyatini yurgazuvchi individ. Inson tarixiy - jamoat jarayoni subyekti bo`lib, u Yer kurrasidagi moddiy va ma'naviy-madaniy rivojlanishning asoschisidir. Inson boshqa turdagи tirik mavjudotlar bilan genetik bog`langan holatda, lekin ulardan ongining yuqoriligi, mehnat qurollarini ishlab chiqara olishi, nutqning rivojlanganligi, ijodiy faolligi, hamda axloqiy, ma'naviy va ruhiy o`z o`zini anglay olishi bilan ajralib turadi.

Jamiyat - keng ma'noda insonlarning tarixan qaror topgan bирgalidagi faoliyatları majmui yoki tor ma'noda - ijtimoiy munosabatlarning konkret tipi. Shunday qilib, aqliy mehnat faoliyatiga ega bo`lgan insonlar yig`indisi bo`lgan jamiyat atrof tabiiy muhit bilan passiv (sust) emas, balkim aktiv (faol) ta'sir doirasida bo`lishi muqarrardir.

Agarda jamiyat va tabiat o`rtasidagi o`zaro munosabatlarga inson hayotining tarixi nuqtai nazaridan qaraydigan bo`lsak, ularni quyidagi munosabat shakllariga ajratsak bo`ladi: oddiy, oddiy-iqtisodiy, iqtisodiy, iqtisodiy-ekologik, ekologik.

Jamiyat va tabiat o`rtasidagi oddiy munosabat shakli - kishilarni ekologik tizimni buzmaydigan soddallashtirilgan hayot tarzi. Ekologik tizim (ekotizim) - tirik organizmlar majmui va ularning yashash muhiti yig`indisi bo`lib, tirik organizmlar o`zaro va atrof tabiiy muhit bilan uzviy aloqadorlik qonuniyati asosida bo`lgan holati. Bu shakl kishilarning ibridoiy jamoa tuzumidagi hayot tarziga, ya`ni insoniyat tarixining ilk ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasi davriga xosdir. Bu davr o`z ichiga odamlarning Yer kurrasida paydo bo`lishi (3-4 mln. yil avval) davridan to sinfiy jamiyat yuzaga kelguniga qadar muddatni o`z ichiga oladi. Ibtidoiy odamlarda ishlab chiqarish kuchlari va qurollari nihoyatda past darajada bo`lganligi tufayli ularning hayot tarzi tabiatning

ajralmas bir oddiy bo`lagi sifatida namoyon bo`lgan. Atrof tabiiy muhit holati esa tirik organizmlar uchun nisbatan qulay - ekologik xavfsiz muhit deyish mumkin.

Ko`pgina ekolog olimlar jamiyat va tabiat o`rtasidagi munosabat shakllarini uch ko`rinishda ifoda etadilar - oddiy, iqtisodiy, ekologik. Lekin, jamiyatda, ayniqsa, tabiatda qonuniyatlarni vaqt mobaynida o`zgarib borishi revolyutsion holatda emas, balkim evolyutsion holatda kechadi. Shuning uchun ham tabiat bilan jamiyat o`rtasidagi munosabatlar sekin-astalik bilan shakllana borgan va u bir shakl ikkinchi bir shaklga bosqichma-bosqich o`tgandir.

Jamiyat va tabiat o`rtasidagi oddiy-iqtisodiy munosabat shakli tabiiy muhitning eng asosiy elementlari - yer va suvning ekologik tizimdagi kichik aylanishiga ta'sir etdi. Lekin bunday ijtimoiy muhit holati ekologik tizimlarning buferlik (qarshi turish va tiklanish) xususiyatiga salbiy ta'sir qila olmagan edi.

Kishilar faoliyatining tabiatga oddiy-iqtisodiy ta'siri davrida ma'lum bir hududlarda sezilarli darajada ekologik xavfsiz muhitga ta'sir etgani uchun ham qadimgi yozuv va qonun kuchiga ega bo`lgan kitoblarda tabiatga nisbatan insonlarning ehtiyojkorona munosabatda bo`lishlari ko`rsatilib o`tilgan. Masalan, Zardushtlarning "Avesto" kitobiga binoan bolalar yoshligidanoq daraxt ko`chatini o`tkazishlari shart bo`lgan. Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir. Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi jazosiga mahkumdir. Lekin bu kitobda ekologik jazo sifatida bir turdag'i tabiiy obyektni buzgani uchun ikkinchi bir turdag'i tabiiy obyektdan qutilishni ham me'yor qilib qo`yganlar. Suvni iflos qilgan yoki ov itini o`ldirgan kishi 10 ming ruhiyatni tetiklashtiradigan o'simlik bargi terishi, 1000 echkiemar, 1000 ta suv qo`ng`izi va kasallik tarqatuvchi pashshani o`ldirib, gunohini yuvishi lozim bo`lgan.

Inson tabiat bilan tirik. Shuningdek, uning shaxs sifatida rivojlanishida esa, bolalar bog'chasi, maktab va oliy ta'lif muassasasining o'rni juda katta. Insonning ijtimoiy munosabatlarga kirishishi bu jarayonni tezlashtiradi. Demak, shu o'rinda ta'lifni tarbiyadan ajratib bo'lmasligini, ular ikkisi birgalikda odamni shaxs darajasiga ko'tarishini e'tirof etish lozim. Aqli inson - bu doimo yaxshi inson degani emasligini

hayotda ko‘p bora uchratganmiz. Shu bois, professor – o‘qituvchilar talabalarga qaysi millatdan ekanimizni, o‘z yelkamizda o‘z yurtimiz sha’ni va g’ururini ko‘tarib yurganimizni, milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lib, dunyoning eng ilg’or tajribalaridan foydalanish lozimligini, lekin o‘zligini yo‘qotmaslikni muntazam ta’kidlab keladilar. Bu – oliv ta’lim shunchaki, o‘z yo‘nalishida mutaxassis kadrlar tayyorlab bermaydi, shuningdek, u o‘z vatanini sevuvchi sodiq fuqarolarni ham tayyorlashi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 26 martdagи “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarorida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi masalalarida aniq tavsiya va ko‘rsatmalar berilgan. O‘quv rejasi va dasturlariga ma’naviyat soatlarining kiritilishi, har bir oliv ta’lim muassasasida maxsus jihozlangan maxsusus “Ma’naviyat va ma’rifat” maskanlarining tashkil etilishi talaba yoshlarimizni vatanparvar shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Prezidentimizning “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”, degan fikrlari atni haqiqatdir. Jamiyatimizda ma’naviyatning roli va ahamiyatini hyech narsa bilan qiylab bo‘lmaydi.

Misol uchun, YYevropa mamlakatlarida ota - ona o‘z bolasiga kredit berishi tabiiy, normal holat hisoblanadi. Farzand ulg’ayib, voyaga yetgach, albatta, o‘sha kreditni qaytarmasa, javobgarlikka tortilishi ham mumkin. Sud bu holatda ota-onaga o‘sha summani farzanddan olib beradi va bu ularda oddiy hol. Biz esa bu qarashlarni albatta, ongimizga singdira olmaymiz. Bu holat bizning mentalitetimizga mutlaqo to‘g’ri kelmaydi. Demak, shundan xulosa qilish mumkinki, har bir millatning tarbiya borasida o‘z qarashlari bor, unga turlicha ta’rif beradi. Hamma insonlarning tug’ilishi, yashashi va boshqa tabiiy xususiyatlari tabiatan bir xil. Ammo yashash tarzimiz har xil, qarashlarimiz turlicha va odatlarimiz ham shunday. va hududlarga xos bo‘lgan mana shu jihatlar - odatlar, qarashlar, madaniyat bizni shaxs sifatida, millat sifatida shakllantiradi.

Ma’naviyatli insonni mag’zi to‘q mevaga qiyoslash mumkin. Bunday odamlarni yo‘ldan ozdirish, maqsaddan qaytarish qiyin. Ular har qanday holatda ham o‘zligini unutmaydi, qaysi millatdan ekani yodida turadi. O‘zbekiston - ulug’lar makoni, bu

yerdan buyuk insonlar yetishib chiqqan. Xalqimiz azaldan oilaparvarligi, vatanparvarligi, go‘zal e’tiqodi bilan yuksak ma’naviyatli millat sifatida dunyoda tan olib kelingan. Yangi O‘zbekiston fuqarolari, ayniqsa yoshlari ana shu jihatni hamisha yodda tutishlari lozim. Ma’naviyatsiz jamiyat esa baribir tanazzulga yuz tutadi. Biz yoshlarimiz ongiga ana shu haqiqatlarni singdira olsak, Renessans shu degani.

Inson ziyoli bo‘lishi shart! Uning kasbi ziyolilikni talab qilmasa-chi? U ta‘lim ololmasa-chi: sharoit shunday bo‘lib qoldi? Atrof muhit yo‘l qo‘ymasa-chi? Ziyolilik uni hamkasblari, do‘satlari, qarindoshlari ichida “oq qarg‘a”ga aylantirib qo‘ysa va boshqalar bilan yaqinlashishiga xalaqt bersa-chi?

Yo‘q, yo‘q va yana yo‘q! Ziyoli bo‘lish har qanday holatda kerak. U ham atrofdagilarga, ham insonning o‘zi uchun kerak.

Hammaidan ham baxtli va uzoq umr ko‘rish uchun juda muhim. Ha, uzoq yashash uchun! Chunki ziyolilik ma‘naviy salomatlikka teng, salomatlik esa uzoq umr ko‘rish uchun zarur, nafaqat jismoniy salomatlik, balki aqliy salomatlik ham. Eski bir kitobda yozilgan: “Otangni va onaningni hurmat bilan yodga olib tur, uzoq yashaysan”. Bu butun xalqqa va alohida insonga ham tegishli. Bu donolikdir.

Lekin keling avval ziyolilik nima ekanini aniqlashtirib olaylik, keyin esa u uzoq umr bilan qanday bog‘liqligi haqida.

Ko‘pchilikning fikricha, ziyoli inson – ko‘p o‘qigan, yaxshi ta‘lim olgan (hatto gumanitar bo‘lsa ham), ko‘p sayohat qilgan, bir nechta tilni biladi. Holbuki bularning barchasiga ega bo‘la turib ziyoli bo‘lmaslik ham mumkin va, aksincha, yuqoridagilarning ma‘lum qismiga ega bo‘lmasdan turib ham ich-ichidan ziyoli bo‘lish mumkin.

O‘qimishlini ziyoli bilan adashtirmaslik zarur. O‘qimishlilik eski ma‘no-mazmun bilan yashaydi, ziyolilik – yangilik yaratish va eskini yangicha anglash bilan. Bundan tashqari. Haqiqiy ziyoli insonni hamma bilimlaridan judo qiling, xotirasidan ayiring. Dunyodagi barcha narsa esidan chiqsin, adabiyotdagi klassiklarni tanimasin, buyuk san‘at asarlaridan xabari bo‘lmasin, muhim tarixiy voqealarni yodidan chiqarsin, lekin shunda ham intellektual boyliklarni qabul qila olsa, tarixga qiziqsa, estetik didga ega bo‘lsa, hayratlantirish uchun yaratilgan haqiqiy san‘at asarini qo‘pol “axlatdan” farqlay

olsa, tabiatning go‘zalligidan ilhomlana olsa, boshqa insonning xarakteri va individuallagini tushuna olsa, uning o‘rniga o‘zini qo‘yib, uni tushina olsa, unga yordam bersa, qo‘pollik qilmasa, befarqlik, ichiqoralik, hasad qilmasa, boshqalarni qadrlay olsa, qadim madaniyatlarga hurmat bilan qarasa, tarbiyali inson ko‘nikmalarini ko‘rsata olsa, axloqiy savollarda qabul qilgan qarorlariga ma‘suliyatni his qilsa, o‘z tilining boyligi va aniqligidan foydalana olsa – yozma va og‘zaki – mana bu ziyoli inson bo‘ladi.

Intelligentlik faqat bilimlarda emas, balki boshqalarni tushunishda. U minglab mayda narsalarda namoyon bo‘ladi: hurmat bilan bahslasha olishda, dasturxon oldida o‘zini kamtar tutishda, atrofdagilarga sezdirmasdan (aynan sezdirmasdan) boshqalarga yordam berishda, tabiatni asrashda, atrof-muhitni ifloslantirmasligida – sigaret qoldiqlari yoki so‘kinish, ahmoqona g‘oyalari bilan (bu ham chiqindi, yana qanaqa!).

Intelligentlik – bu tushuna olish, idrok qilish, olam va odamlarga sabrli munosabatga bo‘la olish. Ziyolilikni o‘zida shakllantirish kerak, mehnat qilish kerak – ruhiy quvvat ustida xuddi jismoniy quvvat ustida ishlagandek ishlash kerak. Buning esa har qanday holatda imkon va zaruriyati bor. Jismoniy jihatni sog‘lomlashtirish va shug‘ullantirish uzoq umr ko‘rishga olib kelishi – bu tushunarli. Uzoq umr ko‘rish uchun ruhiyatni ham rivojlantishi kerakligini ozchilik tushinadi.

Gap shundaki, atrofdagilarga qahrli reaksiya, qo‘pollik va boshqalarni tushunmaslik – bu ma‘naviy va ruhiy zaiflik, odamning yashash qobiliyati yo‘qligi belgisi. To‘lgan avtobusga zaif va asabiy, tinkasi qurigan, hamma narsaga xato reaksiya bildiradigan inson tiqiladi. Qo‘shnilari bilan ham – yashashni bilmaydigan, ruhan kar odam janjallahadi. Estetik zehni past odam ham – baxtsiz inson. Boshqalarni tushuna olmaydigan, ularga yovuz maqsadlarni ilib qo‘yadigan, hamma vaqt boshqalardan xafa bo‘lib yuradigan ham o‘z hayotini yeb bitiradigan va boshqalarning yashashiga xalaqit beradigan odamdir. Ruhiy zaiflik jismoniy zaiflikka olib keladi. Men vrach emasman, lekin bunga ishonchim komil. Uzoq yillik malakam tufayli bunga ishonaman.

Xushmuomalalik, ochiq yuzlilik va yaxshilik insonni nafaqat jismoniy sog‘lom qiladi, balki chiroyli ham. Ha, aynan chiroyli.

Aftidan qahr yog‘ilib turadigan odamning yuzi obrazsiz, harakatlari esa nafislikdan mosuvo bo‘ladi – atayin o‘rgatilgan nafislik emas, undan qimmatroq turadigan tabiiy bezirimlikdan.

Insonning jamiyat oldidagi qarzi – ziyoli bo‘lish. Bu o‘z oldidagi qarzi ham. Bu shaxsiy baxtining va unga “yaxshilik tilovchi auraning” kafolati (ya‘ni unga yordam qo‘lini cho‘zadiganlar).

Ushbu mavzudan kelib chiqadigan asosiy maqsadimiz – yoshlarni ziyoli bo‘lishga, ruhan va jismonan sog‘lomlikka, go‘zal bo‘lishga chaqirish. Shunda ham odam, ham xalq sifatida uzoq umrli bo‘lamiz! Ota-onani yodga olishni esa keng ma‘noda tushunish zarur – buyuk baxtga ega bo‘lgan bugungi kunimizning ota-onalari bo‘lgan tariximizdagi eng yaxshi narsalarimizni yodga olmoq darkor.

Ayrim kishilarning tafakkuri o‘zining mazmundorligi, chuqurligi va kengligi jihatidan, mustaqilligi, samaraliligi va tezligi jihatidan turli hollarda turlicha namoyon bo‘ladi. Bular tafakkurning sifatini tashkil qiluchi belgilardir.

Tafakkurning mazmundorligi, avvalo, u yoki bu narsalar yoki hodisalar to‘g’risidagi, voqelikning u yoki bu sohalari to‘g’risidagi muhokamalar va tushunchalar odamning ongida qanchalik o‘rin olganligidan kelib chiqadi. Odamda fikr nechog’li ko‘p bo‘lsa va bu fikrlar nechog’li xilma-xil bo‘lsa, uning tafakkuri shu qadar mazmunli bo‘ladi, uning aqli shu qadar boy bo‘ladi. Lekin tafakkurning mazmundorligi mavjud fikrlarning miqdori bilangina belgilanmaydi, tafakkurning mazmundorligi shu fikrlardanimalar aks ettirilganligi bilan ham belgilanadi. Shu sababli tafakkur faqat boy bo‘lgailidagina emas, shu bilan birga, u ham chuqur bo‘lganida, bunday tafakkur mazmundor tafakkur deb hisoblanadi.

Voqelikning eng muhim, xossalari va sifatlari, eng muhim bog’lanishlari va munosabatlari tafakkurda aks etganida bunday tafakkur chuqur tafakkur deyiladi.

Tafakkurning mazmundorligi (boyligi va chuqurligi) odamning faoliytiga, bilimiga va tajribasiga, odamda xayolning qay darajada rivoilanganligiga va odamda qiziqish, havaslarning borligiga bog’liqdir.

Aqlning tanqidiyligi o‘zining yoki o‘zgalarning fikrlarini haqiqatga mos bo‘lish-bo‘lmaslik jihatidan tekshira bilishda va shu fikrlarga baho bera bilishda ifodalanadi.

Aqlning tanqidiyligi aytilgan fikrlarning turmush uchun amaliy qiyomatini aniqlay bilishda ham ifodalanadi. Aqlining «tanqidiyligi» odamning o‘z fikrlariga va o‘zganing fikrlariga tanqidiy nazar bilan qarashi demakdir.

Fikrlash vazifalari boshqa kishilar tomonidan qo‘yilganidagina va qo‘yilgan vazifalar faqat tayyor shakllarga asoslanib va boshqa kishilarning bevosita yordami bilan hal qilinayotganidagina ozmi-ko‘pmi faol ravishda ishga solingan tafakkur nomustaqlil tafakkurdir.

Tafakkurning mustaqilligini uning boshqa kishilarning tafakkuridan to‘la ravishda mustaqil va ajralgan tafakkur tariqasida tushunish yaramaydi, albatta. Tafakkurning mustaqilligi haqiqatga olib kelganidagina, odam o‘zining fikrlash faoliyatida ilmiy asoslarga, progressiv tashabbuslarning hammasiga tayangandagina bunday mustaqillik qimmatga ega bo‘ladi. Shu sababli tafakkur faqat boy bo‘lgailidagina emas, shu bilan birga, u ham chuqur bo‘lganida, bunday tafakkur mazmundor tafakkur deb hisoblanadi.

2. Insonlar borliqni anglab, unda yuz berayotgan narsalarni qabul qilib, qolibgina qolmay uni o‘zgartirishga ham harakat qiladi. Borliqni amaliyotda o‘zgartira olishni bilish bilan birga xayolni ham o‘zgartira bilish lozim.

Xayol ong faoliyati bo`lib, mavjud tasavvurlar orqali yangi, hayotda mavjud bo`lmagan obrazlar, obyektlarni yaratishdir. Xayolning funksiyasi – o`tgan tajriba natijalarini qayta ishlashdir. Hech narsasiz xayol mavjud bo`lishi va yaratilishi mumkin emas. Ushbu tasavvurlar xotiradan farq qiladi va xayol tasavvurlari deb ataladi. Xayol eki fantaziya, tafakkur kabi, yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, kishining o`ziga xos insoniy xarakterga ega bo`lgan faoliyatlarida namayon bo`ladi. Mehnatning tayyor natijasini xayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo`lmaydi. Istalgan mehnat jarayoni xayolni o‘z ichiga qamrab oladi. Xayol inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bo`lib, mehnatning oxirigi va oraliq mahsulotlarida o‘z ifodasini topadi, shuningdek, muammoli vaziyat noaniqlik ko`rsatgan hollarda xulq-atvor programmasini tuzishni ta’minlaydi. Xayolning psixik jarayon sifatidagi birinchi va muhim vazifasi shundan iboratki, u mehnatni boshlamasdan oldin uni natijasini tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Binobarin, xayol odamga faoliyat jarayonida mehnat mahsulotlarining oxirgi yoki oraliq psixik modellarini hosil qilish yo`li bilan yo`l-yo`riq ko`rsatadi. Bu esa

mehnat mahsulotlarining narsalar sifatida gavdalanishiga yordam beradi. Xayolning qimmati shundan iboratki, u hatto tafakkur uchun kerak bo`lgan to`la va zarur bilimlar bo`lmagan joyda ham biror qarorga kelish hamda muammoli vaziyatdan chiqish imkonini beradi.

Demak, biz ilgari idrok qilmagan predmet va hodisalarini yaratishdan iborat bo`lgan psixik jarayon xayol deb ataladi.

Xayolni ko`pincha fantaziya deb ataydilar, holbuki, ba`zan “fantaziya” degan so`z bilan haqiqiy hayotda kam aloqador bo`lgan tushunchadir. Xayolning boyligi idrok qilish ko`nikmasiga, predmetlar va hodisalarining obrazlarini kuzatishi va xotirada saqlab qolishga bog`liq bo`lib, ular keyinchalik qayta ishlab chiqiladi. Bu jarayonda tafakkur muhim rol o`ynaydi. Tafakkur fantaziya natijalariga tuzatish kiritadi. Uni tanqidiy baholaydi. His tuyg`ular ham xayolga ta`sir ko`rsatadi, ular ko`p jihatdan xayolga bog`liq bo`ladi. Nihoyat, kishining xayoli bilan yaratilgan ijodiy niyatlarini amalga oshirish uchun iroda zarur bo`ladi. Xayolning nerv fiziologik asoslari inson ongida yotgan ilgari mavjud bo`lgan bog`liqliklarni vaqt bog`liqliklari asosida qayta ishslash va yangi birikmalarini yaratishdir.

Hayot timsollarining paydo bo`lishi kishi miyasi faoliyatining natijasidir. Xayol boshqa hamma psixik jarayonlar kabi katta yarim sharlar po`stloq qismining funktsiyasi hisoblanadi. Xayol qiladigan kishida miya hujayralari yangicha bog`lanadi. Xayolning fiziologik mexanizmi faqat miya po`stlog`i bilan emas balki, miyaning chuqurroq qismlari bilan bog`liq. So`nggi o`tkazilgan tadqiqotlar buni to`g`riligini isbotladi.

Fantaziya timsollarining tarkib topishi va ularning faoliyat jarayonlariga qo`shishga miya yarim sharları po`stlog`i bilan birga qatnashuvchi miyaning ana shunday chuqur qismlari gipotalam-limbik (uning qadimgi po`stloq va po`stloq osti qismlari bilan bog`lanishi miya yarim sharlarga chiqaverishda oldingi qismi atrofida «limb» yoki chegara hosil bo`ladi) sistemadir. Eksperimentlardan shu narsa aniqlagandiki, gipotalam - limbik sistema zararlanganda, kishi psixikasida o`ziga xos buzilishi sodir bo`ladi: odamning xatti-harakatlari guyo ma'lum programma bilan boshqarilayotgan va bir biri bilan bog`lanmagan alohida-alohida shu bilan birga o`z-o`ziga yetarli darajada murakkab va bir butun harakatlardan iboratdek tasavvur

tug`iladi. Psixik faoliyatning ayrim buzilishlari ham o`zining kelib chiqishi jihatdan haddan tashqari ta'sirlanuvchan va tetik xayolga bog`liqdir. Shunday hollar ma'lumki, shifokorning ehtiyotsizlik bilan aytgan ta'sirida davolanishga kelgan kishi og`ir kasallik bilan og`rib qolgan bo`lsam kerak, deb xayoldan o`tkazadi va unda bu kasallikning tegishli alomatlari rivojiana boshlaydi Yatrogen deb ataladigan kasalliklar yuzaga keladi. Ijodiy xayol obrazlarni (albatta ilgari idroklar asosida) mustaqil ravishda yaratishdan iboratdir. Bu xayol kishining ijodiy faoliyati bilan bog`langan. Xayolning bu turi esga tushiradigan xayoldan murakkabroqdir. Har bir yangi orginal narsalarni o`ylab yaratish bilan bog`liq bo`lgan har qanday kishining faoliyatini ijodiy xayolsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Xayolning analitik sintetik faoliyati.

Xayolning fiziologik asosi miyaning katta yarim sharlar po`stlog`ida ilgari hosil bo`lgan muvaqqat bog`lanishlar o`rtasida yangi birikmalarning paydo bo`lishidir. Avvalgi bog`lanishlarning tiklanishi bu xotira jarayonlaridir. Xayolning ishlashi uchun bu bog`lanishlarning miya po`stlog`ida hali mavjud bo`lmagan, lekin u yerda bor bo`lgan qo`zg`alishlarning qoldiqlaridan tashkil topadigan birikmani yangi sistemalari vujudga kelishi zarur. Xayol ikkala signal sistemasining faoliyati bilan mustahkam bog`langan. Agar kishi tegishli sezgilar idroklarga ega bo`lgan atrofdagi voqelikning dastlabki signallarini oldini olgan taqdirdagina unda narsa va hodisalar to`g`risida obrazlar, tasavvurlar hosil bo`lishi mumkin. Og`zaki va yozma nutq ikkinchi signal sistemasi ham xayol uchun ko`p material beradi. Xayol shaxsning irodaviy sifatlari bilan bog`liq uning foydasi yoki zarari ko`p jihatdan xayol surish jarayonlari kishining ongi tomonidan qanchalik nazorat qilinishiga bog`liq bo`ladi.

Ongdan tashqari, odamning xatti-harakatiga, uning butun ruhiy olamiga g`ayrishuuriy jihatlar va ongosti katta ta'sir qiladi. Shu ikki komponent - ong va ongosti - bir-biriga kuchli ta'sir o`tkazadi, ular ajralmasdir va ifodali qilib aytganda, qattiq o`zaro nazorat va ta'sir ostida bo'ladi. Hozirgi ilmiy tasavvurlarga ko'ra, odamning ongi borib yetmagan, anglab olinmagan psixik faoliyati shunday sezgilar, idroklar va tasavvurlarni o`z ichiga oladiki, ba'zan ularga odamning aqli yetmaydi, odam obyektga qaraydi-yu, uni ko'rmaydi, payqamaydi, eshitadi-yu, eshitganini idrok etmaydi. Ongosti sohasi ruhiy borliqning tush, gipnoz holati, anglab olinmagan istak, subyektning

hayotidagi noxush voqea arafasida oldindan his qilingan qo‘rquv kabi shakllarini qamrab oladi.

Ongostida shaxsning hayotidagi juda ko‘p hajmdagi axborotlar, uning individual turmush tajribasi o‘rnashib, yig‘ilib qoladi. Inson tomonidan avtomatik, instinktiv tarzda sodir etiladigan, himoya mexanizmi rolini bajaradigan va miyani doimiy zo‘riqishdan himoya qiladigan ko‘pgina harakatlar ongosti tomonidan nazorat qilinadi va boshqariladi. G‘ayrishuuriylik, bu - ham hayotiy yo‘l-yo‘riq, ham odamning odatidir, nihoyat, bu intuitsiyadir – miyaning o‘rtada turgan vazifalarni ilgari olingan va xotirada saqlanayotgan ma'lumotlar asosida hal qilish bo‘yicha anglanmagan, g‘ayrimantiqiy ishining natijasidir.

Ongostini falsafiy va psixik analiz qilishga Zigmund Freyd, Karl Yung, Erix Fromm katta e'tibor berdilar. Masalan, Freyd nazariyasi ongostini kishilar xatti-harakatining, ular axloqi, san'ati va butun ma'naviy madaniyatining asosi, bosh omili deb biladi. K.Yung «individual ongsizlik» tushunchasi bilan bir qatorda «kollektiv ongsizlik» tushunchasini ham ilmiy muomalaga kiritdi; uning nuqtai nazaricha, ongosti nafaqat ong doirasidan siqib chiqarilgan subyektivlik va individuallikni, balki, eng avvalo, ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladigan va Yung konsepsiyasida arxetiplar deb atalgan kollektiv va shaxssiz psixologik mazmunni ham o‘z ichiga oladi. Individual ongsizlik bilan kollektiv ongsizlikning o‘zaro aloqasidan foydalangan E.Fromm subyektning individual psixikasi bilan jamiyatning sotsial tuzilishi o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in, vosita sifatida «sotsial xarakter» tushunchasini kiritadi, ongostining hozirgi zamondagi iste'molchilar jamiyatining qiymatiy, aksiologik rejalariga ta'sirini o‘rganadi.

Insonni hayot asosi deb biladigan bo‘lsak, shu asosga ma’no-mazmun baxsh etib turadigan ne’mat ma’naviyatdir. Hamma narsaning mohiyati avvalo 2 qismdan tashkil topadi:

Birinchisi – uning tashqi ko‘rinishi bo‘lsa, ikkinchisi uning ichki tuzilishi–ma’no, mohiyatidir. Tashqi ko‘rinish shakl har bir narsaning moddiy xususiyatlarini ifoda etsa, ichki tuzilishma’no, mohiyat uning ma’naviy xususiyatlarini namoyon qiladi. Insonning borlig‘I ham 2 qismdan iborat. Birinchisi – uning moddiy olami, ikkinchisi – ma’naviy

olami. Odamning moddiy olami qanchalik murakkab, serqirra bo‘lsa, uning ma’naviy olami ham shunchalik murakkab va rang-barangdir.

Moddiy olamdagи shahar va qishloqlar, zavod va fabrikalar, yo‘llar va bozorlar, butun hayotiy zaruriy tizimlar avvalo ehtiyojlari uchun xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, dunyodagi g‘oya va mafkuralar, tuyg‘u va tushunchalar, qadriyat va an'analar falsafa va qarashlar insonning ichki olamining ma’naviy ehtiyojlarini ham g‘oyat murakkab, jozibali, aql bovar qilmaydigan darajadagi tez o‘zgaruvchan ekanini ko‘rsatadi. Kelajakda yetuk inson bo‘lishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan har bir yigit-qiz bu bilimlarni puxta egallashlari zarur. Chunki odamzot insoniy munosabatlar hukmron bo‘lgan jamiyatda yashaydi. Insonning mohiyati qanchalik murakkab bo‘lsa, bu munosabatlar ham shunchalik murakkab va qiziqarli bo‘ladi.

Insonning ma'naviy olami murakkab tizim bo‘lib, ko‘plab unsurlarni o‘z ichiga oladi. Ularning juda muhim qismlari dunyoqarash, ishonch va ishonchdir. Dunyo nuqtai nazari faol hayot faoliyati va dunyo bilimlari jarayonida shakllanadi. Atrofimizdagи dunyo haqida qimmatli fikrlarni to‘plash jarayonida dunyoda barqaror fikrlash tizimi shakllanmoqda.

Shaxsiyatning ma'naviy olami elementlari.

Ruhiy ehtiyojlar - atrofdagi dunyo bilimi, o‘zini ifoda etish. Har bir inson rivojlanishga va o‘z-o‘zini anglashga ehtiyoji bor. U olgan ma'lumot qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning ongi yanada kengayadi.

Dunyo nuqtayi nazaridan kelib chiqqan e’tiqodlar va qat’iy qarashlar. Bilim jarayonida insonning ma'naviy dunyosi va dunyoqarashi uning xatti-harakatlarini va hayot haqidagi qarashlarini shakllantiradi, bu esa xatti-harakatlar modelini belgilaydi.

Ijtimoiy faoliyat. Har bir inson uchun boshqalar bilan muloqot qilish va faoliyatning bir yoki bir nechtasini amalga oshirish qobiliyati juda muhimdir. Ijtimoiy tadbirlar eng yaxshi fazilatlarni rivojlantirish va yaxshilashga yordam beradi.

Maqsadlarni belgilash va erishish. Agar biror kishi ongli ravishda maqsadlarni qo‘ygan bo‘lsa, bu yuqori tushuncha darajasini ko‘rsatadi. Insonning ichki ma'naviy olami yaqin kelajak uchun rejalar va uning hayot yo‘lini aniq tasavvurini aks ettiradi.

O‘z e’tiqodlari haqiqatiga ishonish. Bizning yo‘limizga ergashishga va bilimimizni davom ettirishga imkon beruvchi imondir. Iymonsiz inson tizimning quliga aylanadi, ya’ni, e’tiqodi va qadriyatlari bilan yashaydi.

Insonning jamiyat bilan aloqa qilishiga imkon beruvchi hissiyotlar va hissiyotlar. Bizning har birimiz his-tuyg'ularimiz o‘z shakllarida ifodalanadi, shuning uchun zamonaviy insonning ma’naviy dunyosi tabiat bilan bo‘lgan munosabatlariga, atrofdagi haqiqatga ega bo‘lishi mumkin.

Hayot qadriyatlari va ideallari, faoliyatning ma’nosи. Yaratilgan qadriyatlар asosida biz o‘z hayotimizda hayotning ma’nosini va umuman olganda har qanday faoliyatni tushunamiz.

Fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish – demokratik jamiyat qurish omili. Demokratik jamiyat barpo etishda fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi eng muhim omillardan biridir.

Fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mezonlari quyidagilardan iborat:

Fuqarolik jamiyati institutlari. Hozirgi davrda O‘zbekiston jamiyatida 7 millionga yaqin fuqarolar kasaba uyushmalari faoliyatida, 600 mingdan ortiqroq fuqarolar esa siyosiy partiyalar a’zolari sifatida jamoatchilik ishlarida ishtirok etadilar. Shuningdek, millionlab fuqarolar yoshlar, xotin-qizlar, turli jamg‘armalar, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etadilar. Mamlakat viloyatlarida 661 ta, tumanlarda 4564 ta, shaharlarda 831 ta viloyat, shahar va tuman kengashlari deputatlari, 10.000 ga yaqin o‘zini o‘zi boshqarish organlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqdalar. Mustaqillik davrida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga ham muhim e’tibor berildi.

Ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirishda saylovlar muhim o‘rin tutadi. Unda avvalo, saylovchilarning ixtiyoriy bergen ovozlariga binoan siyosiy institutlar legitimligi oshadi. Qolaversa, saylovlarda jamiyatdagi turli xil guruhlarning tinch raqobatdoshligi kutilganligi sababli ham saylash jarayonlari siyosiy ziddiyatlarni hal etishga olib keladi. Shuningdek, saylovlar aholi siyosiy manfaatlarini ifoda etuvchi siyosiy partiyalar, boshqa siyosiy tashkilotlarning faol harakatlari tufayli turli ekstremistik harakatlarni cheklab turadi. Shu bilan birga saylovlar fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy

ijtimoiylashuviga ko‘maklashadi. Saylovlardagi turli kompaniyalar, ularni ommaviy axborot vositalarida yoritish kabi tadbirlar saylovchilar siyosiy va huquqiy madaniyatlarini yuksaltiradi. Shuningdek, saylovlar fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga qulay imkoniyatlar yaratadi.

Odatda intellektual rivojlanish va estetik tuyg'ular har doim o‘z qo‘lida bo‘ladi, chunki yetarli darajadagi ta'limga ega bo‘lmagan odam, hech qanday davrning yaratilishining buyukligini tushunishi mumkin emas. Biz estetik tuyg'ular va ularni qanday qilib rivojlantirish mumkinligini ko‘rib chiqamiz.

Estetik tuyg'ular va ularni rivojlantirish.

Go‘zallik tuyg'usini rivojlantirish uchun birinchi navbatda bu ma'lumot haqida ko‘proq ma'lumotga ega bo‘lishingiz kerak - kitoblarni o‘qing va ular bilan bir qatorda - ma'lum bir davrning tarixiy va umumiyligi madaniyatiga oid adabiyotlarni o‘qish lozim. Bundan tashqari, tabiat, rasm, arxitektura va kuchli tuyg'ularni uyg'otadigan boshqa insoniy va mo‘jizali narsalar haqida o‘ylash juda katta yordam beradi. Odatda, har bir insonning o‘ziga xos his-tuyg'ulari mavjud: ba‘zilari rasmga qiziqish, boshqalari esa musiqa bilan shug’ullanish. O‘zingizni toping va tanlangan yo‘nalishda harakat qiling!

Hayotiy hodisalarda go‘zallikni ko‘rsangiz va go‘zallik haqidagi fikringizga mos kelishga harakat qilsangiz, siz yaxshilanasisiz va shaxs sifatida rivojlanasisiz.

"Estetik did" va "hukm" tushunchalarini chalkashtirib yuborish mumkin. Ammo aslida ular boshqacha. Hukm, aniq bir hodisaning axloqini baholashdir. Ya‘ni, odamning ishi haqida nima deb o‘ylaysiz, u qanchalik go‘zal yoki chirkin. Estetik tafakkur - bu nafaqat mantiqni, balki estetika nuqtayi nazaridan ham haqiqatni baholash qobiliyati. Nafaqat tafsilotlarga, balki butun rasmga asoslanib ijobiy yoki salbiy baho berish qobiliyati. Masalan, rassomning mushuklar hayotini (hajviy janr) chizgan rasmini ko‘rsangiz, uni san‘atga hissa sifatida baholaysiz va nafaqat rasmdagi mushuk etiklarining rangini tanqid qilasiz. Estetik idrok - bu nima? Idrok - bu san‘at asari va uning dunyo go‘zalligiga qo‘shgan hissasi haqidagi fikr. Siz chiroyli narsaga qarasangiz va ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechirsangiz. Estetik baho - bu insonning tabiat, har qanday hodisa yoki narsaning go‘zalligi haqida o‘ylashi.

Estetik ideal - bu "ideal" so'zi bilan inson tushunadigan narsani tavsiflovchi umumlashtirilgan tushuncha. Estetik qadriyatlar insonni juda xarakterlaydi, chunki ular butun hayot spektrlariga munosabatini bildiradi. Shaxsning umuman hayotning turli sohalariga munosabati uning shaxsiyati. Oddiy odam mehnatga muhtoj bo'lmasa, ishlay olmaydi, unga nafaqat oziq-ovqat sotib olish, balki hayotiy qadriyatlarni anglash, boshqa odamlarga quvonch keltiradigan resurslarni sotib olish (masalan, bola uchun o'yinchoq sotib olish) yoki o'zini rivojlantirishga mablag' sarflash kerak.

Bizning estetik hislarimizni rivojlantirish uchun nima mas'uldir? Inson go'zalligining estetik tuyg'ularining rivojlanishi va uning intellektual rivojlanishi bevosita bir-biri bilan bog'liq. Yetarli aql (yoki ma'lumot) bo'lmasa, inson go'zallikni to'liq qadrlay olmaydi. Masalan, san'at asarini qadrlash uchun uning zamon kontekstida ahamiyatini, san'at tarixini o'rganishingiz kerak. O'zingizda go'zallik tuyg'usini qanday rivojlantirish mumkin? Kitoblar, yaxshi filmlar, shuningdek, boshqa odamlar bilan aloqa qilish kabi axborot manbalari yordam beradi. Rivojlanish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazing, kichik narsalarda go'zallikni ko'rish qobiliyatini o'zingiz rivojlantiring.

3. Ilm inson vujudining xushmanzara bog'idir va odamiylik olamining javohirga boy tog'idir. Yumshoq ko'ngillik hodisalar to'la dengizdagি kishilik kemasining langari desa bo'ladi va insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo'ladi. Hilm axloqi odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi. Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi, hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat yetishadi.

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o'zi shuncha obro'siz va bachkana tuyuladi, yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, uning qoshida uyatsiz va e'tiborsiz bo'ladi. Bu davr bog'inining xas-xashak singari odamlari shamoldek betayin, yengiltak kishilari oldida hilm ahli go'yo og'ir tabiatli va yomon fe'lli, deb kamsitiladi. Ularning o'zлари esa, quyundek tuproqni havoga to'zitadilar va yengiltabiatilari bilan boshlarini go'yo ko'kka yetkazadilar. Tog' jussasini oyoq osti

qilmoq - odatlari; dala-dashtlardagi zarralarni havoga sovurmoq - bularning salobatlari. Bunday odamlar yeldek har eshikdan kirishga or qilmaydi, o'tdek otashdonni qizdirishdan o'zga ishni bilmaydi. Yel - garchi lolaning tojini uchiradi, ammo tog' qoyalari kamariga qanday ta'sir qila oladi? O't tog' etagidagi xas-xashaklarni kuydirishi mumkin, lekin quyosh uchquniga qanday tenglasha oladi? Yel agar ko'kka yetsa ham, baribir yengil va qadrsiz, tog' agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Yelning orasida o'tga yoqiladigan xas-xashaklar bor, hilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek cho'g' kabi qizil la'l bor.

Kimki ko'ngilni qattiq so'z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko'ngilda til nayzasining jarohati bitmas, u jarohatga hech narsa malhamlik qilmas. Agar bir ko'ngilda til nayzasining jarohati bordir, faqat yaxshi so'z va shirin til unga malham va rohatdir. Muloyim so'z - vahshiylarni ulfatga aylantiradi, sehrgar - ohang bilan afsun o'qib, ilonni inidan chiqaradi.

Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz.

Ko'p, bemaza so'zlaydigan ezma - kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o'xshaydi. Tili yomon odam - xalq ko'nglini jarohatlaydi, o'z boshiga ham ofat yetkazadi. Nodonning vahshiylarcha baqirmog'i - eshakning bemahal hangramog'i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do'stona so'z aytadi, ko'ngilga tushishi mumkin bo'lgan yuz g'am - uning so'zi bilan daf bo'ladi. So'zda har qanday yaxshilikning imkonи bor, shuning uchun ham aytadilarki, «nafasning joni bor...». O'zi xunuk, gapi bema'ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o'xshaydi. Baxt bag'ishlovchi toza ruh manbayi ham til, yomonliklar keltiruvchi nahs yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam - donishmand oqil, so'zga erk bergen odam - beandisha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi, til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi. Til bilan dil - insondagi eng yaxshi a'zolardir. Bo'stonda - gulsafsar, gulg'uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.

Odam - tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til - shuncha sharafi bilan nutqning quroolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa - tilning ofatidir. Til shirinligi - ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa - foydali. Chuchuk til achchiqqa aylansa, ko'pchilikka zarari tegadi,

qanddan may tayyorlansa harom bo‘ladi. Shirin so‘z sof ko‘ngillar uchun asal kabi totlidir, bolalar uchun muloyim tabiatli odam - halvofurush kabi sevimlidir. Har kimningki so‘zi - yolg’on, yolg’onligi bilingach, uyatga qolq’on, yolg’onni chindek gapiruvchi so‘z ustamoni - kumushga oltin qoplab sotuvchi zargar. Yolg’on-afsonalar bilan uyqu keltiruvchi yolg’onchi - uyquda alahlovchi. Yolg’on gapiruvchi g’aflatdadir, so‘zning bir-biridan farqi ko‘pdir, ammo yolg’ondan yomonroq turi yo‘qdir. Yolg’on gapirish bilan o‘z vaqtini o‘tkazuvchi odam, bu qilig’i yomon tuyulish o‘rniga, kishilami aldagani bilan faxrlanadi ham. Yolg’onchi o‘z gapiga go‘llik bilan qulq soluvchini topsa, ularga yolg’onni chinga o‘tkazsa, murodiga yetgan bo‘ladi. Yolg’onchi - haq qoshida gunohkor; xalq oldida sharmanda. Kimki yolg’on so‘zni birovga to‘nkagay, o‘z qorayuzini yog’ga bulaydi. Ozgina yolg’on ham ulug’ gunohdir, ozgina zahar ham halok qiluvchidir.

U yerdan bu yerga gap tashuvchilar elning gunohini o‘z bo‘yniga oluvchilardir. Chaqimchilik hatto chin gap bo‘lsa ham ko‘ngilsizdir, yolg’on bo‘lsa yanada nafratlidir. So‘z yetkazuvchining xoh kattasi, xoh kichigi - do‘zax o‘tining tutanturug’i bil.

Yolg’onchi odam – unutuvchi, u andisha va ehtiyyotdan chetda turuvchi. Har kimning so‘zi chin bo‘lmasa, rostgo‘ylar ko‘ngliga u so‘z qabul bo‘lmas. Yolg’onchi o‘zining yolg’on so‘ziga bir-ikki marta ishontiradi, keyin nima qiladi? Yolg’onchiligi ma'lum bo‘lgach, u rasvo bo‘ladi, uning so‘ziga xalq ishonchi yo‘qoladi. Ko‘ngil xazinasining qulfi - til; u xazinaning kalitini - so‘z bil.

Chin so‘z - mo‘tabar; yaxshi so‘z qisqa - muxtasar. Ko‘p so‘zlovchi - zeriktiruvchi; qayta-qayta gapiruvchi - aqldan ozgan. Ayb izlovchi – aybli, kishi aybini gapiruvchi - o‘ziga yomonlik sog’inuvchi. To‘g’rilik bilan qarovchi - pokiza nazarli; kishilarning yaxshi tomonlarini ko‘rvuchi - to‘g’ri nazarli. Kimning miyasida illat bo‘lsa - so‘zida mantiq bo‘lmaydi. Miyasi sog’lom bo‘lsa, gap-so‘zi yoqimli va xatosiz bo‘ladi. So‘zi hisobsiz - o‘zi hisobsiz. So‘zida parishonlik - o‘zida pushaymonlik. Agar so‘z go‘zallik ziynati bilan bezalmagan bo‘lsa - unga chinlik bezagi yetarlidir! Yolg’onchining gapi qanchalik chiroyli bo‘lsa, shunchalik qabihdir. Chin so‘z qanchalik betakalluf bo‘lmasin, so‘zlovchi uchun taassuf yo‘qdir. Gul libosi yirtiq bo‘lsa ham ziyonsiz; sadaf xunuk bo‘lsa ham inju, uchun nuqsonsiz.

Yolg'on so'z she'rdan boshqa yerda nomaqbul va yolg'onnei aytuvchi aqlsizdir. Yomon qiliqli odam - badfe'l, achchig'i tez - bir baloga giriftor, bir ofatga mubtalo badbasharadir. Bular qayon borsa - balodan qutilmas, har yerga qochsa ham ofatdan xalos bo'lmas. Yomon qiliq g'olib dushmandir va qahrli yovdir, yomon qiliqli kishi esa doim unga mag'lub va vujudi undan majruh. Ochiq chehrali odam - ikkiyuzlamachilikdek nuqsondan yiroq bo'ladi. Ochiq yuzidan xaloyiqqa xursandlik, chuchuk so'zidan el-yurtga xurramlik. Odamiylik bilan ko'ngillarga sevimli, insoniylik bilan jonlarga yoqimli. Undan do'st-dushman xotirjam. Bunday kishi umridan baraka topgay.

Dushman aldoviga uchma, maddoh xushomadini chin dema. Dushmanning g'arazi o'z yomon niyatiga yetmoqdir, maqtovchining maqsadi - xorlik bilan sendan in'om olmoqdir. Agar ikkalasiga iltifot qilmasang va qabul qilishni lozim bilmasang, biri o'z maqsadining ijrosidan to'xtaydi va tadbiri mujmal bo'ladi va ikkinchisining maqtovi hajvgaaylanadi.

Noxush xabarni chin bo'lsa ham do'stingga yetkazma, birovdan ayb o'rsang yuziga solma. Qo'yaver, o'sha chin xabarni dushman yetkazsin va sen sabr qil, u ayb mojarosini dushmani qilsin.

Aqlli odam yolg'on gapirmas, ammo, barcha rost gapni aytaverish ham to'g'ri emas. Birovning ko'zi g'ilay – nogirondir, ammo, bunga u aybdor emasdir. Birovni nohaq hijolatga solmoq - o'z nodonligini izhor qilmoq va bir ko'ngilni og'ritmoqdir. Bu kabi kishini xafa qiladigan chin so'zdan ko'ra zarurat yuzasidan - o'rni bilan gapirilgan yolg'on yaxshiroqdir.

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub»dan.

Tuyg'ular inson hayotining ajralmas va juda muhim qismidir. Ko'pchilik ularning hayotidagi rolini e'tiborsiz qoldiradi yoki shunchaki hisobga olmaydi. Ammo hissiyotlar munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi va ularni yomonlashtiring, samaraliroq ishlang yoki umuman ishlamang. Ishda his-tuyg'ularga o'rin yo'q deb o'ylaydigan rahbarlar noto'g'ri ish qilmoqdalar. Ammo umuman his-tuyg'ular nima? Ushbu maqolada biz bu savolga javob beramiz.

Ijodkorlik odatda badiiy, ilmiy va texnik ijodkorlik deb tushuniladi. Ammo ijodiy element har qanday faoliyat turida sodir bo‘ladi: biznesda, sportda, o‘yinlarda, oddiy fikrlash jarayonida, taniqli fizik, akademik P. Kapitsa aytganidek, kundalik muloqotda - inson qayerda ko‘rsatmalarga muvofiq harakat qilmasa. Ijodning mohiyati har qanday qiymatga ega bo‘lgan sifat jihatidan yangisini kashf etish va yaratishda. Ilmiy ijoddha mavjud bo‘lgan, ammo ma'lum bo‘lmagan yangi faktlar va qonunlar kashf etiladi. Texnik ijodkorlik mavjud bo‘lmagan narsalarni, yangi qurilmalarni ixtiro qiladi. Badiiy va yangi badiiy obrazlarda yangi ma'naviy, estetik qadriyatlar kashf etiladi, yangi badiiy shakllar yaratiladi, "ixtiro qilinadi". Falsafiy ijodkorlik ilmiy va badiiy ijodkorlik xususiyatlarini birlashtiradi.

Ijodning har xil turlari natijalar, ijod mahsullari bilan farq qiladi, lekin bir xil psixologik qonunlarga bo‘ysunadi. Ijodkorlikning har qanday jarayoni ma'lum bir bilim, ko‘nikma va ijodiy qobiliyatlarga ega bo‘lgan ijodkorlik subyekti, ijodkorni ma'lum ehtiyojlar, motivlar, rag'batlantirishlar bilan da'vat etadi. Ijodiy jarayonning asosiy bosqichlari keng tarqalgan: tayyorgarlik, pishib yetish ("inkubatsiya"), tushuncha ("tushuncha") va tekshirish.

Ijodning tabiiy moyilligi har bir insonga xosdir. Ammo ularni ochib berish va har tomonlama rivojlantirish uchun ma'lum obyektiv va subyektiv sharoitlar zarur: erta va mohirlik bilan o‘rganish, ijodiy iqlim, insonning irodaviy fazilatlari (qat'iyatlilik, samaradorlik, jasorat va boshqalar).

Ijodkorlik - bu siz o‘zingizda ko‘rishingiz va to‘g’ri yo‘nalishga yo‘naltirishingiz kerak bo‘lgan kuchli energiya oqimi. Ushbu oqim har kimda, ehtimol kimdadir u yaxshiroq rivojlangan, boshqasida “uxlaydi”. Masalan, men rasm chizishni yaxshi ko‘raman, lekin kimdir fotosurat yoki haykaltaroshlikni yaxshi ko‘radi. Qanday bo‘lmasin, bu o‘z samarasini ko‘rishni istagan ichki ishdir. Iste’dodli rassomlarning asarlarini ko‘rib chiqsak, ranglarning o‘ynashi, syujetning soddaligi, kimdir ochib berishni istagan sir, bizni maftun qilmaydimi? Biror ijodni ko‘rganimizda va o‘qiganimizda muallif bilan, uning ruhi bilan aqlan suhbatlashamiz. Bundan keyin qalbimiz uyg'onmaydimi, hayotga va uning bilimiga bo‘lgan chanqoq chanqoqlik bilan

to‘ldirilmaganmi? Faqat o‘zimizni ijodda namoyon etish orqali biz o‘zimiznikini yaxshiroq o‘qiymiz va birovning ruhini ko‘ra olamiz.

Ijodkor inson har doim atrofdagi dunyoga juda sezgir, u o‘zining barcha yaxshi impulsulari va o‘zgarishlariga javob beradi. Shu bilan birga, u atrofdagi barcha kelishmovchiliklarni ko‘radi va tushunishni, soddalashtirishni xohlaydi. Go‘zallik har doim hamjihatlikda bo‘ladi, shuning uchun inson o‘zi va atrofidagi dunyo bilan uyg'unlikda katta ijodiy impulslar va yutuqlarga qodir, siz doimo tashqi va o‘z qalbingiz bilan ishslash istagiga muhojsiz. Bundan tashqari, hozirda ijodkorlik uchun barcha vositalar, shuningdek, qo‘sishchalar bilan o‘zingizcha tushunishingiz, anglashingiz va ifoda etishingiz mumkin bo‘lgan juda ko‘p ma'lumot mavjud.

Biz xohlaymizmi yoki yo‘qmi, ijod inson hayoti bilan chambarchas bog'liq, chunki inson o‘zi hayotining va o‘z baxtining yaratuvchisidir.

Ijodiy energiya taraqqiyotni boshqaradigan narsa. Ijodkor jismoniy va aqliy kuch sarflamasdan turib yoki nimaga sarf qilmasdan biror narsani o‘ylab topishi, ixtiro qilishi yoki optimallashtirishi mumkin.

Shaxsning ma'naviy komponenti - bu insonning ma'lum qadriyat va ideallarga intilishini aks ettiruvchi ichki, ma'naviy holat. Bunga iroda va xarakter ham kiradi.

Bir nechta yirik ijtimoiy shaxs turlari mavjud:

- "qiluvchilar" (Bunday shaxslar uchun faol harakatlar tabiatan, dunyonи va boshqa odamlarni, shu jumladan o‘zini o‘zgartiradi).
- "mutafakkirlar" (olimlar);
- "his-tuyg'ular va hissiyotlar odamlari" (adabiyot va san'at xodimlari).
- "gumanistlar va astsetika" ("Yaqiningizni o‘zingiz kabi seving" degan so‘zlar ularning faoliyatida bevosita timsolni topadi).

Shaxsning ijtimoiy tuzilishi - bu uning tarkibiga kiradigan turli guruhlardagi odamning ijtimoiy rollari tizimi; hayot jarayonida olingan asosiy insoniy fazilatlar (ta'lif, tarbiya va boshqalar)

Shaxsning jismoniy komponenti - bu tanani yoki odamning tanani tashkil etishi, bu tanadagi xususiyatlar va o‘z-o‘zini anglashga asoslangan shaxsning eng barqaror

tarkibiy qismidir. Insonning jismoniy tarkibiy qismiga ko‘pincha inson mohiyatining muhim xarakteristikasi bo‘lgan kiyim va uy kiradi.

Shaxsiyat tushunchasida birinchi navbatda insonning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari: dunyoqarashi, o‘zini o‘zi qadrlashi, xarakteri, qadriyat yo‘nalishlari, turmush tarzi tamoyillari, axloqiy va estetik ideallar, ijtimoiy-siyosiy pozitsiyalar va e’tiqodlar, fikrlash uslubi, hissiy muhit, iroda va va boshqalar.

Shaxsning asosini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishda va jamiyatda, ba’zan esa dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarga ma'lum darajada ta’sir ko‘rsatish imkoniyatida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan barqaror tizim tashkil etadi. Insonning 3 asosiy tarkibiy qismi mavjud: jismoniy, ijtimoiy, ma’naviy. Inson hayotining u yoki bu qismida muammolarga duch kelmaslik uchun uning barcha tarkibiy qismlarining uyg'un (bir xil va teng o‘lchovli) rivojlanishiga muhtoj.

Albatta. Inson hayotining har qanday usuli ijodkorlik bilan bog'liq. Masalan, sevimli mashg'ulotlari dasturlash bilan shug'ullanadigan kishi o‘z faoliyati sohasida ham yaratishi mumkin: masalan, odatdagidan tashqarida bo‘lgan mutlaqo g‘ayrioddiy dasturlarni yaratish. Hayot tarzi va ijodkorlik, albatta, bir-biriga bog'liqdir.

4. Inson yer yuzida paydo bo‘lgandan to hozirgi kungacha o‘z umri mobaynida ezgulik va jaholat o‘rtasida ko‘rinmas arqon to‘qiydi. Bu umrboqiy hayot qonuni, o‘z o‘rnida hayot tarozisining ikki pallasidir. Moziyning minglab zarvaraqlarda bular xususida minglab misollar ko‘rishimiz mumkin.

Jaholat. Bu so‘zni eshitishimiz bilanoq har birimiz ongimizda chuqur o‘y, qalbimizda esa ovchi qo‘ygan tuzoqqa tushgan ohunikidek titroq uyg'onadi. Bilasizmi, bular qo‘rquvdan emas, bular jaholat so‘zining zamirida yotuvchi inson farzandining o‘z xalqiga o‘z ota onasiga boringki, o‘z vijdoniga qilgan xiyonati, yuzturbanliklari, jirkanch amallariga bo‘lgan munosabatlar ta’siridir. Mana shunday jaholat qurbanlari, taassufki, bizning ertangi kun egalarimiz yosh avlod ildiziga bolta urmoqchi bo‘layotgan manqurt kimsalardir.

Insonning birinchi baxti uning hazrati inson bo‘lib tug’ilishi bo‘lsa, ikkinchi baxti esa muqaddas zamin – ona Vatanining ertangi kun egasi bo‘lishidadir. Ona Vatan!

ming yillar dovonida ota- bobolarimiz ardoqlagan, zaminidan ona yopgan issiq kulcha muattari tarqaluvchi muqaddas diyor. Uning har shamol yaprog’ida o’tmishing yashirin, ona xalqing nigohida kelajaging namoyon. Axir uni asrab avaylamoq, kamoli uchun yelib-yugirmoq uning korida bo‘lmoq, o‘ylab ko‘ring, bundan ortiq baxt bormi? Biroq, taassuflar bo‘lsinki, hozirgidek globallashuv zamonida bular xususida o‘ylash tugul, xattoki, Vatanini sotuvchi, ota-onasi yuziga oyoq qo‘yuvchi vatanfurushlarning oramizda bor ekanligi achinarli.

Xo‘sh, nimaga bu vatanfurushlar ongli inson bo‘la turib, bu kechirib bo‘lmas xato ekanligini bilib turib, yana shu jaholat botqog’iga botishadi? Nima uchun kindik qoni to‘kilgan zaminda, beshikdan ona allasini eshitib, shu zamin, shu xalq ichida unibulg’ayadi-yu yana shu Vatanga, xalqiga xiyonat qiladi? Bunga sababchi kim? Ularni shunday insonga aylanishida aybdor ularni oq yuvib oq taragan mushtipar ota-onami? Yoki uning kamoli uchun yaxshi yashashi uchun yelib-yugurgan sodda xalqimi?

Hamma chaqaloqlar bir xil farishtadek ma’suma bo‘lishadi. Chaqaloq dunyoga keldimi, u uchun hayotda oppoq, yangi sahifa yaratiladi. Uning bu sahifasiga uning umri mobaynida bajargan amallari yozib boriladi. Ulg’ayib, unib o‘sishi natijasida unda fe'l-atvor shakllanadi. Bunda tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Xalqimiz “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deyishi bejiz emas. Farzand ota-oni uchun bamisli ko‘zgudagi aksidir. Agar farzand noqobil bo‘lsa, demak, uning tarbiyasida nuqson bor. Bu esa ota-onaning farzandning aytgan narsasini muhayyo qilishi yoki uning tarbiyasiga beparvolik qilishidandir. Bu orqali, ota-oni farzandni noto‘g’ri yo‘lga kirib borayotganini payqamay qoladi, payqaganida esa kech bo‘lgan bo‘ladi. Zero, zabardast ijodkor Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” degan teran so‘zlari fikrimizning yaqqol isbotidir.

Bilasizmi, xalqimiz orasida bir gap bor: ”Kasalni davolashning eng ma’qul usuli uning oldini olishdir”. Hozirgi zamonamiz mustaqillik, tinchlik nafasi ufurib turgan davr. Ayrim yoshlarimizda shu narsani ko‘ramizki, ular bu ne’matni bardavom deb bilishadi, go‘yoki, o‘zlarini bunga dahlsizdek his qilishadi. Har amalida faqat o‘z manfaatlarini, o‘zlarini hoy-u xavaslarini o‘ylab ish ko‘rishadi. Mana asl manqurtlikning bosh debochasi. Jaholat botqog’ining jirkanch qirg’og’i. Xalqning yana

“Eng xavfli odam bu har ishga befarq odam” degan jumlasini misol keltirmoqchimiz. Har insondan qandaydir insonni kashf etish mumkin, qachonki, unda qalb bo‘lsa. Qachonki unda tarbiyalangan ong, bilim, saviya bo‘lsa.

Shu yerda fikrlarimizni umumlashtiramiz. Insonni manqurtga aylanishidagi sababni izlashdan ko‘ra, uning jaholat botqog’iga eltuvchi yo‘liga to‘siq qo‘ymoq lozim. Hozirgi vaqtida ko‘z o‘gimizda dunyoning geopolotik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkura tortishuvlari keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidanda muhim ahamiyat kesb etmoqda.

Jaholatga qarshi ma’rifat. O‘ylanib qolasan kishi, nahotki jamiki yovuzliklarning daxshatli ko‘rinishi jaholatga ma’rifat bilan qarshi chiqmoq mumkin bo‘lsa? Shundayin qudratli kuchni nahotki, biz kitob, bilim, o‘qib-o‘rganish orqali paydo qilolsak? Ha, ma’rifat barcha yovuzliklarni yengishdagi eng kuchli atom qurollaridan-da qudratliroq kuchdir. U har bir shaxs ongida mafkuraviy imunitetni hosil qiladi. Darhaqiqat, mafkuraviy imunitetga ega bo‘lgan shaxs hayotga teranroq qaray oladi, oqni qoradan ajrata oladigan ma’naviyatli inson bo‘lib yetishadi. Ma’rifatli inson haqiqatni ko‘ra bilguvchidir. Haqiqatni ko‘ra oladigan inson har xil aldonlar qurbaniga aylanmaydi. Bugun yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar zamirida, ma’rifatni sevuvchi, uni tunganmas bulog’idan qonib ichish baxtini tuya oluvchi insonni tarbiyalash maqsadi yotishi bu fikrimizning yaqqol isbotidir.

Inson har bir ishni bajarishdan oldin uni qalbida niyat kiladi. Undan keyin esa uni bajarishga harakat qiladi. Yuragi toza odamlar hamisha yaxshilikni niyat qilib, shuni amalga oshirish payida bo‘lishadi. Natijada ularning qalbida yomonlikka joy qolmaydi.

Alloh taolo bizga behisob ne’matlar bergen. Bu haqda Qur’oni Karimda aytildiki: “Agar Allohnинг ne’matlarini sanasangiz, sanog‘iga yetolmaysiz” (Nahl surasi, 18-oyat).

Darhaqiqat, ilohiy ne’matlarni ko‘rish, ularni his etish uchun katta aql kerak emas, aslida. Mana, yon-atrofga qarasak, osmonda quyosh bir fursat ko‘rinib, so‘ng oylab ko‘rinmaydigan yurtlar bor. Doimo qahraton qish bo‘ladigan yoki aksinchcha, suv

nimaligini bilmaydigan, jazirama o'lkalar qancha? Yaratgan bizga to'rt fasldan bahramand bo'lish ne'matini ato etdi. Bunday ne'matlarga shukr qilish bizning insoniy burchimiz sanaladi. Alloh taoloning bir va'dasi bor, ya'ni: "...agar (bergan ne'matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman. Agar noshukurchilik qilsangiz bas, mening azobim qattiqdir", - deb ta'kidlaganidek, shukr qiluvchi bandalariga o'z ne'matlarini yanada ziyoda etishi muqarrardir. Shukur kqilish, "Xudoga shukur" deyishdan tashqari, har bir ne'matni o'z vaqtida va o'z joyida, isrof qilmasdan tasarruf etish hamdir. Xususan, yer ne'mati, undan samarali foydalanish inson hayotining zarurati. Aksincha, yerdan unumli foydalanmaslik, tomorqalarga ekin ekmasdan uni bo'sh qoldirish kabi holatlar, yerni isrof qilish bo'lib, bu noshukruchilikdan boshqa narsa emas. Shunday ekan, noshukruchilik qilishga aslo haqqimiz yo'q.

Atrof-muhitni tozalash, ko'chalar va qabristonlarni obod qilish, gul, daraxt ko'chatlari ekish, marhumlarning ruhini shod etishdek yuksak qadriyatlarga ega ekanmiz, erta bahordan xayriya hasharlari tashkil etishimiz, bahorgi tozalik va obodonchilik ishlarini sifatli olib borish insoniy vazifamizdir. Bu borada har bir qilgan ezgu niyatimiz va amalga oshirgan ishlarimiz dinimizda ibodat hisoblanib, unga behisob savoblar yoziladi. Shuning barobarida ushbu ishlarni Allohning bizga bergen ne'matlariga shukronalikning amaldagi ifodasi, deb bilamiz.

Turli ekinlar ekib, yer yuzini obod etish haqida hadisi shariflarda aytiladiki: "Qaysi bir musulmon biror ko'chat yoki ekin eksa, undan qush, inson yoki hayvon yesa, u uchun sadaqa bo'ladi" (Buxoriy va Muslim rivoyati). Boshqa bir hadisda: "Qiyomat qoim bo'lib qolib, birovningizning qo'lida ko'chat bo'lsa va qiyomat bo'lguncha ekishga imkon bo'lsa, (uni) eksin" (Ahmad rivoyati).

Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: «Hayotda siz uchun eng sevimli bo'lgan kasbni tanlang va siz bir umr ishga bormaysiz». Agar kishi o'z sevgan kasbida ishlayotgan bo'lsa, u hech qachon har ertalab o'zini ishga ketayapman, deb hisoblamaydi. O'z sevgan kasbi bilan shug'ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag'bat hamda ma'naviy ozuqa beradi. O'zi yoqtirgan ishni qilayotgan kishi vaqt

qanchalar tez o‘tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi.

Bugun dunyo bo‘ylab qanchadan-qancha kishi zavod-fabrikalarda, idoralarda, avtomobilarda, ish maydonlarida ish vaqtining tezroq tugashini intizorlik bilan kutib, tushlik vaqtining tezroq kelishi ilinjida soatga ma’yus termulib o‘tirishadi. Bu toifadagi kishilar, o‘z haddi-harakatlaridan ma’lumki, o‘zлari yoqtirgan mashg’ulotni o‘z kasblari sifatida tanlashmagan. Ya’ni, ular o‘zlariga yoqmaydigan kasb bilan shug’ullanuvchi kishilardir

Ba’zilar «Kishi bajarayotgan ishidan katta daromad olsa bo‘ldi-da, kasb kishiga katta pul keltirsa bo‘lgani, uning qilayotgan ishi o‘ziga yoqishi ikkinchi darajali», deb hisoblashadi. Ammo hech bir kishi kasbidan zavqlana olmas ekan, o‘z bajarayotgan faoliyati orqali katta daromadga erisha olmaydi. Balki biror kishi shug’ullanayotgan kasb katta foyda keltiradigan ishdir, balki kimlardir shu kasb ortidan katta daromadga erishayotgandir, ammo bu kasbning egasida o‘z ishiga nisbatan qiziqish va zavqlanish bo‘lmasa, u hech qachon o‘z kasbidan barakat topa olmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda bugun haqiqiy hayotda kasbidan zavqlana olganlarning muvaffaqiyatlari faoliyat yuritayotganini, o‘z kasbini yomon ko‘rganlarning esa kunni zerikarli bekorchilik bilan o‘tkazishayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday sharoitda o‘zkasbini sevgan, qilayotgan ishidan zavqlana olgan oddiy poyafzal ta’mirlovchisi bugungi kunda milliardlab foyda ko‘rish mumkin bo‘lgan ilg’or tashkilotda yetuk mutaxassis sifatida ishlovchi, ammo o‘z kasbini yomon ko‘radigan, qilayotgan ishidan zavq topa olmaydigan kishidan ancha ko‘proq foyda ko‘rishi mumkin. Ishoning, kasb – bu faqat pul topish usuli emas, balki hayotingizning katta qismini mazmunli o‘tkazish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Agar siz hozirgi yoshingizda keljakda shug’ullanishingiz uchun kasb tanlayotgan bo‘lsangiz, faqatgina bu kasbdan sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo‘lgan ma’naviy ozuqani ham hisobga oling. Bordi-yu siz allaqachon biror kasbga ega bo‘lsangiz, ammo bu kasb sizning sevimli kasbingiz bo‘lmasa,qilayotgan ishingizdan zavqlana olmasangiz, o‘z bajarayotgan ishingizda xursandchilik, ma’no topishga intiling. Bajarayotgan ishingizdan zavqlanishni

o'rganing. Agar buning iloji bo'lmasa, kasbingizni imkon qadar o'zingiz zavqlanib ishlaydigan faoliyat turiga o'zgartirishga harakat qiling.

Unutmang, siz kasbingizda jon saqlashingiz emas, balki yashashingiz kerak. Shundagina qilayotgan ishingiz sizning haqiqiy sevimli kasbingiz hisoblanadi!

**5.** Vatan bizga Alloh tomonidan berilgan eng buyuk ne'mat bo'lib, u haqda har qancha yozsang ham yana qaysidir jihatlari qolib ketayotganday, go'yo misralar ojiz, rangsiz, g'aribday tuyulaverarkan. Vatan haqida aytmoqchi bo'lganlaring esa behisob. Shunchalar ko'PKI, hisobdan adashib ketasan kishi.

Xalqimiz odatda Vatan so'ziga Ona so'zini qo'shib talaffuz qiladi: Ona vatan. Bu Vatanning onaday aziz, mehribon, jonkuyarligiga ishora bo'lsa kerak-da. Axir inson uchun onadan azizroq kishi bormi? Jism-u jon ato qilib, yana boshimizda tunlarni bedor o'tkazgan zotdan, a? O'ziga bori zahmatlarni olib, rohatni farzandiga ilinganini ta'riflashga har qancha "mehribon" degan so'z kamlik qilmaydimi? O'zga jon uchun, uning baxti, kamoli, ertangi kuni deb kerak bo'lsa, o'z jonidan ham kechadigan yana kim bor olamda?! Aslida esa mana shu tuyg'u, tasavvur, rishta, shuncha mehrning hammasi Vatanning bir parchasi, bir bo'lagi xolos.

Vatan ham xuddi Ona kabi o'z farzandining xatolaridan iztirob chekadi. Yuragi zardobga to'ladi. Lekin kechiradi. Muhimi, farzand o'z xatolarini anglab yetsin. To'g'rilanish yo'lini tutsin. Bilim olsin, yurtga naf keltirsin. Kindik qoni tomgan shu zamin bilan o'zini yaxlit deb bilsin.

Vatanga muhabbat so'zda emas, amalda isbot qilinadi, deydilar. Demak, har birimiz uni sevish barobarida ko'z qorachig'idek asrashimiz, e'zozlashimiz, turli zararli g'oya va nag'malar oldida hamisha hushyor turishimiz, bir-birimizni ham shunga da'vat etishimiz lozim. Shundagina Vatandan rizolik topamiz. Mana shu rizolikning o'zida ne-ne hikmat mujassam. Zero, Vatan – onaday muqaddas.

Mamlakat taqdiridan, uning tashvish va muammolaridan doimo boxabar bo'lib turish har bir fuqaroning tabiiy ehtiyoji bo'lib, u Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usidan kelib chiqadi.

Vatan, xalq uchun fidoyilik va sadoqat bilan mehnat qilish farzandlik burchimiz va oliv sharafdir. El qachon suyadi, xizmatlar qachon e'tirof etiladi? Qachonki, inson fidoyilik ko'rsatsa.

Azaldan el-yurt uchun jon koyitgan, vatan ravnaqiga ulush qo'shgan, yurtparvar, sadoqatli va fidoyi kishilar munosib rag'batlantirilgan, qadrlangan. Istiqlol yillarida inson sha'nini qadrlash, ozod va obod vatan, erkin va demokratik davlat barpo etish, mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqimizning tinch-osoyishta, farovon, baxtli va munosib hayot kechirishini ta'minlash, inson sha'nini qadrlash borasida ulkan islohotlar amalga oshirildi.

Natijada xalqimizning buguni va ertasiga ishonchi mustahkamlandi, yurt ravnaqiga daxldorlik, vatanga yelka tutish, kamarbasta bo'lish tuyg'usi, bunyodkorlik salohiyati yuksaldi.

Insonning ma'naviy olamining yuksalishiva daxldorlik xissi fuqarolik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirish bilan uzviy bog'liq. Fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtiroki ularning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qilishda yorqin namoyon bo'ladi. Insonning jamiyat hayotiga munosabati, qonunlarni hurmat qilishi,adolat tamoyillariga amal qilishi, insonni qadrlashi, ularning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb bilishi,halol va pok yashashi ularning yuksak ma'naviy dunyosi va daxldorlik hissining amaliy ifodasi ekanligini hisobga olish lozim.Fuqarolik jamiyati qurilishi shu ma'noda insonning yuksak ma'naviy hamda daxldorlik hissi fazilatlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makondir. U fuqarolarning davlat va jamiyat munosabatlarida aniq namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati – fuqarolarning tegishli fuqarolik jamiyati institutlari orqali davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta'minlangan jamiyatdir. U tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi va amalga oshiriladi. Fuqarolik jamiyati shu ma'noda demokratik jamiyat qurishning muhim shartidir. Jamiyatning ma'naviyati va daxldorlik hissi qancha yuksalib borsa, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish inmkoniylarini shuncha oshib boradi.

Yuksak ma’naviyat tushunchasi jamiyatning ma’naviy taraqqiyot darajasini belgilaydigan o‘ziga xos mezoni hisoblanadi. U jamiyatdagi har bir insonning ruhiy olami, ichki dunyosi, imon-e’tiqodi va qarashlarining mezoni sifatida jamiyat hayotining o‘ziga xos fazilatlarini namoyon etadi. Yuksak ma’naviyat jamiyatning milliy ma’naviy merosi va qadriyatlari hamda ilm-fan rivoji, demokratik jamiyat qurish tajribasi, yutuqlari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyati qurilishi ma’naviyatni anglash va daxldorlik hissi, uni shakllantiruvchi mezonlar bilan bog‘liq. Fuqarolik jamiyati qurilishi har bir xalqning milliy-ma’naviy merosi va qadriyatlari bilan bog‘liq o‘ziga xos milliy xususiyatlarga tayanadi hamda dunyo xalqlarining erishgan yutuqlarini hisobga oladi. Ma’naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, bu hayotning ba’zida achchiq, ba’zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo‘lib singib boradi. Aynilsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o‘ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne’mat va go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish ma’naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o‘tgan murakkab rivojlanish yo‘llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o‘z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar quyib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, o‘sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma’naviy yuksalish va daxldorlik hissini anglash uchun yangi imkoniyatlar tug‘iladi.

Umuman olganda, insoniyat tarixi ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbayi ekanini, bu hayotda ma’naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo‘lmasligini yaqqol tasdiqlaydi. Yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo‘lsa, har birining o‘z ma’naviy olami bor. Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Shuning uchun ham o‘zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda o‘ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin.

Milliy ma’naviyatni yuksaltirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda ma’naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta’sir o‘tkazadigan barcha omil

va mezonlarni chuqur taxlil qilib, ularning fuqarolik jamiyatida qanday o‘rin tutishini yaxshi anglab olish maqsadga muvofiq.

Shukronalik - ne’matlar kaliti.

Alloh taolo O‘zining fazlu karami ila inson zotini aql va idrok sohibi qilib yaratdi va unga behisob ne’matlarni ato qilib, ulardan bahramand qildi. Shu bilan bir qatorda O‘zining ne’matlariga shukr aytishga ham buyurib, kalomida shukr qiluvchilarga ne’matlarini yanada ziyoda qilish va’dasini berib, shunday deydi: “Yana Rabbingiz e’lon qilgan (bu so‘zlar) ni eslangiz: «Qasamki, agar (bergan ne’matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman. Bordi-yu, noshukrchilik qilsangiz, albatta, azobim (ham) juda qattiqdir”. Barchalarimiz Parvardigorning biz bandalarga bergan tansihatlik, farovonlik, baxtu saodat, tinchlik va osoyishtalik kabi ulug‘ ne’matlariga shukr aytsak, qadriga yetsak, shunda Alloh ham bizlardan rozi bo‘lar ekan.

Islom ta’limotida ne’matlarga shukr qilish ulug‘ fazilat va yuqori daraja deb alohida qayd qilingan. Bu haqda Abdulloh ibn Abbas (r.z.) shunday degan ekan: “Shukr qilishlik imonning yarimidir”.

Boshqa bir rivoyatda esa “Imon - sabr va shukrdan iborat” deb ham aytilgan. Shuning uchun ham Alloh taolo barchamizni shukr qilishga amr qilib, uning ziddidan qaytargan, shukr aytuvchilarga chiroyli mukofotlarni va’da qilib, O‘zining fazilati, karami va ne’matlarining yanada ziyoda bo‘lishiga shukrni sabab etgan va O‘zining go‘zal ismlaridan birini shukr orqali ifoda qilgan.

Buyuk bobokalonimiz Qaffoli Sxoshiy o‘zining mashhur “Javomi ul-karim” kitobida keltirgan Payg‘ambarimiz (s.a.v) ning “Ne’matlar haqida gapirishlik shukr qilishlikdir” deganlar. Yaratgan bizlarga ato etgan behisob ne’matlarni yodda tutish, uni o‘z vaqtida qadrlay olish o‘sha ne’matlarning davomiyligiga sabab bo‘ladi. Shayx Sa’diy aytganlar: “Bir nafasga ikki marta shukr aytish vojib”, zero, nafas kirsa-yu qaytib chiqmasa yoki chiqsayu qaytib kirmasa, inson halok bo‘lishini ta’kidlab, inson tansihatligi uchun, xotirjamligi uchun Yaratganga shukrona aytmoqligi lozim deganlar. Yaxshilikka faqat yaxshilik bilan javob qaytarish ulug‘ fazilatlardan hisoblanadi. Tinch-xotirjam hayotimiz farovon o‘tayotgan kunlarimizning qadriga yetish uchun

shukr qilib, eng avvalo hushyor bo‘lishimiz lozimligini, ana shu ne’matlardan ayirmoqchi bo‘lgan turli g‘arazli kuchlar, nopol toifalarning nayranglaridan hamisha ogoh bo‘lib, ularga munosib javob qaytarish kerak. Inson turli hiyla va aldovlarga aldanib, pirovardida oilasidan, yaqinlaridan, tinchligidan ajralib qolgan kishilar qismatiga nazar solsa, bu kunlarimizga qanchalar shukr keltirishligimiz lozimligini anglab yetamiz.

Alloh taolo ne’matlariga shukr aytuvchilarni albatta mukofotlashi va ularga ulug‘ajru savoblar berishini ham kafolatlagandir. U zot aytdi: “... Shukr qiluvchilarni esa, albatta, mukofotlaymiz”.

“Nihoya” kitobida shunday naql qilinadi: “Banda kishi tomonidan qilingan yaxshilik uchun unga tashakkur aytmasa, Allah taolo ne’matlariga qilgan shukrini aslo qabul qilmaydi”. Hadisi sharif mazmuniga muvofiq, bizlar davlatimiz va hukumatimiz tomonidan xalqimiz baxt-u saodati, farovonligi, osoyishtaligi va tinchligi yo‘lida qilinayotgan barcha xayrli va ezgu amallariga shukr aytishimiz lozim. Muhtaram yurtboshimizning bevosita tashabbuslari bilan ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash ishlariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bugun dunyoda bo‘layotgan notinchliklar, iqtisodiy-siyosiy nizolar, noinsoniy xunrezliklar va millatlararo kelishmovchiliklarni yoki ba’zi mantaqalardagi xalqlarni bir burda nonga zor bo‘layotganlarini ko‘rib har bir inson O‘zbekistondagi tinch-osuda farovon hayot va to‘kin dasturxonimiz uchun Allah taologa cheksiz shukrlar aytishimiz lozim bo‘ladi.

6. Bilib oling: Konflikt (lot. conflictue - ixtilof, to‘qnashish) - 1) qarshi tomonlar, fikrlar, kuchlar to‘qnashuvi; 2) adabiyot va san’atda - badiiy asar mohiyatida yotgan ziddiyat, personajlarning o‘zaro to‘qnashishi, ixtilofi. Konflikt epik asarlarga nisbatan qo‘llanadi, lirik asarlarda esa u kolliziya, kechinma, fikr oqimi tarzida namoyon bo‘ladi. Konfliktning 3 xil ko‘rinishi mavjud: asar qahramonlarining bir-birlari bilan to‘qnashuvi, kurashi; shart-sharoit, muhit bilan to‘qnashuv; o‘z-o‘zi bilan ichki kurash. Drama konfliktni harakatni rivojlantiruvchi, keskinlashtiruvchi xususiyatga ega. Konfliktda yozuvchining dunyoqarashi, voqelikni, hayotni, dunyonni va insonni qanday idrok etishi va tushunishi namoyon bo‘ladi. Dramaturgiyada "tashqi" konfliktga keng

o‘rin beriladi, bunda qahramonlar o‘zaro bir-biri bilan ixtilofda, kurashda bo‘ladi, "ichki" konfliktda esa qahramonning o‘z burchini his etishi bilan ojiz ruhiy tomoni, hissiy iztiroblari, holati o‘rtasidagi ziddiyat tarzida ko‘rinadi. Mazmuni, yo‘nalishi nuqtai nazaridan konfliktning maishiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va boshqa turlari mavjud. Voqealar rivoji davomida ijtimoiy konflikt siyosiy konfliktga, siyosiy konflikt falsafiy konfliktga aylanishi mumkin. Katta, o‘tkir g‘oyalarni uchun keskin kurashga asoslangan to‘qnashuvda fojiaviy ruh ustun bo‘lib, fojiaviy konfliktni tug‘diradi yoki kulgili, o‘tkir hajviy yo‘nalishdagi vaziyat, holat, voqealar kulgili ruhni hosil qiladi. Konfliktning mohiyati zamon, makon bilan jiips bog‘liq. Shunday konfliktlarlar bo‘ladiki, davr o‘tishi bilan ular barham topadi. Dunyoda yaratilgan asarlar konflikti zaminida taqdir taqozosi turgan bo‘lsa, o‘rta asrlardagi asarlarda ilohiy kuch bilan insondagi shaytoniy xirs konfliktning asosini tashqil etadi. Romantizm davrida voqelik, muhit, shart-sharoit bilan ideal o‘rtasida, yaxshilik bilan yomonlik, ruhiy erkinlik bilan turmush tashvishlari o‘rtasidagi ziddiyat hukmronlik qilgan, realizm tantana qilgan davrda inson mohiyati, uning istagi, imkoniyati bilan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit zaminida konflikt yuzaga kelgan. Shunday boqiy mavzular borki (masalan, saxiylik va xasislik, vafodorlik va bevafolik, tiriklik va o‘lim), bularda konflikt har bir davrning ma’naviy, ruhiy talab va ehtiyojlaridan kelib talqin qilinadi. Sho‘rolar davrida - sotsialistik realizm metodi hukmronlik qilgan davrda konflikt zaminiga ijtimoiy-sinfiy antagonizm qo‘yilgan va bu ziddiyatning inqilobiy yo‘l bilan yechilishi talab qilingan, individual axloq bilan jamoa ongi o‘rtasidagi, xususiy mulkchilik ruhiyati bilan jamaot, xalq manfaati o‘rtasidagi kurash tarzida qo‘yilgan. Sho‘ro tuzumini tanqid qilish man etilgan va shu tufayli adabiyotda, ayniqsa dramaturgiyada konfliktsizlik "nazariya"si kelib chiqqan. Hayotdagi keskin ziddiyatlarni chetlab o‘tish, voqelikni, hayotni bo‘yab ko‘rsatish, insonni shunchaki bir qo‘g‘irchoq, robot tarzida ko‘rsatish bu davr adabiyotining bosh belgisi bo‘lgan. Milliy mustaqillik tufayli o‘zbek adabiyoti va san’atining ijodiy usuli realistik metod bo‘lib qoldi, hayot va insonni haqqoniy tasvirlash, voqelikdagi ziddiyatlar kulami va mohiyatini teran ochish, inson va jamiyatning kamol topishidagi qiyinchiliklarni, murakkab jarayonlarni oqilona tasvirlash yagona mezonga aylandi. Ammo yozuvchi, san’atkor voqelikdagi

ziddiyatlarni qanday bo'lsa, shundayligicha badiiy asarga ko'chirmaydi, aksincha, ularni tanlab oladi, umumlashtiradi, yanada keskinlashtiradi, ular ma'nosi, mohiyatini ochadi, tushuntiradi.

Sog' tanda sog'lom aql, deydilar dono xalqimiz. Insonning tanining sog'ligi eng katta boyliklaridn biri hisoblanadi. Odamni eng asosiy tana a'zosi bo'lmish – yurak hamma uchun o'ta ahamiyatli.

Sog'lom inson doimo foydali narsalarga o'zini safarbar etadi. Zararli odatlardan yiroq bo'ladi. Sog'lom tana - bu sog'lom aql demakdir. Sog'lom bo'lish uchun esa kun tartibga rioya qilishimiz, o'z vaqtida uxbab, tanani dam oldirishimiz, ko'proq foydali narsalar iste'mol qilishimiz, kerakli kitoblar o'qishimiz kerak. Bular barchasiga bizga fikr doiramizni kengayishiga sog'lom bo'lishimizga yordam beradi.

Ruhiy tarbiya – g'alaba va yutuqlarning muhim omili.

Ruhiy tarbiya nima? Inson ruhi yaratgan zotning buyuk siridir. Ulug' manbalarda aytiladiki, insonning tanasi har kuni oziqlanmasa, u yashashdan to'xtaydi. Xuddi shuningdek, uning ruhi ham nimadandir oziqlanishi kerak. Inson o'z ruhini nimadan oziqlantirganiga qarab baxt-u saodatga erishadi. Ruh o'zini yaratgan zotning zikri bilan poklanadi. Inson ham ruhan, ham jismonan poklansa, go'zal axloqli insonga aylanadi. Ruhiy tarbiya juda murakkab, katta iymon-e'tiqod talab qiladigan masala bo'lganligi sababli uni maxsus o'rghanish lozim.

Inson ruhan tarbiya topgan bo'lsa, gunoh va yomon ishlarga aralashmaydi. Chunki yomon ishlardan tarbiyalangan ruh izardirobga tushadi. Kechalari o'z sohibiga malomat qiladi. Unga tinchlik bermaydi. Sohibini insofga chaqiradi.

Darhaqiqat, hamma zamonlarda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi dolzarb masala bo'lib kelgan. Bugun bizning davrimizda ham yoshlarimizga nihoyatda yuksak e'tibor bilan qaralmoqda. Hukumatimiz tomonidan yoshlarimizga o'qish va mehnat qilish borasida hamma shart-sharoitlar muhayyo qilingan. Endigi vazifamiz mana shu g'amxo'rliklarga munosib sa'y-harakatda bo'lishdir.

Chinakam muvafaqqiyat bu ko'p yutuqlarga erishish emas, balki ko'p marta yiqilsa ham, yana o'rnidan turib, qayta harakat qila olishdir. Bunday qobiliyat faqatgina kuchli iroda egalarida bo'ladi. Mustahkam irodaga ega bo'lish hamma sohalar qatori

sportda ham eng muhim jihat sanaladi. Bugun oqsayotgan sohalardan biri ham sport ruhshunosligidir, desak yanglishmasmiz.

Ruhiy tarbiya – insonning o‘zini boshqara olish qobiliyati. Sportda nafaqat jismoniy jihatdan baquvvatlik, balki kishining irodasi, hattoki fikrlashi ham juda katta ahamiyatga ega. Masalan, bo‘lajak champion yillar mobaynida faqat muskullarigagina e’tibor qaratib, mashq qilib, turli vaziyatlarga, zarbalarga ruhan tayyorgarlikni shakllantirmasa, uning muvafaqqiyat qozonishi qiyin. Ayrim hollarda bir marta champion bo‘lib, ikkinchi, uchinchchi marralarga harakat qilmay qo‘yishi ham mumkin. Shuning uchun sport psixologiyasi muvafaqqiyatga erishishning asosiy kalitlaridan biri sanaladi.

### **NAZORAT SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

1. Nima uchun inson ijodsiz yashay olmaydi?
2. Ijodsiz odam bormi?
3. Inson ijodining jamiyat hayotidagi o‘rni qanday?
4. Inson hayotidagi ma’naviy, ijtimoiy va jismoniy munosabatlar qanday bog’liqdir?
5. Shukronalik – ne’matlar kaliti. Ushbu hikmatni izohlang.
6. Estetik ideal deganda nimani tushunasiz?
7. Insonning turmush tarzi va ijodkorligi o‘rtasida bog’liqlik bormi?
8. Insonni ruhiy tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?

### **TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

- 1.“Men o‘zimni shunday tutayki, hech kim mening to‘g’rimda biron yomon gap ayta olmasin”. Ushbu fikr kimga tegishli?
  - A. Aleksandr Pushkin
  - B. Abu Rayhon Beruniy
  - C. Irina Sendler
  - D. Alisher Navoiy
- 2.“Hamyoningda bir chaqa qolmaganida, o‘ta tartibli va mas’uliyatli bo‘lib qolasan”. Ushbu ibora qaysi matndan olingan?

- A. Bir kompaniya tarixi
- B. Milliarderning bir kuni
- C. Tadbirkorlik sirlari
- D. Mehr va oqibat sari.

3.“Donishmand va olimlarning xulqlaridan o‘rnak olish yaxshi xulqni tiriltiradi, yomonini yo‘q qiladi”. Ushbu fikr kimga tegishli?

- A. A.S.Pushkin
- B. Abu Rayhon Beruniy
- C. Ahmad Yassaviy
- D. Alisher Navoiy

4.O‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari astoydil harakat qilish, uchragan to‘sqliarni yengib o‘tishga intilish bu - .....dir.

- A. Mehribonlik
- B. Botirlik
- C. Tirishqoqlik
- D. Mehnatsevarlik

5.Mas’uliyatsizlikni yengib o‘tishga yordam beruvchi omil berilgan qatorni aniqlang?

- A. Faqat o‘z manfaatingizni o‘ylab ish qiling;
- B. O‘z hayotingiz, harakatlaringiz va qarorlaringizni rejalshtiring;
- C. Yon-atrofda bo‘layotgan voqeа-hodisalarga e’tibor bermang.
- D. Barcha javoblar to‘g’ri.

6.Mas’uliyatsizlikni yengib o‘tishning murakkab yo‘lidagi birinchi qadam nima?

- A. Har bir, hatto eng kichik ishni ham oxiriga yetkazish.
- B. Yengil badantarbiya mashqlarini bajarish
- C. Odamlar bilan ko‘proq muloqotda bo‘lish
- D. Har narsaga shubhalanmaslik

7. Mas’uliyatli odamga xos xislatlar keltirilgan qatorni toping?

- A. O‘z faoliyati va harakatlari uchun mas’uliyatni zimmaga olmaslik
- B. O‘z kuchiga ishonmaslik, intizomsizlik, beparvolik

- C. O‘z kuchiga ishonch, intizomlilik, qat’iyat, irodalilik, maqsadlariga erishish  
D. Xatolarini tan olish, notanish ish bilan shug’ullanishni istamaslik.
- 8.Insonlar o‘rtasidagi do‘stlik va birdamlik poydevori – bu ..... hisoblanadi.  
Nuqtalar o‘rniga mos javobni qo‘ying.
- A.Rostgo‘ylik  
B.Mehnatsevarlik  
C.Qobiliyat  
D.Quvnoqlik
- 9.“Hattoki yolg’iz o‘zing bo‘lsang ham, yomon gapirma va yomon ish qilma.  
Boshqalarga nisbatan ko‘proq o‘zingdan uyalishni o‘rgan”. Ushbu fikr qaysi  
mashhur faylasufga tegishli?
- A.Demokrit  
B.Platon  
C.Suqrot  
D.Aristotel
- 10.“Rostgo‘ylik” tushunchasi qaysi tushuncha bilan yonma-yon yuradi?
- A.Mehribonlik  
B.Intiluvchanlik  
C.Vijdon  
D.Mehnatsevarlik

## **10-MAVZU: ASLIYATGA QAYTISH. UMR – ULUG’ SINOV, IMKONIYAT**

**(4 soat)**

**Reja:**

1. Umr fasllari ta’rifi. Ikki dunyo saodatiga erishish. “Kengga keng – torga – tor dunyo”. Umr mazmuni.
2. Ulug’ daholari umr mazmuni haqida.
3. Globallashuv jarayonlarining insoniy tuyg’ularga salbiy ta’siri va uning oqibatlari. Egoizm va individualizm. Odam savdosi. Bir jinslar o‘rtasida nikoh.

#### 4. Global Islom va yer sayyorasi. Oxirzamon nishonalari. Nafosat yo'llari.

1. Inson umri cheklangan. U ma'lum yillar, ma'lum oylar, kunlar, soatlar, daqiqalar, boringki, malum lahzalardan iborat. Shunday ekan, utayotgan har bir onimizning qadriga yetmasak, vaqt hamisha bizning zararimizga ishlaydi. Mashhur tobeinlardan Hasan Basriy hazratlari: “Ey odam bolasi, sen ma'lum kunlardan iboratdirsan. Sen uchun bir kuning ketishi bir qisming, bir bo'laging ketishi demakdir”, degan ekanlar.

Vaqt hayotimizda eng ahamiyatli masalalardan biridir. Vaqt hayot demakdir. O'tayotgan har daqiqa-yu soniya, soat, kun, inson umrining o'lchovidir. Vaqt shunday mablag'ki, uni ertangi kunga jamlab qo'yish mumkin emas. Qur'oni Karimda vaqtning bebaho va qadriga yetish lozim bo'lgan ulug' ne'mat ekaniga oshkora yoki zimdan dalolat qiluvchi ko'plab ishoralar bor.

Alloh taolo vaqtning bo'laklari va ajralmas qismi bo'lmish kecha va kunduzga qasam ichadi. Tongga, cxoshgoh vaqtiga qasamyod qiladi. Masalan, Layl (tun) surasida “Borliqni uz zulmati bilan o'rab kelayotgan kechaga qasam”, Zuho surasida “Cxoshgoh vaqtiga qasam”, deya marhamat qiladi. Gohida esa to'g'ridan-to'g'ri vaqt-zamonga qasamyod qilib, “Zamonga qasamki, inson zoti ziyyondadir”, deydi.

Mufassirlar so'ziga ko'ra, Allah taolo o'z bandalari va maxluqotlaridan biri bilan qasam ichsa, bu qasam ichilayotgan u yoki bu mavjudotning buyukligiga va qadri balandligiga ishora qilish bilan bir qatorda qasandan suo'ng aytiladigan narsaning ham yuksak ahamiyatga molik ekanligini bildiradi.

Payg'ambar alayhissalom sunnatlarida ham vaqt qiymati alohida ta'kidlanadi. Muoz ibn Jabal roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Payg'ambarimiz (s.a.v.) marhamat qilib dedilar: “Banda qiyomat kuni to'rt narsadan so'ralmaguncha, bir qadam ham oldinga siljiy olmaydi. Bu savollardan birinchisi – umrini nima bilan o'tkazgani, ikkinchisi – yoshlik davrida nima bilan mashg'ul bo'lgani, uchinchisi – mol-dunyonи qay yo'sinda (halol yo'l bilanmi yoki harom yo'l bilanmi) topgani va nimalarga sarflagani, to'rtinchisi – o'rgangan ilmiga qanday amal qilgani (haqida so'raladi)” (Bazzor va Tabaroniy rivoyati).

Inson umrining har bir davridan umumiy ravishda, yoshlik davridan esa o‘ziga xos shaklda so‘raladi. Yoshlik – yigitlik umrning bir bo‘lagi, lekin uning boshqa davrlardan ajralib turuvchi o‘ziga xos ahamiyatli tarafi bor. U hayoti g’ayratu shijoatga, o‘tkinchi maqsadga to‘la yoshdir. Yoshlik ikki zaiflik – go’daklik va keksalik orasidagi jismoniy quvvatga to‘lishgan bir davrdir. Rum surasining 54-oyatida bunday deyiladi: “Alloh shunday zotdirki, U sizlarni nochor narsadan (ya’ni, bir tomchi suvdan) yaratdi, so‘ngra (sizlar uchun) nochorlikdan keyin kuch-quvvat (paydo) qildi, so‘ngra kuch-quvvatdan keyin yana zaiflik va qarilikni (paydo)qildi.”

Kishining go’dakligi zaif bo’lgan davridir. Keksaligi ham zaiflik davri. Demak, o‘rtada oz muddatga yoshlik-yigitlik deb atalmish kuch-quvvatli davr berilar ekanki, uning qadriga yetish, bu oz muddatni yaxshi ishlarga sarflash, halol kasb-kor qilish, ilm olish, farzandlarini kelajakda el-u yurtiga xizmat qiladigan, jamiyatga manfaat keltiradigan olim, fozil, hunarmand, tadbirkor, solih kishilar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlashga harakat qilish maqsadga muvofiqdir. Islomda “Ikki buyuk ne’mat borki, ko‘p odamlar ular borasida aldanib qoladilar. Ular sihat-salomatlik va bo‘sh vaqtdir”, degan hadis bor. Inson qo‘lidagi salomatlik va bo‘sh vaqt atalmish sarmoyasini chiroyli tadbir bilan tasarruf qilsa, foyda ko‘radi. Aks holda chuv tushadi. Lekin, afsuski, inson bolasi kuch-quvvatga to‘lib, sog’-salomatligi yaxshi paytida umrining qadriga yetmaydi. Dunyoning hamma ishlariga bemalol ulguradigandek yuraveradi. Alisher Navoiy bobomiz iborasi bilan aytganda “Umr gulshanining bahori” va “hayot shabistonining nahori”ni kechirayotgan yoshlik yillari zavq-shavqlari favvorasi jo’shqinligidan kishi umr bahori va uning munavvar tongi juda tez o’tib ketganini payqamay ham qoladi.

Inson yaralibdiki, hayotini hamisha gullab- yashnashi va umrini osuda va farovon o‘tishini qalban istaydi. Bu maqsadga erishish uchun yoshu-qari o‘zidagi bor kuch quvvatini sarflab o‘tadi. Albatta, Allah taolo butun insoniyatni yo‘qdan bor qildimi, uni ona zaminda emin-erkin yashashi va tinch hayotini ta’minlaydigan ko‘rsatmalarni bosqichma-bosqich yaratib beradi. Haqiqatan, bu yo‘llanmalar kishiga umri davomida baxt-saodat va barokotlarni beradi.

Jamiyatning har bir jabhasida ko'rsatmalar zarur bo'lib, ularning barchasida halollik, poklik va sof qalb bilan yo'g'rilgan amallarni bajarish zarurdir.

Inson qiladigan har bir ishning natijasi uning oqibati bilan belgilanadi. Shuningdek, insonning yashab o'tgan hayoti mazmuni ham uning so'nggi lahzalari bilan belgilanadi.

Sahl ibn Sa'd So'idiy roziyallohu anhudan qilingan rivoyatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Albatta, amallar xotimasiga bog'liq», dedilar (Buxoriy rivoyati). Demak, bu dunyoda qilingan amallar hosili umr so'ngida ma'lum bo'ladi. Shu bois inson hayoti qanday yakun topishi haqida ba'zi bir alomatlar ham keltirilganki, shunga qarab uni «yaxshi» yoki «yomon» degan xulosaga kelinadi. Ya'ni, hayot vaqtida inson yaxshi amallarni bajarishga beparvo va loqayd bo'lib, umri poyoniga yetganda shunday ishlarga ulguraman, degan kishi adashadi. Ko'pincha qarib, o'limi yaqinlashgan inson bu dunyoda qanday hayot kechirdim, nimaga erishdim, deb yashab o'tgan umrini bir-bir ko'z oldidan o'tkazadi. Aslida, bu to'g'ri emas. Inson hayotining har kunini o'z amallarini taftish qilib, sarhisob etishi lozimligi manbalarda aytilgan. Ammo inson hayotining qanday xotima topishi hech kimga ma'lum emas. Demak, inson butun hayoti davomida yaxshi amallarni qilishga harakat qilmas ekan, oxirgi afsus-nadomat hech qachon foyda bermaydi. Inson hayoti yaxshi xotima topishi uchun u butun umri davomida tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Ilm dunyoda azizlik, oxiratda sharafdir. Ilmga ana shunday ta'rif berilgan. Demak, kimga dunyo kerak bo'lsa, ilm olsin, kimga oxirat kerak bo'lsa, ilm olsin, kimga ikki dunyo kerak bo'lsa, ilm olsin. Zanjiy ibn Xolid r.a aytadi: "Bolalik paytimizda Zuhriy r.a ning huzuriga kirgan edik, u zot bizga: "Ilm talab qilinglar. Shunda siz dunyonи istasangiz unga yetishasiz, oxiratni istasangiz ham unga yetishasiz", dedilar". Ilmning darajasi ana shunday ulug'dir. Ilm muqaddas dinimizda ulkan darajalarga, maqomlarga ko'tarilgan ulug' bir xislat, go'zal bir amal hisoblanadi.

Ilmning ulug'ligi shu darajadaki, kimda kim ilm talab qilish yo'lida yursa, u jannat yo'lida yurgan, deb e'tibor qilinadi. Agar vafot etadigan bo'lsa, ko'zini jannatda ochadi. Bu haqda hadisi shariflar vorid bo'lgan.

Abu Hurayra roziyallohu anhu Payg‘ambarimiz (s.a.v.) dan rivoyat qilib, bunday dedilar: “Kim ilm istab yo‘lga chiqsa, Alloh taolo uni jannatga yo‘llab qo‘yadi. Va olim uchun yer-u osmon va xatto dengizdagi baliqlar ham mag‘firat so‘raydilar. Albatta, olimlar payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir”. Alloh taolo Qur’oni Karimni yigirma uch yil davomida Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga oyatma-oyat, surama-sura, bo‘lak-bo‘lak holatda nozil qildi. Ma’lumki, birinchi nozil bo‘lgan oyatlarning birinchi so‘zi “Iqro” (o‘qi) buyrug‘i bilan nozil bo‘ldi. Shuning o‘zi dinimizda ilmgaga qanchalik e’tibor qaratilganligiga dalolat qiladi. Qur’onda ilm to‘g‘risida juda ko‘plab oyatlar nozil bo‘lgan. “Ilm” so‘zi Qur’oni karimning sakkiz yuz o‘n bir joyida turli ma’nolari bilan kelgan. Chunki dinimiz ilm dini, dinimiz ma’rifat dini, dinimizda jaholat mazammat qilingan, ilmsizlik qoralangan.

Alloh taolo aytadi:“...Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko‘tarur. Alloh qilayotgan (barcha yaxshi va yomon) amallaringizdan xabardordir” (Mujodala surasi, 11). Yaratganning O‘zi ahli ilmlarning, olimlarning darajasini ana shunday ko‘tarib qo‘ygan.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) dan ham ilm olishga dalolat qiluvchi nihoyatda ko‘p hadis shariflar vorid bo‘lgan: “Darhaqiqat, Alloh, Uning maloikalari, osmon va yer ahllari, hatto inidagi chumoli va dengizdagi baliqlar ham odamlarga yaxshilik o‘rgatuvchi olimlarni duo qilishadi”, dedilar. Alloh duo qiladi degani, Alloh rahmat nazari bilan qaraydi degani.

Yuqoridagi oyat va hadisga mukammal holatda amal qilingan yurtimizdan dovrug‘i dunyoga ketgan ulug‘ olimlar yetishib chiqishdi. Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Abu Hafs Nasafiy, Abu Ali ibn Sino” Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abu Mansur Moturidiy kabi buyuk olimlar va mutafakkirlarning yaratgan boy ilmiy merosi jahon madaniyati va tammaduniga beba ho xazina bo‘lib qo‘shilgan. Hech qachon unutmaylikki, biz ana shunday buyuk insonlarning avlodlarimiz. Shuning uchun muborak islom ta’limotlariga tayangan holda, axloq odobimizni oliy darajaga ko‘tarishga harakat qilaylik, munosib ravishda o‘z farzandlarimizni dunyoviy va diniy bilimlardan bahramand qilib, kelajakda ahli solih, barkamol inson bo‘lib yetishishiga erishaylik.

Mal'lumki, hayotda ijobiy natijalarga erishish, jismoniy va ruhiy farovonlik va hatto yaxshi shaxslararo munosabatlarga ega bo'lish muhimdir. Biz yashayotgan dunyo va biz tug'ilgan jamiyat doimo harakatda bo'lib, hech narsani yoki hech kimni kutmaydi.

Shuning uchun ba'zida jamiyat bilan hamqadam bo'lish uchun biz kutgan narsamizni iloji boricha tezroq olishimiz kerak. Va bu, tashvish tug'dirishdan tashqari, bizga yordam beradigan narsa emas, chunki bu bizni sabrsiz qiladi, kutish haqiqatdan ham ancha qiyin va uzoqroq bo'ladi.

Sabr - bu kerakli maqsadlar va mukofotlarning kelishini xotirjam kutish qobiliyati. Sabr-toqat, siz bilganingizdek, tinchlik va xotirjamlik bilan juda yaxshi (to'g'ridan-to'g'ri) munosabatlarga ega.

Odatda sabr-toqatli bo'limgan odamlar tashvish va murosasizlikdan aziyat chekishadi. Ular barchasini darhol va kutishni istamasdan xohlashadi. Shuningdek, ular odatda narsalarni olish uchun harakat qilishmaydi, chunki ba'zida sabr-toqat ham harakat bilan bog'liq, ammo hamma narsa singari, kuch ham biz xohlagan vaqtida emas, o'z vaqtida beradi. Shunga qaramay, boshqaruvning oxiriga murojaat qilish yaxshi. Bundan tashqari, sabr-toqat nafaqat xafa bo'lmasdan kutish, balki har bir narsaga o'z vaqtini berish va tushkunlikka tushmasdan maqsadga erishishga intilish uchun yetarli kuchga ega bo'lishni anglatadi.

2. Inson axloqi aqlga, xulq va hatti-harakati esa ilm-fanni o'rganishga va ma'rifatga asoslangandagina ma'naviy kamolotga erishadi. Mutafakkir allomalarining fikricha, insonparvarlik g'oyalarining amalga oshishi, ma'naviy barkamollikka erishuv chuqur bilim olish va ma'rifatli bo'lishga bog'liq. Shuning uchun ham ular ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida ulug'laydilar, jamiyatning barcha a'zolarini ilm egallahsga chaqiradilar, ilmning inson ma'naviy hayotda tutgan o'rnini yuqori baholaydilar.

Forobiy pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda olimning inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, moddiy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. Unig ta'limotiga ko'ra, inson barcha

boshqa jismlarda bo‘lmagan qobiliyat va kuchga – ruhiy quvvatga – aql va so‘zlash qobiliyatiga ega, bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turadi va uning ustidan hokim bo‘lish imkoniyatini bergenligi namoyon bo‘ladi.

Forobiy bu dunyoqarashida narsa-hodisalarini bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish, uni ilmli, ma’rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e’tibor beradi.

Olim o‘zining “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Fanlarning tasnifi”, “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g’risida”, “Ilmlar va san’atlar fazilati” kabi ko‘plab risolalarida insonning ma’naviy rivojlanishi ilm-ma’rifatga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishning kaliti ekanligini alohida ta’kidlaydi. Ilm-ma’rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. “Ilmning foydasi ochko‘zlik bilan oltin-kumush to‘plash uchun bo‘lmay, balki u orqali inson uchun zarus narsalarga ega bo‘lishdir”, deb yozadi buyuk olim.

Umuman, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashida, odamning baxti esa uning bilim va ma’rifatida, deb bildi. Yaratgan asarlarida u ta’lim-tarbiyaga doir she’r va hikmatlardan misollar keltirib, ular orqali har bir inson o‘z qalbining farmoyishiga ko‘ra hayr-ezgulikka intilishi, sun’iy obro‘, shuhrat qozonish uchun muruvvat va sharofat ko‘rsatmasligi kerakligini ta’kidlaydi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug‘laydi. Uning fikricha, insonning ulug‘ligi aql-idroki, so‘zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir.

Adib uquv va bilimni farqlaydi: uquv tug’ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o‘qish-o‘rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o‘zaro birlashsa, insonning qadri ortadi:

Zakovat qayerda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘ladi,

Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik oladi.

Zakovatli uqadi, bilimli biladi,  
Bilimli, zakovatli tilakka yetadi.

Yusuf Xos Hojib ta’lim va tarbiyaning uzviy bog’liq holda bo‘lishini tavsiya etadi, o‘g’il bolalarning bir necha san’at turlarini va hunarlarni tugal o‘rganmog‘i lozimligini ta’kidlaydi, bu – ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Alloma farzandlarga turli bilim va hunarlar o‘rgatilmog‘i kerakligini aytib, ularni go‘zal axloqli qilib, voyaga etkazishni ota-onalarga maslahat beradi: Xudo kimga zakovat, aql, bilim bersa, U barcha orzularga qo‘l uzatadi.

Kimning xulqi yaxshi, fe’l-atvori to‘g‘ri bo‘lsa, U tilagini topadi, kun va oy unga boqadi. Yaxshi fe’l-atvor barcha ezguliklarga moyadir, xulq-atvor barchasi yaxshi bo‘lsa, ming-ming sevinch bo‘ladi.

Umuman, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida til odobi, rostgo‘ylik, poklik, kamtarlik, sevgi va vafo, muruvvat, sabr-toqat kabi fazilatlar xususida qilgan hikmatli pand-u nasihatlari bilan kishilarni, yoshlarni har bir ishda aql-idrokli, o‘zgalarga g‘amxo‘r va mushfiq bo‘lish, har bir ishni o‘z o‘rnini va o‘z vaqtida ado etishga da’vat etadi. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi davr talabiga hamohang ravishda insonni komillikka hidoyat qiladi.

Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy-pedagogik asosida yoritib bergen qomusiy olimdir. U, ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o‘rniga alohida to‘xtalib: “Bola tuh‘ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo‘yishi, so‘ngra esa uni yaxshilab tarbiyalashi kerak”, deb maslahat beradi.

Al-Xorazmiy esa insonning xulq-atvori, hatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin, degan g‘oyani ilgari suradi.

Alisher Navoiy nazdida ta’mma aralashgan yaxshilik hikmat, himmat insonning ma’naviy hissiyotiga salbiy ta’sir etuvchi holatdir. Ta’masiz yaxshilik qilish bu sahiylikdir. Odamgarchilikning eng yuksak belgisi sahiylik va himmatdir. Yuksak insoniylikning o‘lchovi bu vijdona hisoblanadi. Shu boisdan, Sharq mutafakkirlari vijdona pokligi, oila, ota-ona, xalq, farzand burchi haqida olg‘a surilgan g‘oyalarning asosini insonparvarlik tashkil etadi.

Chunonchi, ota-onalarning o‘zaro munosabati, burchi ma’naviy qadriyatlarning oltin kalitidir. Alisher Navoiy bu haqda quyidagicha fikrlaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig’ a,  
Jismni qil sadqa ano boshig’ a.  
Ikki jahoningga tilarsan fazo  
Hosil et ushbu ikkisidan rizo.  
Tun-kuningga aylagali nur fosh,  
Birini oy angla, birisin quyosh.  
So‘zlaridin chekma qalam tashqari,  
Xatlaridin qo‘yma qadam tashqari.

Sharq mutafakkirlari didaktik xarakterdagi ilmiy asarlarida ma’naviy madaniyatni shakllantirishning shakl, usul va vositalarini qorishiq holda bayon etdilar. Chunki O‘rta asr pedagogik fikrlar nazariyasi va amaliyoti tarbiyaning lisoniy shakl va usullariga tayangan. Ta’lim-tarbiya berishning vositasi esa amaliyot bo‘lib hisoblangan edi. Bu qoida, ayniqsa, Ibn Sinoning tibbiy risolalarida, urjuzalarida, “Donishnoma” asarida, Kaykovusning “Qobusnama”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u biling”, Sa’diyning “Guliston”, “Bo‘ston”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub” asarlariga bevosita taalluqlidir.

Mutafakkir olimlar yuksak ma’naviy fazilatlarni umuminsoniy qadriyatlardoirasida talqin etdilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma’naviy omillarni yuksak baholadilar. Ular “Fozil jamoa”, “Fozil shahar”, komil insonni shakllantirishning asosi ma’naviy omillarga bog‘liq, degan g’oyani ilgari surdilar.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘tmish merosimiz Sharq allomalarining bebaho asarlaridan to‘g‘ri foydalana olish, nafaqat milliy qadriyatlarmiz va ma’naviyatimizni yuksaltiradi, balki komil inson shaxsini shakllantirishda ham muhim hissa qo‘shadi. Chunki inson hayoti davomida qadrlanib, rivojlantirilib kelayotgan nazariy va amaliy sayqal topgan yaxshilik,adolat, do‘stlik, tinchlik, tenglik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onal, keksalarga hurmat, iymon, e’tiqod, ustoz va shogird va boshqa umuminsoniy fazilatlar keyinchalik milliy qadriyatlarning asosiy tarkibiy qismlariga aylanib qolgan.

Tarbiya vazifalari va mazmuni shaxsning milliy va umumbashariy qadriyatlarni o‘rganishi, uning intellektual (aqliy), fuqarolik, ma’naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, estetik tarbiyasi haqida.

Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g’risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma’naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o‘rin tutadi.

Bilimlar tizimini ongli ravishda o‘zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, mayillik va iqtidorni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o‘zlashtirilishiga erishish;
- bilishga bo‘lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;
- bilishga bo‘lgan faollikni kuchaytirish;
- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o‘rta ta’lim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo‘lgan ehtiyojni rivojlantirish;
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Muhammad alayhissalom o‘z hadislarida «Ilmga ilm olmoq yo‘li bilan erishilgaydir. Ilm-u hunarni Xitoya borib bo‘lsa ham o‘rganinglar. Ilm egallang. Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg’iz damlarda yo‘ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg’uli onlarda madadkor, odamlar orasida zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir», deydilar.

Alisher Navoiy o‘zining «Farhod va Shirin» dostonidan Farhodning aql-u idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e’tiqodli bo‘lganligini tasvirlaydi. Bu esa axloqiy tarbiya kamolotiga misol bo‘la oladi.

Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi

pedagogik jarayondir. Axloqiy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya asosini shaxsni ijtimoiy axloqiy me'yordan habardor etish tashkil qiladi. Axloq (lot. «moralis» – xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllarida biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs hattiharakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lган tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Qur'oni Karim va hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunimiz uchun ham nihoyatda qimmatlidir.

Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar odamlarga hayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi – kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yorি hisoblanadi. Ona diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom ma'rifatli xalqimizga xos fazilatlardir. Bu borada ulug'; ota-bobolarimiz biz uchun go'zal ibratdir.

Amir Temur bobomiz axloqi husniya – yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik vaadolatsizlikka yo'l qo'yagan, balki yetti o'lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga hiyonat qilmaslik – mana shu to'rt xislatni Allah Taolo senga bergen bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir», degan edi.

Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi.

Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg'on kitobdir.

Huddi shu ma'noda axloq kishining xulq-atvori, e'tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishining dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

3. Bugungi kunda globallashuv tushunchasi uning ma`no-mazmuni va insoniyat taraqqiyotdagagi o`rni masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Globallashuv jarayoni yer yuzidagi mamlakat va xalqlarni shu darajada uzviy bog`lab qo`ymoqdaki buni bashariyat tarixida shu paytga qadar hech qaysi vosita amalga oshira olmagan. Bu jarayon shunchalik kuchayib bormoqdaki, hozirdanoq dunyoning biron bir hududi uning ta`siridan hali qolayotgani yo`q. O`tgan asrning oxirlarida paydo bo`lgan globallashuv atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va ma`naviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi. Globallashuv shunday jarayonni undan chetga turaman degan mamlakatlar uning ta`siriga ko`proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g`ayri ixtiyoriy ta`sir esa ko`pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Mustaqillik davrida mamlakatlarimiz olimlari o`tkazgan va o`tkazayotgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan darak beradi. Globallashuvga berilgan ta`riflar juda ko`p lekin uning xususiyatlarini to`laroq qamrab olagani, bizningcha, fransuz tadqiqotchisi B. Bandi bergen ta`rifdir. Unda globallashuv jarayonining uch o`lchovli ekaniga urg`u beriladi: Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon. Globallashuv - jahonning gomogollashuvi va universallashuvi jarayoni. Globallashuv - milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni.

Globallashuv tarafdonlari globalistlar deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko`proq uchraydi. A.Parshovil fikricha, globallashuvnnig asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarga ishlab chiqarilgan. O`tgan asrning oxirlarida paydo bo`lgan "globallashuv" atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va moliyaviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi. Bugungi kunga kelib esa u keng qamrovli tushunchaga aylandi. U davlatlar va xalqlar hayotining barcha

sohalarida yalpi umumlashuv jarayonini anglatmoqda. Garchand globallashuv jarayoni birdaniga paydo bo`lib qolmagan, balki inson yaralgan paytdan boshlab sodda va tabiiy shaklda davom etib kelgan bo`lsada, hozirgi vaqtda insonning o`z manfaatlari yo`lida tabiiy rivojlanish jarayoniga zo`ravonlarcha aralashuvi natijasida shiddatli ravishda tezlashib ketdi. Albatta, bir tomondan qaraganda, bu jarayonning ijobiy jihatlari ham yo`q emas. Chunonchi, ko`pgina mamlakatlarga fan-texnika, texnologiya yutuqlarining jadal kirib kelishi globallashuv tufayli. Bu esa ularning iqtisodiy hayoti rivojiga, xalqlar turmush darajasining ortishiga ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda.

Shu tariqa bashariyatning umumiy intellektual salohiyati yuksalishiga yordam bermoqda. Ikkinchi tomondan, globallashuvning salbiy oqibatlari ham ko`zga yaqqol tashlanmoqda. Jumladan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o`rtasida iqtisodiy tafovutlarning kuchayishi, ayniqsa, zamonaviy telekommunikatsiya, kompyuter, internet vositalari orqali biron bir hududga xos milliy-ma`naviy qadriyatlarni o`zga xalqlarga singdirish va shu yo`l bilan jahonda nafaqat iqtisodiy, balki milliy-ma`naviy hukmronlikni o`rnatishga urinish hollari ham kuzatilmoqda. Bu jarayon XXI asrga kelib XX asrdagiga qaraganda ham keng qamrov kasb etdi, ta`sir imkoniyatini oshirdi, eng yomoni, ko`pgina rivojlangan mamlakatlar jahonda iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, fan-texnika, texnologiya, ta`lim sohasida rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish, demokratik qadriyatlarni keng yoyish bahonasida milliy-ma`naviy ta`sir o`tkazishga harakat qilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, globallashuv jarayoni endigina rivojlanish yo`liga kirgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlardan ko`ra yuksak taraqqiy etgan davlatlar manfaati uchun ko`proq xizmat qilmoqda. Qudratli davlatlar, ulkan imkoniyatlariga tayangan holda, kam taraqqiy qilgan mamlakatlarning moddiy resurslarini o`zlashtirmoqda, bozorlarini egallamoqda. Bu esa iqtisodiy zaif mamlakatlarning taraqqiyot borasida mustaqil yo`l tutish imkoniyatlarini cheklab ko`qayotir. Chunki ishlab chiqarishni tashkil qilish va amalga tayyorlanmay, chetdan olib kelinmoqda. Shu tariqa rivojlanayotgan mamlakatlar yuksak taraqqiy etgan mamlakatlarga bog`lanib qolishga, yana ham aniqrog`i, qaramlikka mahkum bo`layotir. Boshqacha aytganda, globallashuv bosqinchilikning yangi bir shaklini boshlab bermoqda.

Siyosiy fandagi modernizatsiya, vesternizatsiya, universalizatsiya kabi globalizatsiya ham universal definitsiyaga ega emas. Bu fenomen olimlar va fan arboblari tomonidan turlicha talqin etiladi. Shunga qaramasdan, ular mohiyatan yagona mazmunni anglatadi, ya`ni globallashuv fransuzcha «umumiyy» degan ma`noni anglatib, butun insoniyat hamjamiyatining o`zaro iqtisodiy, siyosiy, ijtimoy va madaniy aloqalarini qamrovchi jarayon sifatida talqin etiladi. Ilmiy adabiyotda globalizatsiya jarayoni haqida dastlab amerikalik olimlar fikr yuritishgan deb qabul qilingan. «Globalizatsiya» terminini birinchi bo`lib T.Livettu o`zining 1983-yilda nashr etilgan «Garvard biznes rev`yu» maqolasida qo`llagan bo`lib, unda globallashuv yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qo`shilish fenomeni sifatida qaralgan. Garvard biznes maktabi maslahatchisi yapon Kenichi Omae o`zining 1990-yilda nashr etilgan «Chegarasiz dunyo» asarida ushbu terminga kengroq ta`rif beradi. Uning fikricha, kishilar, firmalar va bozorlarning ahamiyati tobora oshib, davlatning nufuzi qisqarib boradi. Globallashuv erasida barcha xalqlar va jarayonlar global bozorning ta`siriga tushadi, an`anaviy davlat esa o`zining tabiiyligini yo`qotib biznesdagi hamkor sifatida yaroqsiz bo`lib qoladi. Xalqaro iqtisodiy sahnada asosiy harakatlanuvchi subyektlar sifatida global firmalar qoladi. M.Yu.Chernavskiyning fikricha, ushbu fenomen uch xil ma`noda tushunilishi mumkin. Birinchidan, kishilar, davlatlar va madaniyatlar o`rtasidagi o`zaro aloqalar hududining kengayib borishi sifatidagi tarixiy jarayon sifatida. Ikkinchidan, dunyoning siyosiy-iqtisodiy va madaniy bir xillikka tomon harakati sifatidagi umumiylilik va gomogenizatsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida ro`y beradigan dunyoning universallashuvi sifatida. Uchinchidan, o`zaro iqtisodiy munosabatlar sohasida milliy chegaralarning shaffoflashib borishi sifatida. Shuningdek, M.Yu.Chernavskiy globalizatsiya hodisasini modernizatsiya mahsuli sifatida qaraydi. Uning fikricha, Sovet Ittifoqining «amerikanizatsiya» loyihasiga qarshi qo`llagan modernizatsiya loyihasi keyinchalik globalizatsiya nomini oldi. Boshqacha aytganda, globalizatsiya sotsialistik modernizatsiya loyihasi inqirozining qonuniy oqibatidir.

Individuallik (lot. individuum - bo`linmas) - muayyan narsa va hodisa, shaxs va jonivorning o`zigagina xos, betakror, xususiy belgilar. Belgi sifatlarining o`ziga xosligi

bilan individuallik umumiylitka (individ esa umumga) qarama qarshi qo'yiladi. Dastlab, individuallik antik davrda atokli yunon faylasuflari Levkipp va Demokrit tomonidan muayyan shakl va mazmunga, ya'ni o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan narsa va hodisalarga, jumladan, atom yoki individ (ya'ni, bo'linmas) kabilarga xos xususiyatlarni aniqlash jarayonida ma'lum bo'lgan. Qadimgi Rim faylasufi Seneka individuallik tushunchasini yanada takomillashtiradi. Individuallik o'ziga xos xususiyatlarni va mazmunini yo'qotmay turib, boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan aniq bir narsa (mavjudot) ekanligini e'tirof etgan. O'rta asrlar falsafasida individuallik inson shaxsi tushunchasini ifodalagan. 17- asrda individuallik bilan bog'liq fikr-mulohazalar nemis faylasufi Leybnits ta'limotida atroflicha rivojlantiriladi. Individuallik nemis adibi I. V. Gyote ijodida ham o'z ifodasini topdi. U romantizm dunyoqarashi uchun ham xos xususiyatdir. Individualizm, subyektning o'ziga xos mezonlari asosida, uning shaxsidan tashqarida bo'lgan ijtimoiy belgilanishlardan to'liq mustaqillik bilan fikrlash va harakat qilish tendensiyasi sifatida ta'riflanishi mumkin.

Shu ma'noda individualizm, qandaydir tarzda unga bosim o'tkazishi mumkin bo'lgan ijtimoiy kontekst bilan bog'liq holda, shaxsning, ya'ni singular shaxsning axloqiy qadr-qimmatini himoya qiladi. Xuddi shunday, individualizm ham kollektivizmga qarshi bo'lib, unda kollektiv yoki jamoaning fikri uni tashkil etuvchi shaxslar taqdirini belgilash mezoniga aylanadi. Biroq, tarixiy kontekstga qarab, individualizm turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Ayniqsa, 20-asrning ikkinchi yarmidan to hozirgi kungacha iste'molchilik g'alabasi bilan individualizm jamiyat va uning qadriyatlaridan o'zini ajratib olish tendensiyasi, shuningdek nafaqat manfaatlar asosida, balki fikrlash va harakat qilish tendensiyasi sifatida talqin etiladi.

Shunday bo'ladiki, hayotda hamma narsa "qachondir kerak bo'lgandek" ketadi, lekin ijtimoiy doira asta -sekin nolga qisqaradi. Siz o'zingizni maftunkor ziyolidek his qilasiz va eski do'stlar sizni umumiyl ziyofatlarga taklif qilmaydi, sizni bayram bilan tabriklamaydi, ta'til rejalarini yashiradi. Buning bir qancha sabablari bo'lishi mumkin. Eng kam zavqlanadigan, lekin aniq ko'rindigan narsalardan biri – bu sizning shaxsiy manfaatingiz. Egosentrizm - bu o'z his -tuyg'ulariga, xohish -istaklariga, qiziqishlariga, maqsadlariga yo'naltirilgan, boshqalarning chegaralarini to'liq hurmat qilmaslik va

o‘zini boshqasining o‘rniga qo‘yolmaslik bilan yashaydigan odamning hayot falsafasi. Egosentrizm so‘zining o‘zi (lotincha "ego"- "men va markaz") tushunchaning mohiyatini ochib beradi. Bu sizning tajribangizga kuchli asos bo‘lib, bu haqiqat bilan bo‘shliqni oshiradi. Bu butun dunyo uning atrofida aylanadi va uning "men" har doim bu dunyoning markazida paydo bo‘ladi, degan xayoldan kelib chiqqan odamning o‘ziga xos tasavvuridir.

Ego: egotsentrizm, egoizm - qanday o‘xshashlik va farqlar.

Egosentrizm tabiatiga turlicha yondashuv tushunchalarni chalkashtirib yuboradi. O‘z-o‘zini o‘ylash shunchaki xudbinlik bilan chalkashmaydi, lekin boshqasi adashadi. Aslida, bu ikki xil narsa.

Egosentrik odam boshqa odamlarning his -tuyg‘ulari va istaklarini eslay olmaydi, hamdardlik bildirmaydi, hamdard bo‘la olmaydi, vaziyatni tashqaridan ko‘ra olmaydi. O‘ziga energiya haddan tashqari ko‘p to‘planishi, boshqa odamga ruxsat berishga imkon bermaydi. Masalan, egosentrik tushuntirishning tushunarli shakliga ahamiyat bermasdan materialni tushuntiradi. Bu unga tushunarli, demak, bu boshqalarga tushunarli. Agar tushunarsiz bo‘lsa, demak, ular biror narsani tushunishga qodir emaslar.

Egoist boshqa odamlarning maqsadlari va qadriyatlarini yaxshi biladi, lekin shu bilan birga o‘z manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yadi. Shu bilan birga, u boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish haqida gap ketmaguncha, u maftunkor, xushmuomala odam bo‘lishi mumkin. Uning axloqiy his -tuyg‘ularini yashirmagan EGO, bu odam yordam bermasligini, qo‘llab -quvvatlamasligini yoki bo‘lishmasligini darhol aniqlaydi. Axir, u o‘zining asosiy vazifasini bajaradi - o‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish.

Hozirgi vaqtida odam savdosi o‘ta murakkab va ijtimoiy xavfli hodisa tusini olgan bo‘lib, u tomonidan yetkazilayotgan zararni amalda hisobga olish imkoniyati yo‘qdir. Bu esa turli xil jinoyatlarni sodir etilishiga turki bo‘lib, jamiyatni moddiy texnik, intellektual salohiyatini pasaytiradi, uning genofondini buzadi. Odamlar savdosi - bugungi kunda eng katta muammolardan biri. Uning bozori giyohvandlik vostalari va qurol-yarog‘ savdosidan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi. Mazkur turdag‘i jinoyat

natijasida dunyo bo'yicha amalga oshiriladigan yillik aylanma 50 mlrd. AQSh dollardan ortiqni tashkil qiladi.

2003 yilda O'zbekiston BMTning 1949 yil 2 dekabrdagi "Odamlar savdosi va foxishabozlikni uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shildi, 2008 yilda esa odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosini oldini olish va bu qilmish uchun jazolash to'g'risidagi, BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasini to'ldiruvchi Protokolni ratifikatsiya qilgan va shu bilan odamlar savdosini aholiga ma'lumot berish, qurbanlarni himoya qilish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni qo'llab-quvvatlash va o'tkazish orqali odam savdosini oldini olish va unga barham berish majburiyatini o'z zimmasiga oldi.

Uyushgan jinoyatchilik, xususan, xalqaro terrorizm, narkobiznes, quroq-alsalahalarni noqonuniy sotish bilan bog'liq o'ta og'ir jinoyatlar qatorida odam savdosining har qanday ko'rinishlariga qarshi kurash muammosi nafaqat xalqaro huquq, milliy huquq tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu muammo umumjahon miqyosda e'tirof etilib, ko'pgina olimlar va tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilayotganligiga qaramasdan, bu borada hozirga qadar yetarlicha umumlashgan ma'lumotlar taqdim etilmagan. 2000 yildagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining "BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasiga odam savdosi va ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish va taqiqlash hamda bunday xatti-harakatlarga nisbatan jazo qo'llash to'g'risidagi qo'shimcha Bayonnomaga"da "odamlar savdosi" tushunchasi o'zining rasmiy izohiga ega bo'ldi.

Bayonnomaga binoan, "odamlar savdosi" eksplutatsiya qilish maqsadida odamlarni kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan qo'rqtib yoxud boshqacha majburlash choralarini qo'llab yoxud o'g'irlab yoki firibgarlik yo'li bilan yoxud aldash yoki davlat vakolatlarini, tutgan mavqeyini suiiste'mol qilgan holda yoki bir shaxsning nazoratidagi boshqa bir shaxsni sotib olish yo'li bilan ularni yollash, o'tkazish, tashish, saqlash yoki ularni olish hisoblandi.

Odam savdosi jinoiy faoliyatning o‘ta xavfli va tahqirlovchi turidir. Tahqirlanish shunda namoyon bo‘ladiki, mazkur jinoyat qullikka o‘xhash shakllarda sodir qilinadi. Bundan tashqari, insonni ekspluatatsiya qilish, insonni “tovar” sifatida sotish, inson omilllaridan foydalanish yo‘li bilan daromad orttirish bilan bog‘liqligi sababli tahqirlovchi mazmun-mohiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng, hayotimizning barcha sohalarida huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar natijasida, bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish borasida muayyan ishlar olib borilmoqda. Avvalo, bu davrda odam savdosi jinoyatlariga barham berishning huquqiy normativ bazasi shakllantirilgani e’tiborga loyiqdir. 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan Jinoyat Kodeksida ilk bor odam savdosiga qarshi kurashish maqsadida bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Shu bilan birga odam savdosi transmilliy, ya’ni hudud va chegara tanlamaydigan jinoyat ekanligi hisobga olinib, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan bunday salbiy holatlarga qarshi kurashish borasida xalqaro hamkorlikka alohida e’tibor qaratilmoqda.



2008-yilning 17-aprelida «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g’risida»gi Qonunning qabul qilinishi bu jinoyatning oldini olish va unga qarshi kurashishning

huquqiy asoslarini yaratish bilan birga, odam savdosidan jabrlanganlarga har tomonlama yordam ko'rsatishning choralarini o'z ichiga oldi. Bu kurashning mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan Prezidentning «Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan Respublika Idoralararo komissiyasi tuzildi, Milliy tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Qonunda bevosita odam savdosi jinoyati tushunchasi, odam savdosiga qarshi kurashishni tashkil etish, odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari faoliyati, ayniqsa odam savdosidan jabrlanganlarni himoya qilish va ularga yordam ko'rsatish masalalari alohida e'tiborga olingan. Qonunda mazkur jinoyatdan jabrlanganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularni normal turmush tarziga qaytarish, mazkur shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish, ularni psixologik, tibbiy, kasbiy reabilitatsiya qilish, ishga joylashtirish, vaqtinchalik turar joy berish masalalari alohida nazarda tutilgan. Qonunning 14-moddasi odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikning huquqiy asosini yaratadi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, o'rganib chiqilgan jinoiy ishlar tahliliga ko'ra, aksariyat holatlarda jabrlanuvchilar ushbu jinoyatga aldov yo'li bilan jalb qilinganlar. Ya'ni odam savdosini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan aldov usuli keng qo'llanilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida odam savdosiga qarshi kurash borasida odam savdosi jinoyatiga qarshi kurashishning huquqiy asosini takomillashtirish, odam savdosiga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati, unga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik, profilaktik xarakterdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Odam savdosiga qarshi kurashish qonuniylik, odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar javobgarligining muqarrarligi, odam savdosidan jabrlanganlarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy himoyalash kabi printsiplarga asoslanadi.

Eng achinarlisi, bu toifadagi jinoyatlarning 50 foizga yaqinini ayollar tomonidan sodir etilayotgani mudhish ko'rsatgichdir.

Odam savdosi muammosiga qarshi kurashishda aholining bu boradagi bilimlarini oshirish, ommaviy axborot vositalari orqali uning qurbonlari bilan suhbatlar uyushtirish, odam savdosining butun mudhish holatlarini tasvirlab berish ham samarali vositalardir. Butun aholi, ayniqsa, yoshlar ushbu jinoiy qilmishning qurboniga aylanib qolmasliklari uchun ehtiyyot bo‘lishlari, xorijiy mamlakatlardan taklif etilayotgan har qanday ish, xizmatlarni shaxsan o‘zлari tekshirib ko‘rishlari, notanish shaxslarning takliflariga ishonmaslik hamda ularga o‘z hujjatlarini berib qo‘ymaslik lozimligini bilishlari kerak.

Statistik ma'lumotlar shuni ko‘rsatadi, odam savdosi giyohvand moddalar va qurol savdosi ortidan uchinchi daromadli noqonuniy faoliyatdir. Odam savdosining eng keng tarqalgan maqsadi bu mehnat yoki jinsiy ekspluatatsiya, shuningdek, jabrlanganlar qullikda bo‘lgan, tilanchilik uchun ekspluatatsiya qilingan (bolalar holatida), organlar savdosi va hattoki urush.

Odam savdosining tarkibiy omillari bu xatti-harakatlar (qurbonlarni qo‘lga olish, o‘g’irlash, safarbar qilish, kutib olish), vositalar (uni amalga oshirish usuli: zo‘ravonlik, yolg'on va hk. orqali). ) va maqsad (bu nima uchun: ekspluatatsiya, majburiy mehnat, a'zolarni olib tashlash).

Aytishimiz mumkinki, odam savdosi XXI asr qulligidan iborat bo‘lib, ulardan biri hisoblanadi va bu giyohvand moddalar, qurol savdosidan keyin butun dunyoda ko‘proq pul sarflaydi. Ushbu jinoyat har safar sodir bo‘lganda, bitta odamda barcha inson huquqlari poymol etilib, ular nafaqat erkinliklarini, balki jismoniy va hissiy yaxlitligini ham buzadilar.

Ushbu jinoyatda odatda zaif odamlar, ayniqsa nozik jismoniy yoki iqtisodiy sharoitdagi ayollar, bolalar va erkaklar qurbon bo‘ladi. Ushbu jinoyat haqida o‘ylashda odatda savol tug'iladi: nima uchun biz bugungi kunda axborot qurshovida yashayotgan va ushbu noqonuniyliklardan xabardor bo‘lgan holatda ham ushbu turdagи jinoyatlar mavjud bo‘lib qolmoqda? Ehtimol, javob inson dunyoning egasi bo‘lishga odatlanib qolganligi va u xohlagan narsani qila oladigan va bekor qilishi mumkinligiga ishonishi bilan bog'liq.

Butun dunyo uchun yanada dahshatlisi bugungi kunda bir jinsli nikoh qonuniy ravishda 30 ga yaqin (Argentina, Avstraliya, Avstriya, Belgiya, Braziliya, Kanada, Kolumbiya,

Kosta-Rika, Daniya, Ekvador, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya, Islandiya kabi) mamlakatda mavjud ekanligi va u “ommaviy madaniy” omili sifatida tarqalayotganlidir.

Bir jinsli nikohni joriy etish (shuningdek, nikoh tengligi) yurisdiksiyasiga ko‘ra, har xil bo‘lgan va qonunchilik o‘zgarishi bilan yuzaga kelgan nikoh to‘g’risidagi qonun, tenglikning konstitutsiyaviy kafolatlariga asoslangan sud qarorlari, unga amaldagi nikoh qonunchiligi tomonidan yo‘l qo‘yilganligini tan olish, yoki to‘g’ridan-to‘g’ri xalq ovozi bilan (orqali referendumlar va tashabbuslar) erishimoqda. Bir jinsli nikohni tan olish – inson huquqi va a fuqarolik huquqi shuningdek, siyosiy, ijtimoiy va diniy masala. Bir jinsli nikohning eng taniqli tarafдорлари inson huquqlari va fuqarolik huquqlarini himoya qilish tashkilotlari hamda tibbiyat va ilmiy jamoalar, eng taniqli muxoliflar esa diniy fundamentalist guruqlar. Ovoz berishlar doimiy ravishda ko‘rsatib turibdiki, barcha rivojlangan demokratik davlatlarda va ayrim rivojlanayotgan demokratiyalarda bir jinsli nikohni tan olish uchun doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash sodir bo‘lmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, geylarning moddiy, psixologik va jismoniy farovonligi nikoh tufayli yaxshilanadi va bir jinsli ota-onalarning farzandlari qonun tomonidan tan olingan nikoh birlashmasi doirasida turmush qurgan bir jinsli juftliklar tarbiyasida katta foyda ko‘rishadi va ijtimoiy institutlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ijtimoiy fanlar bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gomoseksuallarni nikohdan chetlatish ularni kamsitadi va ularga nisbatan jamoat kamsitishlarini taklif qiladi, shuningdek, tadqiqotlar sivilizatsiya yoki hayotiy ijtimoiy buyurtmalar heteroseksuallar bilan nikohni cheklashga bog’liq degan tushunchani rad etadi. Bir jinsli nikoh bir xil jinsiy aloqada bo‘lganlarni tegishli davlat xizmatlari bilan ta’minlashi va ularga nisbatan qarama-qarshi jinsdagi nikohdagilar bilan taqqoslanadigan moliyaviy talablarni qo‘yishi, shuningdek, merosxo‘rlik va kasalxonaga borish huquqi kabi qonuniy himoya bilan ta’minlanishi mumkin.

Umuman olganda, bu holat dunyo hamjamiyati uchun katta ma’naviy-jismoniy inqirozga tengdir.

4. Dunyo tamaddunining bugungi bosqichini globallashuv jarayonlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Globallashuv turli sohalarda taraqqiyot sur’atlarini o‘sishida muhim

omil hisoblanib, uning ilm-fan rivoji, axborot almashinuvidagi o‘rnini biror vosita bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Ammo qadriyatlar masalasi, inson insonni anglashi, e’tiqod va din borasidagi tushunmovchiliklar mavjudligi, dunyoning ayrim mintaqalaridagi keskin diniy vaziyatlar, milliy va diniy nizolarni hal etishdagi muammolar uchrayotgani achinarli hol.

Global diniy makonda ro`y berayotgan o`zgarishlardan biri bu muayyan din yoki konfessiyaning konkret hudud bilan shartlanishidagi o`zgarishlar bilan bog`liq. Chunki hozirda diniy hayotda sodir bo`layotgan o`zgarish ularning an`anaviy konfessional, siyosiy, madaniy va sivilizatsiyaviy chegaralar doirasidagina emas, balki transmilliy, transetnik darajalarda ham kechmoqda. Diniy hayotdagi global dinamik o`zgarishlarning yana bir xususiyati, iqtisodiy jarayonlar va ijtimoiy sohaning bir qator jabhalarida global kommunikatsiya maydonida yuzaga kelgan tarmoq modellari kabi “tarmoq dinlari” fenomenining vujudga kelgani bilan ham xarakterlidir.

Mutaxassislarning fikricha “tarmoq dinlari” an`anaviy konfessiyalardagi iyerarxik strukturadan yagona markaz va an`analar ortodoksalligi bilan ajralib turadi va beqaror aloqalar va nochiziqli avtoritet hamda bo`ysunish tizimiga ega qator avtonom birliklar orqali shakllanadi. O`z navbatida, ushbu birliklar bir-biridan “kurtaklanib”, eski siyosiy, madaniy va konfessional yurisdiksiya chegaralarini kesib o`tish xususiyatiga ega.

Shu bilan birga, diniy hayotda o`ziga xos aksilgloballashuv jarayonlari kechayotganini ham ta`kidlash joiz. Gap shundaki, ayrim mutaxassislar tomonidan zamonaviy voqelikning radikal sekulyar qadriyatlar asosida shakllanayotgani haqidagi qarashlar ham ilgari surilmoqda. “Bunga ko`ra ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy hayotda din asosiy emas, balki marginal o`ringa ega bo`ladi”. Ayni paytda, o`zgacha nuqtayi nazar ham mavjud bo`lib, u dinning barcha yo`nalishlardagi jarayonlar rivojida qadriyatli - normativ asoslardan biri sifatida chiqishini ifodalaydi. Xususan, “Hozirda din global tartibga institut, anklav, muayyan birlik emas, balki o`ziga xos “jamoaviy va individual mansublik janri” sifatida kirmoqda”, - deb yozadi atoqli olim Ronald Robertson.

Albatta, insoniyat istiqbolida dinning qandaydir ikkilamchi, noasosiy o`rin tutishiga doir gipotetik xarakterdagи ushbu fikr-mulohazalar o`ta bahsli bo`lib, ularga

diniy hayotda kechayotgan o`zgarishlar dinamikasini har tomonlama tahlil etish orqaligina asosli munosabat bildirish mumkin.

Shu o`rinda ta`kidlash muhimki, zamonaviy vogelik diniy qadriyatlar buzilishi va faqatgina sekulyarlashuv asoslarining rivojlanishi bilan kechayotgani yo`q. Balki, demokratik davlat va jamiyat qurish asoslarining mustahkamlanib borishi, diniy e`tiqod erkinligining keng joriy etishishi natijasida diniy hayotda o`ziga xos ixtiyorilik muhiti vujudga kelmoqda. Aytish mumkinki, bu diniy sohadagi globallashuv jarayonining asosiy xususiyatlaridan biridir.

E`tiqod va vijdon erkinligining keng tarqalishi, o`z navbatida, diniy hayot shakllarining transformatsiyalashuviga olib kelmoqda. Demokratiya, erkin raqobat va inson huquqlari tamoyillari diniy qoidalar tizimiga integratsiyalashmoqda. Turli din vakillari esa, aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda sekulyar madaniyat tizimiga munosabat bildirmoqda. Boshqacha aytganda, globallashuv davri boshqa ijtimoiy institutlar hayotida bo`lgani kabi dinlar hayotida ham muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Chunki turli ijobiy va salbiy oqibatlarga ega globallashuv jarayoni e`tiqod va vijdon, iroda va so`z erkinligi tamoyillari ustuvorlashib borayotgan demokratik sharoitlarda kechmoqda. Bu esa, o`z navbatida, asrlar mobaynida o`zaro bir-biriga nisbatan antagonizm, nigilizm, radikalizm kayfiyatida yashab kelgan turli diniy tizimlar oldiga sifat jihatdan yangi bo`lgan sharoit talablariga moslashish, fuqarolik jamiyatni qurishni maqsad qilib olgan xalqlar hayotida o`zining o`rni va ahamiyatini saqlab qolish va rivojlantirishning innovatsion yo`llari va mexanizmlarini ishlab chiqishdek murakkab vazifalarni hal etishni zarur qilib qo`ymoqda.

Bu yo`nalishdagi birlamchi vazifalardan biri, shubhasiz, dinlararo, konfessiyalararo muloqot hisoblanadi. Zero, o`zaro hurmat, tenglik, ishonch va hamjihatlikka asoslangan sog`lom muloqot har qanday din yoki konfessiyaning globallashuv sharoitida o`z o`rni va mavqeini saqlab qolishning eng maqbul vositasidir.

Umuman olganda, “globallashuv – bu avvalo hayot sur`atlarining beqiyos darajada tezlashuvi.” ekani haqidagi fikrdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, hozirda dinlarning bir-biri bilan yaqindan hamkorlik qilishi obyektiv zaruriyatdir. Global

ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy hayot barqarorligi ko`p jihatdan ana shu hamkorlikning samarali rivojlantirilishiga bog`liqdir.

Globallashuv atamasi garchi keyingi vaqtarda ommaviy tarzda qo`llanilayotgan bo`lsa-da, u chuqur nazariy asoslarga ega tushunchadir. Qaysidir ma`noda bu tushuncha insoniyatni birlikka intilishining faollashuvini bildiradi, odamlardagi begonalashuvni yo`qotadi, kommunikativ aloqalarni tezlashtiradi. Insoniyatning tarixan birligini madaniyatlarning o`zaro almashinuvida, monoteistik dinlarni tarqalishi, umumiyl til yaratishga bo`lgan urinishlarda ko`rishimiz mumkin. Lekin, hozir gap bu haqda ketayotgani yo`q. Globallashuvning zamonaviy tendensiyasi ma`naviy doiradan chiqib iqtisodni, siyosatni, axborot jarayonlarini va inson faoliyatining boshqa ko`plab jabhalarini qamrab olmoqda. Shu tarzda ko`p qirrali aloqalar bilan bog`liq bo`lgan megajamiyat shakllanmoqda. Shu ma`noda aytish mumkinki, globalizatsiya - jahon iqtisodiy, texnologik, siyosiy, informatsion integratsiyasining o`lchamidir.

Dunyo bo`ylab Islom. 120 dan ortiq davlatda o`tkazilgan demografik tadqiqotlar bugun dunyo bo`ylab 2 milliardga yaqin musulmonlar istiqomat qilishini ko`rsatdi. Bugun musulmonlar yer sharining aholi mavjud bo`lgan barcha besh qit'asida yashaydilar. Umumiyl musulmon aholisining 60% dan ko`prog'i Osiyoda, 20%i Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada istiqomat qiladi. Shunga qaramay, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududi aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil qiluvchi mamlakatlar joylashgan zonadir.

Mazkur zonadagi 20 dan ziyod mamlakat va hududlarning yarmidan ko`pida aholining taxminan 95% dan ortig`ini musulmonlar tashkil etadi. 300 milliondan ortiq musulmonlar yoki dunyo musulmonlarining har beshdan biri islom asosiy din bo`lman mamlakatlarda yashaydi. Biroq, shuni qayd etish lozimki, islom asosiy din bo`lman mamlakatlarda yashovchi musulmonlarning soni ham ancha katta. Misol uchun, Hindiston dunyoda eng ko`p musulmon aholisi bo`lgan davlatlar ichida 3-o`rinda turadi. Xitoy musulmonlari soni Suriya musulmonlari sonidan, Rossiya musulmonlari esa Iordaniya va Liviya musulmonlarining birgalikdagi hisobidan ancha ko`p.

Mazkur tadqiqot Pew Research Center tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, butun dunyo musulmon aholisining soni, joylashuvi hamda tarqalish hududi haqida axborot beruvchi eng so‘nggi va to‘liq ma’lumotdir. Bundan avvalgi tadqiqotlar dunyodagi jami musulmon aholisining umumiyligi sonini 1 milliarddan 1.8 milliardgacha deb ko‘rsatardi. Biroq ularning birortasi mazkur raqamlar qayerdan kelib chiqqanini asoslovchi maxsus manbaga suyanmasdi. The Pew Forum taqdim etgan ma’lumotlar 232 mamlakat va hududlardan olingan. Markaz tadqiqotchilar 50 ga yaqin demograflar hamda jahonning turli nuqtalarida joylashgan tadqiqot markazlari va universitet tadqiqotchilar bilan hamkorlikda-demografik tahlillar, aholi soni hisobotlari singari 1,500 ga yaqin manbani tahlil etgan holda o‘z turi bo‘yicha yagona bo‘lgan mazkur loyihani amalga oshirdilar.

Dunyodagi har uch musulmonning ikkitasi quyida keltirilgan 10 ta davlatda istiqomat qiladi. Mazkur 10 davlatning 6 tasi Osiyo (Indoneziya, Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Eron va Turkiya)da, 3 tasi Shimoliy Afrika (Misr, Jazoir, Marokash)da, 1 tasi esa Markaziy Afrika (Nigeriya)da joylashgan.

Dunyo musulmonlarining asosiy qismi - har o‘ntadan olti kishi (62%) – Osiyo hududiga to‘g‘ri keladi. Bu hudud nafaqat Xitoy singari Sharqiy Osiyo mamlakatlarini balki Osiyoning uzoq G‘arbidagi Turkiya kabi mamlakatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Dunyo musulmonlarining 80% i musulmonlar diniy ko‘pchilikni tashkil qiluvchi mamlakatlarda yashaydi. Dunyo musulmonlarining har beshdan biri o‘z mamlakatlarida diniy ozchilikni tashkil qiluvchi aholi sifatida istiqomat qiladi. Chamasi 317 million musulmonlar turli mamlakatlarda diniy ozchilik sifatida yashaydi. Ulardan 240 million musulmon 5 mamlakatda: Hindiston (161 million), Efiopiya (28 million), Xitoy (22 million), Rossiya (16 million), Tanzaniya (13 million)da istiqomat qiladi. Musulmonlar ozchilik sifatida yashaydigan 10 ta yirik mamlakatning 2 tasi Yevropada: Rossiya (16 million), Germaniya (4 million). Mazkur mamlakatlardagi musulmonlar diniy ozchilik sifatida yashasalar ham ularning soni ancha kattadir. Misol uchun, Hindiston dunyoda eng ko‘p musulmon aholisi bo‘lgan mamlakatlar ichida 3-o‘rinda turadi. Efiopiya musulmonlari soni Afg‘oniston musulmonlari soniga tengdir. Xitoyda Suriya qaraganda ko‘p musulmon yashasa, Rossiya musulmonlari Iordaniya va Liviya musulmonlarining

birgalikdagi hisobidan ancha katta, Germaniyada esa Livandagiga qaraganda ko‘p musulmon istiqomat qiladi.

Tadqiqotga kiritilgan 232 mamlakat va hududning 50 tasida musulmonlar aholining boshqa diniy vakillariga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladilar. Bundan o‘zga o‘nta mamlakatning oltitasida (62%) gi musulmonlar soni alohida Rossiya va alohida Xitoy musulmonlaridan kam. Boshqa hududlarga qaraganda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada musulmonlar aholining boshqa din vakillariga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladigan davlatlar soni ko‘pdir. Mazkur zonadagi 20 ta davlat va hududning 17 tasi - mamlakat aholisining 75 %dan ortig‘ini musulmonlar tashkil etuvchi davlatlar sanaladi. Bundan Isroil, Livan va Sudangina mustasno. Osiyodagi 61 mamlakatning 12 tasida, Markaziy va Janubiy Afrikadagi 50 mamlakatning 10 tasida, Yevropadagi 50 mamlakatning 2 tasi (Kosova va Albaniya) da aholining 75% i yoxud undan ko‘prog‘ini musulmonlar tashkil qiladi.

Musulmonlarning asosiy ko‘pchiligi sunniylardir. Dunyo musulmonlarining 10-13 % ni shialar tashkil qiladi. Bu degani dunyo bo‘ylab shialar soni 154-200 million atrofida. 116-147 million shialar Osiyo hududida yashaydi. Taxminan 36-44 million shialar Yaqin Sharq-SHimoliy Afrika hududiga to‘g‘ri keladi. Bu degani: Osiyo-Okeaniya mintaqasida yashovchi musulmonlarning 12-15%i, Yaqin Sharq-SHimoliy Afrika musulmonlarining 11-14% shialar. Shialarning aksari (chamasi 68%-80%) 4 mamlakat: Eron, Pokiston, Hindiston va Iroq hissasiga to‘g‘ri keladi. Eronda 66-70 million shialar (dunyodagi shialarning 37-40%) istiqomat qiladi. Iroq, Hindiston va Pokistonning har birida taxminan 16 million shia yashaydi. 1 million va undan ko‘proq shialar Turkiya, Yaman, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Suriya, Saudiya Arabiston, Livan, Nigeriya va Tanzaniyada istiqomat qiladi. AQSH bilan Kanadada 300,000 atrofida shia yashaydi. Bu raqam Shimoliy Amerika musulmonlarining 10% ini tashkil qiladi. 4 mamlakat - Eron, Ozarbayjon, Bahrayn va Iroqda shia musulmonlari umumiy aholining asosiy qismini tashkil qiladi.

Osiyo-Okeaniya zonasida dunyo musulmonlarining 62% i istiqomat qiladi. Osiyodagi eng ko‘p musulmon aholisiga ega bo‘lgan 6 mamlakat: Indoneziya (203 million), Pokiston (174 million), Hindiston (161 million), Bangladesh (145 million),

Eron (74 million) va Turkiya (74 million) dir. Mazkur 6 mamlakat birgalikda Osiyodagi umumiy musulmon aholisining 85% i, dunyo musulmon aholisining esa yarmidan ortig‘i (53%)ni o‘z ichiga oladi.

Osiyoda yashovchi musulmon aholining yarmi (484 million - 50%) Janubiy Osiyo hissasiga to‘g‘ri keladi. Shundan qolgani Janubi Sharqiy-Sharqiy Osiyo (253 million - 26%) va Markaziy-G‘arbiy Osiyo (235 million - 24%) o‘rtasida teng taqsimlanadi. Okeaniyada juda oz miqdorda (0,5 million - <1%) musulmonlar istiqomat qiladi.

Indoneziya dunyoda eng ko‘p (203 million) musulmon aholisi bo‘lgan mamlakat sanaladi. Dunyo musulmon aholisining taxminan 13 %i, Janubi Sharqiy-Sharqiy Osiyo hududida yashovchi musulmonlarning esa 80% i Indoneziya hissasiga to‘g‘ri keladi. Janubiy Osiyodagi 7 mamlakatning 3 tasi – Pokiston, Hindiston va Bangladesh birgalikda dunyo musulmonlarining 31%, Janubiy Osiyo musulmon aholisining esa 99% yashaydigan hududdir.

20 milliondan ortiq musulmon aholiga ega Osiyoning boshqa mamlakatlari safiga Afg‘oniston (28 million), O‘zbekiston (26 million) va Xitoy (22 million) kiradi. Xitoyning har bir provinsiyasida musulmonlar yashaydi. Ayniqsa Xitoyning G‘arbiy qismlarida ular ko‘proq tarqagan. Shinjon, Ningsiya va Gansu provinsiyalari shular jumlasidandir. Shinjon -musulmonlar aholining asosiy qismi (53%) ni tashkil qiluvchi Xitoyning yagona provinsiyasi.

Yaqin Sharq-Shimoliy Afrika 315 million musulmonga makon bo‘lib, bu raqam dunyo musulmon aholisining chamasi 20% ini tashkil etadi. Taxminan 79 million musulmon Misrda istiqomat qiladi. Bu degani mintaqadagi har to‘rt musulmondan biri (25%) Misr hududiga to‘g‘ri keladi.

Yaqin Sharq-Shimoliy Afrika mintaqasidagi mamlakatlarning yarmidan ko‘p aholining 95 % ini musulmonlar tashkil etadi. Bunday mamlakatlar safiga Jazoir, Misr, Iraq, Iordaniya, Kuvayt, Liviya, Marokash, Falastin erlari, Saudiya Arabiston, Tunis, G‘arbiy Saxroi Kabir va YAman kiradi. Mintaqadagi boshqa mamlakatlar ham ko‘p sonli musulmon aholiga ega. Bular qatorida Suriya (92%), Ummon (88%), Bahrayn (81%), Qatar (78%), BAA (76%) va Sudan (71%). Ummon, Bahrayn, Qatar, BAA singari mamlakatlar fuqarolarining aksari musulmonlar. Biroq mazkur mamlakatlarga

ko‘plab musulmon bo‘lidan ishchi-xizmatchilarning kelib ishlashi musulmon aholi foizini umumiy aholiga nisbatan kamayishiga olib keladi.

Shimoliy Afrika Yaqin Sharq-Shimoliy Afrika mintaqasidagi ko‘p sonli musulmon aholiga ega bo‘lgan uch yirik davlat joylashgan zonadir. Bular: Misr (79 million), Jazoir (34 million) va Marokash (32 million). Mintaqada ko‘p sonli musulmon aholiga ega bo‘lgan boshqa mamlakatlar qatoriga Iroq (30 million), Sudan (30 million), Saudiya Arabistoni (25 million), Yaman (23 million), Suriya (20 million) va Tunis (10 million) kiradi. Mintaqadagi qolgan 11 mamlakat va hudud - Liviya, Iordaniya, Falastin erlari, BAA, Kuvayt, Livan, Ummon, Isroil, Qatar, Bahrayn va G‘arbiy Saxroi Kabirning umumiy aholisi 31 millionni tashkil etadi. Falastin yerlarida salkam 4 million musulmon istiqomat qiladi. Isroilda yashovchi musulmonlar soni (1,194,000) esa Qatar musulmonlari (1,092,000)dan xiyol ko‘proq. Isroilda musulmon aholi umumiy aholiga nisbatan 17%ni tashkil etadi. Mazkur raqam Yevropadagi ayrim mamlakatlardan kattaroq. Misol uchun Buyuk Britaniyada yashovchi musulmonlar mamlakat umumiy aholisining atigi 3% ini tashkil etadi.

Markaziy Afrika-Janubiy Afrika mintaqasida 241 million musulmon istiqomat qiladi. Bu dunyo musulmon aholisining taxminan 15%ini tashkil qiladi. Nigeriya Markaziy Afrika-Janubiy Afrika mintaqasidagi eng ko‘p musulmon aholisi bo‘lgan mamlakatdir. Nigeriyada 78 million musulmon istiqomat qiladi. Bu Nigeriya umumiy aholisining 50%ini tashkil qiladi. Markaziy Afrika-Janubiy Afrika mintaqasida yashovchi har uch musulmonning biri (32%) Nigeriya hissasiga to‘g‘ri keladi. G‘arbiy Afrika Markaziy Afrika-Janubiy Afrika mintaqasining musulmon aholisi ko‘p bo‘lgan yagona hududidir. Janubiy Afrika mazkur mintaqadagi musulmon aholi eng kam yashaydigan zonadir. Markaziy Afrika-Janubiy Afrika mintaqasida musulmonlar ko‘pchilik bo‘lib yashaydigan mamlakatlar ham bor. Bular qatoriga Mavritaniya (99%), Niger (99%), Somaliya (99%), Mayotte (98%), Kamor (98%), Jibuti (97%), Senegal (96%), Gambiya (95%), Mali (93%), Gvineya (84%) va Sierra Leone (71%) ni kiritish mumkin. Mazkur mamlakatlarning musulmon aholisini qo‘sib hisoblaganda 67 millionni tashkil etadi. Bu dunyo musulmon aholisining 4%ini tashkil etadi.

YYevropada chamasi 38 million musulmon istiqomat qiladi. Bu raqam Yevropa umumiy aholisining 5% i, dunyo musulmon aholisining esa 2%ini tashkil etadi.

Shuni qayd etish lozimki, Yevropa musulmonlari soni mintaqaga kelib joylashuvchi immigrantlar hisobiga juda tez o‘zgarib turadi. Yevropa musulmonlarining asosiy qismi mintaqaning markaziy va sharqiy qismlarida istiqomat qiladi. Yevropada eng ko‘p musulmon aholiga ega mamlakat Rossiyadir. Rossiya musulmonlari soni 16 millionni tashkil etadi. Bu degani, Yevropa musulmonlarining har o‘ndan to‘rti Rossiya hissasiga to‘g‘ri keladi.

G‘arbiy Yevropada yashovchi musulmonlarning aksari Turkiya, Shimoliy Afrika, Janubiy Osiyodan kelgan immigrantlar yoki ularning avlodlari hisoblanadi. Aksincha, Rossiya, Albaniya, Kosova, Bosniya-Gersegovina va Bolgariya musulmonlari ancha uzoq ildizga ega. Bu degani, Yevropa musulmonlarining har o‘ndan oltisi tub musulmonlardir.

Germaniyada 4 milliondan oshiq musulmon istiqomat qiladi. Bu Shimoliy va Janubiy Amerika musulmonlarining birligidagi sonidan ko‘p degani. Germaniya musulmonlari soni Livan musulmonlari sonidan ham ko‘p. G‘arbiy Yevropada Germaniya musulmonlari sonichalik raqamga ega bo‘lgan birorta mamlakat yo‘q. Germaniya musulmonlar ozchilik sifatida yashaydigan mamlakatlarning 10 taligiga kiradi. Aksincha, Fransiya Germaniyaga nisbatan umumiy aholiga nisbatan ko‘proq musulmon foiziga ega. Buyuk Britaniyada 2 milliondan ozroq musulmon istiqomat qiladi. Bu Buyuk Britaniya umumiy aholisining 3%i degani.

Musulmon aholining foizi ko‘proq bo‘lgan mamlakatlar Yevropaning sharqiy va markaziy qismida joylashgan. Bular: Kosova (90%), Albaniya (80%), Bosniya-Gersegovina (40%) va Makedoniya Respublikasi (33%). Gretsiyada umumiy aholiga nisbatan musulmonlar 3%ni, Ispaniyada esa 1%ni tashkil etadi. Yevropada umumiy aholiga nisbatan musulmonlar soni eng kam mamlakat Italiya (1% dan kam) hisoblanadi.

Amerika mintaqasida taxminan 4.6 million musulmon istiqomat qiladi. SHundan salkam yarmidan oshig‘i- 2.5 million musulmon AQSH hissasiga to‘g‘ri keladi. Biroq Kanada musulmonlarining umumiy aholiga nisbatan foizi AQSH ga qaraganda ikki

barobardan ko‘p. Kanada umumiy aholisining 2%, ya’ni 700,000 ni musulmondir. AQSH umumiy aholisining 0.8%gina musulmonlardir.

Surinamgina mintaqada musulmon aholisi foiz hisobida ko‘proq bo‘lgan mamlakatdir. Surinamda musulmonlar mamlakat umumiy aholisiga nisbatan 16%ni tashkil etadi. Undan keyingi o‘rinlarda Gvineya (7%) va Trinidad va Tabago (6%) turadi. Argentina Janubiy Amerikadagi eng ko‘p musulmon aholisi bo‘lgan mamlakatdir. Meksikada esa musulmonlar umumiy aholiga nisbatan 1%dan kamroqni tashkil qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkurlar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o`rnatalishi mumkin emas, deyilgan. Shunga binoan, har bir diniy konfessiya o`z mafkurasiga ega bo`lishi mumkin. Lekin bu mafkura xalqqa tazyiq bilan singdirishga yo`l qo`yilmaydi. Jamiyatimizda diniy tashkilotlar faoliyati xalqimizda milliy g`urur va iftixor, vatanparvarlik va fidokorlik, komil insonni shakllantirishga qaratilgan.

Jahonning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar, saqlanib qolayotgan davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasida ta`kidlanganidek, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o`limi, epidemiyalar va insoniyatning boshqa muammolariga qarshi kurash borasidagi eng jiddiy to`sqliar bo`lib qolmoqda. Shundan so`ng davlatimiz rahbari “asosiy muammo va ziddiyatlar bo`yicha o`zaro murosa asosidagi echimlarni topish” zarurligini va bu murakkab, chigal, ziddiyatli vaziyatlardan chiqishning asosiy yo`llaridan biri ekanligini qayd etib o`tdi. Shu munosabat bilan tolerantlikni va uning odamlar ongiga ta`siri darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi paytlarda dunyoda murosasizlik, zo`ravonlik, terrorchilik, tajovuzkor millatchilik, xalqlarning bir-biridan uzoqlashuvi, kam sonli milliy, etnik guruhlarni kamsitish holatlarining tez-tez yuz berayotganligi mintaqaviy va xalqaro miqyosda barqarorlikka va xavfsizlikka tahdid solmoqda va ijtimoiy rivojlanish yo`lidagi to`sqliardan biri bo`lib qolmoqda. YUNESKOning 1995-yil 16-noyabrda bo`lib o`tgan Bosh konferensiyasi tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasini qabul qildi, zero tolerantlik

tinchlikni saqlashning, insoniyatning har tomonlama rivojlanishining eng muhim tamoyili bo`libgina qolmay, balki uning zarur sharti hamdir.

Ijtimoiy rivojlanishda yuz berayotgan o`zgarishlar va ularning tendentsiyalarini tahlil qilish global ijtimoiy ongda va muayyan inson hayoti va taqdirida tolerantlik muammosi naqadar dolzarb ekanligini ko`rsatadi. Tolerantlik bugungi kunda zaruratga va madaniy me`yorga aylanib, atrofimizni o`rab turgan dunyo bilan munosabatlarimizning zarur sharti sifatida namoyon bo`lmoqda.

Ma`lumki, globallashuv ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tizimlar va ijtimoiy birliklarning intensiv integratsiyasi, kommunikatsiyaning innovatsion usul va vositalariga tayangan holda kechayotgan, kompleks xarakterga ega obyektiv voqeа va hodisalarda o`z aksini topmoqda.

Shuningdek, mazkur sharoit mavjud huquqiy normalarning qayta ko`rib chiqilishi, mintaqa va hududlardagi iqtisodiy tizim xarakterining o`zgarishi, mamlakatlar siyosiy hayotiga xalqaro omil ta`sirining kuchayishi, turli madaniy tizimlar, xususan, dinlar o`rtasidagi muloqot intensivligining kuchayishini keltirib chiqarmoqda..

O`zbekistonda e`tiqod erkinligi va diniy bag`rikenglikni mustahkamlashda qonunchilik ham takomillashib bordi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida»gi qonun 1991-yilda qabul qilingan bo`lib, 1993-yilda kiritilgan ba`zi qo`shimcha va o`zgartirishlar bilan 1998-yilga qadar amalda bo`lib keldi. So`nggi yillar davomida mazkur qonunni davr talablari asosida tubdan o`zgartirish zarur bo`lib qoldi va 1998-yilning 1-may oyida Respublika Oliy Majlisi tomonidan qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

2000-yil 13-15-sentyabrda Toshkentda o`tgan dinlararo muloqot YUNESKO Kongressi Markaziy Osiyodagi madaniy, diniy va etnik xilma-xilligini muhokama qildi. Unda 40ga yaqin davlatdan 80dan ortiq turli din va konfessiyalarga mansub vakillar, yirik mutaxassislar ishtirok etdilar. Kongressdan so`ng 18 sentyabr kuni Buxoro shahrida «Tasavvuf va dinlararo muloqot» mavzusida xalqaro simpozium bo`lib o`tdi. Unda «tasavvuf»ga bag`rikenglikni targ`ib etuvchi, tinchlikka chaqiruvchi Islom dinining noyob, o`ziga xos ko`rinishi degan ta`rif berildi. Aynan 2000-yil sentyabrida Toshkent islom universitetida dinlarni qiylashtirish o`rganish bo`yicha YUNESKO kafedrasи

ochildi. YUNESKO rahbariyati bu tashabbusni qo`llab-quvvatladi. Fan, ta`lim va madaniyat sohasidagi eng nufuzli xalqaro tashkilot rahbari shaxsan o`zi kelib kafedrani ochishi fikrimiz isbotidir. Kafedraning asosiy vazifasi dinlararo muloqot va diniy bag`rikenglikni yanada mustahkamlashga ko`maklashishdir. Shuningdek, 2001-yil sentyabrida Toshkentda o`tgan Osiyo – Tinch okeani mintaqasi YUNESKO «bag`rikenglik tarmog`i»ning ikkinchi yig`ilishida bag`rikenglik tamoyillari o`zbek xalqining urf – odatlari bilan chambarchas bog`liqligi ta`kidlandi.

O`zbekistonning an`anaviy diniy bag`rikenglik o`lkasi ekani, islom fani va madaniyatiga qo`shtigan ulkan hissasini e`tirof etib, nufuzli xalqaro tashkilot – Islom konferentsiyasi tashkiloti (O`zbekiston unga 1996-yildan a`zo)ning ta`lim, fan va madaniyat bo`yicha Boshqarmasi (ISESCO) Toshkent shahrini 2007-yilda islom madaniyati poytaxti deb e`lon qildi.

Xalqaro hamjihatlik yo`lida har bir inson, jamoa va millatlar bashariyatning turli-tuman madaniyatlardan iborat ekanini anglashi va hurmat qilishi juda muhimdir. Bag`rikengliksiz demokratiya asoslari va inson huquqlarini mustahkamlab bo`lmaydi. Tinchliksiz taraqqiyot va demokratiya bo`limgani kabi, bag`rikengliksiz tinchlik bo`lmaydi.

Globallashuv jarayoni g`oyaviy, mafkuraviy jarayonlarga o`z ta`sirini ko`rsatib, xozirgi sharoitda u mafkuraviy ta`sir o`tkazishning nihoyatda kuchli vositasiga aylanib, jahondagi xar xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Hozirgi vaqtida ko`z o`ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, ahborot kommunikatsiya manzarasida chuqur o`zgarishlar ro`y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, fikrga qarshi fikr, g`oyaga qarshi g`oya, jaholatga qarshi ma`rifat bilan kurashish har qachongidan ko`ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy mustaqillikka erishilgandan so`ng O`zbekistonda demokratik, huquqiy, fuqarolik jamiyatli, dunyoviylik tamoyiliga asoslangan «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot» barpo etila boshlandi. Lekin shu bilan birgalikda o`z oldiga muayyan geopolitik maqsadlarni qo`ygan siyosiy kuchlarning, diniy tashkilotlarning ma`naviy-mafkuraviy taxdidlari kuchaydi. Mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag`darib tashlab,

islom davlatini qurish, xalifalikni qayta tiklash to`g`risidagi zararli g`oyalar Islom uyg`onish partiyasi, Xizbuolloh, (Alloh partiyasi), Xizb at tahrir al-islomiy (Islom ozodlik partiyasi), Badiuzzamon Said Nursiyning Nurchilik harakati, Usoma bin Lodinning Al Qoida, Akrom Yo`ldoshevning akromiylar harakatining g`oyalarida o`z ifodasini topgan bo`lib, O`zbekistondagi tinchlik va barqarorlikka, diniy totuvlik va dinlararo bag`rikenglikka salbiy ta`sir ko`rsatib keldi.

O`zbekistondagi tinchlik-barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag`rikenglikka bevosita taxdid ko`rsatgan omillarga diniy ekstremizm, fundamentalizm, aqidaparastlik, terrorizm, missionerlik, prozelitizm kabi zararli g`oyalar, mafkuralar hamda xarakatlar taalluqli bo`lib, milliy mafkuraning asosiy g`oyalari asosida fuqarolar mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasiga davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda katta e`tibor qaratilmoqda. Missionerlik va prozelitizm globallashuv sharoitida ma`naviy-mafkuraviy taxdid vositasi bo`lib, eng avvalo jaxondagi muayyan siyosiy kuchlarning geopolitik maqsad manfaatlariga yo`naltirilgan xolatda olib borilmoqda. Ikkinci tomonidan, xalqning milliy ma`naviyati, urf-odat va an`analari, milliy mentaliteti diniy ta`limot bilan bog`liq bo`lib, missionerlik va prozelitizm xalqning milliy o`zligidan begonalashuviga, manqurtlashuviga, davlatning ichki hayotida milliy, diniy, ijtimoiy ziddiyatlarning chuqurlashuviga sababchi bo`ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda O`zbekistonda zamonaviy demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurishda milliy istiqlol mafkurasining asosiy g`oyerlarini fuqarolar ongi-tafakkuriga singdirishga, ularda milliy g`urur va iftixor tuyg`ularini yuksaltirib mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasiga asosiy e`tibor qaratilmoqda.

Jahondagi aksariyat mamlakatlar ko`p millatli va turli dinli bo`lgani kabi O`zbekiston ham shunday davlatlar qatoriga kiradi. Unda millatlararo totuvlik va dinlararo bag`rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar o`zining chuqur ildizlariga ega.

Umuman olganda, VIII asrda Movarounnahrga kirib kelgan islom va mahalliy dinlarning, ularga xos qadriyat va odatlarning qorishishi yuz berdi. Movarounnahr xalqlari islom diniga mahalliy axloq g`oyerlar, huquqiy me`yorlari va urf-odatlarini olib kirdilar. Movarounnahrdan bu holat islomning o`ziga xos xususiyatlar kasb etishiga

sabab bo`ldi. O`sha vaqtga kelib mintaqada shakllanib ulgurgan qulay bag`rikenglik muhitida bu tasodifiy hodisa emas edi.

Islom dini barqaror bo`lganidan, to shu bugungi kungacha, Islom dini keng yoyilgan musulmon davlatlarida boshqa haq dinlarga ham bemalol yo`l berilgan. Ular cherkov, sinagogalariga kirib, ibodatlarini bemalol qilaverганlar. Hatto, ularning mol-u jonlari davlat himoyasiga olingan.

Tarixiy manbalarda o`tmishda O`zbekistonda diniy munosabatlar asosida biror marta ham nizo chiqmaganini qayd qilinadi. Bunday holatni hozirgi O`zbekistondagi islom, xristian, yahudiy dinlari va boshqa konfessiyalarning o`zaro munosabatlari misolida ham ko`rish mumkin.

Zamonning oxiri.

Zamonning oxiri – ushbu dunyoning oxirlashi va tugashidir. Zamon tugashining belgilari qanday?

Yer yuzining jami mavjudoti – odamzot va hayvonot, osmonda esa butkul farishtalar qirilib, halok bo`lishi zamon oxirining asosiy belgisidir. Zamon qay vaqtida tugaydi? Unga necha yil qoldi?

Zamonning qachon va qay holatda tugashi yolg'iz Allohga ayondir. Biz faqat shuni ayta olamizki, har kuni va har lahzada qiyomat bo`lishining ehtimoli bor. Zamon tugamasidan avval uning qanday alomatlari ko`rinadi?

Zamon tugamasidan avval yer yuzini faqat bir millat vakillari egallab oladi. Ammo Islom davlatlari juda zaif bo`ladi. So`ngra o`sha qudratli millat ham zaiflashadi va o`zga qavmnинг tasarrufiga kirib ketadi. Musulmonlar esa taraqqiyashib ketadi. So`ngra yana jamiki odamlar ibodatsizlikka mubtalo bo`ladilar. Jabr va zulm ko`payadi. Zilzila, yerning cho`kishi, shaharlarni suv bosishi hodisalari ko`p bo`ladi. Vaboga o`xshash turli-tuman dardlar va dardmandlar ko`payadi. Tug'iluvchidan ko`ra o`luvchi ko`p bo`ladi. Erkaklardan ko`ra ayollarning hisobi ortiq keladi. Ba`zi ellarda to`qlik, farovonlik ortib, ba`zilarida qattiq ochlik hukm suradi. Mashriq tarafdan Ya'juj-Ma'juj qavmi yer yuziga tarqaladi. Ular mag'rib xalqlarining ustidan g'alaba qozonib, o`z hukmini, jabrini o'tkazadilar. So`ngra bir kazzob ko`pchilikni o`ziga tobe qiladi, fosiqlikni o`rgatadi. Uning ismi Dajjoldir. Dajjol xaloyiqni yo`ldan ozdirib yurgen

vaqtida Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning qizlari hazrati Fotima naslidan bo'lmish solih zot xalqni va'z va nasihat bilan fosiqlikdan va imonsizlikdan qaytarib, yaxshilik va odillikni targ'ib qiladi hamda qo'shin to'plab Dajjal qavmiga qarshi jang qiladi. Ul zotning ismlari Mahdiydir. O'sha vaqtarda osmondan Iso alayhissalom yerga tushib, hazrati Mahdiya yordam beradi. Ushbu urushda Dajjal halok bo'ladi va askarlarining ham aksari qirilib ketadi. Qolganlari hazrati Iso bilan Mahdiya tobelikka o'tadilar. O'sha zamonda Iso bilan Mahdiy adolatli hukumat o'rnatib, bir necha yillar osoyishta yashaydilar. Ezgu niyatli kishilar ko'payadi. Xazina va chorva mollari juda barakali va ziyoda bo'ladi. Davlatmandlar ko'payadi. Hatto, zakot va sadaqa oluvchi kishi topilmaydi. So'ng yana kishilar imonsizlik va gunoh tomonga yuzlanadilar. Keyin esa g'arb tomonda sovuq shamol qo'zg'alib, mo'min-u musulmonlarni ado qiladi. Yer yuzida faqat imonsiz, gunohkor kishilar qolib, hamma tomonni bulg'alaydilar. Va nihoyat, Alloh taoloning hikmati bilan quyosh teskaridan, ya'ni mag'ribdan chiqadi. Ushbu kun dunyoning so'nggi kundir. Ushbu kungacha tavba qilib qolish kerak. So'ng tavba-tazarru'lar qabul etilmas. Yer yuzini dud bosib, har tirik kishining hushi yo'qolur. So'ng farishta Isrofil surni chalib, jondorlarning tanasidan joni chiqishiga ko'maklashadi. Qattiq shamol turib, yer yuzini xarobaga, dashtga aylantiradi. Alloh taolodan o'zga biror tirik narsa qolmas. Har bir mo'min-musulmon Imon keltirishi farz bo'lgan voqealardan biri qiyomatdir. Qiyomat haq, lekin uning qachon sodir bo'lishini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi, hatto payg'ambarlar ham bilishmagan. Ammo payg'ambarimiz (s.a.v.) qiyomat soatining ayrim belgi-alomatlari haqida xabar bergenlar.

Jabroyil (a.s.) Fa'robiy qiyofasida kelib, Rasulullohdan (s.a.v.) qiyomatning qachon voqe'bo'lishini so'raganlarida ul zot: "So'ralayotgan odam so'raguvchidan bilimliroq emas", deb javob bergenlar. Keyin Jabroyil (a.s.) qiyomatning belgilari haqida so'radilar. Shunda Rasululloh bunday deb javob qilganlar: "Cho'rilar o'z xo'jayinlarini tug'mog'i va yalangoyoq, yalangto'sh, kambag'al molboqarlar bino qurishda bir-biri bilan bellashmog'i qiyomat belgilaridir"

Oxir zamonga yaqin odamlarning buzilib ketishlari, Allohnинг dinidan uzoqlashib, oralarida fitnalar sodir bo'lishi, ilmning va ilm ahlining iskanjaga olinishi, zilzilalar

ko‘payishi, vaqtdan baraka ketishi, mol-dunyo ko‘payib, sadaqa oladigan muhtojning topilmasligi, zinoning keng yoyilishi, ayollarning ko‘payib ketishi... kabilar kichik alomatlar sirasiga kiritilgan. Katta alomatlar esa, o‘nta: quyoshning mag’ribdan chiqishi, yer hayvonining chiqishi, Dajjalning chiqishi, Iso alayhissalomning tushishlari, Ya’juj va ma’jujning chiqishi, tutun paydo bo‘lishi, uch marta – mashriqda, mag’ribda va Arab jazirasida oy tutilishi, Yamanda bir olov chiqishi. Bularni payg’ambarimiz katta alomatlar sifatida sanab o‘tganlar. Biz uchun ularning hammasiga imon keltirish vojib. Bu hodisalarning qayerda va qachon voqe’ bo‘lishini esa, yolg’iz Alloh Taolonning o‘zi biladi. (“Imon” kitobi asosida tayyorlandi).

Nafosat - go‘zallik turi. Narsa va hodisalarning tashqi ko‘rinishi (shakli, rangi)dagi alohida mukammallikni, mutanosiblikni ifodalaydi.

Kishilarning muomalasi, nutqi, aqli, kiyinishiga nisbatan nafosat tushunchasi ularning nazokatli, nozik didli ekanligidan darak beradi. Nafosat badiiy adabiyotda voqelikdagi tabiatan nafis narsa va hodisalarning in’i-kosi sifatida ifodalansa, san’atda, nimani aks ettirishidan qat’iy nazar, aks ettirish uslubining nihoyatda nozik ifodaliligida, ijro usulining alohida nafisligida yuzaga chiqadi. Haqiqiy nafosatni soxta, yasama nafislikdan ajrata bilish lozim. Yuksak insoniy fazilatlarni, xalqchil g‘oya, ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgan va tabiat go‘zalligini aks ettirgan nafosatgina haqiqiy hisoblanadi.

Nafosat va go‘zallik dunyosi shu qadar xilma-xil, rango-rang, ehtirosli va sehrlik, unda moddiy va ma’naviy joziba uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Insonning nafosat olamini anglashga intilishi atrof-voqelikni anglashga intilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Nafosat olamini yaratish bilan bir qatorda uni anglash, idrok etish, o‘zlashtirishmaqsadi, ya’ni nafosat olamini tadqiq va tahlil etish zaruriati paydo bo‘ladi.

Sharqda etika (axloqshunoslik) «Ilmi adab», estetika (nafosat-shunoslik) esa «Ilmi badi’ा», «Ilmi husniya» deb yuritilgan.

Tilimizda «go‘zal», «chiroyli» degan so‘zlar bor. Chiroyli narsa ko‘z bilan ko‘riladi. Go‘zallikni esa ham ko‘z bilan ko‘riladi, ham dil bilan his qilinadi, ong bilan idrok etiladi.

Donishmandlar tashqi va ichki go‘zallik mutanosibligiga alohida ahamiyat bergenlar. Ya’ni, kishining tashqi qiyofasi bilan birga uning botiniy olami - xulqi, fe’l-atvori, mehnatsevarligi, ezgulikka intilishi va boshqa jihatlari go‘zallik xislatlari bilan muvofiq, uyg‘un bo‘lsagina ular mukammal go‘zallik sifatini oladi.

Insonning hayotini ma’noli qiladigan narsalar tabiatdagi go‘zallik, bilim va san’atdir. Ba’zan ariq bo‘yida o‘sib yotgan sadarayhondan babra olish ham hayotimizga qandaydir bir ma’no bag‘ishlaganday bo‘ladi, ro‘yi zamindagi tiriklik, umrboqiyilik haqida fikrlar silsilasini uyg‘otadi.

Sharqda hayotga munosabat axloqiylik va komillik falsafasi asosiga qurilgan. Bu falsafaga ko‘ra inson baxt-u saodat va ezgulik sari intilishi, shu tamoyillar zaminida hayol kechirishi lozim, chunki unda boshqa jonzotlarda bo‘Imagan yuksak insoniy imkoniyat, xislat-borliqni anglash, tushunish qobiliyati mavjud.

## **NAZORAT SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

1. Umr mazmuni deganda nimani tushunasiz?
2. Sharqda gumanizm tushunchasi qanday ta’riflanadi?
3. Globallashuv jarayonida hayot mazmuni qanday jarayon?
4. Ego: egotsentrizm, egoizm - qanday o‘xshashlik va farqlari bormi? Bor bo‘lsa, tushuntirib bering.
5. Odam savdosiga tushuncha bering.
6. Insonning hayot kechirish mazmuni qanday boyitiladi?
7. Sizningcha, nafosat nimada ko‘rinadi?
8. Dunyo bo‘ylab Islomning yoyilishi haqida nimalarni bilasiz?

## **TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN UMUMIY TEST**

### **SAVOLLARI**

- 1.Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan “Bola huquqlari to‘g’risida”gi Konvensiya qachon qabul qilindi?
- A. 1989-yil 20-dekabr
  - B. 1989-yil 20-noyabr
  - C. 1990-yil 20-yanvar
  - D. 1990-yil 20-mart
- 2.O‘zbekiston “Bola huquqlari to‘g’risida”gi Konvensiyaga qachon a’zo bo‘lgan?
- A. 1992-yil 9-dekabrdan
  - B. 1992-yil 7-yanvarda
  - C. 1990-yil 22-aprelda
  - D. 1995-yil 8-martda
- 3.Axloqshunoslik qadimda qanday nomlar bilan atab kelingan?
- A. Ilmi ravish.
  - B. Ilmi axloq.
  - V. Axloq ilmi.
  - D. Barchasi to‘g’ri.
- 4.Arastu tomonidan fanlar qanday guruhlarga bo‘lindi?
- A. Nazariy, amaliy, ijodiy.
  - B. Falsafiy, ma’naviy, nazariy.
  - V. Iqtisodiy, nazariy, ijodiy.
  - G. Barchasi to‘g’ri
5. Odob so‘zining aniq ta’rifini ko‘rsating.
- A. Oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.
  - B. Jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi .

V.Inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamoa,jamoyat va insoniyat hayotiga u qadar muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarning majmui.

G. Barchasi to‘g‘ri.

6. Xulq so‘zining aniq ta’rifini ko‘rsating.

A. Jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi .

B. Oila,jamoa,mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

C.Inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamoa,jamoyat va insoniyat hayotiga u qadar muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarning majmui.

G. Barchasi to‘g‘ri.

7. Axloq so‘zining aniq ta’rifini ko‘rsating.

A. Jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi .

B. Oila,jamoa,mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

V.Inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamoa,jamoyat va insoniyat hayotiga u qadar muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarning majmui.

G. Barchasi to‘g‘ri.

8. I.A.Karimov tomonidan axloqqa berilgan ta’rif.

A. “Aslini olganda axloq-ma’naviyatnung o‘zagi”

B. “Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalalikdangina iborat emas”

V. “Axloq bu - avvalo, insof vaadolat tuyg‘usi, iyomon, halollik degani ”

G. Barchasi to‘g‘ri.

9.Sharqda “ikkinci muallim”, “Sharq Arastusi” nomiga sazovor bo‘lgan mutafakkir.

A. Forobiy.

B. Beruniy.

V. Ibn Sino.

G. Xorazmiy.

10. Butun jahon mehribonlik kuni (World Kindness Day) qaysi sanada nishonlanadi?

- A. 10-dekabrda
- B. 13-noyabrda
- C. 2-fevralda
- D. 22-aprelda

11. O‘z ixtiyorlari bilan xolisona yaxshilik qiladigan hamda odamlarga, jamiyatga yordam berish uchun o‘z vaqt va kuchini sarflashga tayyor bo‘lgan insonlar kimlar?

- A. Faol insonlar
- B. Mehnatkash insonlar
- C. Ko‘ngillilar
- D. Tirishqoqlar

12. Yaxshi ishlar orqali boshqa odamlar bilan muloqot qilishning eng yaxshi usuli bu - ..... hisoblanadi?

- A. Yordam
- B. Muhabbat
- C. Quvonch
- D. Rostgo‘ylik

13. Insondagi insoniylik darajasi nima bilan belgilanadi?

- A. Atrofdagilarga yordam berish istagini qanchalik samimiyligi bilan
- B. Kishilarning faqat quvonchli damlariga sherik bo‘lishlik bilan
- C. Atrofdagi voqealarga bee’tiborligi bilan
- D. Barcha javoblar to‘g’ri

14. Inson tomonidan kimdadur berilgan kichik yordam nimalarga sabab bo‘lishi mumkin?

- A. Kimnidir hayotini mazmunli qilishi mumkin
- B. Eng baxtli lahzasiga sabab bo‘lishi mumkin
- C. Sizni eng sahiy inson sifatida xotirasiga muhrlashi mumkin
- D. Barcha javoblar to‘g’ri

15.“Adabning mevasi katta aqldir, bilimning mevasi yaxshi amaldir”. Ushbu ibratli fikr kimga tegishli?

- A. Abu Bakr Muhammad al-Xorazmiy
- B. Ali ibn Abu Tolib
- C. Mahmudxo‘ja Behbudiy
- D. Mahmud Zamaxshariy

16.“Xulq” so‘zining ko‘pligi bo‘lib, kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari va odoblarining majmuyi nima?

- A. Bilim
- B. Axloq
- C. Qadriyat
- D. Sadoqat

17.Axloq so‘ziga yana qanday ta’rif berilgan?

- A. “Iordaning odati”
- B. “Mukammal harakter”
- C. “Samimiy vijdon”
- D. “Qat’iy tarbiya”

18.Axloq – insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir bilimdur. Ushbu fikr kimga tegishli?

- A. Alisher Navoiyga
- B. Amir Temurga
- C. Abdulla Avloniyga
- D. Islom Karimovga

19.“Kichkina bir yaxshilik qilish uchun ham odam buyuk odam bo‘lishi kerak; katta yomonlik qilishga kichik odam ham qodir”. Ushbu fikr kimga tegishli ekanligini aniqlang?

- A. Po‘lat Mo‘min
- B. Asqad Muxtor
- C. Anbar Otin

D. Muhammad Yusuf

20.Adabning mevasi katta aqldir, bilimning mevasi yaxshi amaldir”. Ushbu ibratli fikr kimga tegishli?

A.Abu Bakr Muhammad al-Xorazmiy

B.Ali ibn Abu Tolib

C.Mahmudxo‘ja Behbudiy

D.Mahmud Zamaxshariy

21.“Xulq” so‘zining ko‘pligi bo‘lib, kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari va odoblarining majmuyi nima?

A.Bilim

B.Axloq

C.Qadriyat

D.Sadoqat

22.Axloq so‘ziga yana qanday ta’rif berilgan?

A.“Iordaning odati”

B.“Mukammal harakter”

C.“Samimiyl vijdon”

D.“Qat’iy tarbiya”

23.Axloq – insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir bilimdur.

Ushbu fikr kimga tegishli?

A.Alisher Navoiyga

B.Amir Temurga

C.Abdulla Avloniyga

D.Islom Karimovga

24.“Kichkina bir yaxshilik qilish uchun ham odam buyuk odam bo‘lishi kerak; katta yomonlik qilishga kichik odam ham qodir”. Ushbu fikr kimga tegishli ekanligini aniqlang?

A.Po‘lat Mo‘min

B.Asqad Muxtor

C.Anbar Otin

D.Muhammad Yusuf

25.Insonlarga, butun jonli va jonsiz narsalarga nisbatan samimiyligi, e'tiborli va ochiqko'ngil bo'lishiga nima deyiladi?

- A. Mehnatsevarlik
- B. Mehribonlik
- C. Sadoqat
- D. Bolajonlik

26. Kichik uka-singillarimizga o'z mehrimizni qanday namoyon etishimiz mumkin?

- A.Ularga muzqaymoq olib berish orqali
- B.Doimiy multfilm tomosha qilish orqali
- C.Kun bo'yini ular bilan ko'chada o'ynash orqali
- D.Darslarini tayyorlashga yordam berish orqali

27. Mehribon odamlar bilan do'stlashish va bunday odamlar bilan muloqot qilish nimalarga sababchi bo'ladi?

- A.Hayotga bo'lgan qiziqishning oshishiga
- B.Ezgu amallar qilish istagini paydo bo'lishiga
- C.Insonlarga ishonchsizlik paydo bo'lishiga
- D.A va B javoblar to'g'ri

28. "Men o'zimni shunday tutayki, hech kim mening to'g'rimda biron yomon gap ayta olmasin". Ushbu fikr kimga tegishli?

- A.Aleksandr Pushkin
- B.Abu Rayhon Beruniy
- C.Irina Sendler
- D.Alisher Navoiy

29."Hamyoningda bir chaqa qolmaganida, o'ta tartibli va mas'uliyatli bo'lib qolasa". Ushbu ibora qaysi matndan olingan?

- A.Bir kompaniya tarixi
- B.Milliarderning bir kuni
- C.Tadbirkorlik sirlari

D.Mehr va oqibat sari.

30.“Donishmand va olimlarning xulqlaridan o‘rnak olish yaxshi xulqni tiriltiradi, yomonini yo‘q qiladi”. Ushbu fikr kimga tegishli?

A.A.S.Pushkin

B.Abu Rayhon Beruniy

C.Ahmad Yassaviy

D.Alisher Navoiy

31. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari astoydil harakat qilish, uchragan to‘sislarni yengib o‘tishga intilish bu - .....dir.

A.Mehribonlik

B.Botirlik

C.Tirishqoqlik

D.Tortinchoqlik

32. Insondagি tirishqoqlik xislati nimalarda yordam beradi?

A. To‘sislarni yengib o‘tishga o‘rgatadi

B. Diqqat-e’tiborni jamlashga yordam beradi

C. O‘z kuchingizga bo‘lgan ishonchni namoyon etadi

D. Barcha javoblar to‘g’ri

33. Qat’iyatlli inson qanday bo‘ladi?

A. Atrofidagi voqeа-hodisalarga loqayd bo‘ladi

B. O‘z maqsadi sari mustaqil va dadil harakat qiladi

C. O‘zgalar yordamiga ko‘pincha ehtiyoj sezadi

D. Barcha javoblar to‘g’ri

## GLOSSARY

**Vijdon erkinligi** – diniy e’tiqod erkinligi.

**Diniy jamoa** – diniy tashkilotning boshlang’ich shakli bo‘lib, diniy marosimlar va boshqa diniy faoliyatlar uchun unga birlashganlar.

**Diniy idora** – diniy tashkilot markazi; diniy tashkilot diniy jamoalarning eng yuqori rasmiy uyushmasi.

**Yepiskop** – (qad. yunon. «nazorat qiluvchi») ko‘p xristian cherkovlarida – oliv iyerarx. barcha arxiereylarning (patriarx, mitropolit, arxiyepiskop) umumlashgan nomi.

**Johiliya** – (arab. «yagona Allojni tanimaslik») arabiston yarim orolining islom dinidan avvalgi davri shunday atalgan.

**Zaif** – (arab. «kuchsiz, kasal») ishonchli ekanligiga shubha bo‘lgan hadis.

**Zakot** – (arab. «tozalanish, poklanish») islomning besh ruknlaridan biri, mol-mulk nisobiga (muayyan miqdorga) yetgach, uning qirqdan birini kambag’allar foydasiga sadaqa sifatida beriladi.

**Zardusht** – mil. av. VI-V asrlarda yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoir, payg’ambar; zardushtiylik dinining asoschisi.

**Ijtihod** – islomda yangi paydo bo‘lgan diniy muammolarni hal qilishning o‘ziga xos usuli.

**Ikona** – xristianlikdagi avliyolar portreti tushirilgan rasmlar, ular cherkovlarda ibodat buyumi bo‘lib xizmat qiladi.

**Indulgensiya** – katolik cherkovi tomonidan dindorlarga qilingan yoki qilinishi mumkin bo‘lgan gunohlarni kechirish haqida beriladigan guvohnoma; u pul yoki cherkov oldidagi xizmatlar evaziga beriladi.

**Isnod** – (arab. «suyanish») hadisni rivoyat qilgan roviy ismlarining ketma-ket zanjiri.

**Isroil** – (ivrit. «isro» – «banda», «iyil» – «xudo») Ya'qub payg'ambarning ikkinchi nomi, yahudiylar unga nisbat berilib, «isroil bolalari» deb ataladi.

**Karomat** – (arab. «kulug'lik, buyuklik») islom ta'limotiga ko'ra, Alloh tomonidan uning do'stlari – avliyolarga ato etiladigan sehrdan farqli g'ayrioddiy qudrat.

**Ka`ba** – (arab. «kub») Makka shahrida hozirgi davrda baytul harom (muqaddas masjid) ichida joylashgan islom dinining qiblasi hisoblanmish bino; islom ta'limotiga binoan, uni buyuk to'fondan so'ng Ibrohim payg'ambar o'g'li Ismoil bilan qayta tiklagan.

**Mazhab** – (arab. «yo'l») islomdagi shariat qonunlari tizimi va yo'nalishi.

**Murid** – (arab. «xohlovchi») sufizm yo'liga kirib, murshidga qo'l bergen shogird.

**Murshid** – (arab. «to'g'ri yo'lga boshlovchi») sufizm yo'liga kirganlarni hidoyatga boshlovchi ustoz, shayx.

**Musulmon** – (arab-fors. «muslimlar») islom diniga e'tiqod qiluvchi kishi.

**Mus`haf** – (arab. «sahifalangan») Qur'oni karimning nomlaridan biri.

**Mutaassiblik** – o'z g'oyasini «to'g'ri» deb, boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg'unchilikda ayblash.

**Mushrik** – ko'pxudolikda ayblangan odam.

**Korrupsiya** – (Lotincha sorruptio – poraga sotilish, aynish, tanazzul) – shaxsni mansab -mavqeyidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'lik bo'lgan jinoyat turidir.

**Korrupsiyaviy faoliyat** – xufyona iqtisodiyotning asosiy zararli va yemiruvchi turlaridan biri hisoblanadi.

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish tushuniladi.

**Quyi darajadagi korrupsiya** – hokimiyat va boshqaruv organlarining o’rta va quyi darajalarida keng tarqalgan, mansabdarlar va fuqarolarning muntazam o’zaro aloqalari bilan bog’likdir (masalan, ro‘yxatdan o’tkazish, jarimalardan kutilish, litsenziyalar va turli ruxsatnomalar olish va sh.k.).

**Yuqori darajadagi korrupsiya** – yuqori hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliy martabali mansabdorlarni o’ziga qamrab oladi va juda katta boyliklar evaziga o‘z foydasiga qarorlar qabul qilish bilan bog’liqdir (qonunlarni ilgari surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o‘zgartirish va sh.k.).

**Din** – “din” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, uning lug’aviy ma’nosи «ishonch, e’tiqod»dir.

**Din** – ijtimoiy ong shakli, muayyan turmush va tafakkur tarzi, ma’naviy qadriyat.

**Dinyi tashkilot** – bu ma’lum dinga ishonuvchilar va ularning jamoalarining uyushmasidir (masjid, cherkov, sinagoga, diniy o‘quv yurtlari va h.k.).

**Avesto** – (qad. eron-pahlaviy. «o’rnatilgan, qat’iy qilib belgilangan qonun-qoidalar») zardushtiylikning muqaddas kitobi.

**Al-Hajar Al-Asvad** – (arab. «qora tosh») Ka’baning janubiy-sharqiy burchagida yerdan 1, 5 m. balandlikda o’rnatilgan muqaddas tosh.

**Ansorlar** – (arab. «yordam beruvchilar») ilk islom tarixida Makkadan hijrat qilgan payg’ambar va muhojirlarga yordam bergen madinalik musulmonlar.

**Arafot** – (arab. «tanimoq, bilmoq» fe’lidan) Makka shahrining sharq tomonidagi tepalik; rivoyatlarga ko‘ra, jannatdan tushirilgan Odam Ato va Momo Havvo yerda ilk bor mana shu tepalikda uchrashganlar; shuning uchun ham uni «arafot» - «tanishuv» deb ataganlar. Haj mavsumida barcha hojilar qurban hayitidan oldingi kun tongdan kun qaytgunga qadar shu tepalik atrofidagi maydonda turishlari farz; shu sababli hayitdan oldingi kun «arafa kuni» deb ataladi.

**Muqaddas ruh** – xristianlikdagi Xudoning uch ko‘rinishidan biri.

**Muhaddis** – (arab. «hadis so‘zlovchi») hadislar bilan shug’ullanuvchi olim.

**Muhojirlar** – (arab. «muhojir, emigrant») ilk islom tarixida payg’ambar bilan Madinaga hijrat qilgan makkalik musulmonlar.

**Nirvana** – (sanskr. «so‘lish») buddizm va jaynizm diniy falsafalariga ko‘ra, ruhning sansara kishanlaridan to‘la ozod bo‘lishi va oliy maqomga erishish.

**Nom** - mil. av. IV asrlarda qadimgi Misrda qabilalar *nom* deb atalgan.

**Oxirat** – (arab. «boshqa, oxirgi, ikkinchi») bu dunyo oxiriga yetganidan keyin barcha qayta tirilib, bu dunyoda qilgan amallariga yarasha mukofot yoki jazo oladigan ikkinchi hayot.

**Oyat** – (arab. «belgi; mo‘jiza») qur’on suralarini tashkil etuvchi qism, «jumlalar».

**Pora** – (juz’) (fors. «pora», arab. «juz’» - «qism, bo‘lim») Qur’onning o‘ttizdan bir qismi.

**Risolat** – payg’ambarlik.

**Roviy** – (arab. «rivoyatchi») hadis rivoyat qiluvchi kishi.

**Rosh-Hashona** – yahudiylidagi yangi yil bayrami.

**Saduqiylar** – qadimiy yahudiylidagi oqim.

**Safo** – Makka shahrida, Ka’ba yaqinidagi tepalik; haj va umra qiluvchilar Safo va Marva tepaliklari orasida yetti bor yugurishlari lozim.

**Sahih** – (arab. «sog’lom; to‘g’ri») olimlar tarafidan ishonchli, to‘g’ri deb topilgan hadis.

**Sahoba** – payg’ambar bilan hamsuhbat bo‘lgan ilk musulmonlar.

**Sunnat** – islomda payg’ambar amallari.

**Sura** – (arab. «devor, to‘siq») Qur’onni tashkil etuvchi qismlar, Qur’on jamlanish davrida ularning umumiy soni 114 ta deb belgilangan.

**Tavakkul** – tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, o‘z irodasini Allohga ishonib topshirish.

**Talmud** – (ivrit. «lameyd» «o‘rganish» so‘zidan) tavrotga yozilgan sharhlar to‘plami.

**Tafsir** – (arab. «bayon qilish») Qur’on oyatlariga o‘ziga xos ravishda ma’no berish.

**Terrorizm** – (fr. – «qo‘rqtish») o‘z fikrini zo‘ravonlik yo‘li bilan boshqalarga o‘tkazish. bu yo‘lda suiqasd, qo‘poruvchilik kabi usullardan foydalaniladi.

**Tobi‘un** – (arab. «ergashuvchilar») payg’ambar sahabalarini ko‘rgan va ularga ergashgan kishilar.

**Farishta** – nurdan yaratilgan nafs va xohishga ega bo‘lmagan, faqatgina unga xudo tomonidan buyurilgan muayyan vazifalarni og’ishmay bajaradigan, insonlar ko‘ziga ko‘rinmaydigan maxluq.

**Fatvo** – faqihning dinda paydo bo‘lgan yangi muammolarni Qur’onga zid kelmaydigan ravishda hal qilib chiqargan hukmi.

**Fir`avn** – ilohiyat darajasiga ko‘tarilgan qadimgi Misr podshohlari tituli.

**Fiqh** (arab. «tushunish») shariat qonun-qoidalarini o‘rganuvchi fan.

## **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Куръони Карим. Абдулазиз Мансур таржимаси. – Т., 2001.
2. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. 4 жилдлик – Т., 1997.
3. Абу Исо ат-Термизий. Суннани Термизий. – Т., 1999.
4. Фитрат. Нажот йўли. – Т., 2001.
5. Убайдуллаева Севара. Оила маданияти. – Т., 2015.
6. Иброҳимов Абдуқаҳхор. Ёруғлуғ. – Т., 2006.
7. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. – Тошкент.: Ўзбекистон. 2017.
8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
9. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
10. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
11. Абдураҳмонов А. Саодатга элтувчи билим. – Т., 2003.
12. Тоҳир Малик. Одамийлик мулки. – Т., 2015.
13. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Одоблар хазинаси. – Т., 2009.
14. Абу Лайс Самарқандий. Танбехул ғофилийн. – Т., 2017.
15. Абу Лайс Самарқандий. Бўstonул орифийн. – Т., 2003.

16. Имом Газзолий. Уйланиш одоби. – Т., 2018.
17. Одамийлик сабоқлари. – Т., 1997.
18. Усмонов Р. Дилнома. – Т., 1983.
19. Жўраев Н. Маънвият инсон қалбининг сарчашмаси. – Т., 2015.
20. Этикетнинг олтин китоби. – Т., 2013.
21. Абдулҳаким Шаръий Жузжоний. Тасаввуф ва инсон. – Т., 2001.
22. Зиёмуҳаммадов Б. Комилликка элтувчи китоб. – Т., 2006.
23. Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. – Т., 2012.
24. Имом Газзолий. Риёзун-нафс. – Т., 2006.
25. Пиримқул Қодиров. Тил ва эл. – Т., 2010.
26. Алишер Навоий. Маҳбуб-ул қулуб. – Т., 1975. 8
27. Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. – Т., 2011.
28. Шарқ хикмат ва ривоятлари. – Т., 2015.
29. Муҳаммаджон Қуронов. Оталар китоби. – Т., 2010.

#### Internet manbalari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. <http://www.google.uz>
4. <http://www.history.ru>
5. <http://www.archeologia.ru>
6. <http://www.archeo.ru>

7. <http://www.book.ru>
8. <http://www.iprbookshop.ru>
9. <http://ibooks.ru>
10. <http://www.biblio-online.ru>

**AXMADIYEV NURIDDIN MUXUTDINOVICH**

# **TARBIYA**

**(oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik)**

FDU “Nusxa ko‘paytirish bo‘limi”da  
chop etildi. 06.04.2024-yil.  
Buyu № 138. Adadi 20 nusxa  
150100. Farg‘ona shahri  
Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy.

